

X.M. Pulatova, D.M. Sultanova, Z.N. Mamarajabova

TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISHI MAXSUS METODIKASI

T-12

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

X.M. Pulatova, D.M. Sultanova, Z.N. Mamarajabova

TABIATSHUNOSLIKNI O‘QITISH MAXSUS METODIKASI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan 5111900 – Defektologiya yo‘nalishi bo‘yicha
darslik sifatida tavsiya etilgan*

JIZZAX DPI
INV № 122991
AXBOROT RESURS MARKAZI

«Sano-standart» nashriyoti
Toshkent – 2014

UO'K: 37.033(075)

KBK: 74.262.0

T12

Taqrizchilar:

D. Nazarova, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

D. A. Nurkeldiyeva, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

V. S. Raxmonova, pedagogika fanlari nomzodi, professor

Ushbu o'quv qo'llanmada yordamchi va maxsus maktablarda tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi fanining asosiy mazmuni bayon qilingan bo'lib, unda maxsus fanning nazariy asoslari, o'qitish metodlari va shakllari, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Har bir mavzu so'ngida berilgan topshiriq va savollar talabalarda bilim va o'quv ko'nikmalarini shakllantirib, mavzularni chuqur o'zlashtirishga imkon yaratadi.

Mazkur o'quv qo'llanmadan pedagogika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining defektologiya yo'nalishi talabalari bilan bir qatorda maxsus muassasalar (kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlari, maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari) pedagoglari hamda ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilar o'quv adabiyoti sifatida foydalanishlari mumkin.

Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi /
darslik: X.M. Pulatova va boshq. -T.: «Sano-standart»,
2014-yil. 264 b.

UO'K: 37.033(075)

KBK: 74.262.0

ISBN 978-9943-4365-4-1

© «Sano-standart» nashriyoti, 2014-y.

KIRISH

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iboratdir. Mazkur vazifani boshlang'ich sinflarda amalga oshirishda tabiatshunoslik fani muhim o'rinni egallaydi. Bu fanni o'rganish kichik yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning shaxsiy tajribasini boyitadi, atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risida bilimlar to'plashga, nutqini o'stirishga, lug'at boyligini oshirishga, eshitish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Pedagogika oliy o'quv yurtining defektologiya yo'nalishi talabalari pedagogik o'quv predmeti sifatida tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi fanining ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlari bilan yaxshi tanish bo'lishlari lozim.

Darhaqiqat, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir. Shu jumladan, alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim olish jarayonini isloh qilib borish, rivojlanish darajasidan qat'i nazar, har bir davlat va jamiyat oldida turgan masaladir. Chunonchi, respublikamizda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish va tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganki, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni (23-modda) va davlat tomonidan 1992-yilda ratifikatsiya qilingan BMTning "Bola huquqlari to'g'risida" gi Konvensiyasi (23-modda) da nogiron bolalarni alohida parvarishlash, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish huquqlariga egaligi e'tirof etilgan. Demak, rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonini turli zamonaviy

talablar bilan uyg'unlashgan texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kun maxsus pedagogikasining dolzarb masalalaridan hisoblanmoqda. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tilga o'rgatish zamonaviy tizimining mazmuni va o'ziga xosligini tushunish uchun madaniyat evolyutsiyasining ma'lum bosqichlarida maxsus pedagogika fanining tarixiy rivojlanish yo'llarini tahlil qilish katta o'rin tutadi. Maxsus pedagogika g'oyalarning tomirlari uzoq tarixga borib taqaladi.

Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasini mukammal bilish kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitishni to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan maktab o'qituvchilarini tabiatshunoslikni o'qitish nazariyasi bilan qurollantirib, o'qitish mahoratini egallab olishga imkon yaratadi.

O'quv materiallari mazmunini ochib berishda xilma-xil o'qitish metodlaridan foydalanishga turlicha qarash lozim. U yoki bu metodni tanlashda o'qituvchi shuni nazarda tutishi lozimki, bu metodlar rivojlantiruvchi ta'limning vazifalarini ta'minlash, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va bir paytning o'zida korreksion ta'limni tashkil etishni ta'minlaydi. Shuning uchun rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktab internatida tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlar, suhbatlar, hissiyotni qo'zg'atuvchi hikoyalar, ayniqsa, mustaqil ishlardan foydalanish: murakkab bo'lmagan tahlil va sintez, taqqoslash va umumlashtirish tabiat hodisalari o'rtasidagi bo'lganlarni aniqlash o'sha ishlarning majburiy tarkibiy qismlari bo'lishi lozim. Bularning barchasi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqini, tafakkuri, xotirasi, tasavvurini rivojlantiradi, lug'at boyligini oshiradi.

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning tabiatshunoslik tushunchalarini o'zlashtirishiga ta'sir etuvchi ko'rgazmali qurollar va texnika vositalari hamda ekskursiya o'tkazishni talab etadi.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslari shakllanti-

riladi (o'qituvchi tabiat jismlari va voqea-hodisalarining moddiyligini, ularning o'zaro bog'liqligini izchillik bilan tushuntiradi, tabiatda sodir bo'lib turadigan doimiy o'zgarishlarni xarakterlaydi), tabiatga muhabbat, estetik tuyg'u, uning to'g'risida g'amxo'rlik qilishni tarbiyalaydi.

Bo'lajak defektolog-o'qituvchilar uchun eng muhimi ta'lim-tarbiya tizimini tushunib olish, tabiatshunoslikni o'qitish asoslarini, uning uchun xos bo'lgan shakl, metod va uslublarni rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qilishni o'rganib olishdir. Shuningdek, o'z o'lkasining tabiati va qishloq xo'jaligi xususiyatlarini yaxshi bilish, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ish olib borishda o'lkashunoslik materiallaridan muntazam ravishda foydalanish zarur. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi mazkur o'quv qo'llanmada to'liq yoritilgan, unda, asosan, «Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi» o'quv qo'llanmasining pedagogik va uslubiy asoslari, o'qitish usullari, ta'limni tashkil etish shakllari, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktab ta'limida tabiatshunoslikni o'qitishning metodik xususiyatlari to'liq yoritilgan.

I-bob. "TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISH MAXSUS METODIKASI" – PEDAGOGIK FAN SIFATIDA

"Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi" fani. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi maktab fani xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayoni tizimi haqidagi fandır.

Bu tizimni o'rganish yordamchi maktab o'qituvchisi uchun tabiatshunoslikni o'qitish bo'yicha korreksion tarbiyalovchi ta'lim jarayonini boshqarish imkonini beradi.

Metodika – pedagogik fan, u ijtimoiy tuzum talab qilgan va pedagogika belgilab bergan umumiy ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalariga muvofiq ravishda quriladi.

Metodika o'quvchilar uchun nasihatlar majmuasi emas, balki ilmiy fan, uning qoidalari tabiat o'qitish jarayonining qonuniyatlarini bilishga asoslangan.

Metodika o'quv predmetining mazmunini, ta'lim va tarbiya metodlari hamda shakllarini ko'rib chiqadi. Metodikaning bu bo'limlari bir butun bo'lib, bir-birini taqozo etadi, o'quv ishlarining jihozlari hamda vositalari (qo'llanmalari) metodika tomonidan belgilanadi.

Metodika "Nima uchun tabiatni o'rganish kerak?", "Qanday o'qitish usullarini qo'llash va qanday tarbiya berish kerak?" degan savollarga javob beradi.

Tabiatshunoslik o'quv fani sifatida o'qitish shakllari va usullarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda aniq obyektlar: jonsiz tabiat hamda tirik tabiatning murakkab hodisalari va ularning rivojlanishi o'rganiladi. O'quv ishlarini tashkil qilishning maxsus shakllari (ekskursiyalar, o'quvchilarning uyda va darsdan tashqari vaqtlarda bajaradigan ishlari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar)ni, ta'limning maxsus vositalari, ko'rgazmalilik, o'quvchilar uchun bilim berishning eng afzal zamonaviy usullari yangi texnologiya asosida o'qitish metodlarini talab qiladi.

Tabiatshunoslik kursini o'qitishning to'g'ri yo'lga qo'yilishida maxsus o'quv-moddiy baza; o'quv qurollari bilan jihozlangan kabinet; tirik tabiat burchagi va o'quv-tajriba uchastkasi mavjud bo'lishi shart.

Materialning o'ziga xos bo'lishi faqat tabiatshunoslik o'qitish metodikasining o'ziga xosligini emas, balki uning tarbiyaviy imkoniyatlarini ham belgilaydi.

Tabiat tirik organizmlar rivojlanishining aniq faktlarini, tabiatdagi hodisalarning o'zaro bog'liqligini, organik olam evolyutsiyasining qonuniyatlarini o'rganish, dialektik-materialistik dunyoqarashni shakllantirish uchun ilmiy negiz yaratadi.

Tabiat haqidagi bilimlar jonli va jonsiz tabiatni o'rganishning ahamiyati, uni muhofaza qilish, qishloq xo'jalik ishlari, uning ilmiy asoslari, shaxsiy va jamoat gigiyenasi rolini tushunishga o'rgatadi va ularni kelajak hayotga tayyorlaydi.

Tirik tabiat obyektlarini bevosita kuzatish, ularni taqqoslash va aniqlash, ular ustida tajribalar o'tkazish aqli zaif o'quvchilar tafakkurini rivojlantiradi. Bolaning aqlini mantiqqa o'rgatish uchun tabiatga oid predmetlar eng qulay hisoblanadi.

Laboratoriya mashg'ulotlarida tirik tabiat burchagidagi, o'quv-tajriba uchastkasidagi ishlar aqli zaif o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini tarbiyalashdangina iborat bo'lmasdan, balki ularni mehnat qilishga, kelajakda darslarda o'rgangan bilimlarini faqat laboratoriya amaliy mashg'ulotlarida emas, o'simliklarni o'stirish uchun qanday ishlarni bajarish yoki parranda, qoramollarni boqishni o'rgatishni ham ko'zda tutadi. Shu tariqa o'quvchilarda ijtimoiy foydali mehnatga ko'nikma, malakalar hosil qilinadi va jamoa ruhida tarbiyalanadi.

Aqli zaif o'quvchilarda tabiatdan zavqlanish, uni sevish, e'zozlash, avaylab-asrash hissini tarbiyalash axloqiy belgilarni rivojlantiruvchi ko'nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi.

Tabiatshunoslik o'qituvchisi ta'limda qoida va qonuniyatlarni, ularga xos bo'lgan xususiyatlarni, kurslar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni bilishi lozim. U maktabda tabiat ta'limining butun sikli bo'yicha harcha tarbiyaviy ta'limni aniq tasavvur etishi va har bir kursni o'qitishda uni ilmiy jihatdan to'g'ri, rejali ravishda amalga oshirishi lozim.

Tabiatshunoslikni o'qitishning umumiy metodikasi tabiatga oid hamma kurslarga oid masalalarni: o'qitishning g'oyaviy

yo'nalganligi, ta'limning mazmuni bilan metodlarning birligini, o'quv ishlari shakllari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni, kurslar o'rtasidagi izchillik, tabiatshunoslikni o'qitishning tizimini belgilovchi barcha tarbiyalovchi ta'lim elementlarining yaxlitligi va rivojlanishlarini ko'rib chiqadi. O'qitish sistemasi aqli zaif o'quvchilarning elementar tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirib olishi, ularni hayotga tatbiq qila olish xususiyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi, bilimlarning o'quvchilar ongiga yetib borishini ta'minlaydi. Bu esa yordamchi maktab oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Xususiy metodikalar o'quv materialining mazmuni hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga bog'liq holda, har bir kurs uchun o'qitishning maxsus masalalarini bayon qiladi.

Bularda darslarning, ekskursiyalarning, darsdan tashqari ishlarning sinfdan tashqari mashg'ulotlarning metodikalari, ya'ni shu kursni o'qitish metodikalari berilgan.

1.1. "Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi"ning boshqa fanlar bilan bog'liqligi

"Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi" oligofreno-pedagogika, jonsiz tabiat, botanika, hayvonot olami va odam anatomiyasi, «Odam, uning salomatligini saqlash», «Maxsus psixologiya», «Maxsus pedagogika», «Daktilologiya» kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq.

Tabiatshunoslik kursini o'qitish o'qituvchidan tabiatshunoslik fanlari sohasida bilimdon bo'lishni talab etadi. Nazariy jihatdan tabiat hodisalarini ilmiy tushuntirish uchun, amaliy jihatdan esa tabiatdagi o'simlik va hayvonlarni bilish, ularni aniqlash, parvarish qilish, o'stirish ustida tajribalar olib borish uchun zarur.

Tabiatshunoslik fanida kuzatish, tajriba o'tkazish va to'plan-gan faktlarni nazariy jihatdan umumlashtirish tadqiq qilishning asosiy metodlari hisoblanadi. Yordamchi maktab tabiatshunoslikni maxsus o'qitish metodikasida aqli zaif o'quvchilarni o'qitishda ularga tabiat haqidagi tushunchalarni sodda qilib, ularning ongiga yetib borishi uchun ko'proq ko'rgazmali materiallarni yoki

obyektlarni yaqqol ko'rsatish, tushuncha hosil qildirish, yuqori sinf o'quvchilariga fan erishgan fakt va qonuniyatlar to'g'risida aniq misollar keltirish orqali ulardagi tushunchalarni mustahkam egallashda (korreksion) to'g'rilash ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsad qilib qo'yiladi.

"Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi" bakalavr talabalar oldiga aqli zaif o'quvchilarga tabiat haqidagi bilimlarni berishda oddiydan murakkabga qarab borish; boshlang'ich sinf o'quvchilariga nutq o'stirish darslarida tabiat haqidagi bilimlarni (elementar) oddiy tushunchalar orqali berishni tavsiya qiladi.

Yordamchi maktab o'quvchilari darsda bilimlarni tezda o'zlashtira olmaydi. Aqli zaiflikning yengil darajasida (debil) bolalar imbesil bolalarga nisbatan yaxshi o'zlashtiradi. Shuningdek, turli xil nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarning tafakkuri rivojlanmasligi natijasida ham bilish faoliyati turli xil rivojlangan bolalar yordamchi maktabda ta'lim-tarbiya oladi. Bunday har xil kontingentga ega bo'lgan bolalarga ta'lim beruvchi tabiatshunoslik o'qituvchisi irodali, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi kerak. Shunga qarab o'qituvchi dars berishning turli usullarini qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, materiyaning birlamchiligi, ongning ikkilamchiligi haqidagi dialektik materializm qonuniyatlarini o'qituvchi oddiy so'zlar bilan tushuntirishi va tabiat muzeylariga ekskursiyalar uyushtirishi, ko'rsatib tushuntirishi lozim.

Hozirgi zamon tabiatshunoslik o'qitish metodikasi ta'limga tarbiyaning tarkibiy qismi, shakl va metodlarning yaxlit sistemasi sifatida qaraydi.

O'qituvchi va o'quvchilarning butun o'quv ishi doimo rejali ravishda rivojlanib boradi. Har bir mavzuni o'qiganda yildan yilga ularning dunyoqarashi, tafakkuri, ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Ta'lim va tarbiya metodlari asta-sekin murakkablashadi.

Dialektik materializm qonuniyatlarini bilish o'qituvchiga tarbiyalovchi ta'lim jarayonining bir butunligi va qarama qarshiliklarini (metodlarning, ko'rgazmalilikning qo'llanish miqdori, sifati) tushunishga yordam beradi.

1.2. "Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi"ning ilmiy asoslari

Metodikaning fan sifatida rivojlanishi o'qituvchining shaxsiy ish tajribasi natijasidan, metodik fikr aytishdan, pedagogik mahoratdan ilmiy umumlashtirishga, subyektiv ijodkorlikdan tadqiqotlarga asoslangan obyektiv ilmiy nazariyaga tomon boradi.

Metodikaning muammolarini hal qilish, har qaysi fandagi kabi, dastlab tabaqalanish yo'li bilan bordi. Tabiatning umumiy metodikasidan xususiy metodikalar ajralib chiqdi va o'qitishning ayrim masalalari bir-biridan ajratilgan holda, tabiatshunoslik kurslarining umumiy tizimi ishlab chiqila boshlandi. Hozirgi vaqtda metodikaning fan sifatida qaror topishida integratsiya (birlashish), sintez, barcha to'plangan materiallarni umumlashtirish va yangi pedagogik texnologiyalarning darslarda qo'llanilishi ta'limning samaradorligini yanada oshirishga olib keladi.

Mavjud ilmiy material muammolar bo'yicha to'planadi, tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, sistemaga solinadi. Yagona ilmiy nazariyaga asoslangan "Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi" kursi bo'yicha malakaviy tadqiqot ishlarida metodik materiallar asosida barcha ta'lim-tarbiya muammolari tadqiq qilinadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarida beriladigan takliflar tadqiqotlar natijalaridan olingan obyektiv dalillar bilan asoslangan bo'ladi.

Metodik muammolar hal qilinishi uchun ilmiy tadqiqotlarning har xil elementlari, metodlari, bosqichlari izchil bo'lishi xarakterlidir.

Savollar

1. Qanday belgilar "Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi"ni ilmiy fan sifatida xarakterlaydi?
2. Maktabda o'tiladigan tabiatshunoslik fani biologiya fanidan nima bilan farq qiladi?

2-bob. TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISH MAXSUS METODIKASINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Mustaqil O'zbekistonning milliy davlatchiligimiz poydevori kun sayin mustahkamlanib rivojlanib bormoqda. O'z tarixiy an'alaridan, yashash tarzidan kelib chiqib, ulug' ajdodlarning tajribalariga tayangan holda bir qancha qonunlar yaratilmoqda. 1997-yil, 29-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, uzluksiz ta'limning o'zbek modelini belgilovchi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning sifatini yanada yaxshilash vazifasini belgilab berdi. Qonunning asosiy maqsadi ta'lim sohasini isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to'la xalos etish, rivojlangan mamlakatlar darajasida, yuksak ma'naviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdir. Bu qonunni amalga oshirishda ta'lim tizimining birinchi bosh bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'lim, xususan, kichik maktab yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, tabiatni muhofaza qilish, ekologik ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati kattadir. Yosh avlodni yetuk mutaxassislar, aqlan, ruhan kamol topgan, o'z Vatanini sevuvchi, uni e'zozlovchi inson qilib tarbiyalashda ushbu sohaning o'rni beqiyos. Bola shaxsining mukammal shakllanishida tabiat, unda bo'ladigan voqea-hodisalar, tabiat qonunlari muhim rol o'ynaydi. Bolalar mana shular bilan tanishar ekan, ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ilmiy dunyoqarashlari mujassamlashib, shakllanib boradi. Ular tabiatni asrash, ehtiyot qilish va muhofaza qilish ruhida tarbiyalanadi. Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan, kamol toptirgan. Shunday ekan, biz tabiatni e'zozlashimiz, unga to'g'ri munosabatda bo'lishimiz zarur. Tabiatshunoslik insoniyat ma'naviy madaniyatining eng muhim va ajralmas qismidir. Tabiatshunoslik fanlari obykti tabiatni tashkil etadigan bilimlar va faoliyatlar tizimi hisoblanadi. «Tabiatshunoslik» so'zi «tabiat» hamda forsha «shinoxtan» («o'rganmoq») so'zlaridan tarkib topadi. Tabiatshunoslik tabiat haqidagi fan; yaxlit tarzda olingan tabiiy fanlarning majmui; inson bilishining sohalaridan biri.

Tabiatshunoslik sanoat va qishloq xo'jalik texnikasi, meditsinaning tabiiy asosi, tabiatni falsafiy tushuntirishning tabiiy ilmiy poydevoridir.

Tabiatshunoslikning mavzusi tabiatda yuz berib turadigan narsa-hodisalarning turlicha ko'rinishlari va qonuniyatlaridan, borliqning asosiy shakllaridan iborat. Tabiatshunoslik fanlari rivojlanish bosqichlari haqida to'xtalib o'tamiz. Ilm-fan, ma'rifat-madaniyat asrlar davomida insoniyat olamida so'nmas mash'al bo'lib, yoritib kelgan. Mamlakatimiz mustaqilligi sharofati bilan bugungi kunda bu mash'al tobora porlab, o'zgacha ahamiyat kasb etmoqda. Bizga ma'lum bo'lmagan tarix zarvaraqlari qatida pinhon yotgan qadriyatlarimiz, noyob qo'lyozma asarlarimiz, qadimiy yodgorliklarimiz istiqloq sharofati bilan tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan teran o'rganilmoqda. Tarix – insonning barkamollik, taraqqiyot yo'li. Moziyni bilmaslik o'zini anglamaslikdir, o'zini anglagan xalqgina buyuk kishilarning nomlarini e'zozlab ruhi poklarini yod etadi. Agar biz o'tmish tariximizga nazar tashlasak, yashab ijod etgan pedagoglarimiz o'zlari ijod etgan davrlardayoq bolaning har tomonlama o'sishida, ma'naviy oziq beradigan tabiatning noz-ne'matlari uning mo'jizalaridir, deb ta'kidlab o'tganlar.

Tarix zarvaraqlarida o'zlarining o'chmas, unutilmas nomlarini qoldirgan buyuk pedagoglar bola tarbiyasida tabiatning ahamiyati, uning bola ruhiyatiga qanday ta'sir qilishi haqida ilmiy fikrlarni aytib o'tgan. Ushbu mavzuni o'rganishda biz g'arb pedagoglaridan YA.A.Komenskiy, J.J.Russo I.G.Pestolotsi kabi olimlarning bola tarbiyasida tabiatning tutgan o'rni haqidagi ilmiy qarashlari bilan tanishamiz.

Rus olimi K.D.Ushinskiy: «Meni pedagogikada varvar hisoblasangiz ham, men o'z hayot tajribamda shunday xulosaga keldim. Go'zal tabiat yosh qalbgga shunday katta tathbiyaviy ta'sir ko'rsatadiki, hatto, pedagogikaning ta'siri ham u bilan raqobatlashishga o'jizdir», degan edi.

Tabiatshunoslikni maxsus o'qitish metodikasi tabiatshunoslikni o'qitishda bolalarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beruvchi pedagogik fandır.

Tabiatshunoslikning mavzui tabiatda yuz berib turadigan narsa-hodisalarning turlicha ko'rinishlari va ularning harakatlardan, ularning aloqalari va qonuniyatlaridan, borliqning asosiy shakllaridan iborat. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilar maktab-internatida "Tabiatshunoslik" fani 3-sinfdan kiritilgan. 1- hamda 2-sinflarda, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida "Atrofimizdagi olam" o'quv fani kiritilgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarida ham ushbu o'quv fani o'quv rejaga kiritilgan.

"Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi" fani pedagogika, surdopedagogika fanlarida ishlangan tadqiqotlarga asoslanadi va o'z predmetini o'qitish mazmuni hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda uning metodlaridan foydalanadi.

Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tabiatshunoslikni o'rgatib borish bilan ularning ta'limini davom ettirish va amaliy faoliyat uchun kerak bo'lgan bilim, o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantiradi, ularning dunyoqarashini, irodasi, xarakterini shakllantiradi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi, og'zaki nutqini o'stiradi, lug'at boyligini oshiradi. Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Predmet mazmuni.
2. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatini.
3. Fanning o'zini.
4. O'qitish va o'qishni.
5. Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni.

Shunga ko'ra, tabiatshunoslik metodikasining vazifalari:

- o'quv predmeti sifatida tabiatshunoslik mazmunini aniqlash;
- o'qitishning umumiy va maxsus metod hamda uslublarini tadqiq qilish;
- zarur o'quv jihozlarini ishlab chiqish.

"Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi" faqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanmaydi, uning qoidalarini ham ishlab chiqadi.

O'qituvchining darsga tayyorlanishidan boshlab o'quv materialini o'zlashtirish natijalarini, sinfdagi, uydagi, sinfdan va

maktabdan tashqari ishlarni hisobga olishgacha barcha o'qitish jarayonini o'z ichiga oladi. O'qitish amaliyotini har tomonlama o'rganish va natijalarini ijodiy ravishda umumlashtirish asosida o'qitishning qonuniyatlari belgilanadi, yana ham yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi. Tabiatshunoslikning maxsus metodikasi ishlab chiqadigan masalalar doirasiga quyidagilar kiradi:

1. O'quv fani sifatida tabiatshunoslikning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati.
2. Uning tarbiya tizimidagi o'rni.
3. O'quv materialining mazmuni va uning taqsimlanish sistemasi.
4. O'qitish metodlari va o'quv ishlarini tashkil etish shakllari.
5. O'quv materialini, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni va o'qitish natijalarini hisobga olish.
6. Jihozlash va o'quv qurollaridan foydalanish.
7. Darsdan va sinfdan tashqari ishlar.
8. O'qitishning moddiy bazasi.

"Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi" tabiat hodisalarini o'zaro bog'lanishda va rivojlanishda o'rganishga imkon beradi. Tabiatshunoslik metodikasi surdopedagogikada qo'llaniladigan tadqiqot metodlaridan foydalanadi. Tadqiqotchi maxsus maktabda tabiatshunoslikni o'qitish jarayonini kuzatadi, kuzatilgan faktlarni tahlil qiladi hamda taqqoslaydi, hodisalar o'rtasidagi qonuniy bog'lanishlarni aniqlaydi, xulosa va umumlashtirishning to'g'riligini amalda tekshiradi va tabiatshunoslikni o'qitish tamoyillarini belgilaydi. Kuzatish va tajriba tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi sohasidagi eng muhim metodlardir.

Pedagogik fan sifatida tabiatshunoslik maxsus metodikasi didaktika bilan bog'langan. Faqat ta'lim va tarbiyaning pedagogik maqsadi va vazifalariga asoslangandagina maktab tabiatshunoslik kursini to'g'ri tuzish, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktab internatining boshlang'ich va undan keyingi sinflar o'quv fanlari sistemasida uning o'rni va rolini aniqlash mumkin bo'ladi. O'quv materialini tanlash va uni sinflar bo'yicha taqsimlashga bo'lgan talablar didaktik tamoyillar bilan izohlanadi. Endi ular xususiy

metodik materiallarni hal qilishda, o'qitish metodlarini tanlashda, o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilishda yetakchidir. Tabiatshunoslikni o'qitishning tarbiyalovchilik xarakteri to'g'risidagi masalani metodika tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va kompleks tarbiya nazariyasiga asoslanib ishlab chiqadi. Tabiatshunoslik maxsus metodikasi, shuningdek, fiziologiya, anatomiya, gigiyena, botanika, zoologiya, geografiya, agrotexnika, meteorologiya, mantiq va surdopsixologiya bilan ham bog'liqdir. Shaxsning kamol topishi va rivojlanishi uning ayrim ishlarni, munosabatni, xarakterni o'z ichiga olgan faoliyat jarayonida boradi. Bunda u yoki bu faoliyat turining o'qish, mehnat, o'yin dalillari alohida ahamiyatga egadir.

Tabiatshunoslik predmeti eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning botanika, zoologiya, geografiya, fizika, ximiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanlarini chuqur egallashiga zamin, poydevor bo'ladi. Ushbu poydevorni hozirlashda o'qituvchi tabiatshunoslik kursini yuqoridagi fanlar bilan doimo bog'lab olib bormoqchi lozim.

Shuningdek, kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy, estetik, mehnat hamda ekologik madaniyati tarbiyasiga ham ushbu darslarda e'tibor kuchaytiriladi. Tabiatshunoslik darslarining tarbiyaviy ahamiyati kurs mazmunining ilmiyligiga, maxsus metodik yo'llariga, usul va uslublariga tayanadi. O'qituvchi dars jarayonida tabiat go'zalligini his etishga o'rgatishi, jonli va jonsiz tabiatning har xil obyektlari o'rtasidagi, jonli tabiat bilan odamlar mehnati o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ochib bera olishi, jonajon tabiatga muhabbatni, uning boyligini qo'riqlash va ehtiyoqkorlik bilan foydalanish istaklarini tarbiyalashi lozimdir.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi tabiatshunoslikni o'qitishda bolalarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beruvchi pedagogik fandır. U pedagogikada ishlangan tadqiqotlarga asoslanadi va o'z predmetining o'qitish mazmuni hamda, xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning metodlaridan foydalanadi.

O'quvchilarga tabiatni o'rgatib borish bilan o'qituvchi ularni ta'limni davom ettirish va amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan

bilim, uquv hamda ko'nikmalar bilan qurollantiribgina qolmay dunyoqarashi, irodasi, xarakterini ham shakllantiradi, aqliy qobiliyatini rivojlantiradi. Shunga ko'ra, tabiatshunoslikni o'qitishning shakli va metodlarini ishlab chiqadi.

O'qitish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan qismlarni: fan mazmunini, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini, fanni o'qitishni va ko'nikmalarni egallab olishni o'z ichiga oladi. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining vazifalari qatoriga o'quv fani sifatida tabiatshunoslik mazmunini aniqlash, o'qitishning metod va uslublarini tadqiq etish, zarur o'quv jihozlarini tayyorlash kiradi. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi faqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, o'qituvchi ularga asoslanib shu fan bo'yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o'qitishi mumkin.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi o'qituvchining darsga tayyorlanishidan tortib o'quv materialini o'zlashtirish natijalarini, jumladan, sinfdagi va maktabdan tashqari ishlarni hisobda olishgacha barcha o'qitish jarayonini o'z ichiga oladi. O'qitish amaliyotini har tomonlama o'rganish va natijalarni keyin ijodiy umumlashtirish asosida o'qitishning muayyan qonuniyatlari belgilanadi hamda uni yanada yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi. Chunonchi o'rganilayotgan narsalarni (o'simlik va hayvonlar) bevosita qabul qilish (bu to'g'ri tasavvur hosil qilishni ta'minlaydi) qonuniyat asosida predmetli o'qitishni qo'llash bo'yicha aniq tadbirlar ishlab chiqiladi.

Tabiatshunoslik metodikasi o'rganadigan va ishlab chiqadigan masalalarga quyidagilar kiradi:

- 1) o'quv fani sifatida tabiatshunoslik fanining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, uning tarbiya tizimidagi o'rni;
- 2) o'quv materialining mazmuni va uning taqsimlanish tizimi;
- 3) o'qitish metodlari va o'quv ishlarini tashkil etish shakllari;
- 4) o'quv materialini, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni va o'qitish natijalarini hisobga olish;
- 5) jihozlash va o'quv qurollaridan foydalanish;
- 6) darsdan va sinfdan tashqari ishlar, o'qitishning moddiy bazasi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi tabiat hodisalarini o'zaro bog'lanishda va rivojlanishda o'rganishga imkon beradi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi tabiatshunoslikka oid barcha materialni o'rganishning o'ziga xosligiga muvofiq holda, barcha maktab fanlari uchun umumiy hisoblangan pedagogika qoidalariga asoslanadi.

Shunday qilib, "Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasi" fanining maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilari bugungi kun talablari asosida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, yosh avlodga tabiatshunoslik fanini o'rgatishga tayyorlashdir. Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarga tabiatshunoslik haqida eng zarur ilmiy-nazariy bilimlarni berish.

2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi fanining ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion rivojlantiruvchi vazifalarini yoritib berish.

3. Talabalarni maxsus o'quv metodik adabiyotlar, dastur va darsliklarni tahlil qilishga o'rgatish.

4. Talabalarni tabiatshunoslikni o'qitishning turli uslublari va yo'llari bilan tanishtirish.

5. Talabalarda mazkur fan bo'yicha o'qitishning turli tashkiliy shakllarini, uslublarni, zarur ko'rgazmali qurollarini to'g'ri tanlash malakalarini hosil qilish.

Metodika o'qituvchi tomonidan o'quv materiallarini o'qitishning muvofiq ravishdagi metod va vositalari o'quvchilarning tabiat haqidagi eng sodda bilimlarni egallash hamda kelajakda hayotda qo'llay olish o'quvchilar uchun retseptorlar va nasihatlar majmuasi bo'libgina qolmasdan, fan, tamoyillari, tabiatshunoslik o'qitish jarayonining qonuniyatlari bo'lishga ham asoslangan. Metodika o'quv fanining mazmuni, ta'lim va tarbiya metodlari hamda shakllarini ko'rib chiqadi. Metodikaning bu bo'limlari bir butun bo'lganligi uchun bir-birini to'ldiradi.

O'quv ishlarining jihozlari hamda vositalari (qo'llanmalar) metodika asosida va qanday tarbiya berish kerak, degan savollarga javob beradi.

Tabiatshunoslik fanini o'qitilishining to'g'ri yo'lga qo'yilishi uchun maxsus o'quv - moddiy bazaga, ya'ni o'quv qurollari bilan jihozlangan xona, tirik tabiat burchagi va o'quv - tajriba

maydonchasiga ega bo'lishi kerak. Materialning o'ziga xos bo'lishi faqat tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining o'ziga xosligi emas, balki uning tarbiyaviy imkoniyatlarini ham belgilaydi.

Savollar

1. "Tabiatshunoslik o'qitish maxsus metodikasi" qanday qismlarni o'z ichiga oladi?
2. Tabiatshunoslik fanining asosiy vazifalarini ayting.
3. Tabiatshunoslik metodikasi ishlab chiqilgan masalalar doirasiga nimalar kiradi?
4. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasining fanlararo bog'liqlik sxemasini tuzing.
5. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasining tadqiqot metodlari xususida nimalar deya olasiz? Fikringizni izohlang.

3-bob. O'RTA OSIYODA TABIATSHUNOSLIK FANINING RIVOJLANISH TARIXI

O'rta Osiyo xalqlari azaldan bashariyat tafakkuri xazinasiga, ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga unutilmas hissa qo'shib kelgan.

Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan fan va madaniyatning barcha sohalariga taalluqli nodir asarlar, qimmatbaho fikr-mulohazalar hozirgi kunda ham jahon xalqlari ma'naviy dunyosini boyitib, ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qilib kelayotir.

Insoniyat qadim zamonlarda o'zini o'rab turgan dunyoda, tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan hodisalarning mohiyatini bilishga, olam tuzilishini tasavvur qilib tabiat hodisalari yechimini topishga qiziqib kelgan. Xalq orasidan yetishib chiqqan olimlar borliqni o'rganib, ilm va madaniyat xazinasini boyitgan hamda jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelgan.

Tabiatshunoslik fanining rivojlanishi uzoq o'tmishga ega.

Tabiiyot fanlari ham inson g'or va chaylalarda yashab, o'zining kundalik ehtiyojlari uchun yovvoyi hayvonlarni ovlab tirikchilik qilib yurgan davrlardayoq boshlangan. Davrlar o'tishi bilan bunday ifodali tasvirlar shakllanib ov manzaralari, ovlanadigan hayvonlar va o'simliklar shakllarini har xil toshlarga o'yib aylollar mulki sifatida kelgusi ajdodlarga meros qilib qoldirgan.

Jamiyat taraqqiyoti rivojlangani sari uning murakkab jarayonlarini yengillashtrish omillari ham vujudga kela boshlagan.

Bunda shunday omillardan biri yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish va iste'molbop o'simliklar urug'ini ko'paytirish usuli bo'lib, ular inson yashaydigan manzilgohlarda doimo topilavermaganligi, ob-havo, iqlim sharoiti ham salbiy ta'sir etganligi tufayli vujudga kelgan.

U esa, o'z navbatida, chorvachilik, hunarmandchilik va ibtidoiy san'at kurtaklarini vujudga keltirgan.

Insonning hayot kechirish zaruriyati omili bo'lib hunarmandchilik yuzaga kela boshlagan, dastlabki davrlarda tosh, yog'ochdan foydalanib hayvonlarni ovlash va tirikchilik qilish, ularning mahsulotlaridan esa zaruriy buyumlar yasash maqsadida foydalanganlar.

Bu esa dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashga olib kelgan.

Miloddan ming yillar avval dastlabki yozuvlar muttasil o'zgarib, takomillashdi. Shu bilan birga, tabiat, borliq, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi kuzatishlar kengaya va chuqurlasha bordi. Tabiat fanlari, o'rganilayotgan jarayonlar va hodisalar haqidagi tushunchalar ham takomillashdi.

O'sha davrda ilm-fan, madaniyat sohasidagi ijtimoiy qiyinchiliklarga qaramasdan, jamiyat rivojiga katta hissa qo'shgan O'rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining xizmatlari beqiyosdir.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850)

Al-Xorazmiy IX asr boshlarida Bag'dodda o'rta osiyolik olimlar Al-Ahmad ibn Kasir al-Farg'oniy, Abbas ibn Javhariy bilan Ma'mun akademiyasi (Bayt ul-hikma)ni boshqara boshlaydi.

827-yilda Bag'dod xalifasi Ma'mun al-Xorazmiyga «Yer va osmon xaritasi»ni tuzish ishini boshqarishni topshiradi. Xarita ustida ko'p olimlar 840-yilgacha tadqiqot ishlarini olib boradi. Xorazmiy 847-yilda bu tadqiqotlarni umumlashtirib, «Yer tasviri kitobi» yoki «Geografiya» kitobini yozadi.

Xorazmiy asari dunyo, qit'alar, okeanlar, qutblar, ekvatorlar, sahrolar, ko'llar, o'rmonlar, o'lkalar, u yerlardagi hayvonot va o'simliklar dunyosi, boshqa tabiiy resurslar, aholi, ularning tarqalish xususiyatlari, urf-odati, hunari, zichligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Koinot sirlarini o'rganishga oid kuzatishlari uning «Zij» («Astronomiya») kitobida bayon etilgan. Bu kitob 37 bob, 116 bo'limdan iborat, Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag'ishlangan bo'lib, «to'fon», «Iskandar», «safar» va xristian eralaridagi sanalarni hijriy eraga ko'chirish qoidalari keltiriladi. 6-bobda aylana – 12 burjga, burj – 30 darajaga, daraja – 60 daqiqaga, daqiqa – 60 soniyaga va hokazo mayda bo'laklarga bo'linishi bayon etiladi. 7-22-boblar Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag'ishlangan.

Alloma asarlaridan birida: «Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am-kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar!» deb ta'kidlaydi. «Daryoning ko'z yoshlari» deganda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nimani nazarda tutdi ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha ifloslanayotganligini nazarda tutgandir.

Imom at-Termiziy (824-892)

At-Termiziy o'zining nodir asarlarida tabiatni muhofaza qilish, tirik jonzotlar, o'simliklar, dov-daraxtlarni asrab-avaylash, atrof-muhitning tabiiy go'zalligini saqlash lozimligini uqtiradi. Alloma tomonidan to'plangan hadislarning aksariyati inson va tabiat munosabatlari talqiniga bag'ishlangan. Xususan, ul zoti muborak Pajp'umbarimiz Muhammad (s.a.v)ning «Yerda xalal berib yotgan biror tash, tikanak yoki suyakni bir chekkaga olib qo'yishing ham sadaqa» «O'z paqiringdagi suvdan boshqalarning idishlariga solib berishing ham sening sadaqang hisoblanadi», «Kimda-kim bir ko'chat o'tqazsa, yo bo'lmasa ekin eksa-yu, ular hosilidan odamlar, qushlar va hayvonlar bahra olsa, bu ham o'sha odam uchun sadaqa hisoblanadi» kabi muborak hadislarini o'zining «Sunani Termiziy» asariga kiritdi.

Jayhoni

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr Jayhoni 870-yilda Buxoroda tug'ilgan. Jayhoni o'z davrining yirik davlat arbobi bo'libgina qolmay, balki o'ta o'qimishli va bilimdon olim ham edi. Vazirlik lavozimidan foydalanib, dunyoning turli mamlakatlariga sayohatchilarni yubordi. Ular to'plagan ilmiy materiallarni chuqur tahlil qildi va mazkur tadqiqotlar asosida asarlar yozdi.

Olimning dunyoviy fanlar to'g'risida yozgan kitoblari juda ko'p bo'lib, ulardan Maqsudiy, Beruniy «Hudud ul-olam» asarining noma'lum muallifi, ibn Rusta Al-Bakriy kabi olimlar o'z asarlarida foydalanib kelgan.

Jayhoniyning «Kitob ul-masolik va marnolik» («Masofalar va mamlakatlar haqidagi kitob») asari 911–922-yillarda yozilgan.

Jayhoniyy o‘z asarlarida O‘rta Osiyo, Hindiston, Xitoy tabiiy resurslari haqida mukammal ma‘lumotlar keltirgan. Hindiston qirg‘oqlarida shunday o‘ziga xos o‘simliklar o‘sadiki, ular boshqa yerlarda uchramaydi. Hindistonda ajoyib qushlar va hayvonlar tarqalganligini ko‘rsatadi.

Jayhoniyy o‘z asarlarida O‘rta Osiyo, Xuroson o‘lkasida yashovchi xalqlar, geografik chegaralar, ularning ijtimoiy va ma‘muriy faoliyati, hunarmandchilik, tabiiy resurslarini ifodalagan. Mahalliy dorivor o‘simliklar va hayvonlardan olinadigan dorivorlarning tabiatdagi roli haqida ma‘lumot bergan.

Jayhoniyy mashhur tabib ham bo‘lgan. Yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni, qo‘l berib ko‘rishganda yuvilmagan qo‘l orqali kasallik yuqishini yaxshi bilgan. It, mushuk, gijja, tekinxo‘r chuvalchanglar yuqumli kasalliklarni tashib yuruvchi deb bilgan va ularga choralar topgan.

Abu Nasr Farobiy (873-950)

Abu Nasr Farobiy 873-yil Toshkentning shimoli-g‘arbida joylashgan, keyinchalik tarixda O‘tror nomi bilan mashhur Farobda xizmatchi oilasida tug‘ilgan.

U 160 dan ortiq kitob yozgan. Ularning 40 ga yaqini bizgacha yetib kelgan. Ko‘pgina kitoblari astronomiya, tabiatshunoslik, tibbiyot ilmiga bag‘ishlangan.

«Hayvon a‘zolari» kabi asarlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularda inson va hayvonlar organlari, ularning funksiyasi, bir-biriga o‘xshash tomonlari haqida ta‘limot bergan, tirik organizmlar anatomiyasi fanlariga asos solgan.

Farobiy o‘z asarlarida sun‘iy turlarning vujudga kelishini va tabiiy o‘simlik hamda hayvonlar turlarining vujudga kelishini dunyoda birinchi bo‘lib ta‘riflaydi.

Yulduzlar haqidagi kitobida osmon jismlari bilan Yerdagi hodisalar o‘rtasida tabiiy bog‘lanishlar borligini bayon qilgan.

Jumladan, Quyosh issiqligi ta'siridagi bug'lanishlar bulut va yomg'ir paydo bo'lishiga sabab bo'lishini aytgan.

U o'z ishlari bilan tabiiyot ilmining rivojlanishiga bebaho hissa qo'shgan.

Alloma fikrlarida bayon etilgan jismlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar: ilm-fan, texnika rivojini ta'minlash jarayonida inobatga olingan holda, tabiat hamda jamiyat o'rtasidagi munosabatlar natijasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga imkon beradi.

Farobiy shunday deb yozadi: «Har bir moddiy narsa so'zsiz o'z vujudiga, o'ziga xos bo'lgan martaba, eng yuksak kamolotga erishish uchun borlikka keladi, insonga xos bo'lgan bu kamolotning nomi eng yetuk baxt-saodat deb ataladi».

Farobiy fikricha: «Insoniylik mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishish ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlaridan foydalansa, u baxt-saodatga erishadi». Shu ma'noda tabiat va jamiyatning taraqqiyoti, insonning baxt-saodati ekologiya muammolarining qay darajada hal etilishiga bog'liq, bu ta'lim-tarbiyani taqozo etadi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)

Abu Rayhon Beruniy Xorazmning qadimiy poytaxti Qiyot shahri yaqinida tavallud topgan. U yoshligidan al-Farobiy singari Sharqda mashhur bo'lgan olimlarning kitoblarini mustaqil o'rgandi. O'zidan avval yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlarning merosini o'rganibgina qolmay, ularni beqiyos darajada boyitdi ham.

Beruniyning o'sha davrda yaratgan kashfiyotlaridan biri Yerning sharsimon (kurra) shaklda ekanligini ko'rsatish uchun Yer shari (globus) ixtiro etganligidir. U Quyosh atrofida sayyoralarning aylanishi, Yer esa ana shu sayyoralardan biri ekanligi haqida ta'limot berdi.

Beruniy asarlariga tabiatga oid juda ko'p ma'lumotlar kiritilgan. Uning asarlarida O'rta Osiyo, Hindiston, Afg'onistonda keng tarqalgan qazilma boyliklar, dorivor o'simliklar, hayvonlar, ular-

ning foydali xislatlari haqida ma'lumot bergan. Beruniyning tabiiy-ilmiiy qarashlari «Saydana», «Mineralogiya», «Hindiston», «Geodeziya», «Ma'sudiy qonuni», «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida keng yoritilgan.

Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi, tabiatdagi ahamiyati borasidagi ma'lumotlar keltiriladi. «Tabiatdagi hodisalar ma'lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi», degan muhim ilmiy xulosa chiqariladi.

U «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston» nomli asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasiga oid qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi.

Abu Rayhon Beruniy asarlarida turli xil tropik o'simliklar va hayvonlar to'g'risida ma'lumot berish bilan birga, nabotot va hayvonot olamining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvoridagi yil fasllari almashishi bilan bog'liq o'zgarishlarni ishonchli misollar yordamida tushuntiradi. Chunonchi, qushlarning tog'lardan pastga, tekisliklarga tushishi, o'z inlariga berkinib olishi kabi holatlar havo sovushidan dalolat beradi», deydi olim.

Beruniy o'zining ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma'lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, degan xulosaga keladi. Olimning fikricha, ularga tashqaridan ta'sir etuvchi har qanday kuch o'zgartirish qobiliyatiga ega emas. Bu ekologik buzilishga olib keladi, degan fikrni aytadi.

Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb biladi. Odamlar tuzilishlarining rang, suvrat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqat nasablarning turlichaligida emas, balki tuproq, suv, havo va odam yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir.

Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida tabiatga oid fikrlarni bayon qilish bilan birga, insonning atrof-muhitga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishini, ekologik madaniyatni ham targ'ib qiladi.

Beruniy «Javohirnoma», «Qushchaning uch pand-nasihati» kabi asarlarida inson bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, mufoviqlik va muvozanat tasvirlanadi.

Beruniyning fikricha, olam abadiy taraqqiyot va rivojlanishdadir. Zero, tabiatning o'zi hayot qonunlarini muvofiqlashtirib turadi. Buyuk mutafakkir qayd etganidek: «Ekin va hayvonlar nasl qaldirishi bilan dunyo to'lib-boyib boraveradi».

Abu Ali ibn Sino (980-1037)

Abu Ali ibn Sino Buxoroga yaqin Afshona qishlog'ida dunyoga kelib, jahonga tabobat ilmining sultoni bo'lib tanilgan, ko'p qirrali olim bo'lgan.

Uning tib sohasidagi «Tib qonunlari», «Kitob ul-qulanj» («Ichak sanchiqlari»), «Kitob un-nabz» («Tomir ko'rish haqida kitob») va boshqa asarlari mavjud.

«Tib qonunlari» 5 mustaqil asardan tarkib topgan:

Birinchi kitobda kasalliklarning kelib chiqish sababi, belgisi, sog'liqni saqlash yo'llari va boshqalar haqida fikr yuritilgan.

Ikkinchi kitobda 800 ga yaqin donning xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste'mol qilish bayon qilingan.

Uchinchi kitobda ayrim a'zolarning kasalliklari (soch, timoq), ularni davolash usullari xususida so'z boradi.

To'rtinchi kitobda isitmalar, o'smalar, ularning sabablari, xirurgik kasalliklar (suyak sinishi, chiqishi, kuyishi) va ularni davolash, har xil dorilardan zaharlanish va ularni davolash choralari, chechak, qizamiq, tumov, vabo to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Beshinchi kitobda murakkab dorilarning organizmga ta'siri, ularni tayyorlash, iste'mol qilish usullari bayon etilgan.

Mineralogiya ilmining rivojiga ham ibn Sino katta hissa qo'shgan. U minerallarni 4 guruhga ajratadi: 1) toshlar; 2) eriydigan jismlar (metallar); 3) oltingugurtli yonuvchi jismlar; 4) tuzlar.

Abu Ali ibn Sinoning inson tanasida paydo bo'ladigan kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri suv, yer va havoda mo'tadillikning buzilishi bilan bog'liqligi, yashash joylarining torligi, ozoda emasligi yuqumli (moxov, qo'tir, chechak, vabo toshma kabi) kasalliklarning tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishiga doir

fikrlari bugungi kunda ham alohida qimmatga egadir; kasalliklar aholi zich joylashgan joylarda shamol va boshqalar orqali yuqadi.

«Agar havoda chang va g'ubor bo'lmaganda edi, inson ming yil umr ko'rgan bo'lar edi», degan mashhur ibora orqali alloma insonlarni yashil tabiatni muhofaza qilishga, uni asrab-avaylashga undagan.

Olimning fikricha, inson tabiatdan moddiy hayot manbalari-nigina o'zlashtirib olmasdan, balki ruhiy quvvat ham oladi. Shu-ningdek, u ayrim kasalliklarni davolashda tabiiy manbalardan, xu-susan, qum, tuproq, suv, o'simliklardan loydanish haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

Ibn Sinoning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur asari – «Kitob ash-shifo», ya'ni «Davolash kitobi»da bayon etilgan. Bu asarda olimning materiya, fazo, vaqt, shakl, hara-kat, borliq haqidagi falsafiy tushunchalari, shuningdek, mate-matika, kimyo, botanika, zoologiya, astronomiya, psixologiya fanlariga oid fikrlari ham bayon etilgan.

Ibn Sinoning turli tabiiy jarayonlarning paydo bo'lishi va davomiy dialektik rivojlanishi haqidagi fikrlari geologiya ilmining taraqqiyotiga katta ta'sir qilgan.

Ibn Sino o'zining «Donishnoma» nomli ijtimoiy-falsafiy asari-da tabiatga mehr-muruvvatli bo'lgan yoshlarni tarbiyalash haqida fikr yuritgan.

Amir Temur (1336-1405)

Sohibqiron Amir Temur turli sohalarda bo'lgani kabi, tabiatga munosabat borasida ham o'zining qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lgan-ligi tarixiy manbalarda qayd etiladi. Amir Temurning tabiat boy-liklarini avaylash, uni ko'paytirish to'g'risidagi g'amxo'rliqi Sa-marqand yaqinida barpo etilgan o'n to'rtta bog' misolida namoyon bo'ladi. Bog'i Shamol, Bog'i Behisht, Bog'i Davlatbog', Bog'i Zog'on, Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Buldu, Bog'i Naqshi Jahon, Bog'i Baland, Bog'i Nav, Bog'i Jahonnoma, Bog'i amirzoda Shohrux, Bog'i Maydon kabi bog'lar tarixini o'rganish ularning dehqonchilik, ilm-fan, estetik va falsafiy bilimlarning

natijasi sifatida yaratilganligini ko'rsatadi. Mazkur bog'larning ta'rihi uzoq yurtlarga yoyilgan. Ular to'g'risidagi ma'lumotlar ispan qirolining Samarqanddagi elchisi Lui Gonzales de Klavixoning mashhur esdaliklarida bayon etilganligi tufayli Yevropaga ham tarqalgandir.

Amir Temur umr bo'yi obodonchilik ishlari bilan band bo'lgan. Qadami yetgan joylarda bog'-bo'stonlar, qal'a-qasrlar, yo'llar, go'zal go'shalar barpo etgan.

Temurning dilida go'zallik va bunyodkorlikka, ilm-fan, madaniyat-ma'rifatga mehr-muhabbat kuchli bo'lgan. Bunga uning davrida yaratilgan san'at va me'moriy obidalar dalildir. Jahongirning «Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'miga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'miga o'nta ko'chat ektirdim», degan so'zlari ibratlidir.

«Kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kurtirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, buning il undan hech narsa olmanglar», deb uqtirishi esa solihqironning obodonchilik ishlarini rivojlantirishga qaratilgan o'tkir siyosatidan darak beradi. Albatta, og'ir va savobli ishni amalga oshirgan inson o'zining mashaqqatli mehnati evaziga muayyan moddiy va ma'naviy rag'batga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyojning qondirilishi esa, uning qilgan mehnatiga jamiyat tomonidan bildirilgan minnatdorchilik kabi qabul qilinadi. Inson tabiatini yaxshi o'rgangan yo'l boshchi sifatida Amir Temur mehnat evaziga rag'batlantirishning o'ziga xos usullarini qonun yo'li bilan mustahkamlashga e'tibor bergan. Amir Temurning tabiatga nisbatan mehr-muhabbati haqidagi quyidagi qiziqarli hikoya e'tiborga molikdir:

«Shom sari yurish oldidan Qorabog'da chodir tikib, uzoq turib qoldik. Harbu zarb mashqlarini puxtalamoq uchun qo'shin ichinda bo'lib, ochiq havoda tunadik. Ko'p vaqt o'tkazib, safar oldidan chodirga qaytsam, ajib manzaraning guvohi bo'ldik.

Tangri taoloning bu beozor jonivorlariga xalal yetkazmaslik uchun chodirni o'zga qildik. Ertasi kuni safarga jo'nar avvalida to'rt nafar navkarni mulozim birla qoldirdik. Ularga tayin etdikkim:

Tangri taoloning beozor qushlari tuxum ochib, polaponlari uchirma bo'lguncha, shu yerda bo'lursiz.»

Ulug'bek
(1394-1449)

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Samarqand shahrida tug'ilgan. U koinot ilmi sohasidagi ijodiy ishlarini «Ziji jadidi Ko'ragoniy» («Yangi astronomiya jadvallari») kitobida bayon qildi.

Tabiatshunoslik fani uzoq o'tmishga ega va jamiyat hamda materiya, olam taraqqiyoti bilan bog'liq barcha fanlar bilan uzviy aloqada.

Xususan, O'rta Osiyo tabiatshunosligi jahon ilmi tarkibida o'z o'rnini va tamoyillariga egadir. Uning qonuniyatlari jahon tabiiy fanlari ilmiy salohiyatiga metodologik asos sifatida birlashtirilish darajasidadir.

Tabiatning uzoq kechasi, mazmunli buguni va porloq ertasi shu fanning rivoji, uning yoshlar ongiga nechog'lik singdirilishi o'z mohiyatiga ko'ra murakkab jarayondir. Zero, uning asosida «Tabiatni asrash» degan shior yotadi.

Alisher Navoiy
(1441-1501)

Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy o'zining mumtoz badiiy asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar masalasiga keng o'rin ajratgan. Chunonchi, «Xamsa» asariga kiritilgan «Sabbai sayyor» dostonidagi yetakchi mavzu va g'oyalardan biri insonning tabiatga munosabati masalasidir. Asarda bayon etilishicha, bosh qahramon shoh Bahromning ovga bo'lgan ishqibozligi shu qadar kuchayadiki, doston so'ngida o'z lashkari bilan sonsiz hayvonlarni qirg'in qiladi. Tabiat esa bu shafqatsizligi uchun undan ayovsiz o'ch oladi. Kuchli zilzila bo'lib, shoh Bahrom, uning yori Dilorom va lashkarlarini yer yutadi. Ushbu voqeani ifoda etar ekan, Alisher Navoiy odamlarni tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga, uning boyliklaridan o'rinli foydalanishga undaydi.

Alisher Navoiyning inson tabiati, tafakkuri va hissiyoti, ozodalik, to'g'ri ovqatlanish tartibining salomatlikka ta'siri haqidagi fikrlari badiiy asarlarida chuqur talqin etilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yili Farg'ona hokimi Umarshayx oilasida dunyoga keldi. U Amir Temur oilasidan bo'lib, otasi vafotidan (1494) keyin 12 yoshida podsho etib tayinlandi. Bobur faqat podshoh bo'libgina qolmay, o'z davrining yetuk olimlaridan biri ham edi. Uning «Boburnoma» asari tabiatshunoslikning rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

«Boburnoma» O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston mamlakatlari tabiiy geografik joylashishi, o'simliklar va hayvonot dunyosi haqidagi geografik asar hamdir. Asarda Bobur har bir joyning xarakterli xususiyatlari va u yerda tarqalgan hayvonlar haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon etgan.

Asarda qovun, bug'doy, o'rik, behi, anor, shaftoli, olcha, yong'oq, nok va tutning bir necha navlari mavjudligi va shifobaxshligi bayon etiladi. Bobur chorvachilik va hunarmandchilikka katta e'tibor bergan.

«Boburnoma»da afg'on xalqining asalarichilik bilan qadimdan shug'ullanganligi va asal bilan savdo qilganligi bayon etilgan.

Bobur gullar, mevali, manzarali daraxtlarni ko'paytirish va tarqatishga e'tibor bilan yondoshgan.

«Boburnoma»da turli sohaga oid bilimlar qamrab olingan bo'lib, unda hayvonot va nabotot olamiga oid ma'lumotlarga keng o'rin berilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning Vatanga bo'lgan muhabbati zamirida aynan shu yurt tabiatiga nisbatan cheksiz ehtirom, hurmat tuyg'ulari mavjuddir. Allomaning «Boburnoma» asari faqat tarixiy, adabiy manba bo'libgina qolmasdan, balki geografik, o'lka-shunoslik, etnografik asar ham sanaladi. Asar Movarounnahr tabiati, hayvonot va o'simlik olami haqida boy ma'lumotlar majmuasidir. «Boburnoma»da Amir Temur tashabbusi bilan Samarqand yaqinida barpo etilgan bog'lar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Xususan, «Samarqand shahrida ikki bog' sohibdur, birikim yiroqdur. Bog'i Bo'ldinur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodir Andin Feruza darvozasigacha xiyobon qilib, ikki tarafiga terak yog'och-

larini ekturubtur» kabi bitiklar muallifning obodonchilik ishlariga alohida xayrixohlik bilan yondoshganligidan darak beradi.

Asarda qishloq va shaharlarning iqlimi, tuprogʻi, suvi, oʻsimlik va hayvonot dunyosi borasida batafsil toʻxtalib oʻtilgan.

Abu Tohirxoʻja

XIX asrda yashab ijod etgan Abu Tohirxoʻja tomonidan yaratilgan «Samarqand» asarida Samarqand shahrining havosi, yerining tuzilishi, geografik holati, shahar tevaragidagi togʻlar, buloqlar, ariq va daryolar toʻgʻrisida soʻz yuritilgan. Shahar atrofida mavjud boʻlgan togʻlar xususida soʻz yuritilgan ekan, Abu Tohirxoʻja quyidagilarni qayd etadi: «Janub tomonidagi togʻlar juda obod boʻlib, unda daraxtlar koʻp oʻsadi. Mevalardan olma, pista, olu, yongʻoq ushbu togʻlarda koʻpdir. Oʻsimliklardan, olma, rivoch (rovoch), garafsh, yabruj, piyozi ansul (ansur), gurdiyo va egir uchraydi.

Hayvonlardan, dungiz (toʻngʻiz), ayiq, boʻri, tulki, tovushqon, jayra va shogʻol (shoqol) bor.

Ov qushlaridan kakki dariy (kaklik), bulduruk - qora bagʻir, kabki (hilol) ushbu togʻda koʻpdir.

Bunda maʼdan va kon narsalarining borligi belgisi emas. Lekin ushbu togʻning kunbotarida oltin va kumush bilan shuvaganga oʻxshash yarqiraydigan bir tosh bor. Undan hech nima ajratib olib boʻlmas. Uni chaqaloq toshning jinsidan deydilar. Bu togʻning ajoyibidan bir buloq bordirkim, suvi qish vaqtida qaynoq boʻlib, saraton oyida boshdan oyoq muzlaydi.

Kunchiqar tomonidagi togʻ ham oboddir. Janubiy togʻ bilan gʻarbiy togʻ oralaridan Zarafshon daryosi oqib chiqadi. Kunchiqar togʻning ustida, (uning) oʻrta belida, Iskandar koʻli deb atalgan bir koʻl bor.

Zarafshon daryosining bir manbai ushbu koʻl boʻlib, tevaragi bir togʻdir. Kunchiqar togʻida bir kiyik, bugun (gavzan - togʻ sigiri), har bir yuz kiyikni ovlaydigan yirtqich hayvon koʻpdir».

Oʻzbekistonning boy tabiati, hayvonot dunyosi va oʻsimliklar olami haqidagi ushbu maʼlumotlar ham tarixiy, ham jugʻrofiy, ham

ekologiya nuqtayi nazaridan ahamiyatga molikdir. Shubhasiz, o'quvchilarda tabiatga muhabbatni tarbiyalashda, ularda tabiiy boylikdan oqilona foydalanish kabi tuyg'u, ko'nikma va malakalarni hosil qilishda o'lka tabiatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, o'z o'lkasi tabiatini o'rganmay, uning obyektlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lmay turib, ekologik faoliyatni tashkil etish mumkin emas. Muayyan hududda mavjud bo'lgan tuproq, suv, o'simlik va hayvonlarning ushbu regionni tashkil etishdagi o'rni, ahamiyatini to'g'ri baholay olish lozim. Shu bois Abu Tohir-xo'janing «Samarqand» asari tarixiy, badiiy, shu bilan birga, ekologik qimmatga ega.

Sayid Muhammad Hasrat

- Suv oqqanda tozalanib pishgan kabi, odam ham safarda pishadi.

- Yoz yomg'iri – ilon bilan chayon. Yozning yomg'iridan qo'rq.

- Qishning qirovidan,

- Javzodagi yomg'irdan ilon yog'sa – yaxshi.

- Tog' hayosi – dard davosi.

- Toza havo – dardga davo.

- Quyosh kirmagan uyga tabib kiradi.

- Quyosh nuri — davo duri.

- Chilla suvi –tilla suvi. Chil botmon uzum berar.

- Soflikda suvdan ham sofroq narsa yo'q, Ammo uzoq tursa, suv sasib ketar.

- Yurgan daryo, o'tirgan bo'ya.

- Kamharakat odamning umri bebarakat.

- Safar qilgan odam chiroyga yetar.

Hayvonlar haqida: Yer sharida, taxminan, 1,5 mln. turdagi hayvonot yashaydi.

Hayvonlar 90-100 kg xashak yeganida 1kg go'sht hosil bo'ladi.

Fransiyada qurbaqadan tayyorlangan taom eng noyob hisoblanadi. Bu mamlakatda qurbaqa erkin holda tabiatda uchramaydi. Ular maxsus fermalarda ko'paytiriladi.

Qushlar haqida. Bizda tustovuq, bedana, burgut, kaklik, kabilar kamayib ketgan.

Boyo'g'li «yomonlik keltiruvchi qush» deb qirib tashlangan. Boyo'g'li bir mavsumda 1000 tagacha sichqon yeydi, natijada 1 tonna bug'doy nobud bo'lishdan saqlab qolinadi.

Ko'pchilik ilonni ko'rsa, o'ldiradi, vaholanki, ilon eng foydali jonivor hisoblanadi.

Mutafakkirlarimiz atrof-muhit, inson, hayvonot va o'simliklar dunyosi haqida keng bilimga ega bo'lib, uni targ'ib qilganlar. O'rta osiyolik mashhur allomalar bolalarga yoshligidan boshlab atrof-muhitni ifloslantirmaslik, olovni ehtiyot qilish, hayvonlarni o'ldirmaslik, nihollarni sindirmaslik, qush uyalarini buzmaslikni o'rgatish lozimligini uqtirganlar.

Atrof-muhit bilan birga uyg'un holda yashab, tabiat qonuniyatlaridan amaliyotda unumli foydalanganlar. Masalan, xalqimiz har vaqt boshini janub yoki sharq tomonga qo'yib yotadi. Kishi boshini janub tomonga qo'yib yotsa, yerning magnit maydoniga moslashib, bosh miya dam oladi.

Kishi boshini sharq tomonga qo'yib yotsa, yer aylanishi bilan inson tanasidagi qon aylanish moslashib, yurak dam oladi. Faqat o'liklarning boshi shimol tomonga qaratib qo'yiladi va ko'miladi.

Tabiat go'zalliklaridan bahra olish, uni sevish atrof-muhit muhofazasini tashkil etish borasidagi muhim omillardan biri sanaladi. O'rta Osiyo mutafakkirlari o'z asarlarida tabiat go'zalliklarini madh etishga e'tibor qaratganlar hamda insonlarni tabiat go'zalliklarini qadrlashga undaganlar.

Uyg'onish davridagi tabiiyot ilmining, shuningdek, G'arbiy Yevropadagi tibbiyot ilmining yutuqlari umumiy biologiya, anatomiya, fiziologiya va psixologiyaning rivojlanishi uchun asos bo'ldi. Tabiatning evolyutsion rivojlanish nazariyasi, soddadan murakkabga o'sib borish, o'zgaruvchanlik, birlamchi va ikkilamchi signal sistemalari O'rta Osiyo olimlari tomonidan G'arbiy Yevropa olimlaridan 800–900-yillar oldin asoslanib berilganligi fikrimizning dalilidir. O'rta Osiyoda yashab o'z asarlari bilan tabiiy fanlar rivojiga barakali hissa qo'shgan olimlar: Ibn Sinoning ustoz, tabiatshunos Abu Abdullo Natiliy (X-XI asr), botanik Abu Hanifa

Dinnavariy (815-896), Hotam Roziy, Abu Bakir Ar-Roziy, Naabulisiy va boshqalar.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ular haqida shunday deganlar: "Yurtimizni azaldan daholar yurti deb, haqli ravishda hamisha faxrlanib kelamiz. Imom Buxoriy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalarimiz o'zlarining yorqin iste'dodi bilan butun jahonga dong taratganlar, bularni biz kelajak avlod ongiga singdirib borishimiz kerak".

O'rta Osiyoda tabiat fanlarining rivojlanishida buyuk qomusiy olimlarning bajargan ishlari va bizgacha yetib kelgan asarlari beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Savollar

1. O'rta Osiyoda tabiat fanlari rivojlanishi nechanchi asrda boshlandi?
2. Tabiatshunoslik fanlarini rivojlantirishga hissa qo'shgan buyuk mutafakkir olimlar qanday asarlar yozgan?
3. O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodini o'rganish qachondan boshlandi?

4-bob. AQLI ZAIF O'QUVCHILARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA TABIATSHUNOSLIK FANINING ROLI

4.1. Tabiatshunoslik metodikasida asosiy muammolar rivojlanishining qisqacha tarixi

Metodika tarixi o'qituvchilar va uslubchilar hozirgi avlodini o'tmishdoshlari ish olib borgan muammolar doirasi bilan tanishtiradi.

Eng muhim narsa asosiy tarixiy bog'lanishni unutmaslikdir, har bir masalaga tarixdagi ma'lum hodisa qanday paydo bo'lganligi, bu hodisa o'z rivojlanishida qanday asosiy bosqichlardan o'tganligi nuqtayi nazaridan qarab, bu narsalarning ana shu rivojlanish nuqtayi nazaridan hozir qanday bo'lib qolganiga qarashdir.

Tarixni bilish xatolarning, ma'lum bo'lgan kashfiyotlar takrorlanishining oldini oladi, zamonamiz uchun eng zarur hisoblangan metodik muammolarni hal qilish va tadqiq etishda o'tmishning qimmatli yutuqlaridan foydalanishga imkon beradi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining tarixi uning muayyan darajada hal qiladigan asosiy muammolari: ta'limning mazmuni, o'qitish metodlari va ularning tarbiyalovchi ta'siri har doim bo'lgan. Muayyan fanning maktabda joriy etilishi; uning hajmi, mafkuraviy yo'nalishi davlat tomonidan belgilanadi, bu narsa, ko'pincha, ularning ijodiy tashabbusiga bog'liq bo'ladi. O'quv materialining mazmuniga tabiatshunoslik fanining holati ta'sir ko'rsatadi.

VIII asrda qadimgi rus maktablarida tabiat haqida biror fan o'qitilmasdi. Butxona kitoblarini o'qish, yozish va butxona qo'shig'ini aytish o'rgatilardi. XVIII asr oxirida rus maktablarida tabiatni o'qitish joriy etildi.

Tabiat bo'yliklaridan foydalanish va iqtisodni rivojlantirish uchun mamlakatga savodli kishilar kerak edi. Shu boisdan Yekaterina II hukumati xalq bilim yurtlari (asosiy: 5 yillik va kichik: 2 yillik) hamda o'qituvchilar seminariyasi (1783) ochishga majbur bo'ldi. Xalq bilim yurtlarida va o'qituvchilar seminariya-

da birinchi marta tabiiyot o'qitila boshladi. Tabiatdan darslik tuzish, bilim yurtida o'qitish va o'qituvchilar seminariyasida ma'ruza o'qish uchun akademik Vasiliy Fyodorovich Zuyev (1754-1794) jalb qilingan edi.

1786-yilda uning familiyasi ko'rsatilmagan holda ikki kitobdan iborat «Rossiya imperiyasining xalq bilim yurtlari uchun nashr qilingan tabiat tarixining bayoni» nomli darsligi bosilib chiqdi. Rus tabiat o'qitish metodikasining tarixi shu yildan hoshlangan, desa bo'ladi.

V. F.Zuyev darslikda tabiatni o'qitishning quyidagi izchilligini belgilaydi: qazilmalar olami (o'lik tabiat), o'simliklar olami (botanika), hayvonot olami (zoologiya). V.F.Zuyev o'zining darsligi bilan tabiat o'quv faniga asos soldi. Darslikda ayrim o'simlik va hayvonlarning ta'rifi, ularning biologiyasi, shuningdek, uning insonlar tomonidan foydalanishi yoritiladi. O'simliklarning hujayra tuzulishi to'g'risida ham eslatib o'tiladi. Darslikda ko'p faktik ma'lumotlar berilgan ammo u oddiy tilda yozilgani tufayli oson o'qiladi. O'rganish obyektlarini tanlashda va o'quv materialini bayon etishda muallif o'sha vaqtda hukm surgan sistematikaga amal qilmadi, balki, birinchi navbatda, odam uchun ahamiyatli bo'lgan o'simlik va hayvonlarga jozibali ta'rif berdi.

Darsliklarning o'qituvchilarga mo'ljallangan kirish qismida muallif o'qitish metodikasiga oid bir qator masalalarni hal qilib beradi, uning qo'lyozma metodik ko'rsatmalari ham shu masalalarga bag'ishlangan. U darsni suhbat tarzida, ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan o'tkazishni tavsiya etgan.

V.F.Zuyev darslikning ikkinchi qismiga ilova sifatida «Tabiat tarixiga oid shakllar» nomli atlasni nashr ettiradi. Kattaligi darslikning bir beti (19x14 sm) ga teng keladigan har bir varaqda 2 tadan 5 tagacha hayvon (jami 193 surat) tasvir etilgan. Bu jadvallar dars vaqtida o'quvchilarga tarqatilar edi.

Darslikning minerallar va o'simliklar tasvirlangan birinchi qismida jadvallar bo'lmagan, chunki V.F.Zuyev o'quvchilar obyektlarni tabiiy holda ko'rish kerak, deb hisoblagan. V.F.Zuyev tabiat haqidagi fanga muhabbat hamda maorif va xalqning foydasi uchun ishlashga istakni tarbiyalovchi materiallarni tanlaydi.

Rus olimlarining oliy o'quv yurtlarigina emas, balki o'rta maktabni ham rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq ajoyib an'ana akademik V.F.Zuyevdan boshlangan edi.

Shunday qilib, asrning oxirida akademik Vasiliy Fyodorovich Zuyev rus tabiat o'qitish metodikasini boshlab berdi va haqiqatan ham uning asoschisi hisoblanadi.

XIX asr tabiat tarixining rivojlanishida rus tabiatshunos olimlari o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bo'lib turgan mamlakatida xalq uchun ta'lim-tarbiyaning muhim ekanligini sezib befarq qarab tura olmadi. O'qituvchilar seminariyasi o'rnida Pedagogika instituti barpo qilinadi, unda V.F.Zuyevning shogirdi A.M.Teryayev ustozining ishini davom ettiradi. U o'z ustozining barcha g'oyalaridan ko'rgazmali qurollar qo'llashning zarurligini o'zlashtirib olgan bo'lib, ularning maktabda tarqalishiga sabab bo'ldi. Tabiatshunoslik fanining rivojlanishida K.Linneyning «Tabiat tizimi» asari hammaga mashhur bo'lgan edi. Aleksandr I hukumati gimnaziyalarda tabiat o'qitilishini zarur deb topdi.

1825–1902-yillarda yashagan buyuk olim, professor Andrey Nikolayevich Beketov tabiatni o'rganishda tafakkur va kuzatuvchanlikni tarbiyalash haqida chuqur mulohazalarini bildirgan. A.N.Beketov «Gimnaziyalarda tabiiy tarixni o'qitishda tafakkurning induktiv metodini tatbiq qilish haqida»gi maqolasida mashg'ulotlar o'tkazishda o'quv materiallarining joylashishiga kuzatuvchanlikni hamda mustaqil fikrlashning rivojlantirilishiga oid fikrlarni aytadi, hayvon va o'simliklarning ichki va tashqi tuzilishini tushuntirmay turib organik yo'nalishlarni aslo idrok etib bo'lmaydi. Chunki endi o'qiy boshlagan o'quvchiga organlarning tuzilishini ularning vazifalari bilan birga tushuntirish ancha qulaydir. Biri ikkinchisini yoritib beradi.

K.A.Temiryazev tomonidan «O'simliklar hayoti» asari, so'ngra boshqa olimlar tomonidan ko'pgina botanika darsliklari yaratildi. A.N.Beketov metodikasining eng muhimlari: mustaqil tafakkurni tarbiyalash, kuzatuvchanlikni rivojlantiradigan mustaqil ishlarga rahbarlik qilish, fan strukturasiining morfologiyasi, anatomiyasi va fiziologiyasini sintezlaydigan o'ziga xos muammolarini ilgari surdi.

«Tabiat metodikasi» birinchi marta 40-yillarda Germaniyada o'qituvchi Avgust Lyuben tomonidan 1804-1873 yillarda yozilgan. Ajoyib chex pedagogi Y.A.Komenskiy (1592-1670) kabi, A.Lyuben ham, tabiatni o'qitish oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, konkret dan mavhumga tomon, ya'ni induktiv yo'l bilan borishi kerak, deb hisoblaydi.

O'zining metodikasida o'rganishda quyidagilarga: o'simlik shakllarining turli-tumanligiga; ana shu xilma-xillik negizida yotadigan birlikni bilib olishga; o'simlik hayotini bilishga; o'simlik shakllari hayotining xilma-xilligini vujudga keltiradigan moddalar va kuchlarni bilishga alohida ahamiyat berishni tavsiya qiladi. Professor A.N.Beketov Lyubenning tabiat metodikasini qizg'in taq'rib qildi va uning darsligiga so'zboshi yozib, tarjima qildi. O'qituvchilarga quyidagilarni tavsiya etdi: «Kimki bolalarni bu kitobning mazmunini hijjalab yodlashga majbur qilsa, u bolalarga ham, fan va sog'lom fikrga ham xiyonat qilgan bo'ladi. Nomlar, ta'rif va retseptlarni yodlashga majbur qilgandan ko'ra, botanikani va umuman tabiatni o'qitmagan yaxshiroq».

«Tabiiy tarix taqqoslashlarga asoslangan, boshqacha aytganda, tabiiy hosila bilan tanishamiz, bunda uni boshqalari va xuddi shunga o'xshashlari bilan taqqoslaymiz, xolos». Ammo bu g'oyat qimmatli metodik qoidalar, A.Lyubenning metodikasi rus metodist-biologlarini qoniqtirar edi. Lekin uning hajmdorligi o'qituvchilarga og'irlik qilardi. Maktab o'qituvchilari tabiiy obyektlar ustida ish olib borishga qiynalar edi. O'sha vaqtda metodika ilgarigi vaqtlardagiga nisbatan bir qadam olg'a siljigandi. Lekin «lyuben-chilar»ning darstiklari va Lyubenning metodi ko'p o'tmay o'trozlarga sabab bo'la boshladi. Qimmatli metodik tavsiyalar mundarijaga mos kelmay qoldi, tizim bo'yicha bu xil morfologik materiallarni taqqoslash olib borish eng muhim biologik bilimlarni bermasdi. Mazmun va metodlar o'rtasidagi bunday ziddiyat maktab tabiat kursining mazmunini fan rivojlanishining yangi darajasiga muvofiqlashtirish muammosini keltirib chiqardi.

Bu muammoni hal qilishda Aleksandr Yakovlevich Gerdning sizmati katta bo'ldi. 1841-1888-yillarda yashab o'z asarlari bilan tabiat o'qitishning ilmiy metodikasini boshlab berdi. 1886-yil

«Uchitel» jurnalida yosh o'qituvchi A.Y.Gerdning «Tasviriy tabiat fanlarini o'qitish metodi to'g'risida» maqolasi chiqadi. U o'qitishning mazmuni hozirgi zamon ilmiy darajasiga mos tushishi va ilmiy dunyoqarashni tarbiyalashi lozim, deb hisoblaydi.

A.Y.Gerd tabiatni o'qitish bilan bog'liq holda tarbiyalash va birinchi galda dunyoqarashni tarbiyalash to'g'risidagi masalani qo'ydi. A.Y.Gerd tafakkur mustaqilligini, kuzatuvchanlikni, bilishga qiziqishni tarbiyalaydigan o'qitish metodini birinchi o'ringa surdi.

A.Y.Gerd umumiy metodika kursini yozmadi, lekin uning barcha asarlari darvincha materialistik g'oyalarga asoslangan maktabda, uyda, ekskursiyalarda tirik tabiat obyektlarini bevosita o'rganish yo'li bilan dunyoqarashni va mustaqil ish ko'nikmalarini rejali ravishda rivojlantiruvchi qat'iy metodik tizimni tuzish uchun boy material beradi.

60-yillarda tabiat predmetining (A.Y.Gerd asarlarida) mazmuni va uning bayon etilishi to'g'risidagi masala faqat metodika jihatdangina emas, balki ilmiy jihatdan ham hal qilinadi. Olimlar tabiat obyektlarini hodisalar bilan, organizmning tuzilishi va funktsiyasini muhit bilan bog'lab o'rganish zarurligini ko'rsatdi. XX asr boshida shu masalalarning mazmuni, metodlarini yangicha talqin etish davri boshlandi. Rossiyada kapitalizm shiddat bilan rivojlandi. Sanoat va savdo korxonalarida xizmat qilish uchun malakali mutaxassislariga kuchli ehtiyoj sezilib turardi. Fizika, ximiya, mineralogiya, biologiya va Yevropa tillarini yaxshi biladigan kishilar kerak bo'lib qoldi. 1894-yilga qonun Moliya vazirligiga, so'ngra Savdo hamda sanoat vazirligiga o'z ixtiyorida savdo bilim yurti bo'lishiga ruxsat berdi va yangi maktablar barpo qilindi. Ularning soni tez orada ko'paydi. Xalq maorifi vazirligi boshqa idoralar va shaxslarga qarashli maktablar ishiga kam aralashardi. Bu maktablarning o'z o'quv dasturi, darsliklari va bilim yurtida o'qitishning ilg'or metodlari bo'lardi.

XX asrning dastlabki o'n yilligida o'quv fani mazmunini tanlash va talqin qilish masalalari ham hal qilina boshlandi. Fanda fiziologiya muvaffaqiyat bilan rivojlandi. Ekologiya ilmi yuzaga keldi. Metodist tabiatshunos olimlardan Valerian Viktorovich

Polovsev (1862-1919) «O'rta maktabda o'quv fanining vazifalari to'g'risida»gi ma'ruzasida «Nima uchun tabiatni o'qitish kerak?» degan savol qo'ydi va uning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib berdi.

Metodikaning tarixiga oid tadqiqotlarni professor B.E.Raykov olib bordi. Uning V.F.Zuyev, V.V.Polovsev, A.Y.Gerd, A.P.Pavlov, I.I.Polyanskiy faoliyati haqidagi monografiyasi, shu olimlarning tanlangan asarlari, «Tabiatning umumiy metodikasi» (1947), «Tabiatshunoslik maorifining yo'llari va metodlari» (1960) nomli kitob va Darvingacha bo'lgan rus evolyutsionistlari to'g'risidagi bir qator asarlar chop etildi. Tabiat metodikasida so'nggi yillarda nazariy muammolarga biologik tushunchalarni rivojlantirish, o'qitish metodlarini aniqlash, o'quvchilarning idrok qilish qobiliyatini ish jarayonida tarbiyalash muammolari mansubdir.

Tushunchalarni rivojlantirish nazariyasining asoslanishi biologiya o'qitish metodikasida g'oyat katta voqea bo'ldi. Tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi maktab biologiya kurslaridagi o'quv materialining tanlanishi va joylashtirilishiga ilmiy zamin yaratdi hamda ta'lim va tarbiya metodlarini qayta ko'rib chiqishga ta'sir ko'rsatdi.

Tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi ikkinchi muammoni, ya'ni metodlarning mazmunga mos kelishi masalasini hal qiladigan o'ziga xos kalit vazifasini bajardi. Bu muammo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar metodlarini bilimlar manbaiga, o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatiga qarab birlikda belgilashga olib keldi.

Ko'p sonli metodlarning uchta: og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlar guruhlariga birlashtirilishi ularning mazmuniga moslashtirish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini rejali ravishda faollashtirib borish imkoniyatini berdi.

O'tgan asr tabiatshunos, biolog olimlari o'z qarashlari bilan fanning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdi. Biologiya fani rivojlanishining uch asosiy elementi mazmuni, metodlari va tarbiya, keyingi yillarda tushunchalarning, metodlarning va tabiiyaning birlikda rivojlanish qonuniyatlari aniqlandi.

Yuqorida faoliyati keltirilgan biolog, tabiatshunos olimlarning fanda qilgan ilmiy-nazariy, amaliy ishlari va bu fanning rivojlanishi, darsliklarning maktab o'quvchilari uchun mo'ljallanganligi maxsus tabiatshunoslikning rivojlanishiga ham ta'sir etdi.

Nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berish Oktabr to'ntarishidan keyin rivojlandi. 1920-yillarda bir qancha syezd, konferensiyalarda anormal bolalarni himoya qilish va ularga ta'lim-tarbiya berish haqidagi nizomlar ishlab chiqildi. Moskvada birinchi marta 1929-yil Defektologiya ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Ruhijismoniy kamchilikka ega bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularni mehnat qilishga tayyorlash bo'yicha dastur va ta'lim sinovlari olib tarbiyalash instituti ochilib, 1925-yilda bu institut Moskva davlat universiteti pedagogika kulliyotining defektologiya bo'limiga aylantirildi. Bo'lajak oligofrenopedagog yordamchi maktab o'qituvchilariga tabiatshunoslik maxsus metodikasi o'qitiladi. Bunda yordamchi maktablarning boshlang'ich sinflarida jonli va jonsiz tabiat haqida sodda ma'lumotlar berilar edi.

Yordamchi maktabda boshqa fanlar rivojlanishi bilan tabiatshunoslik fani ham rivojlana bordi. Bu fan orqali aqli zaif o'quvchilarni mustaqil mehnatga o'rgatish, ya'ni botanika darslari orqali o'simliklarni parvarish qilish, qishloq xo'jaligida sabzavot, mevalarni yig'ishda kattalarga yordam berish orqali amalga oshirildi, zoologiya darslarida hayvonlarga bo'lgan munosabatlar shakllantirildi, "Odam va uning tuzilishi" fanini o'qitish orqali o'z organizmining tuzilishi, sog'liqni saqlashdagi omillar haqida tushunchalarga ega bo'lishi uchun yordamchi maktab o'qituvchilari o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar olib bordi.

Tabiatshunos olimlar K.P.Yagodovskiy va Y.A.Isayenko 1946-yilda yordamchi maktablar uchun tabiatshunoslik metodikasi kitobini nashr qildi. Olimlar yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'qitishda, ularning jismoniy-ruhiy kamchiliklarini hisobga olgan holda, tabiat haqida elementar bilimlar berishda oddiydan murakkabga qarab ta'lim berish va albatta har bir hodisa va jarayonni ifodalashda ko'rgazmalilikning roli, o'qitish metodlaridan o'qituvchilar to'g'ri foydalanishi kerakligini uqtirdi.

1957-yilda Y.A.Yakushev va Y.Yakushevaning «Yordamchi maktabda qishloq xo'jalik ta'limini tashkil etish» kitobi va N.M.Verzilin, V.M.Korsunskayaning «Biologiya o'qitishning umumiy metodikasi» asari talabalar uchun darslik sifatida nashr qilindi.

4.2. Yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'qitishning ta'limiy ahamiyati

Har qanday fan bo'yicha ta'lim beruvchi o'qituvchi o'z fanining ustasi, chuqur bilimlarga ega, ayniqsa, hozirgi zamon texnologiyasi asosida didaktik o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya bersagina, talabalar, o'quvchilarning o'z faniga nisbatan qiziqishini oltiradi.

Yordamchi maktab o'quvchilariga tabiatshunoslik fanidan beriladigan ta'lim o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bizga ma'lumki, yordamchi maktab turli xil kontingentga ega bo'lgan o'quvchilardan tashkil topadi. Bunday o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beradigan har bir fan o'qituvchisi ularning darsni tushunish qobiliyati, nutqi, idrok qilish iqtidori, tafakkuri qay darajada rivojlanganligini oldindan bilishi va shunga asosan darsga tayyorlanib o'quvchilarning xususiyatlariga qarab darsni yakka (individual) va guruhli (frontal) tushuntirishi kerak. Albatta, aqli zaiflikning yengil shaklli (debil)dagi bolalar bilimlarni tezda o'zlashtiradi, bunday bolalar uchun zerikib qolmaydigan murakkabroq mavzu bo'yicha savollar berilishi maqsadga muvofiqdir. Ayrim tabiatshunos o'qituvchilar yaxshi o'zlashtira olmaydigan, aqli zaiflikning o'rta shaklidagi o'quvchilar (oligofren) bilan darsning o'zida alohida ish olib boradi. Darsda o'tirgan debil bolalar to'polon qilib hammaga xalaqit beradi. Tabiatshunoslik fanidan beriladigan har bir mavzu aqli zaif o'quvchilarning ruhiy va jismoniy kamchiliklarini hisobga olgan holda tuzilgan. Tabiatshunoslik fanini aqli zaif o'quvchilarga o'qitish orqali ularning tabiatga bo'lgan munosabatlari boshlang'ich sinfdan to 8-sinfgacha rivojlanib mustahkamlanib boradi. Ular biologiya, zoologiya fanlaridan bilim oladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'simliklarning xilma-xilligi, yovvoyi o'simliklar, madaniy o'simliklar, ularni parvarish qilish va ulardan foydalanish kabi tushunchalarni beradi. O'quvchilar uyda o'stiriladigan o'simliklarni tushunib, maktab hovlisida o'sadiganlarini ko'radi, ularni sinfdan tashqari mashg'ulotlarda parvarish qiladi. Ayrim

o'simliklarni iste'molda qo'llash mumkinligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi. O'simliklar dunyosi va hayvonot olami boblaridan ta'lim berishda aqli zaif o'quvchilarda maktab yer uchastkasida, fermalarda qoramollarga qarash, boqish, ulardan foydalanish; dalalarda poliz ekinlarini, bog'larda mevalarni terib olishga ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Yordamchi maktab o'quvchilariga tabiatshunoslik darslarida ta'lim berish bilan ularni mehnatning eng oddiy turlariga, ayniqsa, ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatish yordamchi maktab oldida turgan eng asosiy vazifa hisoblanadi. Aqli zaif o'quvchilarga sakkiz yillik bilim berishda, ayniqsa, tabiatshunoslik darslarining roli kattadir. Darsda olgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar keyingi hayotlarida, albatta, qo'llay oladi.

Tabiatshunoslik o'qituvchisining har bir darsni ko'rgazmali materiallar asosida olib borishi o'quvchilarning idrok qilish, xotira, analiz, sintez qilish qobiliyatlarining rivojlanishiga, ko'rgazmali qurol o'quvchi ko'z o'ngida uzoq saqlanib qolishi keyingi mavzuni bog'lab o'rgatishda asos bo'ladi. Shunday qilib, tabiatshunoslik bo'yicha olingan bilim, ko'nikma, orttirilgan malakalar aqli zaif o'quvchilarning hayotda o'z o'rinlarini topishiga zamin hozirlaydi.

4.3. Tabiatshunoslikni o'qitishning tarbiyaviy ahamiyati

Ta'lim tizimida islohotlar o'tkazish va pedagoglarni zamon talablariga javob beradigan qilib tayyorlash masalalari, ularning xalqimizning, ajdodlarimizning tabiatga bo'lgan munosabatlari, ijod va bunyodkorlik ishlarini, mutafakkirlarning ijodini yaxshi o'rganish va yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda ularning xizmatlarini o'rganish eng dolzarb tarbiya vositasi hisoblanadi.

Yordamchi maktab o'quvchilarida tabiatshunoslik darslarida fanning mazmuni va o'rganish metodlari bo'yicha milliy qadriyatlarni tarbiyalash, jonli va jonsiz tabiatni sevish, ardoqlashga o'rgatish – muhim vazifa. Kelajak avlodlarning tafakkuri, dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirib, ularning bunyodkorlik faoliyatini oshirish

mustaqillik poydevorini mustahkamlashga yordam beradigan vorislarni tarbiyalash lozim.

– Tabiat in'om etgan barcha narsalarni avaylash, ko'paytirish hissi tarbiyalash.

– Tabiatning paydo bo'lishi va o'zgarib turishini fan tilida tushuntirish.

– Tafakkurning mustaqilligi va bilimga qiziqishni rivojlantirish, busiz bilimning ongli bo'lishi hamda ishonch va dunyoqarashni shakllantirish mumkin emas.

– Yashab turgan o'lka, mahalla, maktab atrofidagi o'simliklarni, hayvonlarni, jonsiz tabiatni avaylab-asrashda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish.

– Nazariya bilan amaliyotni birga olib borish, o'quvchini kasbga tayyorlash.

– O'quvchilarda mehnat madaniyati va ko'nikmasini kelajakda mustaqil ravishda qo'llay olish.

– Tabiat bilan munosabatda bo'lish ta'sirida go'zallikni his qila olish tuyg'usini, shunga bog'liq holda Vatanga muhabbatni uyg'otish ko'nikma va malakalarini tarbiyalash.

Tarbiya rejali ravishda, muayyan tizimda, bilish faoliyatiga bog'liq holda, o'quv materialining mazmuni va uning didaktik faoliyatlar bilan yoritilishiga, o'qitishning metod va shakllariga qarab amalga oshiriladi. Bunday tarbiyaga butun pedagogik faoliyatning maqsadga yo'nalganligi bilan erishiladi. O'qituvchi tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida har tomonlama tarbiyaning imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin. Bunda pedagogik hisobga olish va o'quvchilarning bilish faoliyatlarini hisobga olgan holda bilim va tarbiya oddiy usullarda, tushunarli qilib aqli zaif o'quvchilar ongiga yetkaziladi.

Ta'limga bog'langan holda, tarbiya g'oyat murakkab hamda o'quvchilarning bilish va o'zlashtirish faoliyatlarini nazarda tutib ish ko'rishni talab etadi. U faqat, ozmi-ko'pmi, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv materialining mazmuni bo'yicha o'quvchilarga axborot berishdan iborat bo'lishi mumkin emas. Tarbiya tarbiyaviy xarakterdagi bilimni esda qoldirishdangina emas, balki bilimlarni ishonchga aylantirishdan ham iboratdir. Bu

ishonch oqibatida tizimni, dunyoqarashni shakllantirish kerak. Bunday tarbiya, ishonch o'quvchilarning odamlarni o'rab olgan dunyoga bo'lgan munosabatida, odatlarida, ish qilishida, xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

Tarbiya darslarda chegaralangan tarzda olib boriladi, haqiqatda esa tarbiya faqat darslarda emas, balki o'quvchilar bilan reja asosida olib boriladigan o'quv ishlarining barcha shakllarida (ekskursiyalarda, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda) muntazam davom ettirilishi lozim.

5-bob. TARBIYA ELEMENTLARINING O‘ZARO BOG‘LANISHI

O‘quvchilarni tarbiyalash mustaqil tafakkurni va o‘rab olgan dunyoga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tafakkurni tarbiyalash mehnatda va hayotda bilishni tatbiq qilish bilan ham bog‘liq.

Mehnat madaniyatini tarbiyalash bilan nafosat, estetik madaniyat tarbiyalanadi.

Estetik tarbiya idrok qilish va etika bilan, tabiat, turmush va mehnatga ta’sirli munosabatda bo‘lish bilan bog‘liq.

Etik (axloqiy) tarbiya dunyoqarash, idrok qilish va jamoadagi, tabiatdagi, oiladagi mehnat bilan bog‘liq.

Har bir element tarbiya, idrok qilish va o‘quvchilarning faoliyati bilan bog‘liq. Tarbiyaning barcha elementlarining bunday o‘zaro bog‘lanishi uning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Har bir tarbiyaviy elementda har qaysi bilim manbaidan (o‘qituvchining so‘zi, texnik vositalar, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tabiat hodisalari, hayvonlar haqidagi ertak kitoblar)dan olingan idrokiy materiallarning mazmuni ham, idrok qilish metodi (kuzatish, tajribaning mustaqillik va murakkablik darajasi) ham, idrokni tashkil qilish shakli (dars, ekskursiya, uy ishi yoki darsdan tashqari ish) ham rol o‘ynaydi. Tarbiyaning har qaysi elementi tushunchalar, metodlar va metodik uslublar tizimi vositasida amalga oshiriladi. Har qanday tarbiyaviy vazifaning natijasi o‘quvchilar tomonidan nechog‘li mustahkam va ongli ravishda o‘zlashtirilganligiga bog‘liqdir. Bilimlarni egallash o‘quvchilarning atrof-dunyoga munosabatlarining paydo bo‘lishi, ayniqsa, aqli zaif o‘quvchilarning tevarak-atrofni, tabiat hodisalarini asta-sekinlik bilan tasavvur qilishi va tabiatga bog‘lanib ishlashi xarakterli xususiyatlardan biridir.

Yordamchi maktabda ta’limning tarbiyalovchi xarakterda bo‘lishi. Aqli zaif bolalarga bilim berish bilan birga asosiy e’tibor ularda shaxsiy sifatlarini shakllantirishga qaratiladi. Yordamchi maktab o‘quvchilari respublikamizning turli joylarida qishloq

xo'jaligi, fermalarda poliz, bog', xo'jalik ishlarida maktabni bitirgandan so'ng mustaqil ishlab keta olishi uchun xizmat qiladi va zamin tayyorlaydi. Yordamchi maktab tabiatshunoslik va mehnat darslarida mehnatning eng oddiy turlarini egallashga ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Yuqoridagi tarbiya elementlarining o'zaro bog'lanishida aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati korreksiyalanadi.

Dunyoqarashni tarbiyalash

Yordamchi maktabda o'qitiladigan har bir fan o'quvchilarga ma'lum doiradagi elementar bilim, uquv va ko'nikmalar berish bilan birga, yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini ham tarbiyalaydi.

Korreksion tarbiya



1-jadval. Tabiatshunoslikni o'qitishda tarbiya elementlarining o'zaro bog'lanish jadvali.

Bunday dunyoqarash kishilarda ilmiy tasavvur va tushunchalarni shakllantiradi, bu tizim kishining o'rab olgan dunyoga munosabati va jamoadagi hamda jamiyatdagi xulq-atvorini belgilaydi. Odamning faqat tabiat va jamiyat to'g'risidagi fan va amaliyot asoslagan bilimlari izchil va ta'sirli bo'ladi, chunki ular diniy taassub va irimlar, diniy qarash va harakatlar bilan murosasizdir. Har qanday dunyoqarashning mag'zini falsafiy qarash tashkil qiladi. Tabiat qonuniyatlarini tushuntiruvchi dunyo-

qarashning falsaliy asosi dialektik materializm, tabiat hodisalarini bilishning dialektik metodi va ularni materialistik tushuntirishdir.

Tabiatni idrok qilishning dialektik metodi har bir organizmga qarana-qarshi jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasida abadiy deb qaraydi. Idrok qilishning dialektik metodi xususiyatlariga ko'ra, maktabda tabiatshunoslik darslarida o'rganiladigan tirik tabiatning har bir hodisasiga boshqa hodisalar bilan ajralmas bog'lanishda, oddiydan murakkabga, pastdan-yuqoriga tomon, hayotiy jarayonlarning ziddiyatli xarakterini ochib berish bilan rivojlanishda, harakatda, deb qaraladi.

Tabiatshunoslik o'qituvchisi o'quv materialini tashlashda va ularni o'quvchilarga sodda qilib tushuntirishda dialektik-materializming asosiy qoidalariga e'tibor berib, misollar orqali tushuntirishi kerak. O'qituvchi yordamchi maktab dasturi asosida bilimlarni berish metodlarinigina emas, balki dunyoqarashni tarbiyalash tizimini tashkil qilishni ham belgilaydi. Bu bilan butun pedagogik jarayonda tarbiyalovchi ta'lim tamoyili amalga oshiriladi.

5.1. Aqli zaif o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning korreksion ahamiyati

Aqli zaif o'quvchilarga jonli va jonsiz tabiat haqida bilimlar berilar ekan, albatta, tirik organizmlarning yashash sharoiti, ularning o'zi yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabati asosida vujudga keladigan qonuniyatlar o'rganiladi.

"Ekologiya" yunoncha so'z bo'lib, tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini bildiradi.

Yordamchi maktab tabiatshunoslik fanini o'rganishda aqli zaif o'quvchilarga o'simliklar ekologiyasi (6-sinf); hayvonot olami ekologiyasi (7-sinf) bo'limlarida o'simliklarning morfologik, fiziologik, ekologik, agrotexnik xususiyatlari va zootexnik, sanitar-gigiyena qoidalariga amal qilishni o'rgatishdan iboratdir.

Jonsiz tabiat bo'limlarini o'zlashtirishda esa tuproq mahsuldorligini oshirish borasida mineral o'g'itlardan foydalanish, tuproq

mahsuldorligini oshirish maqsadida ba'zi ekinlarning joylashish strukturasi o'zgartirib turish kerakligining ahamiyati o'rganiladi.

Ekologik ta'lim-tarbiyani aqli zaif o'quvchilarga dars mobaynida, darsdan tashqari ishlarda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Ekologik ta'lim-tarbiya quyidagi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi.

1. Aqli zaif o'quvchilarni tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

2. Jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar, shuningdek, inson xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'siri oqibatlarini haqida bilim berish.

Aqli zaif o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash, undan to'g'ri foydalanishni o'rgatish, ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida mas'uliyatni anglash malakasini hosil qiladi. Vatanni sevish, vatanparvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin, o'quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg'usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas.

Insonning tabiat quchog'ida bo'lishi uni ruhan tetiklashtirib mehnat qobiliyati va faoliyatini oshiradi.

Ekologik tarbiya quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

a) kishilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda bu sohada muayyan malaka hosil qilish;

b) ekologik o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishni tarbiyalash;

v) ekologik madaniyatni singdirish va tarbiyalash;

g) kishilarni tabiat in'omlaridan to'g'ri foydalanish ruhida tarbiyalash.

Tabiatning normal holati uchun fuqarolik manfaatini to'la anglash ekologik ta'lim va tarbiyaning ifodasidir.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik tarbiya masalasi pedagogika va psixologiya masalalarining eng muhim tarkibiy qismidir.

Aqli zaif o'quvchilarga tabiat qonunlariga to'la rioya etish masalasida Vatan, xalq, davlat va kelajak avlod oldidagi burch tuyg'usi hosil qilinmasa, ularda to'la ekologik ong va tafakkur hosil bo'lmaydi.

Ekologik tarbiya axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Hamma bosqichlarda ta'lim-tarbiyani talab etilgan darajada amalga oshirish uchun bu vazifaning muhimligi va mas'uliyatini yaxshi bilgan yoshlarni tayyorlash zarur.

Ekologik ong va tafakkurga ega bo'lgan har bir kishi o'z mehnat faoliyatida tabiatga ta'sir etish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'rib, ongli ravishda ish tutadi. Tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini bilmaslik, ekologiya bilimlaridan bexabarlik go'yo tabiatda «o'z-o'zidan boradigan» ekologik muvozanatning mavjudligi, qandaydir «yopiq ekologik tizim»ning borligi, tabiatning qaytadan tiklanishiga aralashmaslik to'g'risidagi tamoman zararli fikrlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarga hadislardan misollar keltirib tarbiyaviy ta'sir etish mumkin.

Xalqimiz qadimdan "Badanning quvvati ovqat, aqlning quvvati hikmatli so'zdir", deb uqtirib kelgan. Hadislar ana shu fikrning yaqqol isbotidir. Ularda ayrim o'simlik va hayvonlarning xosiyatlari, ozuqa zanjirida tutgan o'rni, shuningdek, ahamiyati kabi tomonlari bayon etilgandir. Hadislarning ayrim bandlari insonni tabiat boyliklarini tejab-tergash va uni muhofaza qilishga o'rgatadi. Chunonchi, hadislarda "Qo'y boq, zero ayni barakadur" deyiladi. Bu yerda foydali hayvonlarni ko'paytirish va ulardan turli maqsadlarda foydalanish mumkinligi e'tiborga olingan.

Aqli zaif o'quvchilarning ekologik bilimlarini aniqlash uchun o'qituvchi o'quvchilarga savolnomalar tuzishi, ulardagi ekologik tushunchalarni aniqlashi mumkin.

"Nima uchun suv – hayot manbai, uning qanday paydo bo'lganligini bilishni istaysizmi?", "Orol dengizi bugungi kunda qanday ahvolda?", "Suvni tejashga, ifloslanmasligiga qanday yordam berasiz?", "Iflos suvlar tirik organizmga qanday ta'sir etishi mumkin?" kabi savollar berish mumkin. Aqli zaif o'quvchilarda ekologiyaga oid hadislarni tushuntirish, savollar berish ularning tabiatga bo'lgan munosabatini tarbiyalaydi.

Savollar

1. Ekologik ta'lim nima?
2. Ekologik tarbiya nima?
3. Aqli zaif o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati nimadan iborat?

5.2. Yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'qitishning korreksion ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari

Yordamchi maktabda aqli zaif o'quvchilarga tabiatshunoslik fanini o'qitish ularda kuzatiladigan ruhiy va jismoniy kamchiliklarni bartaraf etish, bilish faoliyatidagi idrok, xotira, tafakkur, nutq malakalarini rivojlantirish orqali (korreksion) to'g'rilash ishlari amalga oshiriladi.

Pedagogik korreksion ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati bilan barcha ta'limiy ishlar, malakalar, emotsional-irodaviy muhit, jismoniy kamchiliklar ham bartaraf etiladi. Aqli zaif o'quvchilarning go'zallikni his qilishi, "Oh! Tabiat buncha go'zal!", "Bu gullar buncha chiroyli!" kabi his-hayajon so'zlarni aytishi ularda go'zallikka qiziqib qarashga ko'nikma uyg'otish orqali amalga oshiriladi.

"Korreksiya" so'zi "tuzatish", "yaxshilash", "to'g'rilash" demakdir. Jismoniy va ruhiy taraqqiyotdagi kamchilik, nuqsonlarni pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki bildirmaydigan holatga keltirish demakdir.

Korreksiyaning aniq maqsadi, vazifalari va usullari o'quvchining individual xususiyatlari va taraqqiyotdagi kamchiliklariga qarab belgilanadi. Korreksion-tuzatish masalalari maxsus pedagogikaning turli sohalarida o'rganiladi. Korreksion vazifalar, ayniqsa, tabiatshunoslik, nutq o'stirish, ona tili, o'qish va boshqa darslarda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiat haqidagi oddiy tushunchalar jonsiz va jonli tabiat ko'rinishlarini tushuntirish orqali singdiriladi. Masalan, "Mustaqillik bayrami qachon nishonlanadi?", "Sentabr qaysi oy?", "Kuz faslida tabiatda qanday o'zgarishlar

kuzatiladi?" kabi savollar o'quvchilarga tushunarli, sodda tilda tushuntirilishi kerak. Javob bera olmagan o'quvchilarga o'qituvchi o'z harakatida qanday bo'lishini, daraxtlarning bargi sarg'aya bo'lishini, meva va poliz ekinlarining g'arq pishganligini, dalalarda ishlarning qizg'in borishi, paxta terimi, bog'- dalalarda yetilgan meva va poliz ekinlarining farqini tushuntirishi kerak. Tabiat haqidagi bilimlarni ular ongiga singdirish orqali aqli zaif o'quvchilar bilim faoliyati (idrok, tasavvur, tafakkur, nutq) koreksionlanadi. O'quvchilarga beriladigan tabiat haqidagi bilimlar sodda, oddiydan murakkabga qarab borishi kerak.

Boshlang'ich sinfdan boshlab tabiatga bo'lgan, go'zallikni his ettiruvchi emotsional holatlar tarkib toptiriladi. O'quvchilar nutqi tezarak-atrof bilan tanishtirish orqali rivojlantiriladi. Dastlab o'quvchilarga tabiatshunoslik fani nimani o'rgatishi, tabiat deb nimaqa aytilishi, suv, yer osmon, foydali qazilmalar tabiat ekanligini oddiy so'zlar bilan tushuntirish kerak. Qanday narsalar tirik tabiatni va qanday narsalar jonsiz tabiatni tashkil qilishi, tabiat inson hayoti uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida tasavvur hosil qilish va o'rganish malakalarini hosil qildirish lozim. O'quvchilarda tabiat haqida, uning jonli va jonsiz tabiatga bo'linishi haqida bir butun dastlabki tasavvurlar hosil qilinadi.

Aqli zaif o'quvchilarga tabiat haqidagi bilimlarni berish faqat ko'rgazmali materiallar asosida bo'ladi. Bunda o'quvchilarni maktab atrofidagi tabiatga olib chiqish, tabiatni kuzatish, undagi o'zgarishlar mohiyatini o'rganish kabilar o'qituvchi tashabbusi orqali amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi:

a) tabiat, uning tarbiyaviy qismlari: tirik va jonsiz tabiat haqida suhbat o'tkazishi ;

b) tabiat va uni muhofaza qilishning kishilar hayoti uchun ahamiyati haqida suhbatlar tashkil etishi, so'ngra, o'quvchilardan so'rashi kerak.

O'quvchilarning nutqi, tafakkuri, idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o'qituvchi tabiatshunoslik darsini tabiatda, maktab uchastkasida, parkda, dalada, bog'da o'tkazishi maqsadga muvofiqdir.

Chunki aqli zaif o'quvchilar bir sharoitda (masalan, sinfdan o'rgangan tabiat haqidagi bilimlar) boshqa sharoitda so'ralganda,

oldin olgan bilimlarni taqqoslab tushuntirib bera olmaydi. Ularda tez esdan chiqarish holatlari uchrab turadi. Shuning uchun tabiatshunoslik fani o'qituvchisining darsni turli joylarda o'tkazib, hayot bilan bog'lashi zarurdir.

O'qituvchi tabiatni kuzatish orqali bolalar e'tiborini tevarakatrofdagi tabiat predmetlariga qaratadi, ularning nomlarini aytadi, bu predmetlarning qaysilari jonsiz tabiatga, qaysilari tirik tabiatga kirishini birma-bir tushuntiradi, so'ngra o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar tabiatshunoslikka doir aniq ta'riflar berishga o'rgatiladigan dastlabki ishlar ana shunday boshlanadi, tabiatshunoslikka oid aniq ta'riflar esa o'quvchilarda tabiat haqida tushunchalar hosil qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari, tirik va jonsiz tabiat predmetlarini guruhlarga ajratish orqali kichik yoshdagi o'quvchilarda tabiat obyektlarini tasniflay olish malakasi hosil qilinadi. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga tirik va jonsiz tabiat predmetlari o'zaro chambarchas bog'langanligini, o'simliklar suvsiz, Quyosh issig'isiz va nursiz yashay olmasligini tushuntirib beradi. Hayvonlar va o'simliklar, havo, Quyosh harorati bo'lmasa, yashay olmaydi. Demak, jonli va jonsiz tabiat predmetlari bir butunlikni – tabiatni tashkil etadi.

Bo'lajak oligofrenopedagog aqli zaif o'quvchilar bilan tabiatshunoslik darsida korreksion to'g'rilash ishlarini olib borish uchun har bir darsda o'qitish uslublaridan to'g'ri foydalanishi kerak. Dars samaradorligini oshirish o'quvchilarning esda saqlab qolish qobiliyatini to'g'rilash maqsadida, zamonaviy, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish aqli zaif o'quvchilarning tabiatga, darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Aqli zaif o'quvchilarga beriladigan savollar aniq bo'lishi lozim. Ko'rgan, eshitgan obyekt bo'yicha yoki shu obyektни ko'rsatib, savollar berib o'quvchining idroki, tafakkuri aniqlanadi va barcha bilish faoliyatlarini korresiyalash ishlari olib boriladi.

Savollar

1. Korreksiya nima?
2. Korreksiya qachon va qanday yo'llar orqali amalga oshiriladi?
3. Korreksion ishlarni yaxshi yo'lga qo'yish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish mumkin?

5.3. Yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'qitish

Yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'qitishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Jonli va jonsiz tabiat, ya'ni suv, havo, foydali qazilmalar, tuproq, shuningdek, o'simliklar, hayvonlar va odam organizmining tuzilishi hamda hayoti haqidagi bilimlarni o'quvchilarga yetkazish.

2. Tabiat hodisalari (yomg'ir, qor, shamol, fasllar, o'simliklar) haqidagi tushunchalarni o'quvchilar ongida hosil qilish.

3. Tabiatga nishatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, tabiatni sevish, ardoqlash, parvarish qilish, go'zallikni his qila olish xislatlarini tarbiyalash.

4. O'quvchilarda tirik tabiat burchagida boqilayotgan hayvon va o'simliklarni parvarish qilish kabi mehnatning eng oddiy turlarini bajarish ko'nikmalarini hosil qilish.

5. Sog'liqni saqlash va mustahkamlash haqida tushunchalar hosil qilish.

6. Uy, yashash joyi tabiat-ekologiyasi haqidagi bilimlarni tushuntirish.

Yordamchi maktabda tabiatshunoslik fanini o'qitish aqli zaif o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Tirik va jonsiz tabiat bilan tanishtirish jarayonida o'quvchilarda kuzatuvchanlik, nutq va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga sabab-oqibat munosabatlari va o'zaro bog'liqlikni belgilashning eng oddiy usullarini o'rgatish lozim. Har bir fan bo'yicha mavzular, mashg'ulotlar o'tish uchun tegishli jihozlarga, ko'rgazmali qurollarga ega bo'lish kerak. O'quv mashg'ulotlari maxsus jihozlangan tabiatshunoslik xonalarida olib borilishi lozim. Yuqoridagi vazifalarni hal etish darsda, darsdan

tashqari ishlarda amalga oshiriladi. Shu tariqa aqli zaif o'quvchilarning kelajakda kasb tanlab, ishlashlariga zamin tayyorlanadi.

5.4. Yordamchi maktabda tabiatshunoslik kursining mazmuni, tamoyili va tizimi

Hozirgi zamon tabiatshunoslikni o'qitish metodikasida o'quvchilarga beriladigan yangi ta'lim mazmuni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tishdir. Istiqlol tufayli ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, davr talablariga mos keladigan o'quv dasturlari, darsliklar yaratish, uzluksiz ta'lim tizimini ishlab chiqish amalga oshirildi. Aqli zaif o'quvchilar yordamchi maktabida tabiatshunoslik fanini o'qitishda yangicha o'qitish usullari, yangi pedagogik texnologiyaning ustuvor metodlarini qo'llash, didaktik usullardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Har bir fan o'z mazmuniga ega bo'lganidek, yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'qitishda tabiat haqidagi dastlabki bilimlar o'qish, ona tili, rasm darslarida beriladi. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish orqali o'quvchilarning idroki, nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Tabiatshunoslik fani biologiya, oligofrenopedagogika, maxsus pedagogika, geografiya, nutq o'stirish fanlari bilan bog'liqdir. Aqli zaif o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda olgan bilimlari yuqori sinflarda kengaya boradi. Boshlang'ich sinfdan boshlab tabiat haqidagi bilimlarni egallash natijasida aqli zaif o'quvchilar bilish faoliyatidagi psixik faoliyatlar: nutq, idrok, tasavvur, tafakkur, taqqoslash kabi kamchiliklar to'g'rilanadi (korreksiyalanadi).

Tabiatshunoslik fani o'z tarkibiga quyidagi bir necha bo'limlarni oladi.

- Jonsiz tabiat 5-sinf; (34 soat)
- O'simliklar (botanika) 6-sinf; (58 soat)
- Hayvonlar (zoologiya) 7-sinf; (68 soat)
- Odam (anatomya) 8-sinf; (68 soat).

Mazkur dastur asosida tuzilgan o'quv metodik qo'llanmada har bir bo'limning mohiyati, fanlarning ma'lum izchilikda joylashuvi

ko'rsatilgan. Jonsiz tabiat to'g'risidagi boshlang'ich bilimlar asosida VI sinfda o'tiladigan o'simliklar (botanika) dasturi, darsligi tuziladi. Hayvonlarni o'rganishdan oldin o'simliklarni o'rganishda hayvonlar hayotining ko'p jihatdan o'simliklarga bog'liqligi, o'quvchilar uchun hayvon organizmining hayotiy jarayonlarini, ayniqsa, hayvonlarning xulq-atvorini tushunish o'simliklar hayotiga nisbatan qiyin ekanligi nazarda tutiladi. 7-sinfda hayvonlarning o'rganilishi o'quvchilarni undan keyingi 8-sinfda o'tiladigan odam anatomiyasi fiziologiyasi va sog'liqni saqlash hamda hayotiy faoliyatlarni mehnat va ijtimoiy muhitga bog'liq holda sifatan o'ziga xosligini taqqoslash yo'li bilan yaxshiroq o'zlashtirib olishiga yordam beradi. Boshqa fanlar kabi, tabiatshunoslik fani ham material, faktlar, tushunchalar, qonunlar-ning tanlab olinishi bilan farq qilinadi. Yordamchi maktab tabiatshunoslik fanining mazmuni materialning ilmiyligi va uning o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishining birligi bilan belgilanadi. Maktab tabiatshunoslik fanining mazmuni shu tarixiy davrdagi faning rivojlanish darajasiga mos kelishini ko'zda tutadi. Shundaydek, tabiatshunoslik bo'yicha beriladigan bilimlar aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyatiga mos ravishda, ular o'zlashtira oladigan qilib tuzilganidir.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda defektolog talabalarga va yordamchi maktab o'quvchilariga saboq berishda sobiq Rossiyada chiqarilgan adabiyotlardan foydalanilar edi. O'quvchilar tabiatshunos olimlarning Rossiya o'lkalari tabiati haqida, o'simliklari, hayvonlari, jonsiz tabiati haqidagi ma'lumotlarini o'rganar edi. Bu bilimlar ular uchun mavhum, tushunarsiz bo'lardi.

Mustaqillik sharoitlari va istiqloq yaratgan imkoniyatlar tufayli ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, davr talabiga mos keladigan o'quv dasturlari, darsliklar yaratish, uzluksiz ta'lim tizimini ishlab chiqish amalga oshirildi. Hozir biz tafakkurga, fikr musobaqasiga ehtiyoj har qachongidan ham kuchaygan bir davrda yashamoqdamiz. Binobarin, yoshlar ongi va tafakkurida keskin burilish yasash orqali mamlakat intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish, insonlar ongida yillar davomida shakllangan fikrlashni, tushunchalarni tezda o'zgartirish oson emas. Buning

uchun respublikamizdagi ta'lim-tarbiya tizimiga alohida e'tibor qaratilishi, bilimlar talaba va o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, ta'limning turli usul va uslubiyatlari orqali ularga yetkazilishi, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tilishi, darsliklar o'quvchi uchun tushunarli tizim asosida bo'lishini ta'minlash zarur.

Yordamchi maktab o'quvchilariga o'tiladigan tabiatshunoslik umumta'lim maktabi tabiatshunoslik fanini o'qitishdan vazifalari jihatdan farq qiladi. Yordamchi maktabda, asosan, aqli zaif o'quvchilarning tabiatshunoslikdan beriladigan bilimlarni o'zlashtira olishiga qarab umumta'lim maktabi tabiatshunosligidan soddalash-tirib olingan. Yordamchi maktabga doir ilmiy axborotlardan ta'lim-tarbiyaga oid eng qimmatli o'quv materiallari tanlangan. Bunda fanning metodikada belgilangan tirik organizmlarning tuzilishi va funksiyalari, muhitning, tabiiy hodisalarning sabablari va o'simliklarning rivojlanishi, hayvon va odam organizmining o'zaro bog'lanishlarini sintez qiluvchi shakl strukturasi, ularning hayoti, rivojlanishi, foydali tomonlarini tushuntirish ko'zda tutilgan, tabiatshunoslik fani turli sohalarining qisqartirilgan bayoni emas, balki ularning metodik jihatdan tanlangan, tizimga solingan va qayta ishlangan elementlaridan biridir.

Tabiatshunoslik kursining izchilligi aqli zaif o'quvchilarning yoshi, bilish faoliyati, materialni o'zlashtirish qobiliyatiga qarab o'quv materialining tushunarli, sodda bo'lishi va mazmunidagi zarur bog'liqlik bilan belgilanadi.

V-VIII sinflardagi tabiatshunoslik bo'limlarini o'rganishdan oldin I-IV sinfgacha «Nutq o'stirish», «Predmet darsi», «Tevarakat-rof bilan tanishtirish» orqali suv, havo, mavsumiy o'zgarishlar, kishilar mehnati, tabiat hodisalari kabi tushunchalar berib, tabiat haqida oddiy tushunchalarga ega bo'lgan malakalar hosil qilinadi. Bu bilimlar sinfdan sinfga o'tganda V sinfda «Jonsiz tabiat», VI sinfda «O'simliklar», VII sinfda «Hayvonlar», VIII sinfda «Odam» kurslarini o'rganishda murakkablashib, kengayib boradi.

Tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishda aqli zaif o'quvchilar bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar: o'quv materialining tushunarli bo'lishi uchun har bir o'quvchiga yakka

(individual) yondashish ta'limning barcha bosqichlarida, masalan, uy vazifasini bajarish; yangi mavzuni mustahkamlashda, savol-javobda, mustaqil vazifalarni bajarishda muntazam ravishda olib boriladi (yordamchi maktab tabiatshunoslik o'qituvchisi aqli zaif o'quvchining bilish faoliyati bo'yicha elementar tushuncha hosil qila olishi kerak). Yordamchi maktablarning sinflarida ta'lim-tarbiya, yuqorida ta'kidlaganidek, tayyorgarlik darajasi bir xil bo'lmagan, o'zlashtirishi turlicha, ham past bo'lgan o'quvchilardan tashkil topgan. O'qituvchi an'anaviy tashkil qilingan ta'lim sharoitida hammaga bir xilda vazifa, barobar bilim bera olmaydi. Shuning uchun dars yakunida uy vazifasi, topshiriqlar, o'rtacha darajadagi o'rta o'zlashtiruvchi, past o'zlashtiruvchi, past darajali o'zlashtiruvchilarga mos ravishda bilim berishga majbur bo'ladi. Aqli zaif bola dastlab maktabga kelganida nutqi ham kambag'al bo'ladi. 2-3 ta so'zni zo'rg'a aytadi, xolos, ularni boshlang'ich sinflarda nutqi tabiat bilan tanishtirish orqaligina zo'rg'a rivojlanadi. Tabiatshunoslik darslarida differensiyalashgan yondashish o'quvchilarning umumiy xususiyatlariga (ularning o'zlashtirish xususiyatiga) dastur materialini o'zlashtirish saviyasiga, o'rtacha va past guruhlarga shartli ravishda bo'lishni, ya'ni sinfda differensiyalashni ma'lumlaydi.

Bu xususiyatlarga asoslangan holda, o'qituvchi har bir guruhga maxsus vazifalar taymlaydi. Bunday ish tizimining tarbiyaviy tomoni juda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z bilimiga qudrat topshirig' olganligi tufayli, yuqori baho olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bunday vazifalar ularning o'qish faoliyatiga ijobiy ta'vir ko'rsutib, o'qishga qiziqish hissinu uyg'otadi.

Savollar

1. Yordamchi maktab tabiatshunoslik o'qitish kursining mazmuni nimadan iborat?
2. Tabiatshunoslik kursi qanday izchillikda joylashgan?
3. Differensiyalashgan ta'lim qanday olib boriladi?

6-hob. TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISH USULLARI VA USLUBLARI

6.1. Uslublar to'g'risida tushuncha va ularning tasnifi

Ta'lim usullari umumta'lim maktabi uchun ham, yordamchi maktablar uchun ham umumiy hisoblanadi. Qo'llanilishi jihatdan aqli zaif o'quvchilarning ta'lim olish jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli, ta'lim uslublari ham umumta'lim maktabi uslublaridan biroz farq qiladi. Chunki aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati (nutq, tafakkur, idrok, xotira) rivojlanishdan orqada bo'lganligi sababli ta'lim uslublaridan keng foydalaniladi.

Maktab ta'limida o'quv fani mazmunining hajmini belgilash va dars uchun material tanlash bilan bir qatorda, o'qitish uslublari ham katta ahamiyatga ega.

Mazmuni va o'quvchilarning bilish faoliyatiga muvofiq tarzda tanlangan uslublar bilim sifatining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Bunday uslublar o'quvchilarning rivojlanishiga, bilimning puxta, ongli bo'lishiga yordam beradi va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Uslub o'zining umumiy ma'nosida maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyatdir.

Darsda o'qituvchi turli ta'lim uslublaridan foydalanadi, o'qitish uslublarini tanlash, bir qator omillar, yordamchi maktabning hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti, o'quv fani, o'rganiladigan materialning mazmuni, o'quvchilarning yoshi va ularning rivojlanish xususiyatlari hamda o'quv materialini egallashga tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Uslub tanlash va uni qo'llash xususiyati faqat darsdagi o'quv materialining maqsadiga emas, balki mazmuniga qarab ham aniqlanadi.

Ta'limga taalluqli holda, metodning ta'rifi mantiqan o'qitish jarayonida o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchilar faoliyatining birligini e'tirof qilishi, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini ifodalashi mumkin.

O'qitish uslubi o'qituvchining bilimlar berish usuli va ayni paytda ulanning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilib olish usulidir.

Uslubning bu ta'rifining uning bir-biriga bog'liq ikki tomonini: beruvchi, ta'sir qiluvchi – o'qituvchi, qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchi – o'quvchilarni ifodalaydi.

Uslublarni tanlash va uni qo'llash xususiyati faqat darsdagi o'quv materialining maqsadiga emas, balki mazmuniga qarab ham aniqlanadi. Shunga qarab og'zaki uslublar ko'proq gumanitar fan darslarida, amaliy uslublar esa mehnat, rasm, chizmachilik darslarida qo'llaniladi.

O'qitish uslublarini to'g'ri tanlash va dars jarayonida uni qo'llash aqli zaif o'quvchilarning muayyan kasb-hunar egallashlariga, ayniqsa, tabiatshunoslik darslarining sinfdan, darsdan tashqari ishlarida ularning qishloq xo'jalik ishlarida, bog' va fermalarda ishlab keta olishiga zamin tayyorlaydi. Darsda mehnat qilganda esa ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. O'qitish uslubini tanlashda yordamchi maktab ta'limining maqsadi o'quvchilarning nuqsonlarini tuzatish tomon yo'nalganligi, o'quvchilarni muayyan kasb-hunar egallashga tayyorlash hamda iqtisodiy modlashish vazifasiga qaratiladi.

Bilim manbani o'quv materialining mazmuni bilan belgilanadi, u ta'lim jarayonida yetakchi hisoblanadi.

Tabiatshunoslikni o'qitish amaliyotida har xil o'qitish uslublari qaror topgan. Ushbu muhim belgilarga qarab o'qitish metodlarini quyidagicha guruhlash mumkin

1. *O'quvchilar bilim oladigan manbalar.*
2. *O'qituvchi faoliyatining xarakteri.*
3. *O'qitish jarayonida o'quvchilar faoliyatining xarakteri.*

Bu uch belgi o'rgatish va o'rganishni bir butun jarayon sifatida tushunishdan kelib chiqadi, bunda o'qituvchining (o'rgatuvchining) va o'quvchining (o'rganuvchining) faoliyati o'zaro bog'langan va taqozo qilingan, bilim manbalari esa ham o'qituvchining, ham o'quvchining faoliyati bilan o'zaro bog'lanishda bo'ladi. Shuning uchun ham bu uchala metod o'qitishda asos bo'la oladi. Bilim manbalari o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining birligi bo'yicha oddiy va qulaydir, u o'quv materiali mazmunining xususiyatiga

qarab o'rganilayotgan materialga mos ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish bilan bilim beradi. O'qituvchi o'quvchilarga so'zlar vositasida zaruriyatga qarab o'rganilayotgan materialga mos ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish bilan yangi texnologiya asosida dars o'tsa, aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati, darsga bo'lgan qiziqishi ortadi. O'qituvchi materialga mos tarzda ko'rgazmali materiallarni tanlaydi va tushuntiradi. Bunda o'quvchilarning yangi bilim olishi uchun asosiy manba so'z hisoblanadi: hikoya, tushuntirish, ma'ruza, suhbat. O'quvchilarning faoliyati ko'proq eshitish, fikrlash va keyingi javoblarda ifodalanadi. Boshqa metodlarning qo'llanilishi o'qituvchining narsa va hodisalarni ko'rsatishi, namoyish qilishi aqli zaif o'quvchilarga bilim berishda asosiy manba hisoblanadi. O'quvchining so'zi esa boshqacharoq ahamiyat kasb etadi.

Bunda o'qituvchi o'quvchilar kuzatishining borishi, mantiqiy tafakkurini yo'naltiradi, ularning qabul qilishi qay darajada ekanligini aniqlaydi. O'quvchilar faktlarni kuzatib, fikrlab, xulosa chiqaradi. Yangi bilimlar, ba'zan esa yangi uquvlar, masalan; o'qituvchi namoyish qilgan tajribani mustaqil qo'yish, mikroreportaj tayyorlash va shunga o'xshashlar bo'yicha tajriba orttiradi. Garchi, butun bilish jarayonida o'qituvchining so'zi yetakchi bo'lsa ham, bunda o'quvchilar hosil qiladigan bilimlarning asosiy manbai o'qituvchining so'zi emas, balki *kuzatish* hisoblanadi. Kuzatish orqali aqli zaif o'quvchilarning bilim olishda, ayniqsa, tabiatshunoslik fanlarini o'zlashtirishda bilish faoliyati korreksiyalanadi. O'quvchilar faoliyati namoyish qilinayotgan obyekt yoki tajribalarni ko'rib qabul qilishga qaratilgan bo'ladi. Javoblarda o'quvchilar nimani kuzatganliklarini gapirib beradi. Ba'zan tajribada o'simlik va hayvonlarni namoyish qiladi, jadvaldan ko'rsatadi.

Shunday qilib, o'quvchilar faoliyatida kuzatish va kuzatilganlar to'g'risida hikoya qilish eshitish va javob berishdan ko'ra ancha kam namoyon bo'ladi.

O'qituvchi shunday metodlarni qo'llaydiki, bunda o'quvchilar amaliy ishlarni bajarish jarayonida ko'proq bilim oladi. Ular, topshiriq va vazifalarga binoan, urug' va mevaning tuzilishini,

uning unib chiqishini, maktab o'quv-tajriba uchastkasida ekish va parvarish qilish, chorva fermalarida sigir, ot, qo'y va parrandalarni parvarish qilish, ovqatlantirish ishlarini bajaradi, shu tariqa yangi bilimlar, uquvlar, keyinroq esa ko'nikmalarni, ya'ni avtomatlashgan, odat tusiga kirgan uquvlarni hosil qiladi.

O'quvchilarning amaliy faoliyati tadqiqiy qurollarni (pinset, lupa, mikroskop va boshqalarni), ishlab chiqarish qurollarini (kimok, bog'qaychi, ketmon, xaskash va boshqalarni) qo'llash bilan bog'liqdir.

O'qituvchi ishning borishini tekshiradi, xulosalar chiqarishga yo'naltiradi.

Ba'zi hollarda o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha ishning olib borilishiga va ish jarayonida bilim olishga kitob (darslik, adabiyot) mustaqil bilim manbai sifatida emas, balki bilimning asosiy manbaiga – amaliy ishga qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'quvchilar javobda bajargan ishlarining natijalarini ko'rsatadi, uni gapirib beradi, xulosalar chiqaradi, doskaga yozadi, o'qituvchining talabi bilan ishni yana bir necha marotaba takrorlaydi.

2-jadval

	Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy
Bilim manbai,	So'z	Ko'rgazmali obyekt	Amaliy ish
O'qituvchi bilim beradi,	So'z bilan	Ko'rsatish bilan	Jadval bilan
O'quvchi bilimni o'zlashtirib oladi.	Eslatib	Ko'rsatib	Ishlab

Bir xil usullar qo'llanilganda bilim berilishi so'z bilan, boshqalari ko'rsatish bilan va uchinchisida amaliy ishda ta'minlanadi. O'quvchilar esa eshitib, ko'rib (kuzatib) va amaliy ish bajarib bilimlarni o'zlashtiradi (2-jadval).

Har bir guruh metodlarning qardosh turlarini qamrab oladi. Masalan: suhbat, hikoya, ma'ruza og'zaki metodlarning har xil turlaridir.

O'z navbatida, obyekt, tajriba, shuningdek, tasviriy ko'rgazmali vositalar (diafilm, kino, jadval)ni namoyish (demonstratsiya) qilish ko'rgazmali metodlarga mansubdir.

O'quvchilarning amaliy ishlari, obyektlarni tanib olish va aniqlash, tajribalami kuzatish, o'qituvchi bergan savolni hal qilish, amaliy ko'rsatish kabilar amaliy metod turlaridir.

Og'zaki metodlarda o'quvchilar axborot beradi, gapirib beradi.

Ko'rgazmali metodlarda ilgari qo'yilgan tajribalami, obyektlarni namoyish qiladi. Amaliy metodlarda o'quvchilar taklif qilingan variantlarda tajriba qiladi, ish natijalarini muhokama qiladi.

Ko'p vaqtlargacha pedagogika va metodikada o'qitish metodlarining umum qabul qilingan yagona ta'rif bo'lmagan. Hozirgi kunda bu masalarga nisbatan umumiy nuqtayi nazar vujudga kelgan. Ko'pgina mualliflar tabiatshunoslik fanini o'qitish metodlarini tasniflashda metodlarni ikki guruhga bo'lgan.

1. O'quv materialining o'qituvchi tomonidan bayon qilinishi usullari.

2. O'quvchilarning mustaqil ishlash usullari.

Usullarning bo'linishi o'qituvchi faoliyatini o'quvchilar faoliyatidan ajratib qo'yadi, bu esa usullarni passiv (o'qituvchi tomonidan o'quv materialini bayon qilish usullari) va aktiv (o'quvchilarning mustaqil ishlash usullari) xillarga ajratishga olib keladi.

Usullarning aktiv va passiv guruhlarga bo'linishini e'tirof qilish pedagogikada ancha eskirgan narsa deb hisoblanadi. Bilim manbalarini inkor qilish metodlarning mazmundan ajralishiga olib keladi, ayni paytda esa mazmun usullarini ham belgilaydi va ularni tanlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Barcha o'qitish metodlari, agar ular o'quv materialining mazmuni va o'quvchilarning yoshiga muvofiq holda qo'llansa, faol bo'lishi, tafakkur, bilim va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishi mumkin.

Aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati, agar o'qituvchining faoliyati o'zlashtirish jarayoni va bilimni hisobga olishda o'xshash javob faoliyatini vujudga keltirsa, ya'ni o'quv materialini bayon qilishda qo'llanilgan usullarga mos kelsa, shundagina faollashib boradi.

Masalan: o'qituvchi darsda gulning tuzilishini o'rganish bo'yicha amaliy ishlar o'tkazgan bo'lsa, bilimni hisobga olishda

o'quvchilarga so'zlab berishnigina emas, shu bilan birga, gulni qismlarga ajratish, ularning rasmini chizishni ham taklif qiladi. O'qituvchi tomonidan qilingan tajriba, kolleksiya, jadval namoyishini so'rashda o'quvchilar tomonidan takrorlanadi.

Bu bilan bilim olishning borishi qayta tiklanadi.

Barcha usullarning qo'llanilishi o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish bilan bog'liqdir.

O'qitish jarayonida muayyan metodni qo'llash bilan ayni paytda o'qituvchi o'quvchilarni ma'lum mantiqiy operatsiyalarga o'rgatadi, o'quvchilarning dunyoqarashini tarbiyalaydi, shaxsiy sifatlar (qobiliyat, iroda, qiziqishni) rivojlantiradi, o'qishni ongli tushunib olishga yordam beradi.

Bir metodning o'zi yoki metodning turi o'quv materialining mazmuni va o'quvchilarning yoshiga qarab har xil darajada murakkablashib bormaydi. V–VII sinflardagi suhbat mazmuni bilanagina emas, balki qo'llanish uslublari bilan ham farq qiladi: bu sinflarda o'quvchilar mustaqil savollar berishga jalb qilinadi. O'quvchilarga taklif qilinadigan mantiqiy uslublar murakkablashgan bo'ladi.

Ko'rgazmali metodlarda ham o'quvchilarning materialni o'rganish jarayoni va javob berishda ko'rgazmali qurollardan foydalanishdagi mustaqilligi asta-sekin ortib boradi.

Shu bilan bir vaqtda o'quv faoliyatida o'quvchilar mustaqilligining o'sib borishi bilan o'qituvchining unga bo'lgan rahbarligi tashqi tomondan kam ko'rinadi. Uning rahbarligi susayib boradi, ammo mohiyati jihatidan ancha chuqur va murakkabroq bo'ladi.

Xususan, bu nazariy tafakkurni tarbiyalash, tushunchalarni rivojlantirish, munosabatlarni hosil qilish to'g'risidagi masalaga taalluqlidir.

Har bir metod va ularning butun tizimi o'quvchilar mustaqilligini rivojlantirish maqsadini ko'zlaydi. O'quvchilarni darsda tushuntirishni faol eshitib borishga, kitob bilan mustaqil ishlashga, amaliy ishlar bajarishga fikr yuritishga o'rgatadi.

O'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlashi uchun o'qituvchi chidam bilan o'rgatishi va rahbarlik qilishi kerak.

Tabiatshunoslik o'rganishda bir darsda uning qismlari mazmuniga qarab turli metodlarning bir nechtasi qo'llanilishi mumkin.

Namoyish etish (demonstratsiya) amaliy ish va suhbat bilan almashinadi.

Har xil metodlar ulardan biri yoki bir nechtasining ustunligi bilan birga olib boriladi.

Masalan, ma'ruza o'z ichiga suhbat elementlarini olishi, suhbat esa kichik hikoya bilan almashinishi mumkin. Darsda qo'llanilgan metodlarning birga olib borilishini tahlil qilish bilan yctakchi, bosh metodni ajratish, qolganlarini yordamchi metodlar sifatida belgilash mumkin.

Turli metodlar o'quvchilarning tafakkuri va malakalarini ko'p tomonlama rivojlantiradi.

O'qitish amaliyotida har qanday metod uslublar vositasida amalga oshadi.

Metodik uslublar metodning o'qitish davomida o'qituvchi va o'quvchilar ishi (harakati)ning ayrim tomonlarini ifodalovchi muayyan elementidir.

Metodik uslublarning xilma-xilligi ularni tizimga keltirishni talab qiladi. Ular mantiqiy, tashkiliy va texnikaviy xarakterda bo'lishi mumkin.

3-jadvalda amaliyotda ancha ko'p uchraydigan metodik uslublar keltirilgan.

Shunga e'tibor berish kerakki, barcha metodlarda bir xil mantiqiy uslublardan: belgilarni aniqlash, o'xshashlik va farqiga qarab obyektlarni solishtirish, xulosalar chiqarish, umumlash-tirishdan foydalaniladi. Bunday usul tafakkurni oshirishda muhim imkoniyatlarni ochib beradi.

Tashkiliy uslublarga har xil jihozlar, yordamchi vosita, materiallardan foydalanish kiradi.

Metod — amaliy, uning turini aniqlash (masalan: o'simlik barglarini, shakllarini aniqlash)

O'qituvchi har xil uslublardan mashg'ulot uchun ko'proq mos keladiganlarini tanlab olishi kerak.

Bunda mantiqiy uslub: barcha shakllarning belgilarini aniqlash, ularni jadvaldagi tasvirlar bilan (aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati va o'zlashtira olish xususiyatlariga qarab) yoki bir qancha barglarning turlarini ko'rsatish, haqiqiy yoki quritilgan (gerbariy)larni solishtirish.

Tashkiliy uslublardan, masalan; barglarning shaklini aniqlash bo'yicha individual (aqli zaif o'quvchilarning o'zlashtirishiga qarab barglar tanlanib) bir xil ish tanlanadi.

Natijalarni qayd qilish o'qituvchi ko'rsatmasi bilan jadvalga yozish yoki rasm chizish, gerbariy daftariga barglarni yopishtirishdan iborat.

Darsda har bir metod ko'pgina xarakteri jihatidan har xil metodik uslublar vositasida namoyon bo'ladi. Aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish, bilim olishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, mehnat madaniyatini tarbiyalash va boshqa uslublarni ajratish mumkin.

Ammo ular ham metodik uslublarning uch guruhi vositasida amalga oshiriladi.

Metodik uslublarning turli-tumanligi, ayniqsa, ularning birga olib borilishi o'qituvchining ijodiy tashabbusi va pedagogik mahoratini ko'rsatadi.

Har bir o'qituvchi yangi uslublarni ixtiro qiladi, ma'lum uslublarni qayta o'zgartirib boradi, yanada yaxshiroq ta'limiy va tarbiyaviy samaraga erishadi.

6.2. Og'zaki metodlar

Og'zaki metodlar to'g'risidagi tushuncha, odatda, ularning qo'llanishida go'yo o'quvchilarning muqarrar passivligi to'g'risidagi tushuncha bilan bog'liqdir. So'zlash metodlarini bunday soxta tushunish shuning natijasida kelib chiqadiki, ularning qo'llanilishida o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga yetarlicha e'tibor berilmaydi.

Og'zaki metod turlariga suhbat, tushuntirish, o'qituvchi yoki o'quvchining hikoyasi, ma'ruza kiradi.

Tabiatshunoslik darsida bilimlarni og'zaki tushuntirish uchun hikoya va suhbat usuli qo'llanadi. O'rganilayotgan mavzuning mazmuniga qarab, o'qituvchi so'zining shakli ham o'zgaradi. Agar o'quvchilar darsda amaliy ishlar va mashqlar bajarsa, tushuntirish suhbat bilan almashtiriladi va bajarilgan ishlarga xulosa qilinadi. Turli tabiat jismlarining xossalari tajriba va kuzatuvlar o'tkazish yo'li bilan o'rganilsa, bu suhbat deyiladi. O'quvchilarni tabiat

xususiyatlari, o'z o'lkasi kishilarining mehnati bilan tanishtirishda turli ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish etishda hikoyadan foydalaniladi. O'quvchilarning so'zlashuv nutqini, aqliy qobiliyatini rivojlantirishda, ularni mustaqil xulosa chiqarish va umumlash-tirishga o'rgatishda hikoya va suhbat usuli juda muhimdir.

Tabiat bilan tanishtirishning birinchi bosqichida suhbat o'qituvchining savollar berishi va ularga chaqirilgan o'quvchilarning javob berishi shaklida boradi. Keyin suhbat boyiydi va kengayadi.

Bundan tashqari, suhbat o'quvchilar ishidagi kamchiliklarni to'g'rilashga ham imkon beradi.

Suhbatda savollar muhim ahamiyatga ega. Ular qisqa, aniq bo'lishi, javobni aytib turadigan xarakterda bo'lmasligi, bir so'z bilan javobni talab qilmasligi, ikkilantiruvchi ma'noga ega bo'lmasligi kerak. Suhbatning o'quv jarayonida qanday o'rin egallashi va qanday didaktik maqsad mo'ljallanganligiga qarab quyidagi: kirish suhbat, takrorlovchi suhbat, bayon qiluvchi suhbat va yakunlovchi suhbat turlari farq qilinadi.

O'qituvchi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish, mavzuga qiziqishlarini orttirish uchun hikoya mazmuniga mos topishmoqlar, she'rlar va badiiy asarlardan parchalar keltirishi mumkin. Shuningdek, yuqori sinf o'quvchilariga oldindan tayyorlangan, biror narsa, hodisa noto'g'ri tasvirlangan rasmni ko'rsatish ham mumkin. Masalan, rasmda daraxtlari gullagan mevali bog', yonida esa kishilar pishgan qovun va tarvuzlarni olib o'tayotganlari tasvirlangan. O'qituvchi: «Bu yerda hamma narsa to'g'ri tasvirlanganmi?» deb so'raydi. O'quvchilar javobda rasmda yil fasllarining mos kelmasligini aytadi (o'simliklar, asosan, bahorda gullaydi, poliz ekinlari esa yoz-kuz oylarida pishadi), quyi sinflarda o'quvchilar o'quv materialini bayonini uzoq vaqt eshitishni xohlamaydi. Shuning uchun hikoyaning davomiyligi 8-10 daqiqadan oshmasligi kerak.

Hikoya negizida o'quvchilarning umumiy xulosalari shakllanadi.

Kirish suhbatidan yangi bo'lim yoki yangi mavzuni o'rganish oldidan foydalaniladi. Uning maqsadi darsda o'rganiladigan masala bo'yicha o'quvchilardagi tasavvurlarni aniqlash yoki tiklashdir.

Takrorlovchi suhbat o'rganilgan materialni mustahkamlash va talimlay olishga yordam beradi. U yangi material o'rganilgandan keyin shu darsning o'zida yoki mavzu, bo'lim o'rganilgandan keyin o'tkaziladi va 5 daqiqadan 10-15 daqiqagacha vaqt olishi mumkin.

Bayon qiluvchi suhbat tanqidiy xarakterga ega, chunki o'quvchilarning tabiiy obyektlarini kuzatishiga asoslanadi.

Tasviriy qurollarni ko'rsatish asosidagi suhbat. Tabiatshunoslik darslarida, ko'pincha, suratlardan foydalaniladi. O'quvchilar yordamchi savollar bo'yicha suratni tahlil qilib, yangi ma'lumot oladi, chunki o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini ko'zdan o'tkazadi, tushuntiradi va aniqlaydi.

Talimlashda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida o'qituvchi tabiatshunoslik darslarida hikoya usulini qo'llash jarayonida hikoyani izchillik bilan bayon qiladi. Tabiatshunoslik darslarida talimda biror hodisa yoki o'simlik va hayvonot dunyosini o'zlashtirish hamda qayta tiklash bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyat to'g'risida gap borganda hikoyadan foydalaniladi. O'qituvchi materialni aytib berish yo'li bilan o'quvchilar ongida yuqori manzara qoldirish, ezgu tuyg'ularni uyg'otish, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun nutqning turli shakllaridan (og'zaki, yozma, da'vat, imo talvora nutq shakllari) umumli foydalanishga erishishi lozim.

Yangi material bayonida o'quvchilarning tirik tabiat burchagi, maktab yet maydoni, ekskursiya yoki yozda tabiat qo'ynida, o'qituvchining topshirig'i bilan olib borgan kuzatish va tajribalari to'g'risidagi hikoyani kiritish muhim hisoblanadi.

Maxsus metodik qo'llanmalarda o'qitish adabiyotida hikoyaning aytib berish, ta'riflash, xarakterlash, tushuntirish, muhokama qilish kabi xillari qo'llaniladi.

Aytilib berish bayonning shunday turi-ki, unda aniq fakt, voqea, jarayon yoki harakatlar haqida tushunarli, ravon gapirib beriladi. Hikoya ko'rgan kishi (shohid) tomonidan olib boriladi.

Ta'riflash bog'liq jismlar va hodisalarning u yoki bu tabiiy zona iqlimining xususiyatlarini izchil bayon qilishda qo'llaniladi.

Xarakterlash – ta’riflashning bir ko’rinishidir. U jism (narsa) yoki hodisaning belgi va xususiyatlarini sanab o’tishdan iborat (daryolar, qirlar, tabiiy zonalar).

Tushuntirish – bayonning bir ko’rinishi, unda yangi tushunchalar, atamalar ochib beriladi. Sabab-oqibatlar bog’lanishi, tobe’lik belgilanadi, ya’ni u yoki bu hodisaning mantiqiy tabiati ochib beriladi.

Muhokama bayon qilish bo’lib, unda o’quvchilarni xulosa va xotimaga olib keluvchi qoida hamda axborotlarning izchil rivojlanishi beriladi. Hikoyaning bu shaklidan o’rganilayotgan hodisani tahlil qilish zarur bo’lganda foydalaniladi.

Hikoyaning yuqorida qayd etilgan xillaridan tabiatshunoslik darslarida bir-biriga uyg’unlashtirilgan holda foydalaniladi.

O’qituvchi dars materiallarini qay taxlit bayon qilmasin, didaktik maqsad, o’quvchilarga ilmiy umumlashtirilgan bilimlarning faol berilishi shunday qolaveradi.

Hikoyani olib borishga qo’yiladigan didaktik talablar:

1. Tanlangan materialning ilmiyligi va g’oyaviyligi.
2. Tanlangan materialning eshitishida nuqsoni bo’lgan o’quvchilarning yoshi hamda nutqiy malakalarining shakllanganlik xususiyati.
3. Mantiqiyligi, izchilligi.
4. Eshitishida nuqsoni bo’lgan o’quvchilar uchun aniq, ravon va tushunarli bo’lishi.
5. Tanlangan matnни bayon etishda eshitishida nuqsoni bo’lgan o’quvchilar uchun turli nutq shakllarini hamohang qo’llash.
6. Bayon etib berish bilan birga o’qituvchi boshqa o’qitish usullaridan (ko’rgazmali, amaliy) keng foydalana olishi.
7. Eshitishida nuqsoni bo’lgan bolalar maktabining 1-2-sinflarida hikoyaning davomiyligi 4-6 daqiqadan, 3-4-sinflarda esa 8-10 daqiqadan oshmasligi lozim. Hikoya jarayonida o’zlashtirishning faollashishiga yordam beruvchi didaktik tavsiyalardan foydalanish zarur.

Suhbat savolning hal qilinishida ham o’quvchilar va o’qituvchining ishtiroki bilan xarakterlanadi. Suhbatning maqsadga yo’nalganligi hal qilinishi kerak bo’lgan savollar bilan aniqlanadi.

Suhbat natijasida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tegishli xulosalar chiqarishi, umumlashtirishi kerak.

Suhbat o'quvchilarga notanish bo'lmashligi lozim: hali o'quvchilarda mavjud bo'lmagan bilimlarni «aniqlash» uchun vaqtni bekoriga sarflash yaramaydi. Suhbat yakunlovchi, umumlashtiruvchi va yangi bilimlarni eskilari bilan bog'lovchi darslarda alohida ahamiyatga ega.

Himmuncha o'xshash obyekt va hodisalar o'rganilayotganda suhbatni induktiv tarzda tuzish imkoniyati tug'iladi. Natijada yo'naltiruvchi savollardan foydalanib, induktiv ravishda o'quvchilarning qator xulosalar chiqarishi va umumlashtirishiga olib keladi. O'quvchilarga boshlang'ich material ma'lum bo'lganda yoki uni to'liq, batafsil o'rganish imkoniyati bo'lganda, yoki ma'lum umumiy qoidaga asosan, tasdiqlovchi faktlar topish ma'lum bo'lganda suhbatni deduktiv tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, gulli o'simliklarning birinchi oilasi o'rganilayotganda o'xshash va har xil belgilarni solishtirish yo'li bilan, ya'ni induktiv ravishda taksonomik birliklar to'g'risida tushuncha hosil qilinadi. Kelpusa oilalar suhbat o'tkazish va amaliy ish asosida induktiv tarzda o'rganiladi. Ammo uchinchi va to'rtinchi oilalarni deduktiv ravishda o'rganish mumkin.

Mavzu dastlab o'rganilayotganda suhbat, ko'pincha, induktiv tarzda quriladi, mavzu bo'yicha yakunlovchi suhbatlar deduktiv xarakterlash etadi. biri o'rganilgan darsga ta'rif beradi, boshqalari shu qoidani tasdiqlovchi va rivojlantiruvchi faktlar keltiradi. O'qituvchining savollari har qanday suhbatning asosiy struktura elementi hisoblanadi. Ular izviy ravishda o'rganiladigan materiallardan kelib chiqishi va o'quvchilar e'tiborini eng muhim ma'lumotlarni o'zlashtirib olishiga yo'naltirishi, o'quvchilarning oldingi tayyorgarligi yoki real mavjud shaxsiy tajribasiga tayanishi kerak.

O'quvchilar bilimlarini chuqurlashtirishda, har xil masalalarni hal qilishda o'rgatuvchi savollar berish g'oyat muhimdir, masalan, bu rol haqida fikr yuritish uchun «Nima uchun o'tkazilgan ko'chat soyalatiladi?», «Hayvonlarning quruqlikka chiqishiga nima ta'sir etgan?» kabi savollar berilishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarning suhbatga ishtirok etish darajasini asta-sekin ularga beriladigan savollarni murakkablashtirib borish vositasida oshirib borishi kerak. O'qituvchining savollari o'quvchilarni tobora ko'proq mustaqil ishlashga yo'naltirishi kerak. O'simliklar, hayvonot olamini o'qitishda o'quvchilar javoblarining asta-sekin murakkablashib borishini talab qiluvchi masalalar, taxminan, shunday bo'lishi mumkin:

- organlar tuzilishini taqqoslash;
- har xil o'simlik va hayvonlarning ikkita organ tuzilishini solishtirish;
- organ (o'rik, maysa, kurtak, novda, gul va meva) tuzilishiga qarab solishtirish;
- organ tuzilishini uning funksiyasi bilan solishtirish;
- organ funksiyasini muhit bilan solishtirish;
- har xil organlarning funksiyalarini taqqoslash;
- organizmning (o'simlik yoki hayvonlarning) rivojlanishini ta'riflash;
- ikkita organizmning rivojlanishini taqqoslash;
- ekologik, morfologik yoki tizimlik belgilarini taqqoslash;
- o'simlik yoki hayvonlar tasnifi;
- muayyan beotsenozlarda o'simlik yoki hayvonlarning hayotga moslashishi va evolyutsion qatordagi o'rniga qarab guruhlash.

Savollarda mos ravishda javoblar ham rivojlanib murakkablashib boradi, o'quvchilar tobora murakkabroq mantiqiy masalalarni hal qiladi, bu esa aqliy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Savol-javob bilan bayon qilishda o'quvchilar e'tibori uzoq vaqt jalb qilinmaydi, chunki murakkab fikrlar, qismlar bo'yicha ularning o'zlashtirishini tekshirib borish qiyin. Bayon qilishning bu shakli bilimlarni bo'lib boradi, o'quvchilar bir-biriga bog'lab gapirishni o'rganmaydi.


Suhbat zarur didaktik materiallarni namoyish qilish, o'quvchilarning amaliy faoliyati va mustaqil ishlari bilan birga qo'shib olib boriladi. Suhbatni o'tkazishga tayyorlanishda o'qituvchi mavzu va maqsadni aniqlab uni o'quvchilarga yetkazish uchun ko'rgazmali materiallarni tanlab savollarni puxta o'ylab chiqadi. O'qituvchining savollari har qanday suhbatning asosiy tuzilish elementi sanaladi.

Suhbat metodi tabiatshunoslik darslarida hikoyaga qaraganda ko'proq qo'llaniladi. Suhbat usuli bilan o'qituvchi o'quvchilarning og'zaki so'zlashuv nutqini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga o'rnatadi, jamoa ishiga jalb etadi.

Suhbat yangi materialni o'rganishda, kuzatishlar, amaliy kuzatishlar, amaliy ishga yakun yasashda, ekskursiyalar uyushtirishda, o'rganilgan materialni takrorlashda, tajribalarni umumlashtirib namoyish qilishda, tabiiy, tasviriy, ekran vositalari, darslik, sinfdan tashqari dars o'tishda qo'llaniladi.

Shuningdek, suhbat natijasida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ongida tabiat jismlari hamda hodisalarini haqida to'g'ri tasavvur va tushunchalar shakllanadi. Suhbatda savollar muhim hisoblanadi. Ular aniq, qisqa bo'lishi lozim. Mavzuni tushuntirguch, o'qituvchi, albatta, bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun hikoya va namoyish qilinadigan ko'rgazmali qurol mazmuni bo'yicha suhbat o'tkazadi. Suhbat, o'quv jarayonida qanday didaktik maqsad mo'ljallanilishiga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi.

4-jadval





Ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish asosidagi suhbat. Tabiatshunoslik darslarida, ko'pincha, suratlardan foydalaniladi. Turli yordamchi savollar bo'yicha suratni tahlil qilib, o'quvchilar yangi ma'lumot oladi.



O'qilgan darslik mavzusi (matni) asosida suhbat: suhbatning maqsadi u yoki bu tabiat hodisasining bolalar tomonidan to'g'ri tushunilganini aniqlash, bilimlarni mustahkamlashni o'z ichiga oladi

Shunday qilib, tabiatshunoslikni o'qitishning og'zaki metodlari ta'lim-tarbiya va korreksion jarayonda o'qituvchi oldida turgan umumta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshiradi.

Hikoya tabiatshunoslik darslarida tabiat hayotidagi biror hodisa yoki voqea, eng katta kashfiyot tarixi, olimning tarjimai holi, umuman, kishilarning o'simliklar, hayvonot dunyosini o'zlashtirish va qayta tiklash bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyati to'g'risida gap borganda qo'llaniladi. Qator hollarda o'qituvchining darsdagi hikoyasi o'zining syujet yo'nalishi va obrazlilik bilan ilmiy-badiiy asarlarga o'xshab ketadi. Pedagogikadagi tasviriy og'zaki ko'rgazmalilik hikoyada qo'llaniladi.

Metodlarning har bir turi kabi, hikoya ham induktiv tarzda tuzilishi mumkin, bunda qator dalillardan, ya'ni deduktiv tarzda umumlashtirish kelib chiqadi, umumiy qoidalar dalillar bilan tasdiqlanadi.

O'qituvchining materialni aytib berish yo'li bilan bayon qilishida yorqin manzara hosil qilinadi, chuqur tuyg'ular uyg'otiladi. Murakkab fikrni uning to'la mantiqiy rivojlanishida tasavvur qildirish uchun o'quvchilar oldiga bayon qilinayotgan material mantig'iga muvofiq holda, ko'p bo'lmagan savollar qo'yiladi

Bayonning bu shakli o'quvchilarni charchatib qo'ymasligi, sodda, obrazli qilib aytilishi kerak.

Tushuntirish – o'quv materialining faktlar tahlili va xulosalari, ta'riflangan isbotlar asosigagi aniq, ravshan bayoni bo'lib, hikoyadan farq qiladi. Amaliy ish, instruktaj ham tushuntirish hisoblanadi

Maktab ma'ruzasi maktabning o'rta sinflaridagi darslar davomida deyarli qo'lanilmaydi, hatto, VII-VIII sinflarda ham dars davomida materialni bayon qilish bilan band bo'lmay, balki ma'ruza vaqtida o'quvchilardan so'raydi, uyga vazifa beradi, uni tushuntiradi.

Yuqori sinflarda qo'llaniladigan og'zaki metodlar ham xilma-xil bo'lishi, o'zaro bir-biriga o'tishi mumkin: suhbat-hikoya, suhbat-ma'ruza, ma'ruza-suhbat.

Hikoya syujetli, illyustratsiyali, informatsion kabi xillarga ega.

Hikoya yoki ma'ruzada dars asosiy masalasining qo'yilishi, uning birin-ketin hal qilinuvchi masalalarini ajratishni tushuntirishimiz kerak.

Yangi materiallarning bayoniga o'quvchilarning tirik tabiat burchagi, maktab uchastkasi, ekskursiya, yozda tabiatda o'qituvchining topshirig'i bilan olib borilgan kuzatish tajribalari haqidagi hikoyalarni kiritish g'oyat muhimdir. Bu, o'z navbatida, darsga qiziqishni oshiradi.

Har qaysi metoddan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilarning nutq madaniyatiga katta e'tibor berishi kerak. O'quvchilarga beriladigan savollar asta-sekin murakkablashtirib boriladi. O'quvchilar qisqa, keyin ancha keng, mustaqil solishtirish, xulosalar chiqarish bilan javob beradi.

6.3. Ko'rgazmali metodlar

Ko'rgazmali metodlarni umumpedagogik tamoyil – ko'rgazmalilik bilan almashtirilmalik kerak, bu tushunchalar har xildir, bir-biriga o'xshash emas.

Ko'rgazmali qurollardan deyarli hamma tabiatshunoslik darslarida foydalaniladi, ammo bu darslarning hammasi ko'rgazmali metodlar bilan o'tkaziladi, degan gap emas. Og'zaki metodlarda ko'rgazmalilik o'qituvchi so'zini tasdiqlovchi illyustratsiya sifatida yoki o'qituvchi hikoyasining obrazlilikini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Masalan, tabiiy holda ko'rsatish mumkin bo'lmagan o'simlik, ko'pgina biologik hodisalar, olimlarning tarjimai holi, ilmiy kashfiyotlar va hokazolar to'g'risida hikoya qilinganda

rasmlar, jadvallar, fotosuratlar ko'rsatiladi. Ammo o'qituvchining so'zi, uning hikoyasi, tushuntirishi axborot manbai bo'lib qolaveradi.

Dars ko'rgazmali metodlar bilan o'tkazilganda ko'rgazmali qurollarning roli boshqacha bo'ladi. Xuddi shular – tajribalar, tirik obyektlar, jadvallar o'quvchilar uchun axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Namoyish qilinayotgan qo'llanmalarni o'quvchilar mustaqil yoki o'qituvchining savollari yordamida kuzatib, xulosalar chiqaradi, umumlashtiradi va mulohaza yuritadi. Ko'rgazmali metodlarda ko'rgazmalilikdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ana shulardan iboratdir.

Ko'rgazmali metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarda tafakkurni va fikrlash faolligini vujudga keltirilishi va rivojlantirilishi kerak.

To'g'ri qo'yilgan savol, keyinroq esa butun savollar tizimi namoyish qilinayotgan obyekt va tajribalarga e'tiborni jalb qiladi, o'quvchilarni maqsadga yo'naltirilgan holda va izchillik bilan kuzatish, taqqoslash, xulosalar chiqarish, umumlashtirishga yo'naltiradi.

Tabiatshunoslik darslarida qo'llanilgan ko'rgazmalilik natural (tirik tabiat obyektlari, jadvallar, mulyajlar, diafilm) bo'lishi mumkin.

Ko'rgazmali metodlarga tajribalar, natural obyektlar, tasviriy qurollarni ko'rsatish kiradi.

Tabiatshunoslik darslarining ko'p qismi ko'rgazmali metodlar bilan o'tkaziladi. Masalan, "Shakli o'zgargan barglar" mavzusidagi darslar xazonrezgi tufayli suvni kam bug'lantirishga ekologik moslashish, mum g'ubori va u bilan qoplanish tufayli barg plastinkasi maydonining qisqarganligi tirik o'simliklarda: monstre (Braziliyaning tropik nam o'rmonlari), kameliya (Janubiy Xitoy), aloch va boshqa o'simlik barglarini tushunib olishi mumkin. O'rtacha hayvonlar, ko'pincha, qushlar va sut emizuvchilar namoyish qilish uchun eng qulay obyekt hisoblanadi. Ular qafas, kataklarda saqlanadi, namoyish vaqtida esa o'qituvchi stoli ustiga qo'yiladi.

Hayvonot olami VII sinfda yordamchi maktab o'quvchilariga, qushlardan sut emizuvchilarini sinfda namoyish qilish eng qulay

obyekt hisoblanadi, ular kataklarda saqlanadi, namoyish vaqtida esa o'qituvchi stoli ustiga qo'yiladi.

Og'zi paxta bilan berkitilgan probirkalar ichida yanada kichikroq (maydaroq) hayvonlar, hasharotlar, o'rgimchaklar namoyish qilinadi.

Barcha sinflardagi darsda tajribalar namoyish qilinadi yoki ko'rgazmali tasviriy vositalar, jadval va rasmlar o'quvchilarga o'rganilayotgan obyektlarning tuzilishi, shakli, rangi, ularni tabiiy o'rab olgan muhit, hayot tarzi va shu kabilar to'g'risida tasavvur beradi.

Kuzatilishi qiyin bo'lgan hayvonlar to'g'risida hikoya qilganda o'qituvchi ularning jadval, rasm, ekrandagi tasvirlarini ko'rsatibgina qolmasdan, ularning katta-kichikligi to'g'risida ham tasavvur berishi kerak.

Tasavvurning aniq bo'lishi juda ahamiyatli, masalan, o'simlik bir kunda va yoz davomida bug'latadigan suvning miqdorini chelak va boshkalar ko'rinishida taqqoslab tasavvur hosil qilish mumkin.

O'quvchi bir vaqtning o'zida o'qituvchi hikoyasini eshitadi, uning qo'l harakatlarini kuzatib boradi, sinf doskasidagi o'qituvchi so'zini izohlovchi rasmni ko'radi, o'zi rasmdan daftarga nusxa chizadi. Ish jarayoniga o'quvchilar butunlay jalb qilingan bo'ladi.

Narsalarni ko'rsatish, jadvallarni ilish ham o'qituvchining shu muqaddamda gapira boshlashi bilan bir vaqtda boradi, bu bilan tezda o'quvchilar diqqati jalb qilinadi.

O'quvchilarni doskadagi rasmlardan foydalanib javob berishga tizimli ravishda o'rgatib borish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, janon bo'lib rasm chizish, jadvallar tuzish alohida qiziqish uyg'otadi. Masalan, bir o'quvchi poyaning ko'ndalang kesimini, boshqasi bo'yiga kesimining rasmini chizadi, uchinchisi poya qatlamlarining joylashishini ko'rsatib, umumlashtiruvchi yozuvlar yozadi.

Tabiatshunoslikni o'qitishda o'quv kinofilmlarini namoyish qilish katta ahamiyatga ega. O'quv kinosi boshqa ko'pgina ko'rguzmali vositalarga qaraganda ma'lum afzalliklarga ega: ular ishni, harakatni, jarayonni ko'rsata oladi.

Darsda kinofilmlarni namoyish qilishga o'quvchilarni ular oldiga savollar qo'yish yo'li bilan tayyorlash kerak, bu savollarga

ular filmni yoki uning bir qismini ko'rgandan keyin javob berishi kerak. Bunday tayyorgarlik o'quvchilar diqqatini to'playdi va yo'naltiradi, o'quvchilarda filmga nisbatan fikr va qiziqish uyg'otadi.

Ko'rgazmalilik eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqi va tafakkuridagi nuqsonlarni tuzatish (korreksiyalash)da katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda jismlar, narsalar, hodisalarga oid tasavvurlarni vujudga keltirish uchun natural va tasviriy ko'rgazmalilikdan keng foydalanilsa, yuqori sinflarda tasviriy va simvolik (timsol) ko'rgazmalardan foydalaniladi, chunki bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida mavhum materialni faqat aniq ko'rgazmali material orqali o'zlashtirishga qobiliyatli bo'ladi. O'quv filmi va diafilmlarni ko'rsatish ham ta'limning ko'rgazmalilik usuliga kiradi. Bolalar filmni ko'rish orqali filmda ko'tarilgan savollarga javob topishi lozim.

Sayohat ham ko'rgazmali usullardan. Sayohat o'qituvchi tomonidan puxta o'ylanib, yaxshi tayyorlansa va uyushtirilsa, samarali natija beradi. Sayohatdan olingan taassurotlarni, kuzatish natijalarini umumlashtirish juda muhim.

Tabiiy jismlar bilan ishlash metodikasi. Tabiatshunoslikni o'qitish uchun, ayniqsa, tabiiy jismlar juda kerak, chunki ular o'quvchilarda tabiiy jismlarni bevosita ko'rish asosida tasavvur va tushunchalar hosil qilishga imkon beradi (har bir o'quvchi tabiiy material bilan mustaqil ishlay olishi uchun uni yetarli miqdorda – o'quvchilar soniga qarab to'plash kerak).

Qabul qilish uchun teri sezgisi, hid bilish, maza sezishni talab qilmaydigan yirik jismlarni o'qituvchi uzoqdan turib namoyish etadi. Yirik o'simliklar, masalan, makkajo'xori, pomidor, poliz ekinlari (o'simlik barg, ildiz, mevalari bilan) yoki hayvonlar, parrandalar (mushuk, qush va boshqalar) shunday ko'rsatilishi mumkin.

Narsani o'quvchilarning barchasi yaxshi ko'ra olishi uchun u sinf doskasiga o'qituvchi stoli balandligida o'rnatiladi. Tirik hayvonlarni namoyish qilish o'quvchilarga faqat ularning tashqi ko'rinishi haqida emas, balki harakati, qiliqlari, ovozi va hokazolar

haqida ham tasavvur hosil qilish imkonini beradi, bu tasavvurlar ancha to'liq va ravshan bo'ladi.

Kuzatishlarga yaxshiroq rahbarlik qilish uchun o'qituvchi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar oldida kuzatilayotgan jismlarning katta-kichikligi, shakli, rangi, jonli bo'lsa, yuz asosiy qismlari, harakatlanish usuli haqida, shuningdek, boshqa narsalarga o'xshashligi va ulardan farqiga oid yo'naltiruvchi savollar qo'yadi.

Suratlar bilan ishlash metodikasi. Tabiatshunoslikni o'qitishda o'qituvchi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga ular hali ko'rmagan ko'pgina obyekt va hodisalar tog'risida ma'lumotlar beradi. Biroq eng jozibali va qiziqarli hikoya ham, agar yaxshi surat ko'rsatilmasa, yetarli, to'liq va yorqin tasavvurlar bera olmaydi. Faqat suratlarni diqqat bilan ko'rib chiqish orqali tabiiy holdagi jism bilan tanishishdagiga yaqin keladigan taassurotlarni hosil qilish mumkin.

Tabiatshunoslik darslarida, ko'pincha, devoriy suratlar ishlatiladi, ular bo'yicha eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning barchasi ishtirokida ish olib boriladi. Yirik suratlar bo'lmasa, kichikroq suratlardan foydalanish mumkin, ularni har bir o'quvchiga ko'rsatish kerak. O'qituvchi qaysi turdagi surat bilan ishlayotgan, uning maqsadi – suratning tabiatshunoslik mazmunini ochib berish, bolalarda tabiatshunoslik bilimlarining manbai sifatida undan foydalana olish uquvini hosil qilishdir. Bu haqda oldingi sahifalarda ham fikr yuritdik.

Dasrning tuzilishi va suratning mazmuniga qarab, undan turlicha foydalaniladi. Surat o'qituvchi hikoyasining tasviri bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunda uning tafsilotlariga to'xtash shart emas, chunki u hikoyadan olinadigan taassurotni susaytiradi. Suratning mazmunidan bu holatda faqat bayonning eng muhim ma'nosi bilan bog'liq holda foydalaniladi.

Surat, shuningdek, suhbatning boshlanish qismi ham bo'lishi mumkin. Bu holda o'qituvchi darsni suratni ko'rib chiqish bilan boshlaydi va suhbat jarayonida o'quvchilarni uning tabiatshunoslik mazmunini o'zlashtirishga olib keladi. Bunda eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ko'proq faolligiga erishish kerak. Ular suratda tasvirlangan obyektlarni faqat ko'rish bilan qabul qilib

qolmasdan, balki ularning ayrim tomonlarini solishtirishi, ilgarigilariga taqqoslashi va surat mazmunidan, baholi qudrat, xulosalar chiqarishi kerak.

Darslikdagi mavzular matnini muhokama qilish jarayonida ham suratlar ko'riladi, bu o'qilganlarni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi. Shuningdek, suratlardan materialni takrorlash va mustahkamlashda keng foydalaniladi. Suratlardan foydalanib, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar o'tilganlarni, qo'shimcha tushuntirishlarni ham esga oladi, o'zlarining shaxsiy fikr va mulohazalarini bayon qiladi. O'quvchilarning o'quv materialini puxta va chuqur o'zlashtirishi ta'minlanadi.

Takrorlash umumlashtirish darslarida suratlardan tashqari ilgari foydalanilmagan otkritka, kitob, jurnallardan, gazetalarning suratlaridan foydalaniladi, bu materialning o'zlashtirilishini tekshirishga yordam beradi.

Suratlar bilan ishlashda ularning mazmunidan to'g'ri foydalanish, bolalarning kuzatishlariga to'g'ri rahbarlik qilish kerak. Tabiatshunoslik darslarini tasvirlar bilan ta'minlashda O'zbekiston tabiatini madh etgan rassom O'rol Tansiqboyevning suratlari katta o'rin tutadi. Masalan, qudratli daryoning go'zal manzarasi, jonajon respublikamiz qiyofasi tasvirlangan «Sirdaryo» suratidan «Tabiatda suv» mavzusini o'tishda foydalanish mumkin. Rassomning «Qoraqum GES», «Jonajon o'lka», «Sug'orish» va boshqa zamonaviy mavzularda chizilgan suratlari «Jonajon o'lka tabiati» mavzusini o'rganishda yaxshi tasviriy vosita bo'lib xizmat qiladi. «Tog'dagi bog'lar», «Olmaliqqa yo'l», «Chirchiq vodiysi», «Burg'ilash minorasi» nomli suratlarda odamlarning yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liq go'yalar yetakchilik qiladi.

Rasmlarni ko'rish orqali olingan taassurotlar uzoq vaqt yodda saqlanishi uchun ularning soni ko'p bo'lmasligi kerak. Suratlar bir nechta bo'lganda mazmunni yaxshiroq o'zlashtirib olishga yordam beruvchi metodik uslub – taqqoslashdan foydalaniladi. Suratdan darslik bilan ishlashda ham foydalaniladi mumkin, masalan, darslik matnidan suratning mazmuniga mos keladigan ta'riflar tanlanadi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarni suratga e'tibor bilan qarashga va bir paytning o'zida o'qilganlarning mazmunini yaxshiroq tushunib

olishga undaydi. Surat mazmunining o'quvchilar tomonidan aytib berilishi ularda umumlashtirish uquvlarini shakllantiradi, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantiradi.

Amaliy metodlar. Bu metodlar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini mo'jallangan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishda bo'lishiga qaratadigan shakllardir. Shuningdek, amaliy metodlarning qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining aktiv faoliyati bilan bog'liqdir.

Amaliy metodlarga tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlar; hodisalarni kuzatish va qayd qilish; tajriba o'tkazish (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalalarga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishi kerak.

O'tkazilgan ishning natijasi ko'rgazmali metodlardagi kuzatishning amaliy metodlardagi kuzatishdan farqlanishini ko'rsatadi.

Birinchi holatda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan namoyish qilinayotgan jadval, tajriba va shu kabilarni kuzatadi, ikkinchi holatda kuzatish bilan mustaqil ish bajaradi: o'lchaydi, hisoblaydi, o'simlikni yoki uning qismlarini quritadi va h.k. Shunday kuzatish natijasida o'quvchilar materiallarni tasavvur qiladi.

Bunday kuzatish, aniqlash va tajriba kabi, darsda, uyda, ekskursiyada, maktab o'quv-tajriba uchastkasida o'tkazilishi mumkin. Buni o'quvchilar og'zaki yoki yozma topshiriqlar orqali bajaradi.

Kuzatish tabiat jismlari va hodisalarni tabiiy sharoitlarda, maqsadga yo'nalgan holda bevosita, shu hodisalarning borishiga aralashmasdan sezgilar bilan qabul qilib olish yoki laboratoriya sharoitida uni qayta tiklashdir.

I. P. Pavlov «Kuzatish tabiat taqdim qilganlarni to'playdi, tajriba esa tabiatdan o'zi istaganni oladi», deb yozgan edi.

Kuzatish tabiatni o'rganishning ko'rgazmali metodidir. Tabiatshunoslikni kuzatish deganda atrof-borliqning jism va hodisalarini rejali ravishda, maqsadga yo'nalgan holda, ongli qabul qilish tushuniladi. Kuzatishlar ikki belgi: muayyan maqsadning

bo'lishi va diqqatni kuzatish obyektini bilgan holda to'plash bilan xarakterlanadi.

O'qitishning boshlang'ich bosqichlarida o'qituvchi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kuzatishlarini tashkil qila turib, ularni oldin safarbar qilishi yoki kuzatish mo'ljallangan jismni ongli qabul qilib olish uchun kerakli ma'lumotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi, kuzatishning izchilligini ko'rsatishi zarur. Kuzatishsiz o'quvchilar tabiat jismlari va hodisalarini, ularning xususiyat hamda sifatlari, ular o'rtasidagi mavjud bog'lanishlar haqida to'g'ri tasavvurlar ololmaydi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda tegishli tasavvurlarning hosil bo'lishi qabul qilishning boyligi va to'liqligiga bog'liqdir. Kuzatishda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar faqat kuzatilayotgan obyektlarning tomoshabini bo'lib qolmasdan, balki ularning xarakterli xususiyatlarini bilib olishga ham intiladi. Masalan, chinor va zarang barglarining rangi o'zgarishini kuzatib, o'quvchilar shu daraxtlar nihollarining barglarini bir-biri bilan taqqoslaydi va ularning farqlanadigan hamda umumiy belgilarini aniqlaydi; quti yoki maydonchaga o'simlik urug'ini ekib, o'simtaning urug' qobig'ini qanday yorib chiqayotganligini, birinchi barglar qanday vujudga kelayotganini va o'simlikning rivojini kuzatadi.

Jism va hodisalarni kuzatish, ularni taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash tafakkur, diqqat hamda irodaning rivojlanishiga yordam beradi. Kuzatish jarayonida, amaliy xarakterdagi bilimlar, masalan, o'simliklar dunyosining xarakteriga qarab, joyda oriyentirlash; hayvon va o'simliklarning xulq-atvori, tabiatdagi o'zgarishlarga qarab, ob-havoning o'zgarishini oldindan aytib berish; mehnat darslarida tabiatshunoslik materialidan foydalana olish (tabiiy materiallar – mevalar, urug'lar, barglar, po'stloq bilan ishlash) uquvlarini hosil qiladi. 1-3-sinllardagi kuzatishlardan o'quv shaklining xilma-xil shakllarida: 1) sinfdagi dars va amaliy mashg'ulotlarda; 2) ekskursiyalarda; 3) tirik tabiat burchagi va maktaboldi yer maydonidagi mustaqil mashg'ulotlarda; 4) uy vazifalarini bajarishda foydalanish kerak.

Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli kuzatishlar

biror narsani qabul qilib olish uchun o'tkaziladi. Hayvonlar (kirpi, toshbaqa, shoxilon, kapalak, ninachining harakatlanishini kuzatish qisqa muddatli kuzatishga misol bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli kuzatishlar vaqt oraliqlari bilan bo'lingan, lekin yagona uzluksiz jarayonni hosil qilgan qator hodisalarni qamrab oladi. Bunga o'simliklarning o'sishini, daraxtlardagi barglar rangining o'zgarishini, qushlarning uchib ketishini va hokazolarni kuzatish misol bo'lishi mumkin. Ular bir qator qisqa vaqtli kuzatishlardan tashkil topadi. Uzoq vaqtli kuzatishlar hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlashga yordam beradi. Bular kurtakdan bargning rivojlanishini, ipak qurtining rivojlanishini kuzatishlar bo'lishi mumkin. Kuzatishlar asosida o'quvchilar taraqqiyot davrlarining izchilligini va ular o'rtasidagi aloqalarni belgilaydi. Kuzatishlar jamoa (butun sinf bilan bir vaqtda) yoki yakka (har bir o'quvchi mustaqil) holda bo'lishi mumkin.

Kuzatish uchun oson (uddalasa bo'ladigan) obyektlarni tanlash zarur. Kuzatishlar o'lkashunoslik xarakterida bo'lsin. Juda murakkab va tushunarli bo'lmagan hodisa va narsalarni tanlash kerak emas. Bu o'quvchilar qiziqishini sovitishi va kuzatishni chalkashtirib yuborishi mumkin. Tanlangan shakllardan qat'i nazar, 1-4-sinf o'quvchilari uchun o'lkashunoslik kuzatishlari, albatta, tizimlashgan tabiatshunoslik bilimlarini tushunib olishga, idrok qilish faolligini, tabiat obyektlari to'g'risidagi bilimlarni kengaytirishga yo'naltirilmog'i lozim.

1-2-sinflarda tabiatni kuzatish uchun atrof-olam bilan tanishtirishga oid darslardan foydalaniladi. 3-4-sinflarda kuzatishlar sistemasi «Jonajon o'lka tabiati» mavzusi bilan bog'liq holda mavsumiylik tamoyili asosida tuziladi.

Tabiatni kuzatishlar tizimiga ushbu tushunchalarni, ya'ni jonli va jonsiz tabiat, mevali va manzarali daraxtlar, erta gullovchi o'simliklar, texnika ekinlari, suv o'simliklari, sabzavot va poliz ekinlari, g'alla ekinlari, hasharotlar, baliqlar, suvda va quruqda yashovchilar, qushlarni kiritish mumkin.

Kuzatishlarning natijalari yil fasllari bo'yicha «Kundalik kuzatish daftari» va sinfning tabiat hamda mehnat kalendariga qayd

etib boriladi. Alohida e'tibor Quyosh balandligining, kun va tun uzunligining yil fasllari bo'yicha o'zgarishini kuzatishlarga qaratiladi. Bu kuzatishlar o'quvchilarga tabiat va odamlar mehnat faoliyatidagi mavsumiy o'zgarishlar sabablarini aniqlash imkoniyatini beradi.

«Kundalik kuzatish daftari»dagi maxsus maqolalar bolalarning kuzatishlar o'tkazishiga yordam beradi. «Yozda siz tabiatda nimalarni kuzatdingiz?», «Kuzatishga o'rganing», «Kuzda tabiatni kuzatish natijalari», «Tabiat va odamlar mehnatidagi bahorgi va yozgi o'zgarishlar haqida nimalarni bilib oldingiz?» kabi maqolalar shular jumlasidandir.

Tabiat va mehnat kalendariga kuzatish ma'lumotlarini har kuni yozib borish kuzatishlarga turg'un qiziqishni singdiruvchi maqsadga muvofiq usulardan hisoblanadi. Shu maqsadda o'quvchilardan biri doskaga taklif qilinadi, u ob-havoni batafsil ta'riflaydi, kun davomida tabiat va odamlar mehnatida qanday qiziqarli holatlar bo'lganligi haqida gapirib beradi. Uning javobini o'rtoqlari to'ldirib aniqlaydi. Javob o'qituvchi tomonidan, albatta, baholanadi, kuzatish kalendariga yoziladi.

Tabiat mehnat kalendariga yozilgan ma'lumotlarni faqat tabiatshunoslik darslaridagina emas, balki matematika (zarur hisoblashlar qilish, masalalar tuzish, diagramma chizish), ona tili (insho tayyorlash, biror davrda tabiatni ko'rsatish uchun she'rlar va nasriy asarlardan parchalar tanlash), mehnat ta'limining qishloq xo'jalik mehnati bo'limi (biror davrdagi ob-havo o'quv-tajriba maydonidagi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatganligini tahlil qilish) darslarida ham umumlashtirish mumkin.

Bolalarni jism va hodisalarni ko'ra olish, eshitish va qabul qilishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisining eng muhim vazifalaridan biridir. Bolalar, ko'pincha, ikkita tanish daraxtga (masalan, chinor va zarangga) qaraydi, ularni bir-biridan ajrata olmaydi. Bolalar suratni ko'rib, undagi eng muhim tomonlarni ko'ra oladi, deb bo'lmaydi. O'qituvchi ular oldiga aniq obyektlarni topish, ularni ta'riflash, savollarga javob berishga oid muayyan vazifalar qo'yishi kerak.

Kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun bolalarni jism va hodisalarni taqqoslashga o'rgatish muhimdir. Kuzatish uchun biror

ma'muni ko'rsatib, o'qituvchi ularning nimaga o'xshashligini so'raladi kerak. O'xshashlikni aniqlab, o'quvchilar e'tiborini narsalar o'rtasidagi farqlarga qaratishi kerak. Bunda kuzatishga, iloji boricha, ko'proq sezgi a'zolarini jalb etish muhim. Bolalar ko'rishgina qolmasdan, kerak bo'lganda ushlab, hidlab ham ko'rsin.

Kuzatuvchanlik tabiatga, ishlab chiqarishga, muzeyga, fermaga, hayvonot bog'iga ekskursiyalar o'tkazish vaqtida ham rivojlanadi. Bu ekskursiyalar shunday ko'rishgina emas, balki anichiklab qarash, shunday eshitishgina emas, balki diqqat bilan quloq solish qobiliyatini ham tarbiyalaydi. Tabiatshunoslikni o'qitishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi boshlang'ich sinfdayoq bolalarni tabiat jismlari va hodisalarini kuzatishga o'rgatadi.

Shunday qilib, tabiatshunoslikni o'qitishda ko'rgazmali usuldan foydalanish bolalarda aniq faktik bilimlarning to'planib borishiga yordam beradi. Kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun darsdagi o'yin turlarini kiritish foydalidir.

Tabiatshunoslik kursida fenologik kuzatuvlar alohida o'rin egallaydi. O'qituvchining o'zi tegishli malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishiga, bolalarni fenologik kuzatuvlarni to'g'ri o'tkazishga o'rgata oladi.

Tabiatning rivojlanishida har yili mavsumiy davriylikni kuzatamiz. Har bir yil fasllari va jonli hamda jonsiz tabiatning har biriga xos bo'lgan hodisalaridir. Jonli tabiatning mavsumiy rivojlanishi qonuniyatini muhit sharoitiga bog'lab o'rganadigan fan fenologiya deb ataladi.

Umumiy va qisman fenologiya farq qilinadi. Umumiy fenologiya mavsumiy davriylikni juda xilma-xil va murakkab bo'lgan tabiatni o'z ichiga oluvchi yagona jarayon sifatida o'rganadi. Jonli tabiatning mavsumiy rivojlanishi har bir biopetsenoz ekologik qonuniyatning kompleks ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich har bir tabiat hududi iqlimini o'rganishda olimlarga yordam beradi. Xususiy fenologiya mavsumiy hodisalarning butun kompleksini emas, balki o'simliklar yoki hayvonlarning rivojlanish fazalarini o'rganadi (fitofenologiya yoki zoofenologiya).

Har qanday organizm o'z atrofida necha ming yillar davomida yuzaga kelgan muhit bilan birgalikda bir butunni tashkil etganidan,

kishilar o'simliklar bilan hayvonlarni parvarishlash yuzasidan olib boradigan ijodiy ishlarida mavsumiy hodisalarini kompleks tarzda o'rganmasdan iloji yo'q. Bunga tirik tabiat qonunlarini bilishga imkon beradigan umumiy fenologik kuzatuvlar yordamida erishish mumkin, xolos.

Umumiy fenologik kuzatuvlar haqiqiy tadqiqot ishining boshlanishi hisoblanadi va har qanday tadqiqot singari, o'qituvchiga atrof-tabiatda u ilgari payqamagan narsalarni ko'rishga imkon beradi. O'qituvchi mohilik bilan boshchilik qiladigan bo'lsa, fenologik kuzatuvlar o'quvchilarga tarbiyaviy jihatdan ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabda umumiy fenologik kuzatuvlardan tabiatshunoslikka doir sinf mashg'ulotlarini joyning tabiati va xo'jaligi bilan bog'lab olib boriladigan metod sifatida foydalanish mumkin va lozim.

O'qituvchi ko'p yillik fenologik kuzatuvlarga asoslanib, jonajon o'lkaning ekologik xarakteristikasi uchun asos bo'lib qoladigan o'rtacha ko'rsatkichlarni chiqarib olishi kerak.

Yerning shakli, sutkalik va yillik harakatlari bilan hali tanish bo'lmagan, eshitishida nuqsoni bo'lgan 3- sinf o'quvchilariga tabiatdagi ko'pgina mavsumiy o'zgarishlarni ilmiy tarzda tushuntirib berish uchun Yer yuzasi ustida Quyosh holatining sutka davomida va turli mavsumda qanday o'zgarishini va shunga bog'liq holda, turli holatini kuzatish muhim ahamiyatga ega. Mana shu kuzatuvlarni tashkil etish va o'tkazish ustida to'xtalib o'tamiz.

O'qituvchi birinchi mashg'ulotdayoq eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni tabiatshunoslik darslarida nimalarni o'rganishi bilan tanishtiradi va ularga qaysi vaqtda tong otishini (qachon yop-yorug' bo'lib ketishini) va qaysi vaqtda qorong'i tushishini (qachon hamma yoq qop-qorong'i bo'lishini) hafta davomida «Kundalik kuzatish daftari»ga yozib borishni taklif etadi. Dastlabki 1- va 2- kunlari bu borada bolalarga ota-onalari yordam berib turganlari ma'qul, chunki bolalarning ko'pchiligi soatga qarab vaqtni aniqlash malakasini hali egallab olmagan bo'ladi (3- sinf o'quvchilari vaqt birliklari bilan o'quv yilining birinchi choragida tanishadi). Bolalar «Kundalik kuzatish daftari»ga yozib kelgan yozuvlarining to'g'riligini o'qituvchi har kuni matematika

darsda tekshirib chiqadi. Hafta oxirida matematika darsida bolalarga «Kundalik kuzatish daftari»ni tayyorlab qo'yish va yomun-yon o'tirgan o'quvchilarga "Yozib kelingan yozuvlarning to'g'riligini bir-biringizdan tekshirib ko'ring, bu yozuvlar nimani bildirishini bir-biringizga tushuntirib bering", deb taklif etiladi. Bolalar bu islni qiziqish bilan bajaradi, agar yozuvlarda ba'zi talovutlar bo'lsa, olingan natijalarni muhokama qiladi (bunday talovutlar bo'lishi muqarrar, chunki bolalar kunning boshlanishi bilan oxirini ko'rsatadigan aniq mezonni hali bilmaydi). Tong bilan oqshom boshlangan vaqtni hammadan ko'ra aniq belgilab kelgan o'quvchilar o'z yozuvlarini darsda o'qib beradi, boshqa o'quvchilar esa yozuvlarida farq bo'lsa, ularni tuzatadi. So'ngra o'qituvchi yomun-yon o'tirgan ikki o'quvchiga kun bilan tunning uzunligini hisoblab chiqishni taklif etadi. Bir sutka 24 soat ekanini endi bolalar biladi. Zarur hisoblarni bolalarning o'zlari bajarishi lozim. O'qituvchi olingan natijalarni aniqlashtirib beradi va kun bilan tun uzunligining ko'rsatkichlari bundan keyin o'zgarmasdan qolaveradimi-yo'qmi, degan savolga javob berishni o'quvchilarga taklif etadi. Yilning turli fasllarida bu ko'rsatkichlar o'zgarib turishini bolalar endi biladi. Shu sababdan bu gapni tasdiqlab berish uchun kuzatuvlarni davom ettirish kerak bo'ladi.

Eslatishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga kun bilan tun uzunligining o'zgarib borishi ustidagi kuzatuvlarni oyiga bir marta, taxminan, oyning 20-22-sanasida olib borish (sentabrda bunday ishni oy oxirida ham o'tkazish mumkin) va natijasini «Kundalik kuzatish daftari»ga yozib qo'yish vazifasi topshiriladi. Kuzgi va bahorgi tengkunlik, Quyoshning qishki va yozgi vaqtlarda chiqishining qachon boshlanishini bolalarning o'zi kuzatish jarayonida aniqlab oladigan bo'lishi juda muhimdir.

Kun bilan tun uzunligining o'zgarib borishi ustidagi kuzatuvlar bilan bir qatorda Quyoshning Yer yuzasiga nisbatan holati, haroratning o'zgarishi ham kuzatib boriladi. O'quvchilar jonsiz tabiatning, mana shu hodisalari o'rtasidagi bog'lanishni va o'simliklar bilan hayvonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarning, shu hodisularga bog'liqligini tezda payqab oladi. Jonli va jonsiz tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatib borish natijasida

o'quv yili oxiriga kelib, o'quvchilarda jonajon o'lka tabiatining bir butunligi haqida yaxlit tushuncha hosil bo'lishi kerak. Kuzatuvlar maqsadini bolalar o'quv yilining boshidayoq anglab oladigan bo'lsa, ish qiziqarli mashg'ulot tusini oladi. Mazkur ishni o'quvchilar diqqat bilan, juda aniq bajaradigan, hatto, unga ijod elementlarini kiritib boradigan bo'lishiga erishish zarur.

Tarqatib chiqiladigan tabiiy materialni o'rganish jarayonida bolalarda kuzatuvchanlik va diqqat-e'tibor rivojlanib boradi. O'qituvchi avval kuzatuvlarning batafsil rejasini berishi, o'rganilayotgan obyektning muhim belgilari bilan xossalari qay daraja muhimligini darslarning birida ko'rsatishi kerak, xolos.

Keyinchalik o'qituvchi bolalarga biror topshiriq berar ekan, bajarilgan ish uchun bir-biriga, avvalo, baho qo'yishni taklif etishi mumkin. Demak, o'quvchilarning har biri o'quv yili davomida goh o'quvchi, goh o'qituvchi ro'lini bajarib, o'qituvchiga yordamchi bo'lib borishi mumkin. Pirovard natijada, o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro ishonch munosabatlari tarkib topa boradi, ya'ni hamkorlik pedagogikasiga ilk qadamlar qo'yiladi.

Kuzatuvchanlik va diqqat-e'tiborni rivojlantirish uchun, masalan, hayvonlarning xulq-atvorini kuzatish foydalidir. Chunonchi, tabiatga ekskursiyaga chiqilganda bolalar chumchuq, jibljibon, qarg'a va maynalarning qay tariqa harakatlanishini kuzatib, o'qituvchidan: "Ularning yurishlarini, imkoni boricha, o'xshatib namoyish qilib ber", degan topshiriq oladi. Yoki boshqa bir kuzatuv olib borish: musicha, chittak, chumchuq, qarg'a, mayna, zag'izg'onlar qanday ovoz chiqarishini tinglash va kuzatuvlardan keyin shu tovushlarga taqliq qilib, tovush chiqarish o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilarning ba'zilari qushlarning ovozi va harakatlariga taqlid qiladi, boshqalari o'z o'rtoqlarining qanday qushlarga taqlid qilayotganini aniqlab beradi. Bu mashg'ulot quvnoqlik bilan, qiziqarli o'tadi, natijada bolalar yovvoyi qushlarning hayoti to'g'risida tasavvurlarga ega bo'ladi, ularda bu qushlarga nisbatan qiziqish va ular hayotini kuzatib borish, ularni asrash, qishda boqish istagi paydo bo'ladi. Boshqa har qanday ishda bo'lgani kabi, bu ishda ham kuzatuvlar natijalariga qarab «Kundalik kuzatish daftari»ga tegishli yozuvlar yoziladi va rasm chiziladi.

Eksperiment, ko'pincha, fiziologik jarayonlarni o'rganishda o'tkaziladi. Eksperiment uzoq va qisqa muddatli bo'lishi mumkin.

Botanika darslarida o'tkaziladigan qisqa muddatli eksperiment yoki tajribaga urug'ning tarkibi, tuproqning fizik xossalari, bargda maksimal hosil bo'lishi va shunga o'xshashlarni o'rganish bo'yicha ma'lum bo'lgan ishlar misol bo'la oladi. Urug'larning unib chiqish sharoitlari, barg orqali suv bug'lantirilishi kabi ancha oddiy tajribalarni o'quvchilar uyda bajaradi.

O'quvchilar tirik tabiat burchagidagi oddiy tajribalarni boshlab, eksperiment o'tkazishni o'rganadi, bu bilan ular maktab o'quv-tajriba uchastkasidagi birinchi murakkabroq va uzoq davom etadigan tajribalarga tayyorgarlik ko'radi.

Hayvonlar ustida olib boriladigan uzoq muddatli tajribalar va kuzatishlar ularning xulq-atvorini o'rganish bilan bog'liqdir. Umurtqali hayvonlarda muayyan holdagi shartli reflekslarni hosil qilish bo'yicha o'tkaziladigan tajribalar juda xilma-xildir. Bu ishlar ham darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi, ammo natijalardan darsda foydalaniladi. Amaliy metodlarning har bir turi (farq qilish va aniqlash bo'yicha ishlar, hodisalarni qayd qiluvchi kuzatishlarni o'tkazish, tajriba qilish) qator bosqichlarda boradi.

Savollar

Darslarda qatnashganda quyidagilarni aniqlang:

1. Darsda o'qituvchi qanday metodlardan foydalangan?
2. Asosiy metodni ajratib ko'rsatish mumkinmi?
3. O'qituvchi og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlar vositasida o'quvchilarning mustaqilligini qanchalik rivojlantiradi, o'quvchilarning javoblari qanday?
4. Aqli zaif o'quvchilarning amaliy ishi tafakkurni rivojlantirish bilan bog'lanadimi?
5. Darsda qo'llanilgan metodlar materiallarning mazmuniga mos keladimi?
6. Darsda qo'llaniladigan metodlar o'quvchilarning rivojlanishiga mos keladimi?
7. Darsda metodlar qanday bog'liqlikda bo'lishi zarur deb hisoblaysiz?

8. Darsingiz uchun tanlangan metodlarning to'g'riligini qanday hisobga olasiz?

9. Tabiatshunoslik o'qitishning qaysi metodlari tarbiyaviy korreksion ahamiyatga ega? (Darslar misolida isbot qiling.)

6.4. Tabiatshunoslikda o'quv ishlarini tashkil etish shakllari

Maktabda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish o'quv ishlarining muayyan shakllarida amalga oshiriladi.

O'qitishning shakli tarbiyaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv-idrok qilish faoliyatini uning o'tkazilish (sinfda, tabiatda va h.k) sharoitlariga muvofiq holda tashkil qilinishidir.

Maktabda o'rganiladigan barcha predmetlar uchun o'quv ishlarining asosiy shakli darsdir.

Yordamchi maktablarda ta'lim jarayonini tashkil qilishning individual va guruhli shakllaridan foydalaniladi. Asosan, sinf dars tizimi qo'llaniladi.

Yordamchi maktablarda dars berish usullari rus metodist olimlari A.N.Graborov, G.M.Dulnev, N.G.Yeremenko ishlarida ochib berilgan.

Umumta'lim maktablari o'quvchilari kabi, yordamchi maktablarda ham o'quvchilar o'zining yosh va bilish faoliyatlariga ko'ra ma'lum guruhlariga birlashtiriladi, ularga nazariy va amaliy bilimlar beriladi.

“Dars” deganda ma'lum fanlardan, ma'lum hajmdagi bilimlarning ma'lum yoshdagi o'quvchilar guruhiga, maxsus tayyorgarligi bo'lgan mutaxassis tomonidan berilishini tushunamiz. Darsning samaradorligini oshirish beriladigan bilimlar saviyasini ko'tarish, nazariy bilimlarni hayot bilan bog'lab borish, aqli zaif bolalar nuqsonlarini tuzatish (korreksiyalash) va ularni hayotda mustaqil mehnat qila oladigan qilib tayyorlashda o'qituvchi mutaxassislar tinmay izlanishlar olib bormoqda.

Tabiatshunoslik o'qitish metodikasida o'quv ishlarining ko'p xildagi shakllari qaror topgan.

lansiz tabiat, o'simlik, hayvon va odam hayoti hamda tabiat taraqqiyotining qonuniyatlari o'rganiladigan tabiatshunoslik bo'limining mazmuni butun tizimning o'ziga xosligini belgilaydi.

Tabiatshunoslikni o'qitishning asosiy shakli – darslarga qo'shimcha holda, maktab amaliyotida o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv ishlarining boshqa shakllari ham vujudga kelgan.

Boshlanishida majburiy bo'lmagan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalar o'qitishga muqarrar komponentlar sifatida ularni markazdek dars tomon tortgan.

Hozirgi vaqtda metodika maktab amaliyotida tabiatshunoslik bo'yicha o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv ishlarini tashkil qilishning ushbu shakllari tizimini qabul qiladigan: darslar va ular bilan bog'liq bo'lgan nazariy ekskursiyalar, uy ishlari darsdan tashqari zarur ishlar (tirik tabiat burchagida, o'quv-tajriba uchashtalarida, tabiatda va zarur bo'lmagan sinfdan tashqari mashg'ulotlar, individual va to'garak shaklidagi ommaviy).

Metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan o'qitish jarayonida shu o'qitishning barcha shakllari asosiy dars bilan o'zaro bog'liqdir, ular tabiat haqidagi tushunchalarni, dunyoqarashni, tafakkurni, idrokni, mehnat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Darslar kurs mavzulari bo'yicha materialning tizimli bayon qilinishini ta'minlovchi muayyan izchillikda joylashadi.

Tabiatshunoslik darslarida o'qituvchi barcha o'qitish metodlari (og'zaki, ko'rgazmali va amaliy), yangi pedagogik texnologiyalardan, o'qitish uslublaridan foydalangan holda dars o'qitadi. U o'simlik va hayvonlarning gerbariy, mulyajlarini namoyish qiladi hamda amaliy ishlar bajarish yo'li bilan o'quvchilarni ayrim o'simlik va hayvonlarning tasnqi hamda icnki tuzilishi bilan tanishtiradi.

Animo sinfdagi darsda hayotni uzoq kuzatishni talab qiluvchi, o'simlik yoki hayvonlarning rivojlanish jarayonini, har xil organizmlarning tabiiy sharoitlarda birgalikda yashashini ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning uchun tabiatshunoslik o'qitish metodikasida darslarni to'ldiruvchi maxsus shakllar qo'llaniladi. Ekskursiyalar tabiatdagi tabiiy guruhlashda yoki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida, muzeylarda, o'simlik va hayvonlar bilan tanishtiradi.

Ular o'rganilayotgan tushunchalar kompleksiga kiradi yoki ilgari qaror topgan tushunchalarni mustahkamlaydi, aniqlaydi, chuqurlashtiradi, umumlashtiradi. Ekskursiyalar darslar bilan chambarchas bog'lanadi. Ekskursiyada ko'rilgan obyektlar dars davomida ko'p marta esga olinadi, chunki yordamchi maktab o'quvchilari diqqati turg'un emas. O'quvchilarda xotira zaif bo'ladi, ya'ni ko'rgan, eshitgan voqea, narsa, predmetlarni tezda esdan chiqaradi. Shuning uchun o'qituvchi doim darsni bir-biri bilan bog'lashi, takrorlab savol-javob orqali esga tushirib turishi kerak.

Esga tushirish orqali ilgari olingan bilimlarni ishlatish, ekskursiyada yig'ilgan materiallarni darsda namoyish qilish o'quvchida tushunchalarni mustahkamlaydi.

Yordamchi maktablardagi darsga qo'yiladigan asosiy didaktik talablardan biri uning tuzatish (korreksiyalash), tarbiyalashga yo'nalganligidir. Rus metodisti A.N.Graborov tuzatish, tarbiyalashni hal etishda quyidagi vazifalarni qo'yadi:

1. Ta'limda mumkin qadar ko'proq sensor mexanizmlarni jalb etish.

2. Kuzatgan holatlarni to'g'ri bayon etishni mashq qilish.

3. O'quvchilarning kuzatuvchanligini rivojlantirib borish. Ta'lim jarayonida o'quvchilar hodisa va voqealar bilan tanishib-gina qolmasdan, balki ular haqida fikrlaydi ham. Bu esa o'quvchilarda tabiatning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlarning shakllanishiga olib keladi.

Aqli zaif o'quvchilar tabiat haqidagi bilimlarni egallash vaqtida to'g'ri fikr yurita olsa, taqqoslasa, xulosa qilsa, o'z fikrlarini bayon etsa, uning tarbiyaviy tomoni yanada ortadi. Shuning uchun dars materialini tanlash, har bir dars uchun ta'lim usullarini belgilash zarurdir. Darsdagi o'quv materialining hajmi, o'quvchilar imkoniyatlari dastur talablarida belgilangan. Darsdagi o'quv materialini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Tabiatshunoslik kursining barcha bo'limlari aqli zaif o'quvchilar bilish faoliyatini nazarda tutgan holda, vazirlik tomonidan belgilangan o'quv qo'llanma, darslik, dasturlar tuziladi.

Yordamchi maktab darslariga qo'yiladigan muhim didaktik talablardan biri o'quvchilarning individual va guruhli ishlarini to'g'ri olib borishdir.

Darsda frontal, guruhli, individual ishlarni qo'shib olib borish, o'quv mashg'ulotlarini shunday olib borishga imkon beradiki, bunda yaxshiroq tayyorlangan o'quvchilar vazifa bajarishda qiynalmaydi, past o'zlashtiruvchi (tayyorgarligi kam)lar esa ularga tenglashadi.

Darsning didaktik tugallanganligi darsning tuzilishi va natijalarining o'zaro muvofiqligi bilan belgilanadi.

Sinfda uy vazifasini tekshirish, o'tilganlarni takrorlash asosida yangi materialni o'zlashtirishga o'quvchilarni tayyorlash katta ahamiyatga ega. Tabiatshunoslik darslaridan uy vazifalarini bajarishda, darsda bajarayotgan mustaqil vazifalarni oxiriga yetkaza olmasa, uyda bajarib kelish vazifa qilib beriladi. Masalan: uyda daf'larga sinfda ajratilgan gul qismlarini, hasharot bo'laklarini yopishtiradi va rasmlarini chizib keladi.

O'qituvchining maxsus topshirig'i bilan uyushtiriladigan uy topshiriqlarining ko'rinishi o'zgargan darsdan tashqari majburiy bo'ladi. Ular ham topshiriqlar bo'yicha bajariladi, lekin barcha o'quvchilar bilan birga emas, balki individual tarzda. Kichik guruh bilan tabiatshunoslik kabinetida, tirik tabiat burchagida, o'quvchilar uchastkasida yoki tabiatda bajariladi.

Darsdan tashqari ishlar uy ishlariga qaraganda murakkabroqdir. Ularni amalga oshirish uchun tegishli o'simliklar, maxsus asboblardan va boshqa jihozlar talab qilinadi.

Darsdan tashqari ishlarga tirik tabiat burchagidagi; o'quvchilar uchastkasidagi va tabiatdagi yozgi topshiriqlar bo'yicha bajariladigan ishlar kiradi.

O'quvchilarning tabiatda bajaradigan yozgi ishlari to'g'risida ularni ta'kidlash ma'nokinki, «Yozgi topshiriqlar» darslarda beriladi. Kurs bo'yicha darslarni yozda o'quvchilar tomonidan tabiatda yig'ilgan va ko'rguzmali o'quv qurollari tarzida rasmiylashtirilgan ko'rguzmali materiallar bilan ta'minlash uchun o'qituvchi o'ylab chiqib so'ng vazifa beradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning majburiy bo'lmagan ko'ngilli shakllari; individual ishlar; sinfdan tashqari o'qishlar va ijtimoiy foydali ishlar keng qo'llaniladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garakda tayyorlangan modellar, asboblardan ham darsda foydalaniladi. «Bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar», «Gripp», «Gelmintoz», «Ichak kasalliklari» kabi mavzularda ma'ruzalar qilinadi.

Dars o'quv ishlarini tashkil qilishning barcha shakllarini qamrab oluvchi tarbiyalovchi ta'lim jarayonining negizidir.

Yordamchi maktab tabiatshunoslik darslarida olib boriladigan ijtimoiy foydali ishlar alohida ahamiyatga ega. Ular odatda, umumiy xarakterga ega bo'ladi, chunki aqli zaif bolalar aqliy mehnatdan ko'ra jismoniy mehnatni tezroq bajaradi. Chunki o'quvchilardagi aqliy zaiflik mehnat tarbiyasi bilan kompensatsiya qilinadi. Ijtimoiy foydali ish faqat ta'lim jarayoni bilan bog'langandagina ta'lim va tarbiya beruvchi bo'ladi.

Ko'pincha, o'qitish shakllari to'g'risidagi tushunchani metodlar to'g'risidagi tushuncha bilan aralashtirib yuboradilar.

Ekskursiyani shunday metodlar bilan o'tkazish mumkin:

1. Og'zaki metodlar: ko'rilayotganlar haqida o'qituvchi hikoya qiladi, suhbatlashadi.

2. Ko'rgazmali metodlar: o'quvchilar marshrut bo'yicha o'qituvchi ko'rsatgan obyekt va hodisalarni kuzatib boradi.

3. Amaliy metodlar: o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlaydi.

4. Har xil metodlarning bog'lanishi.

Ijtimoiy foydali mehnat o'qitish metodi emas, o'qitish shaklidir. Darsda ilmiy tabiat haqidagi tushunchalar va amaliy uquvlar rivojlantiriladi, ular uy ishlarida ham, ekskursiyalarda ham rivojlanishda davom etadi.

Bilimlarni taqqoslash, xulosalar va hal qilinishni talab qiladigan, o'ylab tuzilgan tegishli savollar aqli zaif o'quvchilar tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Hodisalarni tarixiy taraqqiyotning paydo bo'lishi nuqtayi nazaridan ochib berishga majbur qiladigan topshiriqlar ham borliqni bilishga, dunyoqarashning shakllanishiga olib keladi.

O'qitish shakllarining har biri uning o'ziga xosligi, fanning mazmuni, tarbiyaviy ta'limning umumiy tamoyillari bilan belgilanadigan tizimga ega.

Tabiatshunoslikni o'qitishning shakllari ilmiy tushunchalarni, tafakkurni, dunyoqarashni, mehnat madaniyatini, go'zallikni his etishni, axloq va o'qib munosabatlarini rivojlantiradi.

O'tkazilgan ishning natijasi mehnat madaniyatini tarbiyalaydi, uning rasmiylashtirilishi go'zallikni his qilish, do'stona munosabatlar, axloqiy tarbiyaga yordam beradi. (3-jadval)

Savollar

1. Yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'qitishning qanday shakllari qo'llaniladi?
2. Darsning boshqa shakllari ta'limda qanday bog'lanadi?
3. Darsda olingan tushunchalar to'g'ri bog'lanishda qanday qo'llaniladi?

6.5. Ta'lim -o'quv ishlarining tashkiliy shakllari

Dars ta'limining asosiy shakli butun ta'lim-tarbiya tizimi, mazmuni, metodlarning, tarbiyaning barcha murakkab kompleksi darajada amalga oshiriladi. Dars o'qituvchining, yoshi va tayyorgarligi bir xil bo'lgan doimiy o'quvchilar jamoasi – sinf bilan davlat dasturi, qat'iy dars jadvali bo'yicha va maktab binosida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishning asosiy shaklidir.

Dars maktab o'quv-tajriba uchastkasida ham o'tkazilishi mumkin. Tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida davlat dasturiga muvofiq, tizimli va izchil ravishda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga, shuningdek, shaxsning har taraflama rivojlanishi elementlariga ega bo'lib boradi.

Darsda aqli zull o'quvchilarning tabiatga nisbatan dunyoqarashni shakllantiradigan, uni tabiat bilimlariga ega qilgan holda, amaliy dunyoqarashni boyitib va ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlab kelajakda mustaqil ravishda mehnat qila olishga tayyorlanadi. Ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalari darsda hal qilinadi. Uning mazmuni ilmiy va tushunarli, g'oyaviy yo'nalishga ega bo'lishi o'quvchilarda tabiat va borliq haqidagi dunyoqarashni shakllantirishga yordam berishi kerak.

Yangi o'tilgan mavzu ilgari o'tilgan mavzu bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Bunday holatda tabiatshunoslik tushunchalarining rejali va izchil rivojlanib borishiga erishiladi. Darsda aqli zull o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tabiat hodisalarini idrok qilib ularning mohiyatini ochishga o'rganadi. Ularning mantiqiy tafakkuri rivojlanib boradi. Barcha sinflardagi tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri xilma-xil shakllarda tadqiq etiladi, yuqori sinflarda abstrakt fikrlashlarga ko'proq

o'rgatib, aqli zaif o'quvchilar bilish faoliyati to'g'rilanib (korrektsiyalanib) boriladi. O'qituvchi rivojlantiradigan tabiatshunoslik tushunchalarining tarkibi, aqli zaif o'quvchilarning yoshiga qarab, o'quv materialini ularning ongiga yetkazish usul va uslublarini tanlaydi. Bunda o'qituvchi darslarni didaktik talablar asosida o'qitishning yangi metodlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ko'rgazma, natural obyektlarni tanlash, umuman, o'qitish metodlaridan keng foydalanish, o'quvchilar ta'limini to'g'ri olib borish haqida g'amxo'rlik qilishi kerak.

Shunday qilib, darslarda tabiatshunoslik o'qitish maxsus metodikasining barcha muhim qoidalari, talablari amalga oshiriladi. Bunda, albatta, dars aniq tashkil qilinishi, intizom va o'quvchilarning fanga qiziqtirishni ta'minlash kerak. O'qituvchining barcha ish tizimi, pedagogik mahorati darsda ko'rinadi. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarning o'quv materialini yaxshi tushunib olishi va o'zlashtirishiga erishmog'i lozim.

Istiqbol reja. O'qituvchi har bir darsning mavzusi va har bir mavzuning o'rini o'quv yili davomida, faslni hisobga olgan holda, oldindan va aniq tasavvur qilishi kerak. Bu faqat dastur mavzularining mazmuni bo'yicha emas, balki o'qitish metodlari va shakllari bo'yicha ham rejalashtirishni talab qiladi.

Tabiatshunoslik darslarida o'qituvchi muayyan joyning mavsumiy xususiyatlarini hisobga olib, qachon va qanday tarqatma material to'plash, tirik burchak uchun qaysi vaqtda va qanday o'simliklar, hayvonlarni kuzatish, tabiatga qachon va qanday ekskursiya uyushtirish kerakligini belgilaydi. Maktab yer uchatskasi, parrandachilik, chorvachilik fermalari, hayvonot va botanika bog'lariga yaqin joylarga ekskursiya uyushtirib tabiatni kuzatish joylari va muddatlarini aniqlaydi. O'quvchilar uchun botanikadan qanday tajribalar, kuzatishlarni darsda ko'rsatish kerakligini, qachon va qanday bayramlarni ("Paxta bayrami", "Hosil bayrami", "Gullar bayrami" va tabiat bilan bog'liq boshqa bayramlar), tadbirlarni o'tkazishni oldindan aniqlab olishi kerak. Har bir kursning mazmuni va o'quvchilarning yoshiga mos keladigan metod va shakllar bilan tabiatshunoslikni rejali ravishda o'qitish uchun yillik rejaga zaruriyat tug'iladi. Bunday reja o'qituvchining ish sifati yaxshi bo'lishi uchun zarurdir.

O'qituvchi butun o'qitish jarayonining borishini nazarda tutishi va uni reja bo'yicha olib borishi kerak. Oldindan tayyorlangan o'qituvchi ish rejasi muhim ahamiyatga ega. Istiqbol rejada mavzular bo'yicha soatlarning taqsimlanishi va ta'til hamda bayramlarni hisobga olgan holda, mavzularni o'qitishning muddatlari ko'rsatiladi. Aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati har doim o'zgarib turadi. Mavsumlarning o'zgarishi yoki ob-havo ham aqli zaif o'quvchilarning asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularda o'qilgan mavzularni esdan chiqarish holatlari uchraydi, bunday vaqtda o'qituvchi o'qilgan mavzuni qayta mustahkamlab, ular ongida tushuncha hosil qilishi lozim, bu holat yangi mavzuni o'qishga ulgurmaslikka olib kelishi mumkin. Bunda dasturni bajarish sharti bilan mavzular bo'yicha soatlar dasturda ko'rsatilgandan birmuncha farq qilishi mumkin. Bunda muayyan mavzuni 2-3 soatga ko'paytirish va boshqa mavzuni shuncha kamaytirish mumkin. O'qituvchi mavzularning o'zi taklif etgan izchilligi tushunchalarning rivojlanishiga, bilimlarning ongli va mustahkam o'zlashtirilishiga yordam beradi, deb bilsa, maktab ma'muriyati bilan kelishib mavzular tartibini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yordamchi maktabda tabiiatshunoslik darslari didaktik masala va maqsadlarni ko'zlagan holda olib boriladi. Yordamchi maktabdagi darsga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Ta'biy va tabiiy maqsadlarning uzluksizligi, ajralmasligi.
2. Darsning har bir qismi (etapi) uchun uslub va o'quv materialini to'g'ri tanlash.
3. Guruh (frontal) va yakka tartibda (individual) o'qitishni qo'shib olib borish.
4. Darsning tashkiliy aniqligi.

Yordamchi maktabda yuqoridagi didaktik maqsadlarga muvofiq holda quyidagi dars turlari qo'llaniladi.

1. Yangi bilimlar berish darsi.
2. Aralash darslar.
3. Amaliy darslar.
4. Nazorat darslari.
5. Umumlashtirish, mustahkamlash darslari.

Yordamchi maktabdagi darslar, asosan, nuqsonni tuzatishga qaratilgandir.

Yangi bilimlar berish darsi

Yangi bilimlar berishning asosiy maqsadi aqli zaif o'quvchilarda yangi tushunchalar hosil qilish, ularning lug'ati, nutqi, tafakkurini rivojlantirishdir. Tabiatshunoslikdan beriladigan har bir mavzu o'quvchilarning bilish faoliyatini to'g'rilashga qaratilgan. O'rganilayotgan yangi mavzuni aqli zaif o'quvchilar o'zlashtirib olmaguncha, yangi mavzuga o'tilmaydi. Har doim yangi mavzu o'tilgan mavzu bilan bog'lanadi va o'tilgan mavzu atroflicha yakunlanib yangi mavzuga bog'lanadi. Yangi mavzuni, bilimlarni berishda dasturlashtirilgan darsning ahamiyati katta. O'qitishni shunday tashkil etishning afzalligi bilimlarni elementar o'zlashtirish ayrim o'quvchilar bilimida uzilishlar paydo bo'lishining oldini oladi.

Darsni o'tish, dars rejasi yaxshi tuzilgan bo'lsa ham, agar vaqtga rioya qilinmasa, uning sinfda o'tkazilishi muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin.

Darsga 45 daqiqa vaqt ajratiladi, ulardan pedagogik jihatdan ancha samarali foydalanish kerak. Shunga ko'ra, o'qituvchi barcha dars qismlarini o'quvchida elementar tushuncha hosil bo'lguncha tushuntirishi, uni muayyan suratda, chalg'itishsiz (o'zgarishsiz) o'tkazishi foydalidir.

Darsning boshlanishida «Tashkiliy qism» deb ataladigan qismga vaqt sarflash yaramaydi. Kundalik darsda, maktabda bolalar birinchi sinfdan boshlab, yagona talablar asosida darsga tayyor bo'lishga o'rgatiladi. O'qituvchi darsga kirganida o'quvchilarning tayyorligini bilish uchun nigoh tashlashi kifoyadir. Dars boshlanishida o'qituvchi darhol o'quv ishiga kirishishi, o'tilgan vazifani qaytarib, o'quvchilardan so'rashi, so'ng yangi mavzuni tushuntirishi kerak. Bunda darsning maqsad va vazifalarini aytib o'tirmasdan, mavzu va uning mohiyati o'quvchilarga ko'rgazmali materiallar bo'yicha tushintirilib yakun yasaladi. Odatda, boshlanishida o'quvchilardan so'raladi, uy vazifasining bajarilishi tekshiriladi, bunga dars soatining yarmigacha vaqt sarflanadi. O'qituvchi doskaga chiqqan o'quvchi bilan g'aplashadi qolgan o'quvchilar esa faoliyatsiz qoladi. Bu juda

katta xatodir. Rus metodist olimi V.V.Polovsov: «O'qituvchi o'z oldida o'zining alohida individualligiga, o'zining alohida xususiyat va belgilariga ega bo'lgan sinf, ya'ni jamoa turganini bir daqiqa ham unutmasligi kerak. U sinfdan seza olish xususiyatini hosil qilmog'i lozim, bu shunga olib keladiki, darsda amalga oshayotgan barcha narsa faqat alohida o'quvchilarniki emas, butun sinfniki bo'lib qoladi. O'qituvchi butun sinfning ishlashi uchun, butun sinfning o'qitilayotgan narsa bilan qiziqishi uchun, butun sinfning bilim olishi uchun doimo g'amxo'rlik qilib borishi kerak», degan edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'quvchilar bilimni darsning boshlanishida tekshirish yaramaydi, balki uni yangi materialni o'rganish bilan uyg'unlashtirish kerak.

Darsda o'quvchilarning rolini aniqlash juda muhimdir. Ularning darsdagi javoblari sinf o'quvchilarida tushunchalarni rivojlantirish uchun xizmat qiladi; noto'g'ri javoblar sinf o'quvchilari tomonidan tuzatiladi, to'ldiriladi, zarur materialni takrorlash uchun oldindan berilgan topshiriqlar bo'yicha yoki o'qish uchun tavsiya etilgan kitoblardan o'quvchilarning javoblarida foydalaniladi.

Ayniqsa, o'quvchilarning uyda, ekskursiyada yoki darsdan tushuri vaqtlarda o'tkazgan kuzatishlari va tajribalari to'g'risidagi axborotlari juda muhimdir. Bu holat o'quvchilar idroki, tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi. O'qituvchi darsni yangi materialni tushuntirish bilan boshlaydi, shundan keyin olingan bilimni ma'lum yordamida mustahkamlash maqsadida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga taqqoslash uchun bir qancha misollar keltirib, subbut yordamida o'quvchilarni xulosa chiqarishga olib keladi. Bunday darslar o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga yordam beradi, ular jonsiz tabiatdagi hodisalarni tahlil qiladi, o'simliklarni, hayvonlarni taqqoslaydi, natijada aqli zaif o'quvchilarning tabiat haqidagi bilimlari kengayadi, bilish faoliyatlari to'g'rilanadi, rivojlanadi. Tabiatni sevishga, hodisalarni to'g'ri anglay olishga, uni ardoqlashga o'rganadi.

Takrorlash-umumlashtirish darsining didaktik maqsadi o'tilgan mavzuni qaytarish va tizimlashtirishdan iborat. Dastur mavzularining biror bo'limi tugallangandan keyin yoki biror katta mavzuning o'qitilishi tugallangandan keyin amalga oshiriladi.

Umumlashtirilgan darsda o'qituvchi o'quvchilarning o'tilgan mavzuni qanday o'zlashtirganini aniqlaydi.

Bu darslar o'quvchilarning o'quv materialini yuqori darajada tushunishiga va o'tilganlarni yangi shaklda qaytarishiga imkon beradi. Qaytarish vaqtida mavzu bo'yicha o'rganilgan material umumlashtiriladi. Masalan: darslarda o'quvchilar turli xil mashqlarni o'rganadi, umumlashtirib qaytarish darsida esa ularni taqqoslaydi. «Hayvonot olami» (zoologiya) mavzusida yovvoyi va uy hayvonlarini o'rgangandan keyin o'quvchilar bir guruh hayvonlarni o'zaro solishtirib, har bir guruhning umumiy va o'ziga xos belgilarini aniqlaydi. Har bir tabiatshunoslik kursi bo'yicha asosiy tushunchalarni rivojlantiruvchi takrorlash tizimi zarur. V sinfda «Jonsiz tabiat» kursi bo'yicha takrorlash mumkin. VI sinfda «O'simliklar» (botanika) kursini takrorlashda, VII sinfda zoologiya fani bilan bog'lab takrorlash, VIII sinfda «Odam anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi» kursi bo'yicha ushbu masalalarni takrorlash muhimdir.

Takrorlashda yoki organlar tizimini ilgari o'rganilganlar bilan taqqoslash, natijalarni jadval, chizma (rasm)lar shaklida qayd qilish maqsadga muvofiqdir. Takrorlash turli metodlar vositasida, o'tilganlarni ancha vaqt tejab, umumlashtirishga imkon beradigan og'zaki va ko'rgazmali metodlar ustunligida o'tkaziladi.

Takrorlash uchun sinfdan tashqari ishlarning ommaviy shakllari, «Maktab kechalari», tabiat bo'yicha bayramlarni uyushtirish, «Gullar bayrami» «Paxta bayrami» «Hosil bayrami», «Qushlar bayrami», sinfdan tashqari vaqtlarda jamoa xo'jaligi fermasi, bog'dagi mevalarni yig'ib olish kabi qishloq xo'jalik ishlarida qatnashish hamda kinofilmlar ko'rsatish orqali aqli zaif o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash ishlari, o'tilgan darslarni takrorlash, esga tushirish orqali malakalar tarbiyalanadi.

O'quvchilar bilimini hisobga olish uchun o'qituvchi quyidagi metodlardan foydalanadi.

Og'zaki metodlar.

1. Berilgan savolga og'zaki javob.
2. Mavzuga og'zaki javob – hikoya.
3. Ko'rgazmali metodlar uslubi.
4. Tarqatilgan jadvallarga qismlarning nomini yozish.

5. Jadval yoki rasmlar bo'yicha hikoya.
6. O'simliklar, hayvonlarning maketlaridan foydalangan holda hikoya.
7. Ikkita obyektни taqqoslash.
8. Tarqatma materialda yoki rasmda obyektни tanib olish.
9. Doskadagi rasmlar (individual va frontal).
10. Tayyor rasmlar, o'simliklarning gerbariy nusxalarini doskada namoyish qilish.

Amaliy metodlar.

1. Narsa tayyorlash.
2. Ilgari o'tkazilgan tajribani takrorlash.

Bilimni hisobga olish ularning sifatini nazorat qiladi, ayni vaqtda, bilimni oshirishga ham xizmat qiladi.

Yil bo'yicha o'quvchilar bilimini uzil-kesil baholashda o'qituvchi ular faoliyatining barcha turlariga qo'yilgan baholarni o'tiqorga oladi va o'quvchi bilimining qay darajadiligiga qarab baholaydi.

O'quvchilarning bilimlari nazorat qilinmasa, ular tizimli, tuzil, mustahkam bilim ololmaydi. O'quvchilardagi bilim darajasi to'g'ri, tizimli va differensiyalashgan holda tekshirilib turilgan-dopina maqsadga erishish mumkin.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishning tarbiyaviy ta'miri shundaki, o'quvchilarda tekshirish tufayli o'z-o'zini nazorat qilish xislatlari rivojlanib boradi. O'quvchilar bilimlari kundalik, har bir dars davomida, dasturdagi ma'lum mavzular o'tqandan keyin, har bir chorak, o'quv yili oxirida tekshiriladi.

Shunga ko'ra, baholashning joriy va yakuniy turlari mavjud. Har baholash turiga mos keluvchi tekshirish usullari mavjud bo'lib, kundalik baholashda o'qituvchi kuzatish, yuzaki so'rashdan foydalanadi, joriy va yakuniy baholashda esa, og'zaki so'rash sinov turlaridan foydalanadi. Yordamchi maktablarda o'quvchilar bilimini tekshirishning barcha turlari qo'llanadi. Bunda aqli zaif o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari, bilish faoliyatining qay darajada rivojlanganligi hisobga olinishi va o'qituvchi aqli zaif o'quvchilarni baholayotganida ongli munosabatda bo'lishi lozim.

Har qanday baho yoki rag'batlantirib qo'yilgan baho o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishining oshishiga hamda o'z kuchiga ishonch hosil bo'lishiga yordam beradi.

Tabiatshunoslik daftari. Darslarda o'quvchilar daftardan foydalanadi. Daftarga mavzuni yozish foydalidir. Mavzularni yirikroq harflar bilan yozish, rasm va yozuvlarni faqat o'qituvchining ko'rsatmasi bilan qilish, qalamda rasm chizish va hokazo.

Birinchi darsdayoq o'qituvchi o'quvchilarni daftar tutishga qo'yilgan talablar bilan tanishtiradi. Daftar toza, tartibli bo'lishi, o'qituvchining sana yozishi va belgi qo'yishi uchun bo'sh joy qolishi kerak. O'quvchilar daftarga tabiatdagi o'zgarishlar: ob-havo belgilarini qo'yadi, o'simliklar bobidan o'simlik qismlari, ildiz, poya, novda, barg mevalarni chizadi. Ayrim so'zlarning lug'aviy ma'nosini yozadi.

Uyga beriladigan savol va masalalar ham shu daftarga yoziladi. O'quvchilar uyda bu daftarga berilgan savollarga javob yozib keladi. Botanikadan o'simliklar kursida o'quvchilar darsdagi amaliy ishlardan keyin tajriba va kuzatishlar natijasida yig'ilgan materiallardan kattaroq shakldagi qog'ozga maxsus gerbariy to'playdi. O'simliklarning rivojlanishi bo'yicha uyda mustaqil kuzatish o'tkazish natijasida quritilgan o'simliklar, urug'lardan chiqqan maysalar tuproq critmasida yoki suvda o'stirilgan o'simliklar, kraxmalli shakllarda rivojlangan novdalar, ildiz qalamchalari, changlangan guldan tugilgan mevalarning kesigi va shu kabilar yopishtiriladi.

Odatda, daftarning yuritilishida ham o'quvchilar fikri, ham tartibga soluvchi yozuvlardagi tizim, ishda vaqtni tejash o'qituvchining e'tiborida bo'lishi kerak.

Maktab ekskursiyasi sinf yoki o'quvchilar guruhi bilan o'tkaziladigan o'quv-tarbiya ishining bir shaklidir; u o'qituvchining tanlashiga qarab tabiiy muhitda yoki sun'iy yaratilgan sharoitda obyektдан obyektga ko'chishda, dasturga bog'liq mavzular bo'yicha bilish maqsadida o'tkaziladi.

Ekskursiyalar, asosan, bahorda va kuzda o'simliklar (botanika), hayvonot olami (zoologiya) tabiatshunoslik kurslari bo'yicha olib boriladi. Ekskursiyalarning mazmuni ilgarigi darslarda o'tilgan materiallar bilan bevosita bog'lanadi va ayni vaqtda olingan tasavvurlar, tabiatdagi kuzatishlar natijalari, materiallardan kelgusi darslarda foydalaniladi. O'qituvchi ekskursiya o'tkazish muddatini

yillik rejada oldindan belgilaydi, tegishli darslarda esa mo'ljallangan ekskursiya oldidan o'quvchilar uchun tabiatning o'zida o'rganilgan hodisalar bilan tanishish zarurligini ko'rsatadigan vaziyat yaratadi. Bunda tabiatda hal qilinishi lozim bo'lgan mavzular qo'yiladi, takrorlash va ekskursiyaga topshiriqlar beriladi. O'qituvchi ekskursiya o'tkazilgandan keyin ko'rilganlardan nimalarni eslash kerakligini o'rgatadi va amaliy ishlar uchun to'plangan materiallardan qanday foydalanish kerakligini ham belgilab qo'yadi.

Ekskursiyalarning bilim orttirishdagi roli katta. U tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatga ega. Aqli zaif o'quvchilar bilimni kengaytiradi va mustahkamlaydi. O'quvchilar o'simliklar va hayvonlarning tabiiy muhitda: o'simliklarni tuproqqa, hayvonlarni esa o'simliklarga bog'liq holda ko'radi, alohida organizmlar va hodisalar haqida ilgari hosil qilingan tushunchalar ekskursiyalarda tabiiy haqidagi yanada kengroq tushunchalar bilan birlashib ketadi.

Ekskursiyalar o'qituvchining bevosita rahbarligida tabiat hodisalarini kuzatish, dunyoning moddiyligi, tabiatdagi o'zaro bog'lanish va rivojlanish, tabiiy boyliklarning xalq xo'jaligi uchun ahamiyati to'g'risida, ularni har tomonlama muhofaza qilish, ekologiya buzilishlarining oldini olish kabi masalalarda dastlabki ma'ruvalar hosil bo'lishiga yordam beradi.

O'quvchilar ekskursiyalarda go'zallikni his qilishni o'rganadi.

Ekskursiyalarda kelgusi darslarda, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalaniladigan materiallar (tabiatni muhofaza qilishni hisobga olgan holda) to'planadi. Bunda tirik obyektlar tahlil, kolleksiyalar va gerbariyalar tayyorlash ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Savollar

1. Yordamchi maktab tabiatshunoslik darsiga qanday talablar qo'yilgan va dars tuzilishi qanday?

2. Darsda qaysi metodlarning roli katta va ulardan qachon foydalaniladi?

3. Ekskursiya qanday pedagogik natijalar beradi?
4. Ekskursiyada to'plangan materiallardan qanday foydalani-
ladi?

6.6. Sinfdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turlari

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'qituvchi rahbarligida darsda o'quvchilarning bilimga qiziqishi hamda ijodiy havaskorligini uyg'otish va namoyish qilish uchun tabiatshunoslik bo'yicha maktab dasturini kengaytirish va to'ldirishga qaratilgan darsdan tashqari tashkil qilish shaklidir.

Sinfdan tashqari ishlar yordamchi maktablardagi butun o'quv-tarbiyaviy ishlarning tarkibiy qismidir. U nuqsonli bolalarni har tomonlama rivojlantirishga, ijtimoiy foydali faoliyatda faol ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari ishlar, asosan, ta'lim-tarbiya ishlarini davom ettirib, aqli zaif bolalardagi ruhiy va jismoniy kamchiliklarni yumshatishga, tuzatishga yaxshi sharoit yaratadi. Sinfdan tashqari ishlar ijtimoiy foydali, jismoniy, ta'limiy, tarbiyaviy, o'quvchilarning madaniy dam olishi bo'yicha tashkil etilishi mumkin.

Mashg'ulotlarning sinfdan tashqari shakli o'qituvchining pedagogik ijodiy tashabbusini namoyon qilishi uchun ham, o'quvchilarning xilma-xil idroki, havaskorlik ko'rsatishi uchun ham va eng muhimi ularni tarbiyalash uchun ham keng imkoniyatlar ochib beradi.

Mashg'ulotlarning sinfdan tashqari shakli o'quvchilarda teran dunyoqarash, mehnat madaniyati va tabiatga muhabbatni tarbiyalashga va bilimga qiziqishni, mustaqil kuzatish ko'nikmalarini, tashabbus va jamoaviylikni rivojlantirishga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishlarning barcha turlarida muayyan tizim va rivojlanishda amalga oshiriladigan yagona tarbiyalovchi ta'limga rioya qilinadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha turlari o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turadi.

Tirik o'simlik va hayvonlar bilan ishlashga qiziqish, odatda, darsda tug'iladi va ayniqsa qiziqqan o'quvchilar o'qituvchilarning

hamma uchun majburiy topshiriqlaridan tashqari, ixtiyoriy ravishda o'z zimmalariga olgan ancha murakkabroq vazifalarni ham bajaradi. Ayrim aqli zaif o'quvchilarning tabiatshunoslik faniga qiziqishi kuchli bo'ladi. Ular aqliy mehnatdan ko'ra jismoniy mehnatni afzal ko'radi. Maktab yer uchastkasidagi o'simliklarni parvarish qilish, qishloq xo'jaligidagi ishlarga o'quvchilar qiziqib qaraydi. Qiziquvchi o'quvchilarni o'qituvchi "Yosh tabiatshunoslar" to'garagiga jalb qiladi. O'qituvchi "Yosh tabiatshunoslar" to'garagining ish natijalarini faqat darsdagina emas, balki ommaviy tadbirlarda, kechalarda, bayramlarda, ko'rgazmalar va boshqalarda ham ko'rsatishga harakat qiladi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilardagi qiziqishni kuchaytirish, fanni sevadigan, tabiatni tadqiq qila oladigan kishilarni tarbiyalashdir. Sinfdan tashqari ish turlari o'quvchilarni alohida, yukka ishlardan jamoat ishlari tomon olib borishga imkon beradi. Bu faoliyat ijtimoiy yo'nalish kasb etadi, bu esa aqli zaif o'quvchilarning sinfdan tashqari ishlar orqali mustaqil ishlab kelajakda jamiyatga foydasi tegadigan shaxs bo'lishida katta rol o'ynaydi.

Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning qiziqishlari, ko'pincha, tor ma'noda, ayrim hayvonlarga havaskorlik munosabatida bo'lish bilan chegaralangan bo'ladi.

Individual mashg'ulotlar. Tirik tabiat burchagidagi ish. Maktab o'quv-tajriba uchastkasidagi ish. Tabiatdagi ish. Sinfdan tashqari o'qish.

Ommaviy mashg'ulotlar. Kabinetni jihozlash, kinofilmlar namoyish etish. Tabiatga ekskursiya, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmalari kuni, bog' haftaligi, ko'kalamzorlashtirish haftaligi. Qushlar kuni, gullar bayrami, jurnal, devoriy gazeta, albomlar nashr qilish.

Guruhli mashg'ulotlar. Tabiatga qiziqqan o'quvchilar uchun, «O'simliklar» (botanika), «Hayvonot» (zoologiya) «Sog'liqni saqlash», «Odami tuzilishi» (anatomiya) kurslari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish. Har bir fan bo'yicha to'garak tashkil qilish.

Sinfdan tashqari individual mashg'ulotlar sinfda o'qituvchidan ixtiyoriy ravishda uyda yoki maktab tirik burchagida ishlash uchun

topshiriq oladigan havaskor o'quvchilar uchun bo'ladi. Ayrim o'quvchilar uyda o'zlarining tirik tabiat burchagini tashkil etadi. Bunday o'quvchilarga o'qituvchi uyda, tirik burchakda yoki maktab uchastkasida tajribalar o'tkazish uchun va sinfda beriladigan dastur bilan bog'liq bo'lgan majburiy topshiriqlardan tashqari yozda kuzatishlar uchun ko'rsatmalar ham beradi. Sinfdan tashqari individual mashg'ulotlar, aslida, uy va darsdan tashqari ishlarning ixtiyoriy turidir.

Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilar tafakkurini rivojlantiradi, fanga qiziqishini oshiradi. Maktabdagi barcha tadbirlar bilan bir qatorda, kitob bilan doimiy muloqotda bo'lishga intilishni tarbiyalaydi. Masalan, hayvonot olami bo'yicha kitoblarga qiziqish. R.Kiplinning «Maugli», E.Seton-Tompsonning «Hayvonlar haqidagi hikoyalar», «Qushlar – bizning do'stimiz» va boshqa hayvonlar haqidagi ertak hamda hikoyalarni mustaqil o'qishga o'rgatish, ulardagi qiziqishni yanada rivojlantirish o'qituvchining mas'uliyatiga bog'liqdir. Tabiat fanlarining rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk Sharq mutafakkirlari al-Xorazmiy, Mirzo Ulugbek, Beruniy, Jayhoni, al-Samarqandiy, Bobur kabi mutafakkirlarning hayoti, ijodini o'rganish orqali o'quvchilarda shu mutafakkir olimlar mehnatiga hurmat, fanga qiziqish oshadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini yanada to'ldirib, «Mehnat kishini ulug'laydi, mehnat qilish natijasida mana shunday buyuk kishilar tarixda o'z nomlarini qoldirgan», deb, o'quvchilarni mehnat qilishga qiziqtirishi kerak. Aqli zaif o'quvchilarni rag'batlantirish ularning mehnat qilishiga, o'z kuchiga ishonishiga imkon yaratadi.

O'qituvchi tarbiyaviy va ta'limiy jihatdan barcha o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish uchun ommaviy mashg'ulotlarni tashkil qiladi.

Sinfdan tashqari ekskursiyalar tabiatga oid mavzularda o'tkazilishi mumkin. Masalan: «Tuproq va o'simliklar», «O'rmon o'simliklarining hayoti», «Insonning yo'ldoshlari», «Uy oldidagi va hovlidagi o'simliklar», «Bog' – san'at yodgorligi», «Kuz faslida kishilar mehnati» va hokazo mavzularda ekskursiyalar o'tkazish mumkin.

Ekskursiyalarda amaliy ishlar. Ekskursiyalar o'tkazishda o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, mustaqil ish bajarilishi

(barglar yig'ish, foydali qazilmalar kolleksiyasini yasash, qurigan shoxlarni qirqish, rasmlar chizish, o'lchashlar o'tkazish va h.k.)larga katta e'tibor beriladi. Ish bajarish oldidan o'quvchilar o'qituvchidan topshiriqlar oladi, u o'quvchilarni ish uslubi (masalan, qanday barglarni yig'ish, shoxlarni qanday kesish, o'simliklarni qanday kovlab olish) bilan tanishtiradi. Ekskursiyalarda maktaboldi maydonidagi ishlardagidek o'qituvchi xilma-xil metodik uslublardan foydalanib, bolalarga yordam ko'rsatadi.

Quysi sinflarda ko'rgazmali qurollar tayyorlash bo'yicha amaliy ishlar olib boriladi? Ular uchun kerak bo'ladigan narsalarni tabiat qo'ynida o'tkaziladigan ekskursiyalarda ham maktaboldi maydonidagi ishlarda ham yig'ish mumkin. Tabiatshunoslik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda, mehnat darslarida kichik maktab yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ushbu ko'rgazmali qurollarni: tuproqlar, foydali qazilmalar va hasharotlar kolleksiyalarini; hasharotlardan karam kapalagi, ipak qurtining rivojlanishini aks ettiruvchi stendni; gerbariyalar (barglarning har xil shakllari, ularning ranglarini o'zgartirishi, o'lkaning har xil manzarali daraxt va butalari, o't-o'simliklarning shoxlari, o'simliklarning urug'ida izchil rivojlanishi bosqichlari)ni tayyorlashi mumkin.

Shunday qilib, darsning maqsadi va mazmuniga qarab, o'qituvchi o'qitishning xilma-xil metodlari hamda uslublarini qo'llaydi. O'qituvchi qanday metod va uslub tanlamasin, ulardan kompleks, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi asosiy maqsad – o'rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarining bolalar tomonidan qabul qilib olinishini yaxshilashga hamda tabiatshunoslik fani tushunchalarining to'g'ri shakllanishiga xizmat qilishi kerak.

Har bir tabiatshunoslik bo'limi (kurslar) yuzasidan kinofilm, diafilmlar, diapozitivlar o'quvchilarga mavzu bo'yicha namoyish etiladi. Bunday mashg'ulotlarning aqli zaif o'quvchilar uchun ahamiyati katta bo'lib, ularning ijtimoiy foydali mehnatga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi va tarbiyalaydi.

Girulili mashg'ulotlarga o'quvchilarning tabiatshunoslik kabinetini jihozlashga yordam beradigan ixtiyoriy ishlari kiradi.

O'quvchilar o'quv qurollari (asbob va uskunalar, jadvallar) yasaydi, tarqatma materiallar, hayvonlar uchun qafaslar, o'sim-

liklar uchun tokchalar tayyorlaydi, ko'rgazmali qurollarni yangilaydi, ularni yaxshi saqlash uchun tartibga soladi, har bir bo'limdagi mavzular bo'yicha aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati, qiziqishini hisobga olgan holda to'garaklarda ishlar olib boriladi. Har bir fanga bo'lgan qiziqishni orttirish uchun o'qituvchi qiziqarli mavzularni berishi, o'quvchilarning o'zlari qiziqib vazifani bajara oladigan bo'lishi kerak. Hatto, qiziqishi past o'quvchi ham o'rtoqlari ishlariga qiziqib mehnatning eng oddiy turlarini bajarib keta oladigan bo'ladi. Sinfdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlarning bilish faoliyati (nutq, idrok, tafakkur) va boshqa jismoniy, ruhiy kamchiliklarni to'g'rilash (korreksiyalash)da, kelajakda ijtimoiy foydali mehnatni mustaqil ravishda bajara olishga imkon yaratadi, tarbiyalaydi, mehnat malakalarini hosil qiladi. Aqli zaif o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Savollar

1. Yordamchi maktab o'quvchilariga sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati nimada?
2. Guruhli, ommaviy, individual mashg'ulotlar mazmuni nimadan iborat?
3. Ommaviy mashg'ulotlar bo'yicha reja-konspekt tuzing. (o'qituvchi ko'rsatmasiga binoan).

6.7. Aqli zaif o'quvchilar bilan darsdan tashqari ishlarni olib borish mazmuni

Darsdan tashqari ishlar o'qituvchining individual yoki guruhli topshiriqlar asosida darsdan keyin kursni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan amaliy ishlarni bajarish uchun tashkil etiladigan o'quv jarayonini shaklidir.

Darsdan tashqari ishlar tabiatshunoslik xonasi (kabineti)da, tirik tabiat burchagida, o'quv-tajriba uchastkasida, tabiatda bajariladi.

Bular kolleksiya va gerbariylar tayyorlash bilan birga olib boriladigan kuzatishlar, shuningdek, darsda namoyish qilinadigan tajribalarga tayyorlanish kabi ishlardir. O'quvchilarning darsdan

tashqari ishlarining zarurligi, birinchi navbatda, shu bilan belgilanadiki, o'simliklar va hayvonlar ustida olib boriladigan ko'pgina uzoq muddatli kuzatishlar o'quv jadvaliga sig'maydi. Ba'zi hollarda asboblari, mikroskop yetishmasligi, sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi va boshqa sabablar sinfda muayyan ishlarni bajarishga to'sqinlik qiladi.

Mayda hayvonlarni parvarish qilish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar har xil o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar 3-5 tadan guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh "Tirik tabiat burchagi"da o'qituvchining tushuntirishidan so'ng mustaqil ravishda ish olib boradi, hafta davomida hayvonlarni parvarish qiladi, so'ngra navbatchilikni boshqa guruhlariga topshiradi.

O'qituvchining topshirig'i bo'yicha maktab o'quvchilari hayvonlar ustida, keyinchalik darslarda foydalaniladigan uzoq muddatli kuzatishlar va tajribalarni olib boradi. Darsdan tashqari ishlar shunday hisob bilan tashkil etiladiki, bunda har bir o'quvchi yil davomida bir-ikkita ish bajaradi, ularning bajarilishiga o'qituvchi baho qo'yadi.

Darsdan tashqari ishlar mavzusiga ko'ra uyga berilgan tajribalarga yaqin hisoblanadi, ba'zi hollarda ularga mos keladi. Farqi shundaki, uy ishlari ancha oddiyroq bo'ladi, ular, asosan, butun sinf uchun bir vaqtda beriladi va uyda bajariladi. Darsdan tashqari ishlar turli-tuman, murakkabroq bo'ladi, ma'lum jihozni o'qituvchining doimiy rahbarligi va nazoratini talab qiladi, o'quvchilarning imkoniyatini hamda "Tirik tabiat burchagi"ning saqlash imkoniyatini hisobga olgan holda tashkil qilinadi.

Darsdan tashqari ishlar, uy ishlaridek, ba'zan sinfda o'rganishdan bir necha kun, hafta ilgari beriladi. Masalan: o'simlik ildizining tuzilishi bo'yicha tajribalar (uy hovlisida yoki maktab tajriba yerida o'sadigan gul o'simliklari va mevali daraxtlar ildizi; 10-15 kun).

- Hargda kraxmal izlari hosil bo'lishi—1 hafta.
- Barglardan O_2 (kislород) ajralishi — 3 kun.
- Poya bo'ylab N_2O (suv)ning ko'tarilishi.
- Begona o'simliklarning bargdan ko'payishi — 1 oy.
- Mox (yo'sin) maysalarini o'stirish — 15 kun.

– Paporotnik (qirqbo‘g‘in) maysalarini o‘stirish – 2 oy va hokazo.

Hayvonlar ustida o‘tkaziladigan tajribalar uzoq muddatli bo‘ladi. Har bir kuzatish tajribasini o‘qituvchi aqli zaif o‘quvchilarning bilish faoliyatiga, qiziqishiga qarab tanlaydi va belgilaydi, uni o‘quvchilarga tushuntirib, natijalarini birgalikda hal qilishi kerak. O‘qituvchining har bir o‘quvchining kuzatish natijalarini rag‘batlantirishi o‘quvchi intilishini, mavzuga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Tabiatshunoslik xonasidagi va “Tirik tabiat burchagi”dagi darsdan tashqari ishlar. Tabiatshunoslik xonasidagi va “Tirik tabiat burchagi”dagi darsdan tashqari ishlar, ko‘pincha, kech kuzda, qishda va erta bahorda bajariladi, yilning boshqa davrlarida ular o‘quv-tajriba uchastkasida ham o‘tkaziladi. Ayniqsa, ular tabiatshunoslikni o‘qitishda keng qo‘llaniladi. Bunda aqli zaif o‘quvchilarning bilish faoliyati va yoshiga mos holda, sodda mazmundagi, shuningdek, tabiiy materiallarni topish imkoniyati bilan belgilanadi.

«O‘simliklar» mavzusi bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni dasturning har bir mavzusi yuzasidan, masalan, «Urug‘» mavzusi bo‘yicha unish vaqtida urug‘ning bo‘rtishini kuzatadilar, uning unuvchanligini aniqlaydilar. «Ildiz» mavzusi yuzasidan ildiz mevalariga shakar eritmasining o‘tishini ko‘rsatuvchi va suv o‘simliklari ustida tajriba o‘tkazadilar.

«Barg» mavzusi bo‘yicha qator barglarda kraxmal hosil bo‘lishi, barglarning kislorod ajratishi kabi tajribalar o‘tkaziladi. Yordamchi maktab tabiatshunoslik darslarining 6–7-sinflarida «O‘simliklarning asosiy guruhlarini» kuzatish bilan bog‘liq bo‘lgan darsdan tashqari ishlar, aqli zaif o‘quvchilarni tabiatdagi o‘simliklarning turini, sporalilar bo‘yicha bakteriyalarni turli muhitda va har xil sharoitda o‘stirish; paporotniklarni o‘simtalardan o‘stirish, gulli o‘simliklar bo‘yicha tirik tabiat burchagidagi o‘simliklarda yopiq urug‘lilarning biologik xususiyatni kuzatish, 7-sinfda o‘tiladigan «Hayvonot olami» mavzulari bo‘yicha darsdan tashqari ishlarda, tirik tabiat burchagida eng sodda hayvonlarni ko‘paytirib ularni mikroskopda

o'rganadilar. «Kovakichlilar» mavzusi bo'yicha aqli zaif o'quvchilar gidraning oziqlanishi, harakatlanishi, kurtaklanib ko'payishi, ularning muayyan ta'sirlarga javob reaksiyalari ustida qiziqarli kuzatishlar olib boradi. Halqali chuvalchangni o'rganishda ularning muayyan ta'sirlarga javob reaksiyalari kuzatiladi. Halqali chuvalchaglarning tuproq hosil qilishdagi faoliyatini ko'rsatuvchi tajribalar o'tkaziladi, yomg'ir chuvalchanglarining harakatlanishi, turli ta'sirlarga javob reaksiyalari kuzatiladi. «Odam sog'lig'ini saqlash gigiyenasi» bo'yicha tabiatshunoslik kursining 8-sinfda o'tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarida oddiy tibbiy ko'nikmalar (suyaklar singanda, chiqqanda birinchi yordam ko'rsatish, sun'iy nafas oldirish usullari va ba'zi tez yordam usullarini uyushtirish kabilar) orttiriladi. Darsdan tashqari vaqtda tabiatshunos o'qituvchi mavzu o'tilgandan so'ng mavzuni mustahkamlash uchun aqli zaif o'quvchilarni mustaqil ravishda maktab shifokori hamda o'qituvchi nazorati ostida birlariga tibbiy yordam ko'rsatishini kuzatishi kerak. Tabiatdagi darsdan tashqari ishlar yordamchi maktab o'quvchilarining bilish faoliyati chegaralanganligi sababli ular nutqini rivojlantirish ishlarini boshlang'ich sinflarda tabiat haqida elementar bilim, malaka, ko'nikmalar hosil qilib yuqori sinflarda, masalan, 5-sinfda «Donsiz tabiat», 6-sinfda «O'simliklar dunyosi», 7-sinfda «Hayvonlar», 8-sinfda «Odam va uning sog'lig'ini saqlash gigiyenasi» kurslarida o'quvchilar bilish faoliyatlari asta-sekinlik bilan kengayib, to'g'ri (korreksiya)lanib boriladi. 6–8-sinflarda tizimli ravishda olib boriladigan fenologik kuzatishlar alohida o'rin tutadi. O'quvchilar har kuni kundaliklariga tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni yozib boradi. Sinfda yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilarga topshiriq beriladi, sinfda har ikki kunga ikki kishidan mo'ljallab kuzatuvchi navbatchilar jadvali belgilab qo'yiladi. Bunda har bir yangi kuzatuvchi birinchi kuni avvalgi navbatchi bilan, keyingisi esa boshqa yangi kuzatuvchi bilan navbatchilik qiladi. Bahorda gullaydigan o'simliklar maktabga olib kelinadi va guldonga yoki probirkaga solib devorga osiladi. Qog'oz yopishtirib oy, kun va o'simliklar nomi yoziladi. O'simlik va hayvonot dunyosida olib boriladigan fenologik kuzatishlar ob-havoning

holati bilan bogʻlanadi. Elementar meteorologik kuzatishlar olib boriladi (termometr, barometr, flyugerning koʻrsatishi; bulut, yogʻingarchilik kuzatiladi) har hafta, oyda fenologik byulletenda eʼlon qilinadigan maʼlumotlar grafigi tuziladi.

Fenologik kuzatishlar tirik burchakda va oʻquv tajriba uchastkasida olib boriladigan tajribalar bilan parallel ravishda oʻtkaziladi. Bu kuzatishlar maʼlumotlari oʻsimliklar va hayvonlarning rivojlanishi hamda xulq-atvori bilan taqqoslanadi. Fenologik kuzatishlar ekskursiyalar oldidan oʻtkaziladi. Ularning mazmuniga kiritiladi va ekskursiya materiallarini toʻldiradi. Tirik tabiat burchagida, uchastkada va tabiatda bajariladigan darsdan tashqari ishlar darsni oʻrganish uchun qiziqarli materiallar beradi. Oʻquvchilarning mustaqil ishlash uquvi, koʻnikmalarini tarbiyalaydi, tabiatga boʻlgan qiziqishini rivojlantiradi. Bunday ishlarda yordamchi maktab oʻqituvchisi oʻquvchilar bilan ishlashni bilishi, yaxshi oʻzlashtiradigan oʻquvchilarga murakkab vazifalar berishi, ularning natijalarini talab qilishi oʻrinlidir. Darsdan tashqari ishlarning ahamiyatli tomoni shundan iboratki, oʻsimliklar, hayvonlar haqidagi adabiyotlarni topish, oʻqituvchidan bajaradigan ishlari boʻyicha yoʻl-yoʻriq olish, savollar berib vazifani bajarishga yordam soʻrash oʻquvchining fanga boʻlgan qiziqishini orttiradi. Darsdan tashqari ishlarda aqli zaif oʻquvchilarning bilish faoliyati toʻgʻrilanadi, ularda mehnat koʻnikmalari tarbiyalanadi. Dars bilan uzviy bogʻliq holda, tizimda darsdan tashqari ishlar tabiatshunoslikni oʻqitishning majburiy shakli boʻlib qoladi, ular asosiy va bosh shaklni – darsni davom ettiradi va mustahkamlaydi.

Savollar

1. Sinfdan tashqari ishlar bilan darsdan tashqari ishlarning farqi nimada? Ular oʻquvchilarning qiziqishlariga mos keladimi?
2. Darsdan tashqari ishlar koʻrgazmali qurollar va tarqatma materiallarni toʻplashga imkon beradimi?

7-bob. YORDAMCHI MAKTABDA TABIATSHUNOSLIKNI O'RGANISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN QISHLOQ XO'JALIGIDAGI IJTIMOIIY-FOYDALI MEHNAT

O'quvchilar mehnatini tashkil etishga bo'lgan talablar umumta'lim maktablari singari yordamchi maktablarda ham mehnat ta'limi va tarbiyasi, aqliy va jismoniy, axloqiy va estetik tarbiyani birlashtiruvchi umumiy qoida bo'lib xizmat qiladi, chunki u o'sib kelayotgan avlodni har tomonloma rivojlantirishning mohiyati va maqsadidan kelib chiqadi, jismoniy kamchiliklarni to'g'rilashga xizmat qiladi.

Maktablar tajribasi qishloq xo'jaligidagi jismoniy mehnatning o'quvchilarga, agar u aqliy (intellektual) tomonni hisobga olgan holda amalga oshirilsa, katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Agar qishloq xo'jaligidagi jismoniy mehnat o'quvchilarga aqliy qobiliyatning ishlatilishini talab etsa, ularning emotsiyalari va irodasini o'ziga tortsa, har qanday mehnatni qiziqib bajaradi. Bu mehnatga ijtimoiy munosabatni tarbiyalaydi. Mehnat faoliyatlari tabiat qo'ynida bajarish ma'nosini aniq tushungan, bilim va malakaga tayangan holda bajariladi, bunga qishloq xo'jaligidagi mehnatni tabiatshunoslikni o'qitish bilan bog'lashdagina erishiladi. Aks holda, o'quvchilar mehnat faoliyatini qiziqmasdan, yuzaki, amaliy ishlarni majburan bajaradi, bu ulardan faqat ishchi kuchi sifatida, fan asoslarini tizimli o'zlashtirishdan ajralgan holda foydalanishdan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy foydali mehnatni muvaffaqiyatli amalga oshirish o'quvchilar uchun xilma-xil mehnat turlarini tanlash va ularni navbatlashtirib turishni talab etadi. Bir xil ish turlarini, masalan, o'toq qilishni uzoq vaqt davomida bajaraverish faqat o'rta maktab o'quvchilarini emas, balki kattalarni ham charchatib qo'yadi. Ular ishga qiziqishni yo'qotadi va ishdan bosh tortib boshlaydi. O'quvchilarning jamoa xo'jaligida to'g'ri tashkil qilingan mehnati ishning xilma-xil turlarini o'z ichiga oladi, bu har bir o'quvchining amaliyot bilan tanishishi uchun zarurdir.

O'simliklarni o'toq qilish, tuproqni yumshatish, o'g'itlash kartoshka va boshqa o'simliklarni chopiq qilish bilan almashtiriladi; karam ko'chatlaridan keyin pomidor ko'chatlari o'tqaziladi va h.k.

Qishloq xo'jaligida o'quvchilarning jismoniy ishini tashkil etishda har xil yoshdagi o'quvchilarning mehnatni uddalay olishini hisobga olish zarur. VI-VIII sinf o'quvchilari yengillashtirilgan tipdagi maxsus qo'l asboblari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Imkoniyat bo'lganda mehnatning kichik mexanizatsiya qurollaridan: yumshatgich, panshaxa, purkagich va boshqalardan foydalaniladi. O'quvchilarning kattalarga mo'ljallangan ish qurollari bilan ishlashi, suvli og'ir chelak, zambil, qop kabilarni ko'tarishi yurakka og'irlik qiladi va bu, albatta, sog'liqqa ziyon yetkazadi.

O'quvchilarning qishloq xo'jaligidagi ijtimoiy foydali ishlari ta'lim-tarbiya maqsadlariga bo'ysundirilgandagina o'zini oqlaydi.

O'quvchilarni qishloq xo'jalik ishlari bo'yicha mehnatga jalb qilish kelajakda ularning hayotda mustaqil ishlab keta olishiga zamin tayyorlaydi. Har qanday mehnat turi aqli zaif o'quvchilar faoliyatini tarbiyalaydi, ularning bilimini rivojlantirib, tabiatni boyitadi va uning mayli (qiziqishi)ga yaxshi yo'nalish beradi. Qishloq xo'jaligi o'z ishlarining xilma-xil bo'lishi bilan, zarur bo'lganda, bu hodisalardan foydalanish va ularga qarshi kurashishi bilan faqat yuqori darajadagi ko'rgazmali o'qitish uchungina emas, balki mustaqillik, zehni o'tkirlik, aql-idrok va umuman xarakterni shakllantirish uchun ham to'xtovsiz ortib borayotgan materialni beradi.

O'quvchilarning qishloq xo'jaligidagi jismoniy mehnatini o'quv ishi bilan uyg'unlashtirib olib borish pudratchilarning, jamoa xo'jaligi a'zolarining mehnatiga ongli munosabatda bo'lishni, ishlab chiqarishining ilmiy asoslarini chuqur o'rganishni tarbiyalashga yordam beradi.

Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish. Aqli zaif o'quvchilarni unumli mehnatga quyi sinflardan boshlab jalb qilish ular uchun uddalasa bo'ladigan ishdir. Bular yaqin shahar, tuman, jamoa xo'jaliklarini ko'kalamzorlashtirish bo'yicha bog'-xiyobon boshqarmasiga yordam sifatida turli ijtimoiy-foydali ishlarni bajarishdir.

Bunga maktab tevarak-atroflarini obodonlashtirish, maktab o'quv-tajriba uchastkasini barpo qilish, parrandalar uchun joy tashkil qilish va sh.k. kiradi.

Yosh o'quvchilar hosilni yig'ib-terishda, tuproqni o'g'itlash uchun kul to'plashda, turli o'simlik urug'larini yig'ishda, madaniy o'simliklarni parvarishlashda jamoa xo'jaligi va maktabga yordam beradi. Ular qushlarni jalb qilish uchun uyalar tayyorlab osib qo'yadi. Qoramol fermasi uchun xashak, yem, ozuqa yoki parrandachilik fermasi uchun don va rezavor-mevalarni tayyorlashga ularning qurbi yetadi.

Barcha yoshdagi maktab o'quvchilarining hovli, ko'cha, yo'llarni ko'kalamzorlashtirish bog' va xiyobonlar barpo etish hamda ko'chatlarni muhofaza qilish kabi turli tadbirlarni o'tkazishda qatnashishi katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. «Qushlar bayrami», «Hosil bayrami» kabi tadbirlarga maktablarda katta e'tibor berilmoqda.

Yordamchi maktab o'quvchilarini umumli mehnatga jalb qilishni butun pedagogik jamoa tabiatshunoslik o'qituvchisi rahbarligida amalga oshiradi. O'quvchilarning jamoa xo'jaligida ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etishni maktab direktori tomonidan boshqariladigan umummaktab ishi deb baholash zarur, chunki mehnat, faqat tor, tabiatshunoslik o'qitish doirasi bilan chegaralanib qolmasdan, balki umumtarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'quvchilarning qishloq xo'jalik mehnatiga jalb qilinishi, ko'pincha, doimiy xarakter kasb etadi (masalan, otaliqqa olish). Qishloq maktablarida o'quvchilarning ayrim dala, rezavor-meva ekinlari yosh qishloq xo'jalik hayvonlarini otaliqqa olishi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Otaliqqa olgan o'quvchilar himoyalarda bo'lgan o'simlik va hayvonlarga yosh xo'jayin va do'st sifatida munosabatda bo'ladi. Ular zarur ishlarni, ularning vaqti va tartibini o'zlari rejalashtiradi, natijalari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Shahar maktablarida ham istirohat bog'lari, hovli yoki ko'chalardagi o'simliklar ustidan otaliq qilinishi mumkin, bu ham juda sezilarli ijobiy natijalar keltiradi.

VI-VII sinflar aqli zaif o'quvchilari o'simlik va hayvonlarni o'rganishi bilan bog'liq holda maktab o'quv-tajriba uchastkasidagi mehnatga jalb etiladi, bu tabiatshunoslikni o'qitishda o'quvchilarni mehnatga tayyorlashda g'oyat muhimdir.

Yuqori sinif o'quvchilarini qishloq xo'jalik mehnatiga jalb etish tabiiy va iqtisodiy sharoitlarga qarab har xil bo'ladi. Qishloq joylarida o'quv-ishlab chiqarish pudratchilari o'zini oqlamadi, ular maxsus foiz ajratilgan jamoa xo'jalik dalalarida umumiy ishlarni bajaradi va ishlab chiqarish uchun javob beradi. Jamoa xo'jaligi maktabning hayot bilan bog'lanishi va o'quvchilarning qishloq xo'jaligining ma'lum tarmoqlarida ishlashga professional tayyorlashning asosiy bazasidir.

Shu maqsadda maktab o'quvchilarining ilg'or kishilar, samarali ish usullari va yuqori texnika bilan tanishishi mumkin bo'lgan sinf o'quvchilariga qishloq xo'jaligini har tomonlama o'rgatishga, ularga qishloq xo'jalik mehnati madaniyatini singdirishga, qishloq xo'jaligiga muhabbatni va maktabni tugatgach, u yerda ishlash xohishini tarbiyalaydi.

Maktab jamoa xo'jalik rahbari bilan shartnoma tuzadi, bunda har ikkala tomon majburiyati mo'ljallanadi.

O'quv-ishlab chiqarish brigadalarini tashkil etish maktabga yozda o'quvchilarga to'liq rahbarlik qilish, qishda ularni yozgi mehnatga ancha uyushgan holda tayyorlash va mehnat natijalarini mufassal hisobga olish imkoniyatini beradi.

Jamoa xo'jaligi maktabdan va o'quvchilarning turar joylaridan uzoqda bo'lgan hollarda esa maktab o'zining o'quv xo'jaligini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Maktab xo'jaligida barcha asosiy ishlarni o'quvchilar amaliy mashg'ulotlarning bir yilgi tuzilgan maxsus grafiqi bo'yicha olib boradi.

Nihoyat, o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish maktab-tajriba uchastkasida pudratlarni uyushtirish yoki maktab o'quv xo'jaligini tashkil etish imkoni bo'lmaganda, maktab o'quvchilariga xo'jalik pudratlari qoshida maktab jamoalari tashkil qiladi. Maktab o'quvchilarining ijtimoiy foydali mehnatini mehnat daftarchalariga qarab hisobga oladi.

Shubha yo'qki, o'quvchilar mehnatini bunday tashkil etishda o'qituvchi tomonidan rahbarlik qilish susayib boradi (o'quvchilarning tarqoq bo'lib qolishi), mehnat operatsiyalari, ko'pincha, bir xil bo'lib qoladi va o'quvchilar jamoadan uzoqlashadi. Ammo buning afzal tomonlari ham bor: o'quvchilar maktabni tugatgandan keyin kelib qo'shiladigan xo'jalik jamoasi bilan yaqinlashadi.

O'quvchilarning yozgi dam olishida o'qitishning unumli ma'lumot bilan chinakam bog'lanishi yoki maktab o'quvchilarining bilimlarini chuqurlashtirmasdan, foydasiz, faqat ish kuchi sifatida foydalanishi tabiatshunoslik o'qituvchisiga bog'liqdir. O'qituvchi tabiatshunoslik bo'yicha kuzatishlar uchun topshiriqlar beradi.

Shunday qilib, o'quvchilarning qishloq xo'jaligidagi mehnati tabiiy va iqtisodiy-mahalliy sharoit hisobga olinganda hamda ilmiy bilimlar bilan aloqa o'rnatilgandagina pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tabiatshunoslikni o'qitishning qishloq xo'jaligidagi o'quvchilur mehnati bilan bog'liqligi. Ijtimoiy foydali ishlar to'g'ri tashkil etilgan va yo'lga qo'yilgan maktablarda o'quvchilar unga butun qish davomida tayyorlanib boradi.

Ish rejasi jamoa xo'jaligi ma'muriyati, maktab yetakchi tashkiloti bilan birgalikda tuziladi va maktab jamoasi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchilarning qishloq xo'jaligidagi ijtimoiy foydali mehnati tabiatshunoslikni o'qitish bilan bog'liq deb qaraladi, chunki qishloq xo'jalik mehnatining fan bilan aloqasi, avvalo, tabiatshunoslik bilimlari bilan bog'lanishdir.

Qishloq xo'jaligi mahalliy, tabiiy-tarixiy va iqtisodiy sharoitlari iqlim, tuproq, o'simliklar tarkibi, suv rejimi, madaniy o'simliklarni o'stirish va hayvonlarni ko'paytirish, xo'jalikning yo'nalishi bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiatshunoslik fanlari atrof-tabiat va ayni shu joy xo'jaligining hodisalarni tushunib olishga, turli sharoitlarda ajrata bilishga, u yoki bu agrotexnika tadbirlarini engli ravishda amalga oshirishga imkon beradigan bilimlarni beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi o'z sharoitlarining turli-tarafdiligini bilan xarakterlanadi: masalan, birgina jamoa xo'jaligi dalaunda, alohida agrotexnika va o'g'itlarni talab qiluvchi turli turdagi tuproqlar bor. Binobarin, tuproqni ishlashning samarali natijalari va o'g'itlar solishning usullarini belgilash uchun tuproq rejasining farqiga borish, tuproq kartasini tuzish, tuproqdagi namlik miqdorini aniqlash va ximiyaviy analiz qilish bo'yicha uquvlar kerak.

Uzoqlikku yaxshi o'simliklarni ajratish uchun o'simliklar morfologiyasi bo'yicha bilimlar zarur. Dala begona o'tlariga qarshi

kurash begona o'simliklarning morfologiyasi, tizimi va biologiyasini bilishni talab etadi. Shunday qilib, botanikadan har tomonlama yaxshi bilimlar, kitoblar, ma'lumotnomalar, aniqlagichlar bilan ishlash, tuproqni ximiyaviy analiz qila olish, yaratuvchilar va boshqa maktab o'quvchilari uchun ekskursiyalar tashkil qilinadi. Maktab uchastkasida, maktabda o'rganiladigan o'simliklar dala, poliz, rezavor-meva, manzarali va yovvoyi o'simliklar bo'lishi kerak. Shunga muvofiq, o'quv-tajriba uchastkasi aniq chegaralangan; dala, poliz, rezavor-meva, manzarali bo'limlarga ega bo'lishi kerak. Uchastkada meteorologik stansiya, geografik maydoncha bo'lishi zarur. Har bir bo'limda o'simliklar kolleksiyasi va ular ustida tajriba o'tkazish uchun joy ajratiladi. Har yili bu bo'limlardagi almashlab ekishga muvofiq holda ekish rejasi o'zgarib turadi. Dala o'simliklari bo'limi kolleksiya va tajriba qismlariga bo'linadi. O'quvchilar o'quv-tajriba uchastkasida tabiatshunoslikdan olgan bilimlarini amaliyotda sinaydi, ularda tabiat haqidagi tasavvurlar kengayadi, shu bilan birga, ijtimoiy foydali mehnatga bo'lgan ko'nikma va malakalar ham tarbiyalanadi.

Savollar

1. Yordamchi maktab tabiatshunoslik o'quv xonasi qanday tashkil etilgan?
2. Moddiy bazani tashkil etishda o'quvchilar yordamini uyushtirish qanday olib boriladi?

7.1. Bo'lajak oligofrenopedagog o'qituvchilarga metodik tavsiyalar

Ushbu o'quv qo'llanmada yordamchi maktab tabiatshunos o'qituvchisining katta mas'uliyati va turli-tuman ishi usullari to'g'risida fikr yuritildi. Oligofrenopedagog o'qituvchi nazariy va amaliy bilimlarga boy bo'lishi, hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasi, o'qitish shakllari, metodlari va uslublaridan foydalanishi, pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etishi, tabiat bilan

bog'liq bo'lgan boshqa fanlarni chuqur bilishi; o'quvchilarga har bir mavzuni hayot bilan bog'lab, tabiat bilan borliqning bir butunligi haqidagi nazariyalarni tushuntira bilishi; o'quvchilarning bilimlari va tafakkurini tizimli, izchil ravishda rivojlantirishi; o'quvchilar jamoasi ishini ularni tirik tabiat va tabiatshunoslik fani bilan ruhlantirib va qiziqtirib o'qitishning barcha shakllarida ta'lim-tarbiya berishi; o'qitishning shakllarini rejalashtira olishi, kabinet, tirik tabiat burchagi, maktab tabiatshunoslik tajriba uchastkasini loyihalashi va barpo eta olishi; o'z qo'li bilan tajriba va namoyish uchun ko'rgazmali qurollar tayyorlay bilishi kerak. Doimo o'z tajribasini (hatto, yutuqlarini ham) kuzatib tahlil qilishi, o'qitish jarayonini takomillashtirib, o'z ishiga qiziqish bilan munosabatda bo'lishi lozim. Eng muhimi, o'qituvchi o'zining xulq-atvori bilan barcha ishlarda o'quvchilarga namuna bo'lishi kerak. Mohir oligofrenopedagog yuksak axloq, g'oyaviy ishonch va keng tafakkur namunasi bo'lishi lozim.

O'qituvchi faqat o'z kasbining juda katta ahamiyatiga e'tibor berishidagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin. U doim maktabda tabiatshunoslik fanining vakili ekanligini esda tutadi. Shunga muvofiq holda, fanga qiziqqanligi, tabiatga muhabbati bois o'zining tabiatshunos sifatidagi bilim darajasini oshira boradi.

7.2. Tabiatshunoslikni o'qitishning moddiy bazasi

Tabiatshunoslik fanini o'qitish tirik o'simlik va hayvonlar ustida ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llash asosida mashg'ulotlar o'tkazishga imkon beradigan moddiy bazani tashkil etishni talab qiladi.

Tabiatshunoslik darslari qiziqarli, ongli, ta'sirchan o'tishi uchun umumta'lim maktablari tabiatshunoslik xonalari kabi, yordamchi maktablarda ham aqli zaif o'quvchilarning tabiatshunoslik fanlarini yaxshi o'zlashtirishi uchun alohida xonalar mavjud.

Tabiatshunoslik xonasida jonli va jonsiz tabiat bo'yicha kerakli filuzlar mavjud bo'lishi zarur: probirka, lampa, termometr, har xil hajmdagi o'lehangich idishlar, tasviriy jadval ekrani, ko'rgazmalar, texnik vositalar (diafilm, diapozitivlar, kinofilmlar, (qushlarning ovozi yozilgan gramplastinkalar), stendlar jadvallar, tabiiy xarita, globus, devoriy gazetalar.

Hajmli ko'rgazmalar, model, maketlar, mulyajlar. Ekskursiyaga oid materiallar, qo'lda yasalgan ko'rgazmalar yig'indisi, har bir kurs uchun ishlatiladigan ko'rgazma materiallar (botanikadan o'simliklar kolleksiyasi, gerbariyalar) hayvonot olami qotirilgan qushlar, hasharotlar va rasmi jadvallar (zoologiya)dan.

Odam anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi, sog'liqni saqlashni o'rganish bo'yicha skletlar, mulyajlar (bosh miya), kalla suyagi, qon aylanish doiralari jadvali, asab tizimi, o'pka, buyrak, ichki sekretiya organlari jadval rasmlari va hokazo.

O'quvchilarga rasm solish va chizish uchun xonada doska bo'lishi; ko'rgazmali qurollar turadigan shkaf bo'lishi shart, xona har tomonlama dars o'tishga moslashtirilgan bo'lishi kerak.

Xonada qora fon sifatida sinf doskasi xizmat qilishi mumkin. Oq fon sifatida jadvalning orqa tomonidan foydalaniladi.

Namoyish stolida predmet va tajribalarini o'z vaqtida ko'rsatish uchun yon tomondagi maxsus stolchaga oldindan dars uchun zarur ashyolarni qo'yish kerak.

Sinfdan tashqari o'qish uchun adabiyotlar ro'yxati, navbatchilik ro'yxati devorga osilgan bo'lishi lozim. Tabiatshunoslikdagi yangiliklarni, jurnal, gazetadagi axborotlarni bildirib turish uchun sarlavha devorga osib qo'yiladi.

Tarqatma materiallar maxsus shkaf, qutilarda, qutichalarda saqlanadi.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish uchun jadvallar, o'qitish usullari, bilim olish bo'yicha jadvallar bo'lishi zarur.

Ekskursiyalar o'tkazish uchun unda to'plangan materiallarni saqlash, o'simliklarni yig'ish uchun papka, paket bo'lishi kerak. Tabiatshunoslik xonasida yuqoridagi materiallarning bo'lishi o'quvchilarda o'quv mehnatini tashkil qilish madaniyatini tarbiyalaydi.

Barcha ashyolarning ratsional va chiroyli joylashganligi o'quvchilarda tabiatdagi go'zallikni his qilish tuyg'ularini tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik xonasini jihozlash, ko'rgazmali qurollarni saqlash tizimini uyushtirish, darslarda o'qituvchiga yordam berish kabilar o'quvchilarda tashkiliy-o'quv va mehnat madaniyatini tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

Maxsus maktablarda mehnat alohida ahamiyat kasb etadi. Aqli zaif o'quvchilarga mehnat malakasi oddiy mehnatlardan boshlab o'rgatiladi. Umumta'lim maktabi o'quvchilari ko'rgan-bilganlarini oqil ravishda bajaradi. Aqli zaif o'quvchilarga: "Gulga suv quyish kerak, chunki suvsiz qurib qoladi, qushga don berish kerak, agar sen ovqat yemasang, qorning och qoladi, so'ng kasal bo'lib yiqilib tushasan, qushga ham vaqtida don (ovqat) berib turish kerak", deb tushintirish olib borilgan taqdirdagina aqli gulni yetib parvarish qiladi, qushni boqadi. Aqli zaif o'quvchilar ongini ko'rgazmali qurolni, obyektini ko'rsatish, unga qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish orqaligina rivojlantirish mumkin. Aqli zaif o'quvchilarga beriladigan tabiat haqidagi bilimlar faqat ko'rgazmali materiallar orqali darsga qiziqishini, ijtimoiy foydali mehnatga ko'nikma va malaka hosil qilishni tarbiyalaydi. Ayniqsa, jonli tabiat burchagida o'quvchilar zo'r qiziqish bilan mehnat qiladi.

O'quvchilar o'simliklarni parvarish qilishga, qushlarni sevish, ularni qarashga o'rganadi. Ular maktabda olgan malaka, ko'nikmalarni uyda ham mustaqil ravishda bajara oladigan bo'ladi. O'quvchilarda mehnat madaniyati rivojlana boradi. Yordamchi maktablarda mehnat tarbiyasi turli faoliyatlarda o'quv, maishiy va ijtimoiy mehnatda amalga oshirilib boriladi.

Tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yordamchi maktab o'quvchilari darsda olgan bilim va mehnat malakalarini o'z faoliyatida va turli mehnat jabhalarida muvaffaqiyatli qo'llay oladi. Jannat bo'lib mehnat qilishning aqli zaif o'quvchilar uchun ahamiyati katta, ular bir-biriga mehribon bo'ladi, hurmat qilish, mehnat natijalaridan faxrlanish tuyg'ulari paydo bo'ladi, ularning dunyoqarashi, axloqiy sifatlari, xarakteri shakllanib boradi. Maktab yer uchastkasi, har bir maktabda bo'lgani kabi, yordamchi maktab o'quvchilarini ham ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatadi. Maktab yer uchastkasi va atrofdagi daraxt, o'simliklarni parvarish qilish, yer maydoniga pomidor, karam, gullar, sabzi, piyoz va boshqa ekinlarni ekish, ularni parvarish qilib kuz faslida mevalarni, tug'larni yig'ib olib, tabiatshunoslik xonasi uchun ko'rgazma material to'plashda o'quvchilar o'z hissasini qo'shadi. O'quvchilarning bunday mehnat faoliyati ularda mas'uliyatni

sezish, mehnat natijalaridan quvonish, o'zgarlar mehnatini hurmat qilish fazilatlarini tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik bilimlarini aqliy o'zlashtirishda tabiatshunoslik xonalari, maktab yer uchastkasi, ekskursiya, sinfdan tashqari ishlarning roli kattadir.

7.3. Tabiatshunoslik xonasi

Tabiatshunoslik xonasining hamma jihozlari dars davomida tajriba va jadvallarni, kinofilm va diapozitivlarni tez va o'z vaqtida namoyish qilishga, amaliy ishlarda material va asboblarni tarqatish va yig'ib olishga moslangan bo'lishi kerak. Ko'rgazmali qurollarni muayyan tizimda saqlash darsda ularni tez topish va tayyorlashga imkon beradi. Bularning hammasi o'quvchilarda o'quv mehnatini tashkil qilish madaniyatini tarbiyalaydi. Devorlar (namoyish uchun foydalaniladigan devordan tashqari) turli xil taram-taram xlorofitum, doim gullovchi bigoniya yoki boshqa o'simlik shoxchalari solingan guldonlar, gerbariylar bilan bezatiladi. Derazalarga xona o'simliklari chiroyli qilib qo'yilgan bo'lishi lozim. O'quvchilarning rasm chizishi uchun qog'oz, qalam, chizgich, flomaster bo'lishi shart. Tabiatshunoslik xonalarining butun qiyofasi o'quvchilarda sevinch taassurotlari hosil qilishi va diqqatlarini tabiiy obyektlarga jalb qilishi kerak. Tabiatshunoslik xonasini jihozlash, ko'rgazmali qurollarni saqlash tizimini uyushtirish, yangilarini tayyorlash, darslarda o'qituvchilarga yordam berish – bularning hammasi o'quvchilarda tashkiliy-o'quv va mehnat madaniyatini tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

7.4. Tirik tabiat burchagi

Tirik tabiat burchagi faqat tirik o'simlik va hayvonlarni saqlash, ular ustida tajribalar o'tkazish va darsda namoyish qilish joyigina emas, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarni bajarish joyi hamdir. Unda o'quvchilarning bilimga qiziqishi, bilim doirasini rivojlantirish uchun boy imkoniyatlar bor. Odatda, tirik tabiat burchagi o'quvchilar kuchi bilan tabiatshunoslik xonasida, hatto, sinf derazalarida tashkil etiladi. O'quvchilar uylaridan xona

o'simliklari yoki qalamchalar, ekskursiyalardan hayvonlar va yovvoyi o'simliklarni olib keladi. Tirik tabiat burchagi mana shunday yo'nalishlar orqali tezlik bilan kengayib boradi va maxsus sorma talab etadi. Uni tashkil etish, tirik organizmlarni saqlash va joylashtirish tabiatshunoslik talablariga mos bo'lishi kerak. O'simlik va hayvonlar biotsenozlar bo'yicha guruhlarga ajratiladi: akvariumlarda baliqlar, mollyuskalar va suv o'tlari, paprotniklar, moxlar va nam yerlarda o'suvchi boshqa o'simliklar, baqalar, kultakesaklar, vollera va qafaslarda hayvonlardan tashqari ba'zi o'simliklarni, masalan, kaktuslarni chiroyli, har xil rangli toshlar orasiga, yapaloq tuvaklarga ekib qo'yish mumkin. Ba'zi o'simliklarni deraza tokchasi uzunligidagi qutilarga, manzarali shakllar hosil qilib ekadilar. Burchakdagi barcha turli-tuman o'simlik va hayvonlarni muayyan tizimda qulay va chiroyli qilib joylashtirish muhimdir. Burchakda tajribalar uchastkadagidek juda aniqlik bilan qo'yiladi. Topshiriq sifatida tajriba va nazorat obyektlari ustida o'lchash va ma'lumotlarni kartochkalarga yozib borish bilan kuzatishlar olib boriladi.

Tirik tabiat burchagida o'simliklar va hayvonlarni parvarishlash bo'yicha mehnat madaniyati tarbiyalanadi: ijtimoiy-tashkiliy ko'nikmalar va ijtimoiy-maktab mulkiga (boyligiga) ehtiyotkorlik munosabati tarbiyalanadi. Estetik tarbiya uchun ham katta imkoniyatlar bor: o'simliklarni, akvariumlarni chiroyli qilib bog'liqlikda joylashtirish o'rgatiladi. Shunday qilib, tirik tabiat burchagi faqat o'quv joyi emas, balki ko'p qirrali tarbiyaviy ishlar joyi hamdir.

7.5. O'quv-tajriba uchastkasi

O'quv-tajriba uchastkasining ta'limiy-tarbiyaviy roli oshirilarga aniq, puxta, mantiqiy tuzilgan reja asosida ishlash o'zlashtirishdir. Buning uchun maktab o'quv-tajriba uchastkasida katta pedagogik imkoniyatlar yaratiladi. Uchastka tashkil etish, ekin va ko'chatlar ekishning pedagogik rejasini tuzish birinchi o'ringa qo'yilishi kerak. Maktab uchastkasida ishlab tabiatshunoslikdan olgan yangi keltirilgan o'simlik va hayvonlar misolidan foydalaniladi. Ular qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish va

hayvonlarni parvarishlashning eng muhim uslublari to'g'risida tasavvurlar hamda ular bilan ishlashning muayyan tizimdagi ko'nikmalarini hosil qiladi. Uchastkadagi ishlar o'quvchilarda tashkilotchilik, jamoaviylik ko'nikmalarini, mehnat madaniyatini, estetik tuyg'ularni tarbiyalashi kerak. O'quv-tajriba uchastkasida kuzda, bahorda o'simlik va hayvonot olami bo'yicha darslar va 6-7-sinflarda maxsus dastur bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, yozda, kuzda va bahorda tajribalar, kuzatishlar o'tkazish, o'simlik va hayvonot olami kurslaridan darslarda tarqatiladigan, namoyish qilinadigan materiallar bo'yicha darsdan tashqari ishlar o'tkaziladi. Uchastkada "Yosh tabiatshunoslar" to'garagi ish olib boradi va tadbirlar: «Hosil bayrami», «Bog' bayrami», «Qushlar bayrami» kabi sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazadi.

Darslarda tirik tabiat burchagida va ayniqsa, maktab o'quv-tajriba uchastkasida hosil qilingan bilim va malakalarga tayanilganda o'quvchilarning mehnati, faoliyati ma'lum maqsadga qaratilgan bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilar oldiga aniq maqsad yoki vazifalar qo'yadi va uni tushuntiradi. So'ngra unga erishish vositalariga o'tadi. Chunonchi, o'quvchilar yerni ishlashdan oldin uning tipi, namligi, ximiyaviy tarkibi, strukturasi aniqlaydi. Tuproq analizi ma'lumotlariga qarab muayyan o'g'itlarning tuproqqa solinishini asoslaydi. Ekish oldidan, avvalo, o'simliklarning biologik xususiyatlari bilan tanishib chiqadi, ekish normasi, usuli, urug' ekish chuqurligi va boshqalarni aniqlaydi. O'simlikni o'toq qilish dala zararkunandalari biologiyasini o'rganishdan oldin o'tkaziladi.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida o'quvchilar faqat bilimnigina emas, balki turli uquv va malakalarni ham egallaydi. Bular orasida o'simlik, tuproq, hayvonlarni tanib olish, aniqlash, tajriba ishlarini o'tkazish, kimyoviy idish, tarozi, lupa, mikroskop, aniqlagichlar va shu kabilar bilan muomala qila olish uquvi va malakalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu xildagi tabiatshunoslik uquv va malakalari ishlab chiqarish amaliyoti o'tkazilganda zaruriy qishloq xo'jaligi malakalariga osonlikcha aylanadi. Bundan tushunarliki, tabiatshunoslik darslaridagi, ekskursiyalar, tirik tabiat burchagidagi va ayniqsa, maktab o'quv-tajriba uchastkasidagi amaliy ishlarni o'quvchilarni qishloq xo'jaligi mehnatiga tayyorlashning bosqichlari deb qarash kerak.

«O'simliklar» va «Hayvonot olami» kurslaridagi bilimlar sotiralaridan ancha ko'tarilgan, ko'pincha esa, butunlay unutilgan yuqori sinf o'quvchilari bilan takrorlash xarakteridagi maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunday tayyorgarlik qishloq xo'jalik ishlarining bajarilish sifatiga ijobiy ta'sir qilishini ko'pchilik o'qituvchilar amaliyotda kuzatgan.

Ayrim hollarda o'quvchilarning ijtimoiy foydali ishlari o'lka, tumanning mahalliy-iqtisodiy talablariga bog'liq bo'lgan maxsus xarakterga ega bo'ladi: u o'rmon xo'jaligida, baliqchilik, fermasida meyxona xo'jaligida o'tkaziladi. Bunday hollarda o'quvchilarning amaliyotga qishdagi tayyorgarligi ishning mazmuni va tashkil etish xususiyatlarini hisobga olgan holda boradi.

Yozgi ijtimoiy foydali mehnat vaqtida o'qituvchilar, o'quvchilarning tabiatshunoslik ishlarini; biogeotsenozlar bilan tanishish; tuproq, begona o'tlar, madaniy o'simliklarning zararkunandalari, hasharotlar (qushlar faunasi)ni o'rganish, ob-havo va o'simliklarda hayvonlar hayotidagi fenologik hodisalarni kuzatish kabi ishlarini tashkil qiladi. Ishlar qishloq xo'jaligi mehnatidan bo'sh vaqtda topshiriq, reja bo'yicha o'tkaziladi. Topshiriqlar o'quvchilar o'rtasidagi qiziqishlarni hisobga olgan holda o'tkaziladi. Topshiriqlarni bajarish natijasida gerbariy, kolleksiyalar, suratlar to'plash, tuproqlarni ranglariga qarab qutichalarga ajratish, ishni nazariy jihatdan tushuntirish muhimdir. Bu esa aqli zaif o'quvchilarning, qayerda bo'lmasin, mustaqil mehnat qila olishiga zamin yaratadi.

Savollar

1. Siz kuzatayotgan maktabda jamoa xo'jaligi bilan qanday aloqa bog'langan?

2. Aqli zaif o'quvchilarning ishlari qanday tashkil etilgan? Ishlarning turli-tumanligi, qishloq xo'jalik ishlariga bo'lgan munosabati qanday?

3. Qishloq xo'jaligidagi ishlarga qo'shimcha ravishda qanday tabiatshunoslik kuzatishlari va mashg'ulotlari kiradi?

4. Aqli zaif o'quvchilarning qishloq xo'jaligidagi mehnati qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?

8-bob. TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISH MAXSUS METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

8.1. Tabiatshunoslikning ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalari

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning uni qurshab turgan olamni muntazam o'rganib borishiga asoslanib, ularda tabiat to'g'risida, o'z joyi va mamlakatning barcha tabiiy boyliklari to'g'risida bir butun tasavvurni shakllantirish lozim. O'quvchilar Vatanimizning tabiiy boyliklaridan odamlar o'z mehnat faoliyatida qanday foydalanayotganliklari bilan tanishishi lozim. Bunda bolalarga odamlar mehnati atrof tabiat bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatish g'oyat muhimdir. Shu talablarga ko'ra, o'quvchilarga jonli va jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish; ularning o'zaro bog'liqligini tushunishga o'rgatish; tabiatda kuzatishlar o'tkazish uquvi va ko'nikmalari bilan qurollantirish; tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyligini asrashga qaratilgan mehnat faoliyati bilan tanishtirish tabiatshunoslikni o'qitishning ta'limiy maqsadini tashkil etadi. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabida tabiatshunoslikni o'qitishda qo'llaniladigan ta'limiy vazifalar o'quv dasturi bo'yicha o'quvchilarni nazariy bilim va amaliy mahoratga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Demak, ta'limiy vazifalar tabiatshunoslik dasturi, o'quv rejasi, mavzuning mazmunidan kelib chiqadi. Masalan, 1-sinfda «Atrof-olam bilan tanishtirish» fani kiritilgan bo'lib, uni o'rgatishga 68 soat ajratiladi. «Jonsiz tabiat haqida» bo'limida «O'simliklar» mavzusi ajratilgan. Mavzuga ko'ra ta'limiy maqsadni ajratamiz.

– jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish;

– daraxtlar bilan tanishtirish; ularning nomlarini ajratishga o'rgatish va hokazo.

«Tabiatshunoslik» bo'yicha (3-sinf) «Tabiatda bahor» mavzusini o'tishda o'quvchilarni tabiatdagi o'zgarishlar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish; bahor fasliga xos ob-havoni kuzatib, tahlil qilishga o'rgatish.

Zamonaviy surdopedagogika ta'lim va tarbiyani tarbiyalovchi ta'lim deb atalmish yagona jarayonning ikki tomoni deb qaraydi.

Tabiatshunoslik maxsus o'qitish metodikasida fanning tabiiyviylik xarakteri uning mazmuni bilan belgilanadi. Tabiatshunoslik bo'yicha berilgan barcha mavzular kompleks tabiiy masalalarini aks ettiradi. Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida dunyoni ilmiy tushunish asoslarini shakllantirish va go'zallikni tushunishni tarbiyalash lozim. Shu o'rinda tabiatni o'rganib, uning sir sinoatlari haqida o'quvchilarga bilim berish jarayoni davomida tabiiy boyliklarini asrash va ko'paytirish ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etishini aytib o'tishimiz lozim. O'qituvchining asosiy vazifasi kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni tabiatga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishga, uni asrab-avaylash bo'yicha turli tadbirlarni o'tkazishga o'rgatishdir. Yashil ekinlarni parvarish qilish, qishda qushlarga g'amxo'rlik qilish va shu kabilar. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, bolalarni har tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali:

- aqliy tarbiya;
- axloqiy tarbiya;
- nafasat tarbiyasi;
- jismoniy tarbiya;
- ekologik tarbiya;
- iqtisodiy tarbiya berish lozim.

Aqliy tarbiya.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tabiatshunoslik bo'yicha bilimlarini oshirish va so'zlashuv vositasi sifatida abstrakt fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aqliy tarbiyaning asosiy maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Aqliy tarbiya aqliy bilim olish bilan chambarchas holatda olib boriladi. Aqliy tarbiya, nafaqat o'qitish yo'li bilan, balki olgan bilimlarni amaliyotda qo'llash, o'qituvchilarning ko'rsatmalari asosida olib boriladi. Kar va zaif eshituvchilarning aqliy rivojlanishi ularning nutqiy tayyorgarlik darajasiga qarab siljiydi.

«Daraxt» tushunchasiga ega bo'lgan bola daraxt turlarini ham (terak, eman, tol) biladi. Agar bola «o'simlik» tushunchasiga ega bo'lsa, unga yaqin bo'lgan tushunchalarni ham (sabzavot, meva, gul, daraxt) egallagan bo'ladi.

Daraxt – umumiy tushuncha; terak, tol-aniq tushuncha.

Bola bu tushunchalarning o'zaro bog'liqligini tushunadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga aqliy tarbiya berishning eng muhim vazifalaridan yana biri bolalarni qiziquvchanlik, tabiatga, hayotga sinchkovlik bilan qarash ruhida tarbiyalashdir. Buning uchun, avvalo, tabiat bilan tanishtirishni eng oddiy tushunchalardan boshlab tabiat haqidagi ilmiy dunyoqarashlar hosil qilinadi. Natijada bolalarda ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-harakatli, mantiqiy-fikrlovchi tafakkur rivojlanadi.

Axloqiy tarbiya.

"Axloqiy tarbiya" deganda shakllanayotgan, rivojlanayotgan, o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keluvchi sifatlarning shakllanishini tushunamiz. Axloqiy tushunchalar – yaxshilik, sharaf, vijdon va boshqalar baholanuvchi xarakterga ega. Axloq mazmuni muayyan qadriyat yo'l-yo'riqlarini, xulq-atvor me'yorlari va motivlarini, insonlararo muomala shakllarini o'z ichiga oladi.

Tabiatshunoslik darslarida axloqiy tarbiyaning quyidagi vazifalari hal qilinadi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda axloqiy, xulqiy ko'nikmalarni tarbiyalash;
- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda axloqiy his tuyg'ularni tarbiyalash;
- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda axloqiy ongini, mustahkam e'tiqodni tarbiyalash.

Axloqiy ko'nikmalar: gigyienik ko'nikmalar, umumiy tartib-intizomga rioya qilish; xulq madaniyati, mehnat qilish, jamoada yashash va ishlash ko'nikmalaridir. Maktab tomorqalariga ekilgan ekinlarni parvarish qilish, har bir gulni, niholni asrash, daraxtlarning tagini yumshatish, sug'orish, ekishga o'rgatish tabiatshunoslikda axloqiy ko'nikmalarni tarbiyalash demakdir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tajriba maydonchasida, tabiat burchagida o'simlik va hayvonot olami bilan tanishtirish jarayonini tashkil etish kerakki, bunda tarbiya tanishtirishni qiziqarli, jonli sharoitga bog'lab, o'quvchilar e'tiborini o'ziga tortsin.

Tabiatshunoslikni o'qitishning tarbiyaviy vazifasi, bir so'z bilan aytganda, yosh avlodni Vatanga, kishilarga muhabbat, ularga

va ular mehnatiga hurmat tuyg'ulari, shaxsning ijobiy axloqiy xislatlari: poklik, to'g'rilik, xullas, olijanob inson uchun nimaiki zarur bo'lsa, hammasini mujassamlashtirgan holda tarbiyalashdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga nafosat tarbiyasini berishdan maqsad shaxsning didini, go'zallikni his qilish va doimo unga intilib yashash xislatini tarkib toptirishdir. Gullarning, mevalarning tili, shakli va rangi, qushlarning sayrashi, ariqlardan suvning shildirab oqishi, oyoq ostidagi qorning yumshoqligi, bularning barchasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni his qilishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotni tarbiyalash va o'stirish uchun boy material bo'lib xizmat qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bunday estetik tuyg'ularning o'sishi esa, o'z navbatida, san'atni, hayotni, tabiatni sevish, uni tushunish va o'rnatish uchun zarur sharoit yaratadi.

Mehnat tarbiyasi.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, mehnatga bo'lgan qiziqishni oshirish, kattalar yaratgan mehnat mahsulini e'zozlash, uning qadriga yetish ruhida tarbiyalashni amalga oshirishdan iborat. Tabiatshunoslik darslarida majshiy mehnat turiga eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar jalb qilinadi. Majshiy mehnat o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ishlarining tuzilishiga shaxsiy gigiyena, o'simliklarni, jonli tabiat burchagidagi hayvonlarni parvarishlash kiradi. Mehnat tarbiyasi har bir sinf o'quvchisining yosh xususiyatini hisobga olib amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ekologik tarbiya.

Ekologik tarbiya insonning tabiatga bo'lgan munosabati, uning axloqiyligi ko'rsatkichidir. Tabiat – boylik, xazina, insonning ma'naviy va jismoniy yangilanishining manbai, nafosatli rivojlanishining vositasidir. Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi tabiatga va tabiiy boyliklarga nisbatan ehtiyotkorlik va javobgarlik munosabatini shakllantirishdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga tabiatshunoslik darslarida ilmiy ekologik bilimlar berish, ekologik madaniyatni tarbiyalash, ekologik bilimlarni tashviqot qilish kabilar o'rgatiladi.

«Atrof-olam bilan tanishtirish» tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar respublikamizning tabiat boyliklari, hayvonot va

o'simliklar olamining hayoti, inson va tabiat munosabati haqida bilim oladi. Bu bilimlar «inson – atrof muhit» tizimining komponentlarini tushunishga va o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarni anglashga tayyorlaydi.

Shunday qilib, tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni, ta'lim mazmunidan kelib chiqib, har tomonlama tarbiyalash tarbiyaviy maqsad, vazifadir. Tabiatshunoslik darslarida ta'limning korreksion- rivojlantiruvchi vazifalari ta'lim mazmun-mohiyati, mavzuning ta'limiy maqsadiga, o'quvchilarning yosh hamda yakka xususiyatlariga mos ravishda belgilanadi. Tabiatshunoslikni o'qitishda korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar eshitish nuqsonini bartaraf qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy ishning o'tkazilishini taqozo etadi. Birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni tahlil qilishga, barcha psixik faoliyatni faollashtirishga qaratilgan bo'ladi. Eshitish qobiliyatini shakllantirishda, labdan o'qishni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar o'qituvchi tomonidan kar o'quvchilarning doimiy bilim olish asoslarida amalga oshiriladi. Ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar uzviy bog'langan holda olib boriladi. «VENN» strategiyasi asosida ushbu vazifalarning farqli hamda uyg'un tomonlarini ko'rib chiqamiz.

Tabiatshunoslik. 3-sinf

Hayvonlar (uy hayvonlari) yoz va kuz fasllarida

Ta'limiy maqsad:

1. O'quvchilarni uy hayvonlari tushunchalarini mustahkamlashga o'rgatish.
2. Hayvonlarni ta'riflash asosida nomlarini topishga o'rgatish.
3. Umumiy hamda xususiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar-dan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tarbiyaviy maqsad

1. Jonli tabiatga bo'lgan mehri tarbiyalash.
2. Vatanimizning tabiatidan zavq ola bilish hislarini uyg'otish, tarbiyalash.
3. O'quvchilarning jamoa orasida ishlash hamda shaxsiy xislatlarini tarbiyalash.
4. Ekologik madaniyatni shakllantirish.

Korreksion maqsad

1. DPS asosida, o'quv dasturi reja asosida tashkil etiladi.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni fan asoslariga o'qitishda har tomonlama ta'lim-tarbiya berishni asoslash.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning barcha psixik faoliyatlarini ta'lim-tarbiya berishga asoslash.
4. Birlamchi hamda ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etishni ta'minlash.
5. Nutqni muloqot vositasi sifatida rivojlantirish.
6. Bog'langan nutqdan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish.
7. Labdan o'qishga o'rgatishda davom etish.
8. Lug'at boyligini oshirish.
9. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

Tabiatshunoslik darslarida amalga oshiriladigan o'quv (ta'limiy) tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi maqsadlar hamda ta'limning qisqacha mazmuni quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

№	Ta'limiy maqsad	Tarbiyaviy maqsad	Korreksion-rivojlan-tiruvchi maqsad	Ta'lim mazmuni
1.	Jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish. ("O'simliklar" mavzusi)	Tabiatni asrash, uning boyliklaridan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalash. Insonlar mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishtirish.	O'quvchilarning nutqi, tafakkurini o'stirish. Eshitish qobiliyatini o'stirish. Lug'at boyligini oshirish.	O'simliklarning tashqi tuzilishini, asosiy xossa va xususiyatlarini bilish hamda boshqalari bilan solishtirish, mavsumiy o'zgarishlarning o'simliklar dunyosiga ta'siri bilish.
2.	Jonli tabiat haqida ilmiy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish. ("Hayvonlar" mavzusi)	Jonli tabiatni asrash, mustaqillik qobiliyatlarini rivojlantirish.	Lug'at boyligini oshirish. Nutqning barcha turlaridan foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirish.	Jonli tabiat turkumi vakillarini ajratish, ularni guruhlash, tashqi ko'rinishi, yakka xususiyatlarini aniqlash, mavsumiy o'zgarishlarga jonli tabiat vakillarining moslashish xususiyatlarini bilish.
3.	Tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqida bilimlar berish.	Tabiatga mehr-muhabbatli bo'lish, tabiat go'zalliklaridan zavqlana olishga o'rgatish.	Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarine shakllantirish. Nutqni o'stirish. Lug'at boyligini oshirish.	Tabiat, undagi o'zgarishlar haqidagi dastlabki tushunchalarni egallash. Ob-havo, uni kuzatish, yil fasllari, fasllar o'zgarishi davomida kishilar faoliyati bilan tanishtirish.
4.	Odam organizmi va uning salomatligini saqlash to'g'risida ma'lumotlar berish.	O'z salomatligini saqlashga, o'z tanasining sanitar-gigiyenik holatini doimiy ravishda nazorat qilib borishga o'rgatish.	Mantiqiy fikrlashga, bog'langan nutqdan foydalanishga, nutqni o'stirishga, lug'at boyligini oshirishga o'rgatish.	Inson tana a'zolari haqida ma'lumot berish. A'zolarning faoliyati, ahamiyati borasida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish.

Savollar

1. Tabiatshunoslikni o'qitishning ta'limiy vazifalarini ko'rsatib bering.
2. Tabiatshunoslikni o'qitishning tarbiyaviy vazifalarini ko'rsatib bering.
3. "Korreksion-rivojlan-tiruvchi vazifa" deganda nimani tushunamiz?
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga tabiatshunoslik predmetini o'qitishda yuqoridagi uchta vazifaning bog'liqligini ko'rsatib bering.

8.2. "Tabiatshunoslik o'qitish maxsus metodikasi" fanining o'qitish tamoyillari

O'qitish tamoyillari o'qitish jarayoni komponentlari bo'lmish maznun, metodlar, tashkil etish shakllarining umumiy yo'nalishini aniqlab beradigan, umumlashtirilgan, mustahkam, eng muhim hamda universal talablarni ifodalaydi. Shu bilan birga, o'quv birligi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyat turini ham aniqlab beradi. Tamoyillar o'quv jarayonining pedagogik tajribada doimiy ravishda namoyon bo'ladigan ma'lum qonuniyatlari va qonunlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Tabiatshunoslikni o'qitishda quyidagi tamoyillardan foydalaniladi.

Didaktik tamoyillar:

1. O'qitishda mustaqillik va izchillik tamoyili.
2. O'quv materialining ilmiy va tushunarli bo'lishi tamoyili.
3. Nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyili.
4. Tabiatshunoslikni o'qitishda o'quvchilarning ongilligi va ijodiy faolligi tamoyili.
5. O'qitishning ko'rgazmatilik qoidasi tamoyili.
6. Yakka yondashish tamoyili.
7. Korreksion yo'nalganlik tamoyili.
8. O'kashunoslik tamoyili.

O'qitishda muntazamlilik va izchillik

Tabiat haqida juda ko'plab ma'lumotlardan kichik yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni, Vatanimiz tabiatining xilma-xilligini, jonajon o'lka tabiati va boshqalarni ochib beruvchi, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan ancha qimmatli o'quv materialini tanlanadi. Materialning bunday berilishi shu bilan izohlanadiki, kichik yoshli maktab o'quvchilarining tabiat to'g'risidagi fan asoslarini faqat atrof-olamning jisim va hodisalarini aks ettiruvchi va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beruvchi dastlab oddiy tabiiy obyektlari bilan, keyin esa murakkabrog'i bilan izchil tanishtirib borish jarayonida egallab olishlari mumkin.

O'qitishning muntazamliligi, ya'ni sistemaliligi bilimni bayon qilishda muayyan sistemaga amal qilishdan tashqari amaliyot bilan bog'lanishning xilma-xil shakllarining amalga oshirilishini, jumladan, nazariy tabiatshunoslik bilimlarini kuzatishlar va bilim olishga qaratilgan qiziqarli o'yinlar bilan; atrofdagi hayot va qurilish amaliyoti bilan; mehnat faoliyati va ijtimoiy foydali mehnat bilan; maktaboldi uchastkasidagi ish va foydali mehnat bilan bog'lashni nazarda tutadi. Tabiatshunoslik darslarining izchilligi o'quvchilar uchun ularning yosh xususiyatlari, tayyorgarligi va rivojlanishi, shuningdek, mazmunda vorislikka rioya qilish zaruratiga qarab o'quv materialining tushunarli bo'lishi bilan belgilanadi. Chunonchi, maktab tabiatshunoslik kursi jonsiz tabiatdagi, o'simlik va hayvonlar hayotidagi, odamlar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlarni, jonajon o'lka tabiati, odam organizmi va uning salomatligi, Vatanimiz tabiatini, undan foydalanish va uni muhofaza qilishda aks ettiruvchi materialni izchillik bilan o'rganishni talab qiladi. Bu mavzular biologiya, geografiya, ekologiya, odam anatomiyasi, sanitariya va gigiyena bo'yicha oddiy ma'lumotlarni beradi. Bu haqda L.A.Komenskiy shunday fikrni bildirgan: «Oddiydan-murakkabga, yaqindan-uzoqqa, tanishdan-notanish tomon borish kerak».

O'quvchilarga tabiatshunoslik bilimlarini oddiydan-murakkabga, tizimli ravishda, yaqindan – o'z o'lkasi tabiatidan boshlab uzoq, ya'ni boshqa o'lka tabiatini tanish, o'rganish asosida amalga

o'qitiladi. O'z o'lkasi bilan o'quvchilarni tanishtirishda maktab uchastkasidagi daraxtlar haqida, so'ngra bog'lardagi daraxtlar haqida bilim beramiz.

O'quv materialining ilmiy va tushunarli bo'lishi tamoyili

XIX asrning 60-yillarigacha tabiatshunoslik fan emas, tabiat nomi bilan saqlanib kelgan bo'lsa, endi mustaqil fan sifatida o'qitilmoqda. Ilmiylik qoidasi hozirgi zamon fanida qaror topgan qoidalarning o'quvchilarga o'zlashtirish uchun taklif qilinishini nazarda tutadi. Ilmiy bilimlarning egallab olinishini ta'minlash uchun maktab o'quvchilarining idrok qila olish imkoniyatlarini hisobga olib, eng muhim ilmiy ma'lumotlarni tanlab olish kerak.

Masalan: I-sinf «Atrof olam bilan tanishtirish» darsida «O'lkamizda bahor» mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilar: «Uyda bahorda kunlar isiydi. Kunlar isiganligi sababli daraxtlar kurtak chiqaradi. Biz siz bilan yer maydonchasiga ekin ekamiz» kabi oddiy misollar bilan aniq va ilmiy asosda tushunchaga ega bo'ladi. O'quv materialining ilmiyligi tushunarli bo'lish bilan uyg'unlashishi kerak, bunga uni o'quvchilarning aqliy va ruhiy rivojlanishiga, shuningdek, ularning tayyorgarligiga moslashtirish bilan erishiladi. Tabiatshunoslik materialari mazmunining tushunartiligi kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida o'qishga qiziqish uyg'otadi, aqlga quvvat beradi, mantiqiy fikrlashga, taqqoslash va xulosalar chiqarish, amaliy masalalarni yechishga majbur qiladi.

Nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyili

Nazariyani amaliyot bilan bog'lash o'quvchilarning amaliy masalalarni hal qilishda nazariyaning ahamiyatini tushunishiga olib keladi, bu yangi o'quv materiallarini o'zlashtirishda uning sifatini ko'taradi. Bu tamoyil mehnat ta'limi va o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash vazifalarini hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'lanish xarakteri o'quv fanining mazmuni bilan taqozo qilinadi. O'qitishdagi nazariy bilimlar o'quvchilarni tabiatning u yoki bu hodisalari bilan amaliy tanishtirish jarayonida puxtaroq o'zlashtirib olinadi. Bunda amaliyot o'quvchilarni nazariyani o'zlashtirishga qiziqtirish uchun undan oldinroq kelishi mumkin.

O'quvchilarning tirik tabiat burchagidagi, shuningdek, o'simliklarning suvga, issiqlikka, yorug'likka ehtiyojini gul, manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishida organik va mineral o'g'itlarning ta'sirini, pomidorning pishishi va hosildorligiga ko'chirib o'tqazishining ta'sirini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan o'quv-tajriba uchastkasidagi mehnat jarayonida nazariya bilan amaliyot bog'lanishi yaxshi amalga oshadi.

Tabiatshunoslikni o'qitishda o'quvchilarning ongli va ijodiy faolligi qoidasi

O'quvchilarning ongliligi va ijodiy faolligi qoidasi: o'quvchilarning o'qishga ongli va ijodiy munosabatda bo'lishini, o'rganilayotgan materialni tushunishi va tushunganlarini ifodalay olishi; o'qish mehnatining ijodiy xarakterda bo'lishini, bilimlarning amaliyotda ongli qo'llanilishi va ularning ishonchga aylanishini o'z ichiga oladi. Onglilik tamoyilini amalga oshirishda tashabbus o'qituvchiga taalluqlidir, u o'quvchi oldida turgan vazifalarni aniq qilib ifodalashi va ularni yaxshilab bajarishga qiziqishni uyg'otishi kerak. O'qitishda onglilikning namoyon bo'lishining oliy shakli o'quvchilarning ijodiy faolligidir, u gerbariy, maket, model, mulyaj tayyorlash, o'tkazilgan kuzatishlarni ta'riflash va o'qituvchi taklif qilgan mavzu bo'yicha bajarilgan ishlar asosida kichik axborot tayyorlash bilan bog'liq bo'ladi.

O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili

L.A.Komenskiy shunday degan edi: «Avval sezgilarda bo'lmagan narsa, intellektda ham bo'lmaydi». Shundan kelib chiqib, hissiy tajribani bilish va o'rganish asosida ko'rgazmalilik tamoyilini asoslab beradi. Ko'rgazmalilik faqat buyum, hodisalarni ko'rib idrok etish emas, balki ularni hamma sezgi organlarini jalb qilgan holda idrok qilishdan iborat. Bu didaktikaning oltin qoidasi hisoblanadi. Agar biror-bir predmetni bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo'lsa, shu narsani idrok qilish uchun biryo'la bir necha sezgi organlarini ishga solish mumkin. O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyilidan foydalanishning asosiy vazifasi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish. Ko'rgazmalilik tamoyili atrof olamni qabul qilib olishda o'qitishni nazarda

tabiat. Bu tamoyilga rioya qilish tabiatni o'rganishning dastlabki bosqichida zarur, sababi kichik maktab yoshidagi eshitishida muqomm bo'lgan o'quvchilar ko'rganlarida hosil qilgan taassurotlari asosida to'g'ri tushuncha va xulosalar hosil qilishga yordam beruvchi bilimlarga ega bo'ladi.

Tabiatshunoslikni o'qitishdagi ko'rgazmalilik mashg'ulotlar jarayonida quyidagicha ajratiladi:

1. Tabiiy jismlar (tirik tabiat burchagidagi).
2. Gerbariyalar, kolleksiyalar.
3. Tajriba ko'rinishidagi hodisalarni eslatuvchi rasmlar, jadval, model, mulyaj, diapozitiv, kinofilm, xarita, sxema.

Tabiat jismlari va hodisalari ustidan olib borilgan kuzatishlar materialni tushunib olishga va o'zlashtirilganlarni mustahkamlashga, o'qituvchi rahbarligida tabiat hodisalari o'rtasidagi chuqur bog'lanishlarni aniqlashga, jismlar to'g'risidagi fikrlar bilan ko'rinishlarini taqqoslashga imkon beradi.

Yakka yondashish tamoyili

O'rta ta'lim tizimini qayta isloh qilish sharoitida bolalarning yakka xususiyatlarini o'rganish tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Maktabga kelayotgan har bir bola muayyan axborot yig'indisiga va yakka xususiyatlarga ega, ular bilimlarni o'zlashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq o'qitish jarayonida bolalar guruhida bilimlarni o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lishi mumkin. Binobarin, bolalar taraqqiyotida to'g'ri keladigan umumiylikni aniqlash mumkin. U rivojlanish darajasi, bilim zonasi, fikrlash xarakteri, faoliyat va xulq-atvor o'xshashligi bo'lishi mumkin. Ammo umumiylik bilan bir qatorda, har bir o'quvchi uchun o'zining individual xususiyatlari: diqqatning rivojlanishi, darsdagi xulq-atvorning xarakteri, predmetga munosabati, ko'rgazmali va og'zaki materialni qabul qilishning tezligi va aniqligi; o'quv materialini tushunib olish va fikrlash xarakteri, tabiat to'g'risidagi bilimlarning sifati va og'zaki hamda yozma natijalarining rivojlanish darajasi o'ziga xosdir.

O'qituvchi sinfda ish olib borganida har bir o'quvchi bilan yakka tarzda ishlash, ijodiy hislarni rivojlantirish va salbiylarini bartaraf qilish, sinfni jamoa ishiga tortish maqsadida har bir

bolaning shaxsiy qobiliyatini o'rganish va hisobga olish zarurligini unutmazligi kerak.

O'quvchilarga individual yondashishga asoslangan o'qitish jarayoni o'quv materialining muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini, bolaning aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, aqliy me'yorlarni singdiradi.

Korreksion yo'nalganlik tamoyili

Korreksion yo'nalganlik tamoyili bolaning sog'lom tomonlariga tayanishni, kar bolaning rivojlanishida kompensator yo'lni ta'minlashni nazarda tutadi. Kar bola sog'lom aqlga ega bo'lib, ko'rgazma-harakatli va ko'rgazma-obrazli darajada atrof-dunyoni aks ettirib anglay oladi. Karlarda yo'qolgan, buzilgan eshitish funksiyasini qisman ko'rish, kinestetik va boshqa analizatorlar faoliyati egallaydi. Saqlanib qolgan ko'rish idrokiga tayanish karlarda nutq a'zolarining ko'rinadigan harakatlari orqali og'zaki nutqni idrok etishning maxsus metodi – labdan o'qishni shakllantirishga imkon beradi. Bunda labdan o'qishning sifati tinglovchining faolligiga bog'liq. Bunday qarama-qarshi faollik, eng avvalo, kutilayotgan xabarni aniqlashda, so'zlarni aks ettirib talaffuz etishda, berilayotgan barcha ma'lumotlarni qayta ishlashda namoyon bo'ladi.

Kar bolalar maktabining o'quv dasturi ham korreksion yo'nalganlik tamoyilini e'tiborga olgan holda tuzilib, unga talaffuzni shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, amaliy ta'lim o'qitish fanlari kiritilgan.

Korreksion yo'nalganlik tamoyili har bir darsda amalga oshiriladi. O'qituvchi-surdopedagog bolalarda og'zaki nutqni shakllantirishga, bilish faoliyatini rivojlantirishga harakat qiladi. Yangi tushunchani hosil qilayotib o'qituvchi saqlangan barcha analizatorlarning ishini faollashtiradi. Karlarda saqlangan qoldiq eshitishdan foydalanishga va nutq ishini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi.

Tabiatshunoslikni o'qitishning o'lkashunoslik tamoyili

Maxsus maktab o'lkashunosligining vazifasi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tomonidan ta'lim-tarbiya maqsadida har xil manbalar bo'yicha va bevosita kuzatishlar asosida o'z o'lkasi hududini har tomonlama o'rganishdir.

O'lkashunoslik hayot bilan bog'lanishning qudratli vositasidir. Ko'pchilik eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning maktabni bitirgandan keyin mahalliy sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalariga ishlash uchun borishi hisobga olinganda o'lkashunoslik alohida ahamiyat kasb etadi.

O'lkashunoslik bevosita tabiat muhofazasi bilan bog'liq, chunki o'z o'lkasini bilish eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga uni muhofaza qilish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha ishlarda ongli qatnashish imkoniyatini beradi. O'z o'lkasini o'rganish o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantiradi, chunki bu ijtimoiy foydali mehnatda faol qatnashishga imkon beradi.

O'lkashunoslik materialini o'rganish bo'yicha ish o'quv maqsadlariga javob berishi kerak, shuning uchun ham uning mazmuni va xarakteri o'quv dasturi bilan belgilanadi. O'lkashunoslik ishlarini tashkil qilish shakllari bo'yicha sinfda va sinfdan tashqari bo'lishi mumkin.

O'lkashunoslik tamoyili nazariy tabiatshunoslik kursining o'quvchilar o'z o'lkalari tabiati bilan bevosita muloqotda bo'lishida oladigan tasavvurlarga uzviy ravishda bog'lanishni nazarda tutadi. O'lkashunoslik bilimlaridan foydalanish o'quv o'lkashunosligining bosh maqsadidir.

Mahalliy o'lkashunoslik materiallaridan eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ko'pgina tabiat hodisalarini bevosita idrok qilishlarida foydalaniladi.

O'lkashunoslik tamoyilidan muntazam ravishda foydalanish olingan nazariy bilimlarni hayot (masalan, qishloq xo'jalik ishlarining mo'tadil, ya'ni optimal muddatlarini aniqlash uchun oldindan ob-havoni aytib berish, daryodan o'tishda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida uning oqimi tartibini aniqlash, o'simliklar ekish va hokazolar) bilan bog'lashga yordam beradi.

Shunday qilib, tabiatshunoslikni o'qitish "og'zaki tarzda" bo'lmay, balki haqiqatni kuzatish asosida quriladi. Bunday o'lkashunoslikdan tabiatshunoslikni o'qitishda har kuni va uzluksiz foydalanish kerakligi ma'lum bo'ladi. Barcha darslar o'lkashunoslik tamoyili asosida tuzilishi kerak.

Darslardagi umumlashtirish o'rganiladigan dastur mavzulari bilan bog'liq holda berilishi lozim. O'lkashunoslik tamoyili mohiyati shundan iboratki, u kar va zaif eshituvchi o'quvchilarga tanish bo'lgan joyda tabiat hodisalarini kuzatish va haqiqiy tasavvurlar asosida tabiatshunoslik asoslarini tashkil qiluvchi tushunchalarni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Jonajon o'lkani o'rganish umumiy tabiatshunoslik kursini o'rganish bilan parallel holda olib borilmog'i lozim. 3-6- sinflardagi o'lkashunoslik tadqiqotlarining muhim qismi tuproqqa, o'simlik va hayvonot dunyosiga xarakteristika tuzish, daryolar oqimining tartibi va tabiatini o'rganish, tabiat muhofazasiga ajratiladi.

Savollar

7. Tabiatshunoslikni o'qitish tamoyillariga izoh bering.
8. O'qitish tamoyillariga umumiy ta'rif bering.
9. Ilmiylik va onglilik tamoyilini izohlab bering.
10. Tabiatshunoslikda o'lkashunoslik tamoyilining mazmunini yoriting.
11. Yakka yondoshuv tamoyilini izohlab bering.
12. Tabiatshunoslik darslarida korreksion yo'nalganlik tamoyili qanday amalga oshiriladi?

8.3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanining mazmuni

«Atrof-olam bilan tanishtirish» fanining mazmuni. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy vazifasini amalda qo'llash natijasida DTS talablari ishlab chiqildi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus maktablarida «Atrof olam bilan tanishtirish» fani tayyorlov sinfidan uchinchi sinfgacha o'rgatiladi. «Atrof-olam bilan tanishtirish» fanining asosiy vazifasi kichik maktab yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni tabiat haqidagi oddiy tushunchalar bilan qurollantirish; tabiat in'omlari haqidagi tushunchalarni sistemalashtirish va boyitish; oila haqida,

biladi o'zmi tutish odobi, maktab xususida, ko'cha to'g'risida, ko'cha-ko'yda yurish qonun-qoidalari xususidagi bilimlar bilan qurollantirish; shuningdek, o'quvchilarda ona- Vatanga muhabbat; yaqin kishilarni, kattalarni hurmat qilish; o'rtoqlariga izzatda bo'lish; kattalarning mehnatini qadrlay olish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. «Atrof olam bilan tanishtirish» darslarining asosiy mazmuni eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning umumiy va nutqiy rivojlanishini ta'minlaydi. Dasturda berilgan mavzular eshitishida nuqsoni bo'lgan 7-9 yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularni atrof-olam hayoti bilan tanishtiradi. Ushbu bilimlarni egallash bilan birga, o'quvchilarning nutqi shakllantiriladi va mantiqiy fikrlashga o'rgatiladi.

2-jadval

Umumta'lim maktabining «Atrof-muhit bilan tanishuv» dasturi	Kar bolalar maktabining «Atrof-muhit bilan tanishuv» dasturi
<p>1. «Atrofimizdagi olam» fani sog'lom o'quvchilarga mo'ljallangan.</p> <p>2. Fan dasturi 5 bo'limdan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> - atrofimizdagi olam jismlari; - ona tabiat; - yaqin atrof-muhit bilan tanishuv; - sog'liqni saqlash; - sayohat. 	<p>1. Mazkur fan 1-2-sinf o'quvchilarga moslashtirilgan.</p> <p>2. Pedagogik tamoyillar.</p> <p>3. Fan dasturlarining ta'limiy vazifalari: predmetlar, tabiat hodisalari.</p> <p>4. Dasturlarning tarbiyaviy maqsadlari: ekologik, mehnat, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik tarbiyadagi o'xshashliklar.</p> <p>5. Asosiy mazmuni jamiyat hayoti xususida, dunyoqarashini shakllantirish.</p> <p>6. Ta'limni tashkil etish shakllari:</p>
	<p>1. «Atrof-muhitdagi olam» fani kar o'quvchilarga mo'ljallangan.</p> <p>2. Fan dasturi 2 bo'limni tashkil etadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ijtimoiy hayot; - jonajon o'lka tabiati. <p>3. Materialning konsentrik joylashuv tamoyili asosida o'rganilishini talab etadi.</p> <p>4. Dasturda korreksion-pedagogik faoliyat yoritilib berilgan. Kar bolalar nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - og'zaki so'zlashuv, bog'langan nutq shakllanadi, rivojlanadi,

	ekskursiya, amaliy ishlar olib borish. 7. Psixologik jarayon rivojlanadi. 8. Fanlararo bog'liqlik,	- lug'at boyligini oshiradi.
--	--	------------------------------

«Atrof-olam bilan tanishtirish» dasturi ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi.

Birinchi yo'nalish o'quvchilarni kishilarning ijtimoiy hayoti va mehnati bilan tanishtirish, xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ikkinchi yo'nalish bolalarni tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lish bilan tanishtiriladi, tabiiy obyekt va hodisalar to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish, tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni, xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashni, tabiat muhofazasi bo'yicha, baholi qudrat, faoliyat tashkil qilishni nazarda tutadi.

Ikki yo'nalishning o'zaro bog'liqligi kishilarning mehnatini o'rganishda va o'quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etishda namoyon bo'ladi (ijtimoiy foydali mehnat va o'yin faoliyati). Birinchi yo'nalishga quyidagi mavzular kiradi: «Bizning uy», «Bizning maktab», «Bizning shahar», «Ona Vatan».

Ikkinchi yo'nalishga «Ona Vatan» mavzusi kiradi. Yuqorida keltirilgan mavzular ketma-ket o'rganilmasligi ham mumkin, yil davomida bir mavzuni bir necha bor qaytarish mumkin. Ishning bunday tashkil etilishi dastlabki berilgan tushunchalarni, so'zlarni o'quvchilardan to'liq o'zlashtirishni va esda saqlab qolishni talab qilmaydi. Lug'at uchun berilgan so'zlar idrok etish uchun beriladi. Keyingi ishlar natijasida davom ettiriladi, to'ldiriladi hamda uning ahamiyati kengaytirilib boriladi. Bir mavzuga bir necha bor qaytish berilgan bilimlarni mustahkamlashda hamda lug'at boyligining oshishida, umumrivojlanishda katta ahamiyat kasb etadi. «Atrof-olam bilan tanishtirish» darslari boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. O'qish, predmet amaliy ta'lim, nutq o'stirish va boshqa fanlar bilan bog'langan. Darslar o'qituvchi tomonidan sinfda, maktaboldi maydonchasida, istirohat bog'larida, ko'chada, muzeylarda o'tkazilishi mumkin. Atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida o'quvchilarning bilim faoliyati oshirilib boriladi.

Eslatishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning og'zaki so'zlashuv nutqini rivojlantirish bilan birgalikda, bog'langan nutqi ham rivojlantiriladi. O'qituvchi sayohatlar va turli o'yinlar tashkil etish orqali o'quvchilardan ko'rganlari xususida so'zlab berishni talab etadi. O'qituvchi tomonidan berilayotgan nutqiy material ko'rib-olintib idrok otiladi. Bu o'quv davrida o'qituvchi o'quvchilar bilan nutqning og'zaki-daktil shaklidan keng foydalanadi. (So'zlar va topshiriqlar aks etgan yozma ko'rsatkichlar). O'quvchilar, asosan, daktil nutqdan foydalanadi.

Bog'langan nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlashda o'quvchilar ko'rgan-kuzatganlarini so'zlab berish; ko'ringan predmetlarni tavsiflab berish hamda sayohatlar xususida so'zlab berishni ta'minlashi zarur.

"Atrof-olam bilan tanishtirish" kursi mavzularini soatlarga ajratish taxminiy ko'rinishga ega. O'qituvchi o'quv materialining o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida o'quvchilarning ta'limining ta'rifiga xosligini, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini, mahalliy shart-sharoitni e'tiborga oladi. Atrof-olam bilan tanishtirish darslarida olingan bilimlar nutq o'stirish darslarida mustahkamlanib boriladi.

"Tabiatshunoslik" fanining mazmuni

"Tabiatshunoslik" "Atrof-olam bilan tanishtirish" kursining davomidir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar maktablarida tabiatshunoslik kursining asosiy maqsadi quyidagicha:

– o'quvchilarni jonli va jonsiz tabiat, tabiatdagi o'zgarishlar hamda turli yil fasllarida insonlarning mehnati to'g'risidagi oddiy tushunchalar bilan qurollantirish;

– o'quvchilarning jonli va jonsiz tabiatni kuzatish orqali shaxsiy tajribasini oshirish;

– tabiat ne'matlarining tabiatning mavsumiy o'zgarishlariga bog'liqlik tomonlarini, mavsumiy o'zgarishlarning kishilar mehnat faoliyatiga ta'sirini ochib berish;

– ekologik bilimlarini oshirish;

– dastlabki gigiyenik bilimlarni berish (shaxsiy va ijtimoiy gigiyena tushunchalarini kiritish).

O'quvchilarga biologik muvozanat xususidagi tushunchalar singdirilib boriladi. Bir tabiat omilining nobud bo'lishi ikkinchi

tabiat omiliga o'z ta'sirini ko'rsatishi xususidagi tushunchalar beriladi. Jumladan, Orol dengizining qurib borayotganligi oqibatida Qoraqalpog'iston, Buxoro, Xorazm vohalaridagi o'simlik va hayvonot dunyosiga hamda insonlarga ko'rsatilayotgan ta'sirni aytib o'tish mumkin. Tabiatni va jamiyat hayotini kompleks tarzda idrok qilish jonsiz tabiat bilan jonli tabiatning aloqasini tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarurligini tushunishga imkon beradi. Ekologik ta'limning maqsadlariga binoan, tabiatshunoslik eng muhim vazifalardan biri qilib, o'quvchilarning odamning tabiatga ko'rsatgan ta'siri bilan tanishtirishni, jamiyatning ma'naviy kuch manbai sifatida tabiat tushunchasini rivojlantirishini qo'yadi. Tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarda odamlar mehnatiga hurmat tarbiyalanadi, ularga zarur mehnat ko'nikmalari singdiriladi.

Bizga ma'lumki, o'quvchilar «Atrof-olam bilan tanishtirish» darslarida tabiat to'g'risidagi, atrof-olam to'g'risidagi dastlabki bilimlarni egallaydi. Tabiatshunoslik darslari ham ushbu bilimlarni mustahkamlovchi va davom ettiruvchi xususiyatga ega.

3-sinfda o'quvchilar uchta katta mavzu bo'yicha «Yoz va kuz fasllarida tabiatdagi o'zgarishlar», «Tabiatda qishki o'zgarishlar», «Tabiatda bahorgi o'zgarishlar»ni o'zlashtiradi. Jonsiz tabiatdagi o'zgarishlar, o'simliklar hayoti va ularni asrash, hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar va ularni asrash, kishilarning mavsumiy mehnat faoliyati bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi. Bu jarayonda turli yil fasllarida o'simlik va hayvonot dunyosi, ulardagi o'zgarishlar, shuningdek, qishloq xo'jalik ishlarining mazmuni, ta'siri bo'yicha bilimlarni egallaydi.

4-sinfda tabiat xususidagi dastlabki bilimlar kengaytiriladi. O'quvchilar Yer shari bilan tanishadi. Yerning shakli, nimadan tarkib topishi va boshqa belgilarini bilib oladi.

Yerning qazilma boyliklari haqida tushuncha beriladi. O'lkaning qazilma boyliklari bilan tanishib chiqish jarayonida ulardan to'g'ri foydalanish bo'yicha bilimlarni egallaydi.

O'quvchilarda Yerdagi tabiiy obyektlar haqidagi tushunchalarni shakllantirishda, albatta, obyektlarning joylashish o'rnini bilish ham muhim ahamiyatga ega. Eshitishida nuqsoni bo'lgan

o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar reja, globus va xarita bilan ishlashga o'rganadi. Xarita bilan ishlashda o'quvchilar geografik obyektlarning xaritadagi joylashishini eslab qolishda qiyinchiliklarga duch kelmasligi uchun xaritani o'qishga o'rgatiladi.

5-sinfda «Inson organizmi va uning sog'lig'ini asrash» mavzusi kiritilgan. O'quvchilar inson tanasi a'zolari va ularning joylashish o'rnini, vazifasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shaxs gigiyenasi, unga rioya qilish bo'yicha bilimlarni o'zlashtiradi.

6-sinfda Yerning tarkibiy qismlari bo'yicha bilimlar beriladi. O'quvchilar Yerning qattiq jismlardan tashkil topishi hamda ularning fizik xossalari (vazni, shakli, joylashishi, o'zgarishi) xususida bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'ladi. Suvning xossalari bo'yicha bilimlari kengaytiriladi.

O'quvchilar o'zlarining shahar yoki qishloqlarida qanday quyruq, suv havzalari, yashil ko'chatzorlar borligini va ularni ifloslantirish hamda shikastlanishdan qanday saqlashni bilib olishlari zarur.

Savollar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabining "Atrof-olam bilan tanishtirish" fanining asosiy vazifalarini sanab bering.

2. "Atrof-olam bilan tanishtirish" fanining korreksion vazifalari xususida so'z yuriting.

3. "Atrof-olam bilan tanishtirish" fanining yo'nalishlari xususida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?

4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabining "Tabiatshunoslik" kursi asosiy vazifalarini ayting.

5. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabi 3-sinfida "Tabiatshunoslik" fani bo'yicha qanday ma'lumotlar beriladi?

6. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabining 4-5-sinflarida "Tabiatshunoslik" kursining mazmunini yoriting.

7. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabining 6-sinfida "Tabiatshunoslik" kursi davomida o'quvchilarga qanday bilim, ko'nikma, malakalar beriladi?

8.4. Tabiatshunoslik dasrlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning tafakkuri va nutqidagi rivojlanish o'ziga xosligi bilan sog'lom tengqurlaridan farqlanib turadi. Kar va zaif eshituvchi bolaning atrof-olamni idrok etishida ushbu o'ziga xoslik o'z ta'sirini ko'rsatadi. Uning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari sog'lom bolaga nisbatan chegaralangan bo'ladi. Shuning uchun dastlabki davrda aniq tasavvurlar bilan qurollantirishning, boyitishning maxsus metodlari yordamida bilim darajasi yuqoriga ko'tariladi. Sog'lom, eshituvchi bola tug'ilgandan keyingi dastlabki yillardanoq og'zaki nutqni egallashga intilib boradi, tasavvurlarni umumlashtirishga o'rganadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda og'zaki nutq boshlang'ich pog'onadan kommunikatsiya vositasi sifatida shakllanadi. Sizga ma'lumki, og'zaki nutqqa o'rgatish o'quvchilar uchun birmuncha oddiy nutq shakli – daktil nutqqa o'rgatishdan boshlanadi. Lekin o'qituvchi bolalarga beradigan har bir so'zni daktil bilan birga og'zaki talaffuz etadi. Demak, o'quvchilar ta'limning birinchi kunlarida o'qituvchining og'zaki nutqini ikki shaklda: daktil va og'zaki shaklda qabul qilishga o'rganadi. Eshituv apparatini ta'limda qo'llash o'quvchilar o'qituvchi nutqini eshituv, ko'ruv orqali idrok etishiga yordam beradi. Muloqotga o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan til materiali o'zining asosiy qismi bilan daktil nutq uchun ham, og'zaki nutq uchun ham umumiydir. Og'zaki nutqqa o'rgatishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning talaffuz malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Og'zaki nutq eshitishida nuqsoni bor bolalar tomonidan qiyinchilik bilan egallanadi. Maktabda bu vositaga o'qitish birinchi kundanoq boshlanadi. Ayniqsa, tayyorlov sinfida og'zaki nutqni shakllantirish tilga o'qitishning umumiy sistemasiga kiradi. Eshitishida nuqsoni bor va zaif eshituvchi bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishda idrok etish jarayoni shakllantiriladi. Jumladan, eshituv idroki, ko'ruv idroki, taktil-sezgi idroki rivojlantiriladi. Og'zaki nutq eshituv va ko'rib eshituv idroki yordamida idrok

eshitishi eshitishida nuqsoni bor bolalar maxsus maktablarida keng qo'llaniladi. Barcha nutq materiali o'qituvchi tomonidan ovoz kuchaytirgich apparat yordamida og'zaki daktil, keyin daktilsiz beriladi.

Itiz yuqorida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirishning dastlabki bosqichlari haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'ldik.

Masalan, "Atrof-olam bilan tanishtirish" eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishga yordam beruvchi fandır. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar atrof-olamdagi jonsiz va tirik tabiat to'g'risidagi, insonlar faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni tushunib borar ekan, o'quvchilar mavzuga oid kerakli nutq materialini o'zlashtiradi va o'z-o'zidan og'zaki nutqi rivojlanadi. So'zni jonli predmet bilan bog'lash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Itizga ma'lumki, nutq dialogik va monologik nutqqa bo'linadi. Dialogik yoki so'zlashuv nutqi ikki yoki undan ortiq so'zlashuvchilar orasidagi fikr bayon qiluvchi nutq asosida yangi bilimlar o'zlashtiriladi. D.B.Elkonin «Bolaning faoliyati kattalar faoliyatidan ajralmagan», deb ta'kidlaydi. So'zlashuv nutqi o'quvchilarning kattalar bilan birgalikdagi faoliyatining bir qismi hisoblanadi.

Bunda bolalarning nutqi kattalarning savollariga javob berishdan iborat bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bor o'quvchilar maktabida so'zlashuv nutqiga alohida maxsus darslar ajratilmaydi, lekin maktab dasturida «So'zlovchi nutqini rivojlantirish» o'quvchilarni nutqiy kommunikatsiyalarning 5 xil ko'rinishi bo'yicha o'qitishni ko'rib chiqadi:

1. Murojaatni tushunish va buyruqni bajarish, iltimosni ifodalash.
2. O'qituvchi yoki tarbiyachining topshirig'i bo'yicha o'rtog'iga murojaat qilish.
3. Savollarga javob berish.
4. Bajarilgan ish haqida ma'lum qilish.
5. Dialogda qatnashish.

Masalan, 1-sinfda «Atrof-olam bilan tanishtirish» darslarida o'qituvchi «Gulga suv quy», «Qushga don ber» kabi iboralardan

foydalangan holda topshiriq beradi, o'quvchining topshiriqni bajara olishi so'zlashuv muloqotining rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. O'qituvchi so'zlashuv nutqiga o'qitishda og'zaki nutq bilan birgalikda daktil nutqni ham qo'llaydi. Daktil nutq yordamchi muloqot vositasi sifatida qo'llaniladi. O'qituvchi o'quvchiga «Olimning chelagini so'ra» topshirig'ini beradi (3-sinf. «Tabiatshunoslik», «Bahor faslidagi insonlar ish faoliyati» mavzusi, amaliy mashg'ulot). O'qituvchi topshiriqni bajarishda dialogik nutqdan foydalana olishi lozim. («Olim, menga chelak ber» tariqasida).

O'qituvchi o'quvchiga savollar bilan murojaat etishi mumkin. «Hozir qanday fasl?», «It qanday hayvon?», «Nima uchun qor yog'di?», «Nima sababdan barglar sarg'aydi?» kabi.

Bajarilgan ish haqida o'qituvchiga axborot berish o'quvchining og'zaki so'zlashuv ko'nikmasini qay darajada egallaganiga bog'liq.

«Bugun sen nima qilding?», «Bugun men darsda piyoz ekdim» (kichik sinf o'quvchisi og'zaki daktil holda bayon etadi).

O'qituvchi o'quvchilarni dialogda faol ishtirok etishga undaydi, muammoli vaziyat usulini to'g'ri qo'llay oladi.

Demak, eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarga tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida og'zaki, so'zlashuv nutqi shaklantirilib, rivojlantirilib boriladi.

Nutq faoliyatining eng murakkab shakllaridan biri – bog'lanishli nutq o'qigan matn mazmunini og'zaki yoki yozma holda bayon etish bog'lanishli nutqning asosiy ko'rinishidir.

Insho esa bog'lanishli nutqning yozma ijodiy shakli hisoblanadi.

Bog'lanishli nutqning bu ikki shakli ham nutq o'stirish, nutqni adabiy so'zlar bilan boyitish hamda bolalarning tafakkurini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

O'quvchilar o'qilgan asos yoki kuzatilgan narsa hamda voqea-hodisalar yuzasidan berilgan savollarga kengaytirib, to'liq javob berishda javoblarning mantiqiy tomoniga ahamiyat berib, uni kichik hikoya tarzida ifodalashga, o'qilgan hikoya, kuzatilgan narsalardagi asosiy tomonlarni ajrata bilish va ularni aniq so'zlar bilan gapirib bera olishga o'rgangan bo'lishi kerak. Eshitishida

maqsadi bo'lgan bolalar maktab dasturida bog'langan nutqni rivojlantirish dasturi mavjud bo'lib, undagi nutqiy material barcha darajalar uchun majburiydir.

1. Muloqotni tushunish, buyruqni bajarish, xohish, istak bildirish, iltimos qilish.

2. O'z xohishiga ko'ra sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish

3. Savollarga javob berish.

4. Hajmli yoki bajarilmoqchi bo'lgan ish haqida hisobot berish.

5. Dialogda qatnashish.

Ushbu bilimlarni amalga oshirish esa quyidagi omillarga asoslanadi.

1. Bog'langan nutqning tarkibidagi undov va buyruq gaplar aniq, aniq bo'lib, insonning aniq harakat qismi bilan bog'liqdir.

2. Bog'langan nutqda qo'llangan undov va buyruq gaplar nutqning impressiv shaklini shakllantirishga imkon beradi.

3. Undov gaplarning yana bir ahamiyati: o'quvchilar ularni tez eslab qoladi, chunki ular tarkibida doimiy aniq grammatik kategoriyalar qo'llaniladi (ot, fe'l).

Misalan: kar bolalar uchun mo'ljallangan dastur mazmuniga binoan, "Atrof-olam bilan tanishtirish" fanida tayyorlov sinfi o'quvchilari (tabiatdagi o'zgarishlar, jonli va tirik tabiatni kuzatishlar natijalarini aniqlashtirishga, ekskursiya haqida so'zlab berishga, kurak predmetini ta'riflab berishga o'rgana boradi).

Tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda kar bolalarning lug'at boyligi oshirilib, rivojlantirib boriladi. O'qituvchi istalgan fan bo'yicha darsni rejalashtirganida, nafaqat darsning mazmunini aniqlashtiradi, balki ta'lim jarayonidagi nutqiy materialni o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni ham ajratib ko'rsatadi. Bu nutqiy material (tanlash) berilgan fan bo'yicha dastur asosida va o'zlashuv nutqini rivojlantirishda rejalashtiriladi. Nutqiy materialni tanlashda E.E.Vishnevskayaning metodik ko'rsatmalari asosida yondoshiladi. U dars mazmuniga ko'ra, birmuncha keskin nutqiy materialni tanlashni taklif etadi. Tabiatshunoslik darslarida tushunchalarning shakllanishi, kiritilgan bilim va malakalarni qayd etish uchun kerak bo'lgan materialni bir necha guruhlariga ajratib ko'rsatadi.

Ikkinchi guruh o'qituvchi tomonidan beriladigan, so'zlashuv nutqini rivojlantirishga qaratilgan nutqiy material tanlanib ko'rsatilgan.

Masalan, "Tabiatshunoslik" fanida 3-sinfda "Hayvonlar" mavzusi berilgan. Ushbu mavzu bo'yicha o'qituvchi nutqiy materialni quyidagi guruhlar bo'yicha tayyorlab ko'rsatadi.

3-jadval

So'zlashuv nutqini tanlash		
<p>1-guruh Mavzuga oid tushuncha va tasavvur iboralar</p>	<p>2-guruh O'qituvchi va o'quvchi muloqoti uchun iboralar</p>	<p>3-guruh O'quvchilarning o'zaro murojaati uchun mo'ljallangan</p>
<p>Hayvonlar, uy hayvoni, it, ot, sigir, mushuk. Sigir sut beradi, o't yeydi. Mushuk sut ichadi. It suyak g'ajiydi. Yungi momiq, miyovlaydi, sut ichadi, oq-qora, kulrang bo'ladi. Shu kabi.</p>	<p>O'quvchilar: – Biz nima qilamiz? – Menga kitob bering. – Menga oq, jigarrang, qora qalam bering. – Iltimos, mening ishimni ko'rib bering. – Men chiqib bo'ldim. O'qituvchi: – Menga savol bering. – Olim, senga nima kerak? – Menga ko'rsating. – Nima uchun uy hayvoni? – Ayting.</p>	<p>Navbatchiga: – Iltimos, tabiat kalendarini to'ldiring. – Kuzatuv daftarini bering. O'rtog'iga: – Senda qizil qalam bormi? – Sen nima qilding? – Menga yordam ber. – Mendan oladi.</p>

Nutqiy materialni bunday tanlash va rejalashtirish o'qituvchiga, nafaqat tushuncha va tasavvurlarni bolalarda shakllantirishga, balki nutqiy muloqotni rivojlantirishga ham yordam beradi. Darsga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi nutqiy material uchun keltirilgan mexanikani ham o'ylab chiqadi. Darsdan so'ng bu material maxsus stendda yo'nalish kabi saqlab qolinadi.

Ikkinchi va uchinchi guruhga tegishli bo'lgan nutqiy materialni tayyorlashda o'qituvchi nutqiy lug'atni doskaga yoki plakatga yozadi. O'qituvchi o'zining so'z muloqoti uchun zarur topshiriqlarni individual o'qish uchun maxsus kartochkaga yozadi. So'zlovchi nutqida ha'zi umum foydalanuvchi so'z va iboralardan

dara davomida foydalanishi mumkin. Eshitishda nuqsoni bor o'quvchilar uchun asosiy qiyinchiliklar so'roq gaplar bilan murojaat qilishda ko'rinadi. Tabiatshunoslik darslarida boy tabiiy materialga ega bo'lganligi sababli o'quvchilarda so'zlashuv muloqotiga kirishish zarurati tug'iladi. Demak, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda ularning barcha nutq shakllari rivojlantiriladi. Shuningdek, lug'at boyligi oshiriladi, rivojlantiriladi. Tabiatshunoslikni o'qitishning korreksion rivojlantiruvchi vazifasi hal etiladi.

Tabiatshunoslik tasavvurlari va tushunchalarini shakllantirishda tafakkur va nutq muhim rol o'ynaydi. Ko'pincha, kichik maktab yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tabiatni kuzatib, xulosa chiqara olmaydi, bajargan ishlarining mazmunini aytib bera olmaydi, kuzatishlarini amaliy tajriba, darslik matni bilan bog'lashga qiynaladi, o'rganilgan mavzuni bayon etib bera olmaydi.

Shuning uchun ham tabiatshunoslik darslarida foydalanish uchun o'qituvchi aqliy ishning muayyan shakllariga – tahlil va sintezga, induksiya va deduksiyaga, eng muhim belgilarni ajratishga, umumlashtirishga, fikr yuritish bo'yicha masalalarni yechishga, sabab va oqibat bog'lanishlarini aniqlashga, taqqoslash va qarama-qarshi qo'yishga tayanishi kerak. O'quvchilar, ko'pincha, narsalarning, hodisalarning ahamiyatli belgilarini ajratishga qiynaladi, shu sababli bu ishni kuzatishlar bilan bog'lash yoki o'quvchilarning tasavvurlariga asoslanib, yoki xotiralari bo'yicha o'tkazish zarur.

Kuzatishlar muntazam ravishda xilma-xil materialda olib boriladi. Gul va uning tabiatda tovlanishini kuzatish ham o'quvchilarda qiziquvchanlikni tarbiyalashda, o'rab turgan olamni ko'ra bilish va qabul qila olishga yordam beradi. Bularning tutehisi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'minlovchi bazadir.

Tabiatshunoslik darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqini rivojlantirish

Nutq, birinchi navbatda, ichki va tashqi nutqqa bo'linadi. Ichki nutq insonning o'z ichiga murojaat etgan nutqdir. U gapirilmaydi ham, yozilmaydi ham. Ichki nutqda, asosan, alohida

soʻz va iboralar qoʻllaniladi. Ichki nutq doirasida bolalar yangi bilimlarni oʻzlashtiradi, material yuzasidan fikr yuritadi va ogʻzaki soʻz yuritish hamda matn yozishga tayyorlanadi, xayolda gap tuzadi, gapiradi, soʻngra gapiradi yoki yozadi. Bunday tayyorgarlik natijasida oʻquvchilar nutqining sifati yaxshilanadi. Shuning uchun oʻquvchi bolalarga gapirish yoki yozishdan avval tayyorlanishni, gapirish yoki yozishdan oldin gapiradiganlarini oʻylab koʻrishni, kerakli soʻzlarni tanlashni, gaplarni tuzishni tavsiya qiladi.

Tashqi nutq boshqalarga murojaat etiladigan nutqdir. Tashqi nutq tovushlar yoki grafik belgilar vositasida ifodalanadi. Tashqi nutq ikki tomonlama faoliyat boʻlib, nutqiy fikrlarni bayon etuvchi va qabul qiluvchilarning mavjud boʻlishini nazarda tutadi. Bayon etuvchi gapiradi yoki yozadi, qabul qiluvchi oʻqiydi yoki eshitadi.

Tashqi nutq dialogik yoki monologik boʻlishi mumkin.

Dialogik yoki soʻzlashuv nutqida ikki yoki bir necha suhbatdoshlar orasidagi fikr-mulohazalarning yuritilishi nazarda tutiladi. Hayotning dastlabki yillarida yaxshi eshituvchi bolalar dialogik nutq negizida ona tilini oʻzlashtiradi.

Bolalarning nutqi kattalar tomonidan berilgan savollarga javoblardan, turli faoliyat chogʻida kelib chiqqan qiyinchiliklarni yengish va oʻz istaklarini qondirish maqsadida, bolalarning kattalarga bergan savol va istaklaridan tashkil topgan.

Nutqiy muloqot bolalar tomonidan har xil gap turlari oʻzlashtirilishi bilan, asosan, taqlid qilib oʻzlashtirilgan undov gaplar egallanishi bilan boshlanadi. Keyinchalik bolaning nutqida soʻroq va darak gaplar paydo boʻladi.

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarga til oʻrgatish ham dastlab dialogik nutqni rivojlantirishdan boshlanadi. Sababi dialogik nutq oʻzlashtirish jihatdan osonroq va oʻzaro muloqot oʻrnatish jihatidan qulayroq hisoblanadi.

Dialogik nutqning xususiyatlari F.S. Vigotskiy, A.A. Leonev, A.R. Luriya, A.K. Markova, O.B. Sirotinina, L.V. Xerba, L.P. Yanubinskiy va boshqa psixologlar hamda tilshunos olimlar tomonidan oʻrganilgan.

Dialogning asosiy belgilari suhbatdoshlarning navbatma-navbat gapirishidan iborat boʻlib, har bir keyingi gap oldingi gap

bilan bog'lanadi. Gaplar almashuvi bevosita mavjud bo'lgan vaziyat bilan bog'liq bo'lib, oldindan o'ylab ko'rmasdan va rejalashtirmasdan amalga oshiriladi. Dialogik yoyiq gaplardan foydalanish zarurati bo'lmaydi, **chunki** dialogik mazmuni mavjud bo'lgan vaziyat, ohang, imo- ishoralar bilan to'ldiriladi.

Dialogik nutq turli faoliyat jarayonida vujudga kelib, kattalar va bolalar hamkorligidagi faoliyatda rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib faoliyat ko'rsatish chog'ida nutq murakkablashib boradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini o'stirish maqsadiga ma'lum vaziyatda paydo bo'ladigan dialog va suhbat sizmat qiladi. Suhbat ma'lum maqsad va mavzu doirasida o'zlashtirilgan dialogdir. Suhbatda qisqa gaplar bilan bir qatorda, keng boshlanishli xabarlar ham ishlatiladi. Dialog bolalar tomonidan dastlab o'zlashtiriladigan sodda uslubdir.

Muloqotga kirishishni o'rganish jarayonida bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan lug'aviy material daktil hamda og'zaki nutq uchun umumiy, daktil nutqdagi barcha material og'zaki nutqni ko'ray, eshituv orqali qabul qilish uchun ham zarur hisoblanadi. Lekin og'zaki nutqqa o'qitishning ikkinchi yo'nalishi o'quvchilarda talaffuz shakllarini shakllantirish ham mavjud. **Ish** ikki yo'l orqali amalga oshiriladi. 1. Bolalarga daktil nutq materialini og'zaki talaffuz qilishga undash bilan bog'liq. Ushbu bolalar o'quvchilarda nutq harakat apparatining faollashishiga va so'zlarning to'g'ri talaffuzga yaqinlashishiga o'rgatish uchun sizmat qiladi. 2. Talaffuzga o'rgatish sistematik ishni o'z ichiga oladi. Lekin bu holda nutqning shakllanishida muloqot vositasi bo'lib qolaveradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida so'zlashuv nutqiga o'rgatish maxsus dars sifatida dars jadvaliga kiritilmagan, lekin boshlang'ich sinflardagi barcha o'quv fanlarining mazmuni oshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tilga o'qitish tizimi va tamoyillariga binoan, ularning so'zlashuv nutqini rivojlantirishga qaratilgan.

1-4-sinflarda nutqning dialogik shakliga quyidagi talablar qo'yiladi. Shu sinflar uchun mo'ljallangan dasturda nutq faoliyatining 5ta muloqot turi amalga oshiriladi.

1. Bola o'qituvchining berayotgan savol, vazifa, topshiriq, murojaatini fushunishini va bajarishi kerak.

2. O'quvchi o'qituvchiga, do'stlariga dialog shaklida murojaat qilishi kerak (savol, iltimos, istak bilan).

3. O'quvchi savol berishi va boshqalarning bergan savollariga javob berishi (har qanday mavzuda) kerak.

4. O'zining bajargan ishi to'g'risida axborot berishi lozim.

5. Hamma mavzudagi dialogda ishtirok etishi zarur.

Dialog tarkibida beriladigan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki so'zlashuv nutqini tashkil etgan barcha gaplar, asosan, muloqotga undovchi mazmunni tashkil qiladi va ular quyidagi talablarga javob beradi.

1. Berilayotgan gap sodda va aniq inson faoliyati hamda xatti-harakatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

2. Berilayotgan gap mazmunini bolaning kundalik hayotida uchraydigan narsa va hodisalar tashkil etadi.

3. Berilayotgan gaplar bolaning impressiv nutqini rivojlantirishi, o'ziga qaratilgan nutqni diqqat bilan qabul qilishi kerak.

4. Berilayotgan gaplarni o'quvchilar oson va tezda eslab qoladi.

Sanab o'tilgan vazifalar 1-4-sinlarda so'zlashuv nutqini rivojlantirish dasturida va daktil nutq buzilishida tayyorlov sinflarida amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Kar bolalar maktablariining tayyorlov sinflarida o'quvchilar kommunikatsiya tamoyiliga asosan, daktil nutq shakllarida o'qitiladi. 1-4-sinlarda bu og'zaki shakllarda olib boriladi. Yil sayin o'qitish bolalarning nutqiy faolligini rivojlantiradi va pedagoglarning ular o'rtasida muloqot yuritishi uchun bajarayotgan rolining ancha kamayishiga olib keladi.

Tabiatshunoslik darslarida so'zlashuv nutqi materialini tanlash va o'quvchilar nutqiga kiritish

Kommunikativ tizimning muallifi S.A. Zikov «Kar bolalarga tilni o'rgatish ishini tashkil etish va nutqiy materialni tanlash» da asosiy pedagogik talablarni ilgari suradi:

1. Tilni muloqot vositasi sifatida, ya'ni uni qo'llash chog'ida, amalda, dialoqlarda o'rgatish.

2. Bolalarda so'z vositalarini qo'llash ehtiyoji va ixtiyorini ta'biylashtirish.

3. Nutqiy sharoit va muhitni yaratish hamda uning rivojlantiruvchi salohiyatini o'stirish.

4. Bolalarning jamoa bo'lib amaliy faoliyatini rivojlantirish sharoitida tilni o'zlashtirishini ta'minlash.

5. O'zaro muloqotda va o'qituvchi bilan bo'lgan muloqotda nutqning turli shakllarini qo'llashga o'rgatish.

6. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy muloqotini rivojlantirish uchun dastlabki bosqichdan daktilologiyani qo'llash, talaffuz va yozuv malakalari rivojlanishi bilan daktil nutqni yordamchi vosita sifatida ishlatish.

7. Nutqiy materialni dastur talablariga muvofiq, bolalar imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlash.

8. Muloqotda qo'llaniladigan nutqiy materialni og'zaki nutq, leksika va sintaksisga yaqinlashtirish, ya'ni, birinchi navbatda, to'liqsiz gaplarni, namunaviy so'roq, undov, darak gaplarni berish.

9. Beriladigan nutqiy material bolalarning talaffuz imkoniyatlari, so'zlarning tovush-harf tuzilishiga bog'liq bo'lmasligi kerak.

10. Beriladigan nutqiy material pedagog bilan birgalikda, pedagog ketidan, mustaqil (namuna asosida) gapirish vositasida kiritiladi. So'z ma'nosi, ularning yasalish usullarini ko'rsatish talab etilmaydi.

11. So'zlar ma'nosini aniqlashtirish va umumlashtirish maqsadida bir xil so'zlarni turli gaplarga kiritish.

E.E. Vishnevskaya bu borada o'zining muhim taklifini kiritgan. Dars uchun tanlangan nutqiy materialni u 3 guruhga ajratadi.

1. Olingan bilimlarni, tushunchalarni mustahkamlash uchun quyidagi ifodalar predmet amaliy ta'lim darslarida ishlatiladi: materiallar, applikatsiyalar, qurollar, harakat nomlari va ular bilan bajariladigan xatti-harakatlarni ifodalovchi so'zlar.

2. O'quvchi va o'qituvchining muloqotlari kiritiladi: topshiriq

berish, so‘zlashuv muloqotiga undash, o‘quvchilar ishlariga baho berish, yordam so‘rash, iltimoslar va hokazo talablar.

3. O‘quvchilarning bir- biri bilan muloqoti, yordam berish to‘g‘risidagi iltimos, o‘rtog‘ining ishiga baho berish va hokazo.

Dastlabki bosqichda so‘zlashuv nutqni o‘stirish chog‘ida qo‘llaniladigan uslublar bolalarning yoshi xususiyatlariga o‘zlashtiradigan nutqiy material dastur vazifalariga mos keladi. Bunda, birinchi navbatda, darslarda yakkama-yakka mashg‘ulotlarda, darslardan tashqari paytda, kun davomida, erkin faoliyatda yuzaga keladigan tabiiy vaziyatlardan foydalaniladi. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan bolalarni gapirishga undaydigan, hissiyotiga ta’sir qiladigan maxsus vaziyatlarni yaratadi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning tabiatshunoslik darslarida so‘zlashuv nutqini rivojlantirishda dastur talablari asosida, fanlararo bog‘liq ustunlarini o‘rnatgan holda olib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. «Tabiatshunoslik» fanidan berilgan nutq materiallari «Nutq o‘stirish», «Matematika», «Ona tili», «Predmet amaliy ta’lim», fanlarida takrorlanib, mustahkamlanib borilishini yanada jadallashtirish lozim. Shuningdek, fan o‘qituvchisi sinf rahbari, dars olib boruvchi o‘qituvchi, tarbiyachi, ota-ona hamkorligidagi ishlarni bir tizimga solish zarurligi maktab-internetlarning bosh masalasiga aylanmog‘i lozim. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning tabiatshunoslik darslarida so‘zlashuv nutqini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning tabiatshunoslik darslarida so‘zlashuv nutqini rivojlantiruvchi topshiriq va savolli kartochkalarini qo‘llash. Og‘zaki savol va topshiriqni tushuna bilish ularning nutqini o‘stirish bo‘yicha dastur talabidir. Ayni paytda topshiriq va savollar o‘yini bolalar so‘zlashuv nutqini faollashtirish va mustaqillashtirish vositasidir. Topshiriq matnlariga bolalar har xil sharoitlarda yangi so‘zlar kiritadi.

Bu o‘yinlar daktil va og‘zaki usulda berilgan, zalda jadvalchaga yozilgan topshiriqlar yordamida olib boriladi.

Savollar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqning o'rni ko'rsating.
2. Og'zaki nutq nima?
3. Tashqi va ichki nutq turlari xususida nimalarni bilasiz?
4. Tabiatshunoslik darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning dialogik, ya'ni so'zlashuv nutqini rivojlantirish xususida gapiring.
5. Tabiatshunoslik darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqini rivojlantirish usullarini to'liq kiriting.
6. Tabiatshunoslik darslarida nutqiy material qanday turlanadi?

8.5. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirish

Fikrlar hukmlar tarzidagina emas, balki atrofimizdagi olam va hayot to'g'risidagi tushunchalar tarzida ham shakllanadi. Tushuncha narsalar to'g'risida, ularning xususiyatlari, holatlari, bog'lanishlari va munosabatlari to'g'risida bir-biri bilan bog'langan hukmlardan hosil bo'ladi.

Tushunchaning ikki turi bor: aniq (konkret) tushuncha; mavhum (abstrakt) tushuncha.

Narsa va hodisalarning o'ziga taalluqli bo'lmasdan, balki narsa va hodisalardan fikran ajratib olingan ayrim xususiyat, sifat va holatlarga, shuningdek, ayrim narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlar va bog'lanishlarga taalluqli bo'lgan tushunchalar deyiladi. Hamma tushunchalar tajribalar asosida hosil bo'ladi, shu sababli hamma tushunchalar: konkret tushunchalar ham, abstrakt tushunchalar ham idrok va tasavvur asosida tashkil topadi.

Tushuncha va so'z. Tushuncha bilan so'z bir-biriga chambarchas bog'langandir: so'zsiz tushuncha bo'lishi mumkin emas. So'z tushunchaning moddiy ifodasi va tayanchidir. Tushunchalar bir yoki bir nechta so'z bilan ifodalanadi.

Soʻzlar va belgilar faqat tushunchalarning ifodasigina boʻlib qolmasdan, shu bilan birga, tushunchalar hosil qilish uchun ham vosita boʻladi.

Tushunchalar hosil qilishda fikrlashning asosiy jarayonlari boʻlgan umumlashtirish va abstraktlash faqat soʻzlar yordami bilangina roʻyobga chiqishi mumkin. Soʻzlar, atamalar tafakkur jarayonlarida tushunchalarning mazmunini ifodalaydi, ongda tushunchaning vakili boʻlib xizmat qiladi, soʻz birligi signal sistemasi hamma signallarining signalidir: shu signallarning hammasini ifodalaydi va umumlashtiradi.

Har bir soʻz muayyan mazmunni va muayyan hajmdagi tushunchani ifodalaydi. Shu sababli soʻzlar aloqa qilishga va tushunchalarni anglab olishga xizmat qiladi. Har bir tushuncha soʻzlar vositasi bilan boshqa shaxslarga bildiriladi. Tushunchalarni hamma anglab olishi mumkin.

Tabiatshunoslik tushunchalari – umumiy muhim belgilari bilan birlashtirilgan obyektlar, hodisalar, jismlarning butun guruhi toʻgʻrisidagi umumlashgan bilimlar hisoblanadi. Masalan: «Oʻsimliklar» tushunchasiga barcha oʻsimliklar uchun umumiy boʻlgan muhim belgilari bilan bir guruhga birlashtirilgan har xil narsalar kiradi. Ularning hammasi oʻsadi, rivojlanadi, nafas oladi, koʻpayadi, yaʼni tirik organizm hisoblanadi. Biroq tushunchalarni tasavvurlardan farq qila bilish kerak.

Tasavvur – sezgi organlari faoliyatining, xotiraning mahsuli.

Tushuncha tafakkur mahsuli hisoblanadi. Tushunchalar xabar qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga keladi. Masalan, qushni tasavvur qilish uchun unga qarash kifoya. Usha qush toʻgʻrisida tushuncha hosil qilish uchun esa aniq bilimlar va ularni tizimlashtirish boʻyicha fikrlash kerak boʻladi. Tushunchalar oʻzida butun sinfga taalluqli umumlashgan mazmunni aks ettiradi. «Barg» tushunchasi daraxt, buta, oʻsimliklarda oʻsadigan hamma barglarga taalluqlidir. Tasavvur tushunchalarning sezgili asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar oʻrtasida keskin chegara yoʻq. Tasavvurlar narsalarning muhim xususiyatlarini tobora koʻproq aks ettirib borishi bilan umumlashadi hamda tushunchalarga aylanadi.

Ayni vaqtda tushuncha o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. U yoki bu narsa yoxud tabiat obyektlari to'g'risida tasavvurlarning bo'lishi ular to'g'risidagi tushunchalardan dalolat bermaydi. Tushuncha ko'pgina ayrim hodisalarning muhim belgilari sifatida hosil bo'ladi.

Yuqorida bu tushunchalarni aniq va mavzuli tushunchalarga ajratib, ta'rif berdik.

Tabiatshunoslik kursida tushunchalar umumlashtirish va mavhumlashtirishning darajasi bo'yicha bir xildir. Ularning asosiy farqlari:

- 1) mazmuni;
- 2) hajmi;
- 3) shu tushunchaning boshqa tushunchalar bilan bog'lanishi va munosabatidir.

Mazmun tushunchalarning eng muhim belgilari bilan xarakterlanadi. Tabiatning eng muhim belgilarini ajratish uchun «belgi» va «eng muhim belgi» ni farqlash zarur. N. I. Kondakov: «Belgi narsa yoki hodisalarning ko'rsatkichi, tomonidir, ularga qarab narsa va hodisalarni tanlab olish, aniqlash yoki ta'riflash mumkin. Eng muhim belgi shunday belgiki, unda narsaning tub tabiati ifodalanadi, shu bilan boshqa tur va guruhdagi narsalardan farqlanadi... Agar bu belgi mustasno qilinsa, bunday tushuncha parchalanadi, mavjud bo'lmay qoladi», deb ta'kidlaydi.

Mazmuni bo'yicha tushunchalar oddiy va murakkabga bo'linadi. Masalan, quruqlik yuzasining shakllari – murakkab tushuncha. Uning eng muhim belgilari: tekis yuza (tekislik) ning ko'tarilgan (tepalik, tog'lar) pasayganligi (tog', oraliq jarlik)dir. Shu paytning o'zida tepalik – oddiy tushuncha; uning eng muhim belgilari: cho'qqili, va yon bag'irli.

Tushunchalar hajmiga qarab alohida va umumiy bo'ladi. Masalan, tabiatshunoslik kursida «O'z o'lkamizning tabiati», «Tabiatda mavsumiy o'zgarishlar» tushunchalarini umumiy deb atash mumkin, ular hissiy qabul qilishlar bilan bog'liq va alohida tushunchalar, umumiy tasavvurlardan iborat.

Alohida va umumiy tushunchalar ham geografik, biologik kelib chiqishga ega bo'lishi mumkin.

Geografik tushunchalar. Alohida (Toshkent) va umumiy (tog'lar, foydali qazilmalar) tushunchalarga, biologik tushunchalar tur (chittak, lola, archa, avlod, hayvonlar, bargli o'simliklar) tushunchalarga bo'linadi.

Tabiatshunoslik darsida o'quvchilar «tabiat», «jonsiz tabiat», «jonli tabiat» kabi tushunchalar bilan tanishadi.

Tushunchalarning eng muhim belgilari sistemalashtirishning asosi bo'ladi. Masalan, «jonsiz tabiat» tushunchasi shunday eng muhim belgilarga egaki, ularni kichik maktab bolalari ham aniqlab olishi kerak: jonsiz tabiat ovqatlanmaydi, o'smaydi, nafas olmaydi. Bu tushunchalar keyinchalik tabiatshunoslikni o'rganishda chuqurlashadi va kengayib boradi.

Bundan tashqari tabiatshunoslik tushunchalari yakka holda ham bo'ladi. Yakka tushunchalar boshqa narsalar, hodisalarga xos bo'lgan yakka belgilardir. Agar umumiy tushunchalar atamalar bilan mustahkamlansa, yakka tushuncha nom yoki shaxsiy ism bilan ifodalanadi, chunki uning nomida boshqa obyekt bo'lmaydi. Eshitishda nuqsoni bor o'quvchilar etiborini obyektning umumiy tushuncha bilan bog'lanishiga qaratmoq, ya'ni obyektning yakka xususiyatini ma'qullamoq zarur; agar u geografik obyekt bo'lsa, unda obyektga fazoviy xarakteristika berish, ya'ni joylashish o'rnini xaritadan aniqlash lozimdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tabiatshunoslik tushunchalari dastur talabiga ko'ra olinadi.

Ma'lumki, birlamchi nuqson ikkilamchi nuqsonni yetaklab keladi. Eshitishdagi nuqson bolaning bilish faoliyatining rivojlanishiga ham hilvosita va bevosita ta'sir qiladi. Rus ruhshunosi L. I. Ivanovning fikricha, «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Odam nutqi bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa, fikrlay olmaydi. Tafakkur bo'lmasa, nutq, til bo'lishi mumkin emas». L.I. Ivanovning yuqoridagi fikridan ko'rinib turibdiki, insonning ruhiy rivojlanishida nutq va tafakkur jarayonlari bir-biriga chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqotchilar R.M.Boskis, I.M.Solovyev, I.I.Tigranovanning fikrlaricha, nutqning rivojlanmasligi qator salbiy omillarni; atrofni idrok etish, ko'rgazmali va so'zli materialni eslab qolish, tafakkur

operatsiyalarining rivojlanishiga xalaqit beradi. Bolaning qaysi vaqtda (ya'ni necha yoshda) eshitishda nuqsoni bo'lgani, qaysi darajada ekanligi ham bola tafakkur operatsiyalarining rivojlanishiga ta'sir etadi.

Olimlarning fikriga ko'ra, yetti yoshli sog'lom bolada fikrlash tafakkuri shakllangan holatga ega bo'lar ekan.

Demak, tushunchalar fikrlash jarayonidir. Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirish ularning tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Chunki eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom tengqurlariga qaraganda nutqining shakllanishi va yaxshi rivojlanishi, atrof-olam xususiyatlari haqida birmuncha kechroq tushunchaga ega bo'lishlari aniqlandi. Ya'ni eshitish nuqsoniga ega o'quvchilarning nutqi hamda oliy bilish jarayonlari orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari taqqoslash, analiz, sintez qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarishda oqsaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqni egallaganlariga qadar uzoq muddat ko'rgazma – obrazli tafakkur turi bilan fikrlaydi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, tushunchalar eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda juda sekinlik bilan shakllanib boradi.

Tabiatshunoslikda berilayotgan o'quv materialini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishda qiyinchiliklar ko'p hollarda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda kuzatiladi. Darsda bir mavzu bo'yicha shakllantirilgan tushunchalar keyinchalik rivojlantirilmaydi va boshqa tushunchalar bilan bog'lanmaydi. Jumladan, tabiatshunoslik tushunchalarining hosil bo'lishi muayyan metodik sharoitlarda amalga oshadi. Tushunchalarning birlamchi tarzda bo'lishida obyektlar va ko'rgazmali materiallarning har xil turlari:

- mantiqiy savollar;
- jadvallar;
- sxemalar;
- suratlar;
- tezis tipidagi kartochna- topshiriqlar;
- raqamli dasturlashtirilgan topshiriqlar;

- dasturlashtirilgan didaktik kartochkalar;
- mavzuga oid o'yinli mashqlar;
- ta'limiy o'yinlar.

1. O'quvchilarni faol fikrlashga tayyorlashda o'qituvchining savollari katta ro'l o'ynaydi. Tabiatshunoslik darslarida darslik matnini tiklashda tahlilni, sintezni, umumlashtirishni talab qiluvchi savollar berish kerak.

Masalan: Nima uchun yozda qor bo'lmaydi?

Dasht va cho'l tabiatining o'xshashligi nimada?

Nima uchun qishda meva pishmaydi?

2. Tushunchalarni rivojlantiruvchi savollar majmuasi tabiiy narsalarni ularning jadvaldagi tasviri bilan taqqoslashni, sxemalar tizishni, doskada ularni rasm va gerbariyalar bilan uzviylashtirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar jadvaldan foydalanib, o'simlik va hayvonlarning tashqi xususiyatlarini taqqoslaydi, ularning har xil tabiiy sharoitda yashashga qanday moslanganligini aniqlaydi.

3. Shunga o'xshash faoliyat o'qituvchi tomonidan ilib qo'yilgan jadvallarni to'ldirish bo'yicha ham o'tkaziladi. Jadvallar taqqoslash va umumlashtirish uchun sinfda va uyda to'ldirilishi mumkin. Solishtirma jadvallardan sinfdagi amaliy ishlarda, tirik tabiat burchagida hamda maktab o'quv-tajriba maydonchasida tajribalar o'tkazishda foydalaniladi.

4. Tezis tipidagi kartochka-topshiriqlar.

Muayyan nomerlangan kartochkada tabiatshunoslik obyekti (o'simlik, hayvonlar)larining nomi keltiriladi.

O'quvchilar javoblarida kerakli o'simlik yoki belgining nomini yozmaydi, faqat tegishi raqamni belgilaydi.

Mavzu: O'simlikshunoslik (3-sinf).

Topshiriq: a) mevali daraxtlarni; v) manzarali daraxtlarni;
d) butalarni; e) o't o'simliklarni sanab bering.

Tezislar

1. Suv qalampiri
2. Na'matak.
3. Qoqio't.
4. Chinor.

5. Zubtutum.
6. Yasmin.
7. Jiyda.
8. Akatsiya.
9. Qora gilos.
10. Siren.
11. Ligustum.
12. Baqaterak.
13. Olma.
14. Tut.
15. Shaftoli.

Javoblar: a) 7,9,13,15 v) 4,8,12,14 d) 2,6,10,11 e) 1,3,5.

5. Raqamli dasturlashtirilgan topshiriqlar.

Raqamli topshiriqlarda ish individual kartochkalar yoki tayyorlangan devoriy jadval bo'yicha olib boriladi. Kartochkada topshiriq ko'rsatiladi va javoblarga kalit beriladi. O'quvchi zarur kullini topishi dukor. Raqamli dasturlashtirilgan ishlarni faqat tabiiy obyektlarning tushqi helgilari haqidagi bilimlarni nazorat qilish uchungina emas, balki birmuncha murakkabroqlarini tekshirish uchun ham tavsiya qilish mumkin.

Ma'lum tabiiy xarita bo'yicha (4- sinl) aniqlovchi topshiriqlar tuzish mumkin.

Topshiriq:

1. Daryoning boshlanishi joyi.
2. Daryo oqimi chuqurligi.
3. Daryoning boshqa daryoga, ko'lga, dengizga quyiladigan joyi.
4. Quyiladigan joyiga ega bo'lmagan daryo.

Javoblar: 1. Amudaryo. 2. Sirdaryo. 3. O'zani. 4. Boshlanishi. 5. Zarafshon. 6. Quyiladigan joyi.

5. Dasturlashtirilgan didaktik kartochkalar.

Bunday dasturlashtirilgan kartochkalar o'rganilgan mavzuning variantlari bo'yicha tuziladi.

Kartochkada savol-topshiriq va unga uchta: to'liq va to'g'ri, noaniq, noto'g'ri javoblar berildi. O'quvchi daftariga kartochka nomeri va qavs ichida javob nomerini yozishi kerak.

Masalan:

Nima uchun qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi?

1. Chunki sovuq bo'ladi.
2. Ular yeydigan ovqat yo'q.
3. Chunki sovuq bo'lib qoladi va ochlik boshlanadi.

To'g'ri javob: 3.

O'yin o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan tirishqoqligini ularda o'quv jarayoni davomida ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirish bilan kuchaytiradi. O'qituvchi A.S. Makarenkoning «Yaxshi o'yin yaxshi ishga o'xshaydi» degan gaplarini eslagan holda, o'yinni dars jarayonida mahorat bilan ishlatishi lozim.

Topishmoqni ishlatish namunasini keltiramiz:

Yalang'ochdir, tushsa sovuq,

Kiyim kiyar bo'lsa issiq. (daraxt)

Bu keng tarqalgan topishmoq asosida o'qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

- Qaysi faslda sovuq tushadi?
- Qaysi faslda kunlar issiq bo'ladi?
- Nima uchun daraxtlar issiqda kiyim kiyadi?
- «Kiyim» nima ma'noni bildiradi?
- Barglar qanday rangda bo'ladi?
- Sovuqda barglar nima qiladi?
- Barglar qayerda o'sadi?

Buning hammasi birgina asosda bajarilishi mumkin bo'lgan ishdir. Shuning uchun tabiatshunoslik darslarida qiziqarli materiallarning, krossvord, jumboqlarning ishlatilishi bolalarning bilim olishga bo'lgan intilishini, ijodiy fantaziyasini rivojlantirishga imkon yaratadi, tevarak- atrofdagi olamni tushinishga yordam beradi.

K.D. Ushinskiy «Jiddiy mashg'ulotni bola uchun qiziqarli qilish boshlang'ich bilim berishning vazifasidir», deganida haq edi.

Ijodiy o'yinlar. Ularning ba'zilari bilim olish ishtiyoqini oshirish va aqliy tahlil uchun juda foydalidir. Bu o'yinlar tarkibiga intellektual o'yinlar, topishmoqlar, rebuslar, boshqotirma, krossvord, chaynvordlar kiradi.

Topishmoqlar bolalar dunyoqarashini kengaytirish, tevarak-atrof bilan tanishtish, nutqini rivojlantirish va boyitish, ijodiyotga

bo'lgan qobiliyatlarning intellektual komponentlarini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega: bular mantiqiy fikrlash (tahlil qilish, sintezlash, qiyoslash), evristik fikrlash elementlari, gipotezalarni olib chiqish qobiliyati, egiluvchanlik, fikrlashning taqqidiyligidir. Topishmoqlar bola aqliga foydali mashg'ulotdir. Topishmoqlarni topish boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy jarayon sifatida hisoblansa, topishmoqning o'zi ijodiy vazifadir.

Masalan:

1. Ko'k sandig'im ochildi,
Ichidan zar sochildi. (Osmon, Quyosh)
2. Onasi bitta,
Bolasi mingta. (Oy va yulduz)
3. Ko'zga ko'rinmas,
Qo'l-la tutilmas. (Havo)
4. Qo'lsiz, oyoqsiz, eshik ochar. (Shamol)
5. Ikki og'ayni, bir- birini ko'rmaydi. (Ko'zlar)
6. «O» desam ochiladi, «B» desam yopiladi. (Og'iz).

Savollar

1. Tushunchaga ta'rif bering.
2. Tushunchaning turlarini to'liq yoriting.
3. "Tabiatshunoslik tushunchalari" deganda nimani tushunmiz?
4. Ta'ayyun nima?
5. Ishitishda naqsoni bo'lgan bolalarda tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirish usullarini aniqlang.
6. Tabiatshunoslik tushunchalarini shakllantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyatini ko'rsating.

8.6. Tabiatshunoslikni o'qitishning moddiy bazasi

Ishitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar birinchi sinfdan boshlab tabiatni va tabiat bilan bog'liq holda mehnat faoliyatini ekskursiyalar va predmelli darslarda, "O'qish kitobi"dan tabiatshunoslik mazmunidagi maqolalar hamda «Atrofimizdagi olam»

darслиğini o'qish jarayonida bevosita kuzatishlar yo'li bilan nutqni rivojlantirishni o'rganadi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini tashkil qilishga yordam beruvchi har xil jihozlardan, avvalo, ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Ko'rgazmali qurollarga tabiiy yoki haqiqiy obyektlar va ularning mulyaji, surati, rasmi, sxemasi kiradi. O'qitishda diafilm va kinofilmlar, teleko'rsatuvlar va o'qitishning boshqa texnik vositalari tobora kengroq qo'llanilmoqda. Har qaysi ko'rgazmali qurol muayyan maqsadni ko'zlab qo'llaniladi.

Tabiiy qurollar

Tabiiy qurollar – tabiat jismlaridir. Ular o'rganilayotgan material to'g'risida ancha haqiqiy tasavvurlar beradi va bolalarda bevosita qabul qilish asosida tabiatshunoslik tushunchalari hosil bo'lishiga imkon beradi.

Shunga ko'ra, sinfda yoki tabiatshunoslik kabinetida jonli tabiatni o'rganish uchun har xil xona o'simliklari, o'z joylarining daraxtlari uchun xos bo'lgan shoxchalar, barglar, gullar, meva va urug'lar bo'lishi zarur. Tabiatshunoslik darslarida jonli tabiat burchagida o'stirilayotgan o'simliklardan, shuningdek gerbariy va ekskursiyadan olib kelingan o'simliklardan foydalaniladi. Tabiat olamida o'tkaziladigan darslar vaqtida va ekskursiyalarda tabiiy sharoitlardagi jonli tabiat obyektlaridan foydalaniladi. Shuningdek, tabiiy obyektlardan hayvonlarni o'rganishda ham foydalanish mumkin. Garchi, ko'pgina hayvonlarni bolalarga sinfda (jonli tabiat burchagida) ko'rsatish mumkin bo'lsa ham, ekskursiyalarga afzallik berish kerak bo'ladi, chunki bunda o'quvchilar faqat ularning tashqi ko'rinishini ko'rishgina emas, balki xarakterli harakatlari va xulq-atvorlari bilan tanishish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Tirik hayvonlar bo'lmaganda ularning tulumlari, mulyajlari yoki fotosuratlari va rasmlaridan foydalanish mumkin. Biroq ular to'g'risida tirik hayvonlarni tabiiy sharoitlarda ko'rsatuvchi kinofilmlar ancha haqiqiyroq tasavvur beradi.

Jonsiz tabiatni o'rganishda ham tabiiy tarqatma materiallar, masalan, har xil rangdagi granit, slyuda, kvars, dala shpati, loy,

qum, kalsiy (bo'r, marmar, ohak), tuz, tosh tuzi va kaliy tuzi, tushko'mir, temir, mis rudalarining namunalari, shuningdek, metallar hamda qotishmalar (temir, cho'yan, po'lat, alyuminiy), tuproq namunalari va boshqalar bo'lishi kerak.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bevosita qabul qilish mumkin bo'lmagan tabiat jismlari va hodisalari to'g'risida aniq va to'g'ri tasavvurlar hosil qilish uchun ko'rsatiluvchi qurollardan foydalaniladi. Tabiatshunoslik kursini o'rganish uchun zarur bo'lgan ko'pchilik ko'rsatuv jihozlari maxsus do'konlarda sotiladi. Clunonchi, 3–6-sinflarda tabiatshunoslikni o'rganish uchun «Lunajon o'lka tabiati» turkumidagi jadvallar chiqarilgan. Tabiatshunoslik bo'yicha devoriy suratlardan, shuningdek, zoologiya bo'yicha jadvallardan ham foydalanish mumkin, ular tabiatning o'lkashunoslik obyektlari to'g'risida tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. «Sharq matbaa» nashriyoti 2- va 3-sinflar uchun tabiatshunoslik bo'yicha chiqarilgan jadvallardan, shuningdek, «Uy hayvonlari», «Hayvonot dunyosi», «O'lkamiz o'simliklari» suratlar turkumidan foydalanish ham mumkin.

1-4-sinflarda bosma rasmlar, ularni ifodalovchi matnlar, ehtidda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun savol va topshiriqlari bo'lgan «Kuzatishlar kundaligi» dan foydalanish zarur. «Kuzatishlar kundaligi» bilan o'quvchilar faqat sinfdagina emas, balki uyda ham ishlaydi.

Kundaliklardagi muntazam yozuvlar eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga o'z kuzatishlarini tahlil qilishga, tabiat hodisalarini o'rtasidagi sabab bog'lanishlarini, shuningdek, tabiat va odamlar mehnatining o'zaro aloqasini aniqlashga yordam beradi.

Xarita va globus

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar 4-sinfda xarita va globus to'g'risida dastlabki tasavvurlarni oladi, shuning uchun sinfda O'zbekiston Respublikasining tabiiy xaritasi, yarim sharlar tabiiy xaritasi, tabiiy zonalar xaritasi, foydali qazilmalar xaritasi bo'lishi kerak. Shuningdek, atrof-joyning shartli belgilariga ega bo'lgan yirik

masshtabli rejasi va o'quvchilar yashayotgan hamda o'qiyotgan shahar yoki aholi punktining rejasidan ham foydalaniladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning sinfda va uyda individual ishlashiga mo'ljallangan «Bizning vatanimiz» atlasini, shuningdek, 4-sinf uchun kontur xaritalar majmuasi keng qo'llaniladi. Sinfdagi ishda diametri 42,5 sm li katta globusdan, individual ishda esa diametri 15 sm li globusdan foydalaniladi.

Proeksion apparatlar

Proeksion apparatlarga shishadagi diapozitivlarni namoyish qiladigan proeksion chiroq, tiniq pardadagi diapozitivlarni namoyish qiladigan alaskop va filmskoplar kiradi. Sanoatimizda tayyorlangan maktab proeksion apparatlari maxsus qo'llanma bilan ta'minlangan. Darsda diapozitivlarni namoyish qilishdan oldin o'qituvchi qo'llanma mazmuni bilan tanishishi va mavjud apparatlar bilan ishlash uslublarini amaliy ravishda egallagan bo'lishi kerak.

Tabiatshunoslik darslarida kadoskop ham qo'llaniladi, unda fabrika usulida bajarilgan tiniq pardada chizilgan maxsus transporantlar, shuningdek, yasama qurollar (rangli sxemalar), rasmlar, kesmalar va boshqa qurollar qo'llaniladi.

Transporant shu bilan qulayki, u har xil jarayonlarni dinamikada (harakatda) ko'rsatish imkonini beradi. Bunday samaraga transporantga kadrlarni izchillik bilan qo'yib borish bilan erishiladi. Kadoskop bevosita apparat stolchasida odatdagi flomaster, sharikli ruchka yoki qalam bilan tiniq pardada chizilgan har qanday rasm, sxema yon ko'rinishini ekranda ko'rsatishga imkon beradi.

Ekran qurollari (diafilmlar, diapozitivlar, slaydlar) mustaqil rolni yoki asosiy to'ldiruvchisi sifatida yordamchi rolni bajarishi mumkin. Ekran qurollari devoriy suratlar kabi, zaruriyatga qarab namoyish qilinadi. Bir darsning o'zida 5-6 kadrдан foydalanish tavsiya qilinadi. Ular hujjatli, ko'rinishli yoki multifikatsiyalashgan bo'lishi mumkin. Ulardan maqsadga muvofiq holda foydalanish zarur. Ekran qurollarining kadrlarini e'tibor bilan ko'rish lozim,

lekin uzoq vaqt emas, chunki bunda plyonka va oyna qizib ketadi, shakli o'zgarishi yoki yorilib ketishi mumkin. Bundan tashqari, yorug'lik sur'ati kuchli ta'sirlovchi sifatida ko'rish organini tezda charchatadi. Shuning uchun ham tezda o'quvchilarning me'dasiga tegadi. Murakkab kadrlardan foydalanishning eng ko'p vaqti 1-2 daqiqa. Agar darsning maqsadi o'tilganlarni takrorlash bo'lsa, unda yorug'lik suratlarining (kadrlarning) soni 20-25 ta gacha ko'paytirilishi mumkin.

Esda tutish kerakki, ko'rsatilgan suratni o'quvchilarning o'zlari tushuntirishi lozim. Faqat o'quvchi ko'rganlarini noto'g'ri tushuntirayotganda, mavzudan chetlashganda, muhimlarini ko'rmagandagina o'qituvchining aralashuviga yo'l qo'yiladi.

Tajribalar o'tkazish uchun jihozlar

Tajribalar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun (darslarda va "Yosh tabiatshunoslar" to'garagida) maxsus jihozlar: o'lchov asboblari, lupa, laboratoriya uskunalari, idishlar, materiallar, yordamchi asboblari kerak. O'lchov asboblari har xil suyuqlikning muayyan hajmini o'lchash uchun ishlatiladigan menzurkalar, termometrlar va shu kabilar kiradi. Jihozlarni ko'rgazmali qutollar do'konlaridan sotib olish mumkin. Ayrim asboblarni o'quvchilarning o'zi tayyorlaydi. Laboratoriya uskunalariga shtativlar, uchoyoqlar, spirt lampalari, asbeslangan to'r, probirka qo'yadigan shtativlar, qisqichlar, shuningdek, idishlar (probirkalar, shisha voronkalar, kolbalar) oq shisha pufakchalari, idishlar to'plami, stakanlar, lampochkalar va boshqalar kiradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida jonli tabiat burchagi

Tabiatda davomli (uzoq vaqt davom etadigan) kuzatish va tajribalar uchun jonli tabiat burchagi tashkil qilinishi kerak, u yerda hayvon va o'simliklarni saqlash, zaruratga qarab ulardan tabiatshunoslikni o'rganishda foydalanish mumkin. Burchak, shuningdek, o'quvchilarning darsdan va sinfdan tashqari ishlari uchun baza

hisoblanadi. Bu yerda ular yilning istalgan vaqtida ish olib borishi mumkin. Sinflarda tabiatni o'rganishni bolani doimo o'rab turgan va ularga tanish bo'lgan o'simlik va hayvonlardan boshlash kerak. Bu tamoyilga darslarda ham, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham amal qilish kerak. Bu tamoyilni amalga oshirishga jonli tabiat burchagidagi ishlar imkon beradi. Shu vaqtning o'zida u o'quvchilarda jonajon o'lkaga muhabbatni tarbiyalaydi, ularning tabiat to'g'risidagi bilimlarini kengaytiradi.

Tabiatga o'tkaziladigan ekskursiyalar jonli tabiat burchagi tashkil qilishning boshlanishi bo'lishi mumkin. Suv havzasidagi hayot bilan tanishayotgan o'quvchilar mollyuska, ninachi qurtlari, har xil qo'ng'izlar, gambuziya, peskar (tanga baliq) kabilarni ko'radi. Suv o'simliklarining barchasi akvarium, shisha bankalar yoki boshqa yaroqli idishlarga joylashtiriladi. Bog' va polizlarda, ko'pincha, mevalar, rezavor meva hamda sabzavot o'simliklari zararkunandalarining g'umbak va qurtlari uchraydi. Ekskursiya vaqtida ularni yig'ib, jonli tabiat burchagida hasharotlar taraqqiyotining butun siklini tekshirib borish va yebto'ymas qurtning harakatsiz g'umbakka aylanishini, g'umbakdan yetuk kapalak chiqishini ko'rish uchun kuzatishlar tashkil qilish mumkin. Jonli tabiat burchagiga keltiriladigan tirik obyektlar alohida daftarda hayvon yoki o'simlikning keltirilgan vaqti (kuni), kim qabul qilganligi, hayvonning nomi va holati ko'rsatilib, qayd qilib borilishi kerak.

Jonli tabiat burchagi uchun xona

Jonli tabiat burchagi uchun alohida xona ajratgan ma'qul. Bunday imkoniyat bo'lmaganda o'simlik va hayvonlar tabiatshunoslik kabinetini yoki sinfga joylashtiriladi. Jonli tabiat burchagi uchun xona yorug' bo'lishi, deraza ro'parasiga qo'yilgan har xil tokchalarga suv hayvonlari hamda o'simliklari bo'lgan akvariumlarni qo'yish qulay bo'ladi.

Agar jonli burchak alohida xonada bo'lsa, unda qushlarni ham saqlash mumkin. Barcha qush qafaslariga tozalash oson bo'lishi uchun suriladigan taglik va oziq uchun harakatchan quti o'rnatiladi.

Maktab tabiat burchagida jur, sa'va, to'ti, chittak, chechetka kabilarni saqlagan yaxshi. Qafaslar devor yoki derazalarga ilib qo'yiladi, ammo shamol g'urillab o'tadigan joyga qo'ymaslik kerak, bunday joy qushlar uchun halokatlidir. Terrariumlar xona o'rtasiga yoki devor bo'ylab qo'yilgan stolchalarga o'rnatiladi. Sut emizuvchilarning (olmaxon, dengiz cho'chqasi) katakchalari xonaning qorong'iroq qismiga, polga qo'yiladi. Agar tabiatshunoslik kabineti katta bo'lmasa, o'simlik va hayvonlarning bir qismi sinflarga joylashtiriladi va ulardan kerak bo'lganda foydalaniladi.

Jonli tabiat burchagini jibozlash

Burchakda hayvonlar uchun ajratilgan joy ularning tabiatdagi hayot sharoitlariga muvofiq bo'lishi kerak. Akvariumni zoomarketdan olgan ma'qul. Ammo akvarium sifatida xohlagan shisha idishdan foydalanish ham mumkin, lekin shuni hisobga olish kerakki, baliqlar to'rtburchak idishda yaxshi ko'rinadi. Akvariumdagi baliqlar soni uning katta-kichikligiga (o'lchamiga) va undagi o'simliklarning soniga muvofiq bo'lishi kerak, bunda yutiladigan va chiqariladigan kislorodning balansi ta'minlanadi.

Akvariumda yashovchilarga doimiy parvarish zarur. Baliqlarni ular shartli refleks hosil qilishi uchun muayyan vaqtda oziqlantirish kerak. Bolalar termometr bilan o'lchab, suv haroratini tekshirib borishni o'rganishi lozim.

Sudralib yuruvchilar va suvda ham, quruqda ham yashovchilar uchun xilma-xil ko'rinish va katta-kichiklikdagi terrariumlar quriladi. Odatdagi terrarium metalldan yoki yog'ochdan tayyorlangan quti bo'lib, yon va tepa devordari shisha va to'rdan iboratdir. Shisha devor terrariumda yashovchilarni kuzatish, yon devor hamda tepasining to'rdan bo'lishi ventilyatsiyani ta'minlash imkoniyatini beradi. Terrariumning metall tagiga tuproq sepiladi, unga o'simliklar o'tqaziladi va suvli idish joylashtiriladi. Terrariumga unda yashovchilarning yashirinib olishi uchun toshlar qo'yiladi. Suvga va quruqqa ehtiyojmand suv baqalari va tritonlar uchun akvaterrarium, ya'ni quruqlik oroli bo'lgan akvarium quriladi, uni akvarium tagiga tuproq solingan va suv sathidan biroz ko'tarilib turadigan shisha banka qo'yib tayyorlash qiyin emas.

O'simlik va hayvonlar to'plash. Kuzatishlar tashkil qilish

Jonli tabiat burchagining aholisi uning asosini tashkil qiladi, unga qarab jihozlar tanlanadi. O'simlik va hayvonlar rasmlari to'plarni tabiatshunoslik dasturiga qarab, o'lkashunoslik xususiyatlarini hisobga olib belgilanadi. Barcha xona o'simliklarida ularning nomlari va qachon, qayerdan olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar yozilgan etiketkalar bo'lishi zarur.

O'simliklardan shundaylarini tanlash kerakki, ular yordamida namlik, issiqlik, yorug'lik, suv iste'mol qilishdagi farqlarni, jumladan, quruq iqlimga, nam iqlimga moslangan o'simliklarni, tropik o'simliklarni, mo'tadil iqlim o'simliklarini, yorug'lik sevuvchi va soyaga chidamli o'simliklarni namoyish qilish mumkin bo'lsin.

Keyin shunday o'simliklar tanlanadiki, ular kabilarning har xil turlari yordamida turlicha tajribalar o'tkaziladi.

Jonli tabiat burchagida hayvonlarning har xil turlari bo'lishi kerak. Barcha akvariumlarda chig'anoqli mollyuskalar bo'lishi lozim, chunki ular akvarium devorlarini suv o'tlaridan tozalaydi va atmosfera havosidan nafas olgani uchun akvariumdagi boshqa hayvonlarga zarur bo'lgan suvdagi havoni yutmaydi. Baliqlardan yashash sharoitlariga uncha talabchan bo'lmaganlarini saqlash yaxshi.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida akvarium katta rol o'ynaydi, o'quvchilar suv hayvonlarining harakatlanishini kuzatadi, ularning tana qismlarini ko'radi, qanday ov qilishini kuzatadi. Baliqlarni harakatda ko'rgan bolalar ularning harakat a'zolariga e'tibor beradi, baliqlar hayotida rang qanday rol o'ynashini aniqlaydi. Akvariumda hayvonlardan tashqari o'simliklar ham saqlanadi, ular bilan o'quvchilar dasturni o'tish davomida tanishib boradi.

Dasturga muvofiq, kichik yoshdagi kar va zaif eshituvchi maktab o'quvchilari baqa va qurbaqaning rivojlanishini ham kuzatadi. Jonli tabiat burchagida bolalar ularni solishtirishi, tana qismlarini qarab chiqishi, ularning tuxumlari qanday farq qilishini,

taxundan ibtaliq rivojlanishini ko'radi. Terrariumda o'quvchilar, shuningdek, kaltakesak va toshbaqalarning xulq-atvori, harakatlari, tashqi xususiyatlarini ham kuzatishi mumkin.

Tabiatshunoslik o'qituvchisi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning jonli tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni sistemali ravishda parvarish qilib borishiga, gullarni muntazam sug'orishi, barglarini yuvishi, hayvonlarni boqishi hamda toza joyda saqlashiga erishishi kerak. Buning uchun o'quvchilarning muvohatchiligi yo'lga qo'yiladi.

Jonli tabiat burchagidagi tajriba, kuzatish va amaliy ishlar o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi va u tomonidan nazorat qilib borilishi kerak. Barcha ishlar reja bo'yicha qilinishi zarur, reja tuzishda mavsumiylik tamoyiliga amal qilish lozim. Burchakdagi ishlar yillik, yarim yillik va choraklik tuziladi. Reja tuzishda o'quvchilarning qiziqishi, umumiy taraqqiyoti, shuningdek, ishning muddalay olinadigan bo'lishi hisobga olinadi. Rejada maqsad va mavzuning belgilanishi, ishning mazmuni va shakllari ochib berilishi, amalga oshirish usullari ko'rsatilishi, o'quvchilar egallash mo'ljallangan amaliy ko'nikmalar belgilangan bo'lishi kerak. Ayrim mavzularni ham rejalashtirish mumkin.

Ish rejaning bajarilishini maxsus jurnalda qayd qilib borish zarur. Jurnal sifatida umumiy daftar xizmat qilishi mumkin, unda o'qituvchi o'quvchilar bajargan ishning hajmi va olingan natijalarni ko'rsatadi. O'quvchilarning "Kuzatishlari kundaliklari" hisobga olishning shaklidir, unda kuzatishlar qisqacha yozib boriladi, rasmlar chiziladi, quritilgan o'simliklar yopishtiriladi.

O'lkashunoslik burchagi

I-sinfdan boshlab eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar o'z o'lkalari, o'z joylarini o'rganadi, tabiat ustida kuzatishlar olib boradi, ekskursiyalar o'tkazadi. Vaqt o'tishi bilan o'lkashunoslik burchagida boshlang'ich maktab-internatning ilgarigi bitiruvchilari yig'gan eng qimmatli materiallar to'planib boradi, undan tabiatshunoslikni o'qitishda sistemali ravishda foydalaniladi.

O'lkashunoslik burchagi tabiatshunoslik xonasida yoki alohida sinfda harpo etiladi. Material uch bo'limga ajratiladi: "Bizning o'lka", "Ob-havo kalendari" va "Tabiat belgilari".

«Bizning o'lkamiz» stendida quyidagilar joylashtiriladi:

1. O'z aholi hududining nomi ko'rsatilgan yoki (agar u xaritada bo'lmasa) uning turgan joyi taxminan ifodalangan xaritasi.
2. O'z joyi nomi ko'rsatilgan O'zbekiston tabiiy xaritasi.
3. Maktab joylashgan joy ifodalangan o'z aholi hududining rejasi.
4. O'z joyining yuzasi shakllarining fotosuratlari.
5. O'z o'lkasi sanoat ishlab chiqarishini yorituvchi materiallar. Mahalliy sanoat mahsulotlaridan namunalari.
6. O'lkamiz qishloq xo'jaligini aks ettiruvchi materiallar.
7. Turgan joyining daryosi, uning quyilishi hamda boshlanishi va hokazolar ko'rsatilgan suv boyliklari to'g'risidagi ma'lumotlar.
8. Joy tuprog'i to'g'risida ma'lumotlar.
9. O'lkamizning o'simliklari to'g'risida ma'lumotlar.
10. Hayvonlar to'g'risida ma'lumotlar. Jonivor o'lkamiz uchun tipik bo'lgan hayvonlarning fotosuratlari va rasmlari joylashtiriladi. Kartondan kesilgan shartli belgilar bo'lgan o'lkamiz xaritasida foydali qazilmalarning joyi ko'rsatiladi.

11. «Bu qiziq...» sarlavhasi ostida qiziqarli savollar, tabiat to'g'risidagi asarlardan parchalar, topish uchun hayvonlar organlari: tumshug'i, tirnog'i, qanotlari yoki ularning yon ko'rinishlari tasvirlangan rasmlar, bolalarning ekskursiyalardagi kuzatishlar vaqtida chizgan rasmlari joylashtiriladi.

O'lkamizlik burchagiga o'quvchilar tayyorlagan, shahar, viloyat, tuman tarixi aks ettirilgan albomlar qo'yish, unda mahalliy sanoat mahsulotlarini ko'rsatish ham mumkin. Bu bo'limda tabiat muhofazasi masalalari aks ettirilishi, viloyat yoki o'lkamizda joylashgan qo'riqxonalar nomlari ko'rsatilishi kerak.

«Ob-havo kalendari» stenddan iborat bo'lib, uning markazida kun va oy ko'rsatiladi, shu kungi ob-havo to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtiriladi. Pastrog'ida termometr, mehnat darolarida o'quvchilar tayyorlagan flyuger bo'ladi. Ob-havoni ta'riflash uchun kartondan qirg'ilgan shartli belgilardan foydalaniladi. Termometr modelida ko'chadagi gradusnik bo'yicha havo harorati ko'rsatiladi. Shu yerda keyingi bir necha yillarning ob-havo kalendari va harorat o'zgarishlari grafigi ham joylashtiriladi.

Stendning uchinchi bo'limida shu joyning ob-havosi va uning belgilari to'g'risidagi materiallar qo'yiladi. Bo'lim yorqin rasmlar bilan bezatiladi.

O'lkashunoslik burchagida, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish va tiklashda, joy atroflarini ko'kalamzorlashtirishda va shu kabilarida qatnashuvchi «Yashil poshonlar»ning ish rejasi ham qo'yiladi.

O'lkashunoslik burchagining materiallari tabiatshunoslik darslarida keng qo'llanilishi kerak, chunki ular faqat o'lka tabiati va xo'jaligi to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtiribgina qolmasdan, balki ilgari o'rganilganlarni mustahkamlashga ham yordam beradi. O'lkashunoslik materiallarini yig'ish maktab-internatning hayot bilan bog'lanishini mustahkamlaydi, o'quvchilarning tabiat muhofazasi bo'yicha ishlarda, baholi qudrat, qatnashishiga imkon beradi.

Geografiya maydonchasi

foydagi amaliy ish va kuzatishlarning ancha qismi maktaboldi uchastkasida jihozlangan Geografiya maydonchasida o'tkaziladi. Jumladan, bu yerda ob-havoni va Quyoshning turishini sistemali kuzatib borish, joyda oriyentirlash, masofani o'lchash ishlarini o'tkazish, shuningdek, tabiatshunoslik dasturi bilan bog'langan topshiriqlarni bajarish mumkin.

Geografiya maydonchasini qurish uchun ochiq joy shu hisobda tanlanadiki, unga katta daraxt va binolarning soyalari tushmashi. Maydoncha tekislanadi, qum sepiladi va atrofi o'raladi. Geografiya maydonchasi o'quv-tajriba uchastkasining yonida joylashgani mu'qul.

Tabiatshunoslik darslarini o'tish uchun maydonchada ushbu jihozlar bo'lishi zarur.

1. O'lchovchi devor. Buning uchun o'ramning har bir metri oralab har xil bo'yoqlar bilan bo'yalgan bir tomonidan foydalaniladi. Devorning balandligi – 1 m. O'lchovchi devor bo'ylab yo'lcha qaziladi. Undan fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish uchun, jumladan, «Reja va xarita» mavzusini o'tishda foydalaniladi.

2. Balandlikning o'lchovchi ustun balandligi – 10 m, har qaysi metri navbat bilan ikki xil rangli. U balandlikni taqqoslash uchun, shuningdek, fazoviy va o'lchash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Ustunning uchiga flyuger o'rnatiladi.

3. Flyuger, shamol yo'nalishini aniqlovchi asbob. Uni o'quvchilarning o'zi tunukadan yasashi yoki shamol kuchini aniqlash uchun shamol o'lchagich bilan birga sotib olishi mumkin.

4. Bo'y o'lchagich, bo'y o'lchash uchun yog'och asbob. Bo'y o'lchagichdan foydalanib o'quvchilar o'z bo'yini o'lchaydi va boshqa narsalarning balandligi bilan taqqoslaydi. Bunda ko'z chamasi rivojlanadi.

5. Kub metr tomonlari ochiq, uzunligi 1 m li ingichka yog'och reykalarning o'zaro birlashtirilishidan hosil bo'lgan. Kub metrning hajmi to'g'risida ko'rgazmali tasavvur beradi. Devorning bir tomonida turadi.

6. Kvadrat metr uzunligi 1m keladigan reyka o'zaro biriktirilishidan hosil qilingan. U maydonchaga qo'yiladi va ichiga maydalangan g'ishtlar solinadi. U kvadrat metr to'g'risida ko'rgazmali tasavvur beradi.

7. Gnomon Quyoshning ufq ustidan balandligini aniqlaydigan asbob. Gnomon yordamida, shuningdek, ufq tomonlarining yo'nalishini ham aniqlash mumkin. Chunonchi, kunning yarmida soya shimolga yo'nalishni ko'rsatadi va qisqa bo'ladi, chunki Quyosh tik turadi, erta bilan soya g'arbga, kechqurun esa sharqqa yo'nalgan bo'ladi. Har doim shimolga yo'nalishni bilish uchun kunning yarmida gnomon soyasi bo'yoq yoki g'isht parchasi bilan belgilab qo'yiladi.

8. Rombik halqadan ufq tomonlariga nisbatan o'zining turgan joyini aniqlash uquvini hosil qilish uchun foydalaniladi. Shu maqsadda g'isht yoki yog'ochlarni yarmigacha yerga kirgizib gnomon atrofiga teriladi. Doira-halqaning tashqi tomoniga ufq tomonlari nomlarining bosh harflari qo'yiladi. Yarim kun chizig'i bo'yicha shimol, qarshisida – janub, o'ng tomonida – sharq, chapda – g'arb hamda ular o'rtasidagi oraliq tomonlar – ShSh, ShT, JR, JSh belgilanadi.

9. Quyosh soat xohlagan o'lchamli gorizontal qo'yilgan yog'och doira bo'lib, o'rtasida o'qi bor. Doiraning chetiga gnomon

bo'yicha 2 raqami qo'yiladi. Bir-biridan teng masofada qolgan raqamlar qo'yiladi. Quyosh soatdan barcha sinf o'quvchilari foydalanishi mumkin. U maydonchaning janubiga, eng ochiq joyga o'rnatiladi.

10. Yomg'ir o'lchagich. Oddiy paqir yomg'ir o'lchagich bo'lib xizmat qilishi mumkin. Unda yog'in miqdorini aniqlash uchun paqir ichiga tushirilgan chizg'ichdan foydalaniladi. Menzurka yordamida o'lchash mumkin. Buning uchun kub santimetr hisobidagi menzurka ko'rsatkichi 10 ga ko'paytiriladi va paqir tagining sathiga bo'linadi.

11. Qor o'lchovchi reyka. Tegishli chiziqlari bo'lgan maxsus reyka bilan qor qoplami qalinligi o'lchanadi.

12. Meteorologik budka - havo harakatini o'lchaydigan termometr, havo bosimini o'lchaydigan barometr, havo namligini o'lchaydigan gigrometr va boshqa asboblarni saqlash uchun xizmat qiladi. Meteorologik budka Geografiya maydonchasining soya tushmaydigan joyiga ikki metrga yaqin balandlikda o'rnatiladi.

13. Qum solingan quti ishchi stollari (4-5) yoniga o'rnatiladi va o'quvchilarning har xil relyef shakllarini hosil qilishi uchun foydalaniladi.

14. Oriyentirlash burchagi o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Unda kesilgan kunda halqalari janubga qaratib o'rnatiladi, shuningdek, yonbag'irliklari, dovonlari va aniq ifodalangan cho'qqisi hamda tagi bilan tepalik modeli bo'lishi kerak.

15. Tog' jinslari va suvning ipini o'rganish uchun jihozlar o'z ichiga sun'iy suv havzasi, dars modeli, jinslari va joyning tuprog'ini oladi. Oqim suvning ishini o'rganish uchun Geografiya maydonchasiga vodoprovod o'tkaziladi. Suvning sun'iy oqimi yo'lga qirg'oqlarning yuvilishi va sharshara hosil bo'lishini ko'rsatish uchun to'siq qo'yiladi.

Geografiya maydonchasidagi ishlarning muvaffaqiyati ularning sistematik bo'lishi va o'qituvchi tomonidan doim nazorat qilib borilishiga bog'liqdir.

Savollar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar maktabida "Tabiatshunoslik" darslarida o'quv qurollarining qanday turlaridan foydalaniladi?

2. Tabiiy vositalarga nimalar kiradi?

3. Tabiatshunoslik darslarida qo'llaniladigan barcha vositalarning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tabiatshunoslik bilim, ko'nikma, malakalarini egallashidagi o'rni.

4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda tabiatshunoslik tasavvurlari hamda tushunchalarini shakllantirishda Geografiya maydonchasining roli qanday?

9-bob. TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISH METODLARI

9.1. Tabiatshunoslikda o'qitish metodlarini qo'llashning o'ziga xosligi. Tabiatshunoslikni o'qitishning asosiy metodi sifatida – tajriba metodi, amaliy ishlar

Pedagogikada metod deganda, pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati tushuniladi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodlari uchta asosiy guruhga bo'linadi.

Og'zaki metodlar: o'qituvchining materialni og'zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash.

Ko'rgazmali metodlari namoyish qilish, mustaqil kuzatishlar, ekskursiyalar.

Amaliy metodlar: og'zaki va yozma mashqlar, grafik va laboratoriya ishlari.

Har qir uslub turi undan kichik usullardan iborat.

Tajribalar atrof-tabiatni bilishning samarali metodi hisoblanadi, chunki ularda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni qiziqtiradigan elementlar mavjud. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikr yuritish va nutqni tarbiyalashda tajribalar katta ahamiyatga ega. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar kishilarning tabiatni o'zgartirishlarida tajribalar chinakam vosita bo'lishini ko'rishi kerak. Tajribalarni eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar, asosan, mustaqil holda o'tkazadi. Asboblari va moddalar bilan juda ehtiyot bo'lib ishlash talab etiladigan tajribalarni o'qituvchining o'zi o'tkazadi. Sinfda, maktab o'quv-tajriba maydonchasida va joylarda olib boriladigan amaliy ishlardan maqsad bilimlarni o'zlashtirib olishdagina emas, balki mu'him malaka va ko'nikmalarni egallab olishda ham o'quvchilarga yordam berishdan iborat. Bunday ishlar sirasiga, masalan, tabiat ustida kuzatuv olib borish: kuzatuv natijalarini yozish va ishlab chiqish malakasini egallashga, gerbariy, kolleksiyalar, ko'rgazmali qurollar tayyorlash, o'lchov ishlarini bajarishga (havoning harorati, gnomon soyasining uzunligi, boshqalarni

o'lchashga) qaratilgan ishlar; tuproqning xossalarini, foydali qazilmalarni, odamning tanasi, shaxsiy hamda jamoat gigiyenasi qoidalarini o'rganishga bog'liq bo'lgan amaliy ishlar kiradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning har bir amaliy ishi oldindan yaxshilab tayyorlangan, to'g'ri tashkil etilgan, aniq rejalashtirilgan, topshiriqlar mazmuni puxta tuzilgan bo'lsagina, samarali natija berishi mumkin.

Tajriba tabiatshunoslikni o'qitishning yetakchi uslubi ekanligi bois ba'zi turdagi amaliy ishlarni tayyorlash, tashkil etish, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati bilan tanishamiz.

Tajriba tabiatshunoslikni o'qitishning amaliy metodidir. Tajriba o'qitish metodi bo'lib, uning yordamida o'rganilayotgan hodisa qonuniyatini aniqlashga yordam beruvchi sharoitlar yaratiladi. Tajribalar o'tkazishda o'quvchilarda boshqa metodlar bilan egallash mumkin bo'lmagan tabiatshunoslik tasavvurlari shakllanadi.

Tajribalar atrof-olamni bilib olishning qiziqarli va samarali metodidir. Ular ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur va nutqni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. U dunyoning moddiyligini, uni idrok qilib olish mumkinligini tasdiqlovchi har xil jismlar xossalarini bilib olishning chinakam ilmiy metodidir.

Tajribalar mavhum tushunchalarni aniq tushunchalarga aylantirishda bolalarga yaqindan yordam beradi. Masalan, ular faqat tajriba jarayonidagina termometrning simob ustuni haroratning o'zgarishiga qarab ko'tarilishi va pasayishiga ishonch hosil qiladi. Faqat tajribadagina suvning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ko'radi.

Oddiy tajribalar eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tomonidan uy sharoitlarida, o'quv tajriba maydonida yoki tirik tabiat burchagida mustaqil bajariladi. Murakkabroq tajribalarni o'qituvchi darsda namoyish qiladi. Shuni esda tutish kerakki, mazmuni jihatdan eng oddiy tajriba faqat bilim berishi bilangina emas, balki kuzatish jarayonini fahmlashga, uning natijalarini ta'riflashga yordam berishi bilan ham qimmatlidir.

Tajribaning borishini kuzatib, o'quvchilar kuzda Quyosh Yer ustida kun sayin pasayishi to'g'risida xulosa chiqaradi. Uning qiya

tushayotgan nurlari Yer yuzasidan uzoqlashib o'tadi va havoni isitmaydi. Shuning uchun ham kuzda sovuq tusha boshlaydi.

Materialni mustahkamlash uchun o'qituvchi namoyish qilgan va o'quvchilarning o'zi o'tkazgan tajribalarning rasmini chizish yoki ularni ta'riflab yozish, ba'zi hollarda uni ham, buni ham bajarish kerak.

Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallangan ko'ngazmulilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishda bo'lishini ko'rsatadi.

Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining faol faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'tqarilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashda o'quvchilar faoliyatining o'zi bilim manbai hisoblanadi. Hunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagidagi sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga :

1) eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi;

2) rasm chizishi;

3) tabiat obyektlarini tanish va aniqlash bo'yicha ishlari;

4) hodisalarni kuzatishi va qayd qilishi;

5) tajriba o'tkazishi (tajriba vositasida masalalarni hal qilishi) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishi kerak .

Tabiatshunoslik darslarida tanib olish va aniqlash amaliy metodlarning bir turi bo'lib, tarqalgan o'simliklarni yoki ularning qismlarini farqlash, tanib olish xususiyatlarini o'rgatadi.

Taqqoslashdagi farqni bilish eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Farq qilish va aniqlash bo'yicha ishlar darslardagina olib borilmaydi. O'qituvchi tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ham o'simliklarni topish va to'plashni, namunalar yig'ishni, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlarini, o'zgaruvchanlikni o'quvchilarning o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab tanlashi

kerak. O'simliklar, ular qismlarining shaklini bilib olish bo'yicha ishlarni eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uy vazifasi sifatida bajaradi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodlari tizimida amaliy ishlar. Tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishda amaliy ishlar katta rol o'ynaydi. Amaliy ishlar eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni ular faoliyati jarayonida har xil mehnat operatsiyalariga o'rgatish metodidir. Amaliy ishlarga eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ular faoliyati jarayonida har xil mehnati, ekskursiya vaqtida tabiiy materiallar yig'ish, maktaboldi yer maydonidagi tirik tabiat burchagidagi o'simliklarni parvarish qilish, gerbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko'rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi.

Tabiatshunoslik bo'yicha amaliy ishlar dastur va darsliklarga kiritilgan, ularning bajarilishi majburiydir. Amaliy ishlarning samaradorligi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ularni bajarishga tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Amaliy ishlarga tayyorlanish, odatda, uzoq vaqtni talab qiladi va bir necha bosqichdan iborat bo'ladi:

a) eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nazariy tayyorlanishi. Masalan, maktaboldi yer maydoniga sabzavotlarni ekish va manzarali o'simliklarni o'tqazish oldidan o'quvchilar ular urug'larining unib chiqishini uzoq vaqt kuzatadi. Uyda, tirik tabiat burchagida yoki darsda bolalar o'simlik urug'i asta-sekin va muayyan sharoit (namlik, havo, issiqlik) bo'lgandagina rivojlanishini aniqlaydi. Olingan nazariy bilimlar o'quvchilarning o'zlariga ajratilgan paykalda yoki tirik tabiat burchagida amaliy ishlarni diqqat bilan, yodda saqlab bajarishiga imkon beradi. Nazariy tayyorgarlikdan keyin bolalar ekish vaqtida tuproqning yumshoq, nam va issiq bo'lishi kerakligini bilib oladi, amaliy ishda faol qatnashadi;

b) amaliy ishda eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning barchasi qatnashishi lozim. Buning uchun bolalarni ish bajarishda kerak bo'ladigan ish qurollari, asbob-uskuna va materiallar bilan ta'minlash zarur. Masalan, gerbariy tuzish uchun yig'ilgan o'simliklar solinadigan papka, qalin qog'oz va karton varag'i, ip, igna bo'lishi lozim;

c) eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning amaliy ishlari

o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. U ishni bajarishda qiymatlanganlarga o'z vaqtida yordam berishi lozim. Biroq bunda bolalarning faolligi hamda mustaqilligini chegaramaslik kerak;

d) eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ishlari, albatta, tahlil qilinadi va baholanadi, topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganlar rap'batlantiriladi.

Ushbu ishlarning bajarilishi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda, bilimlarni konkretlashtirish va mustahkamlashda o'qituvchiga yordam beradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar amaliy ish ko'nikmalarini hali egallamagan bo'ladi. Masalan, tushda (kunning o'rtasida) soyaning qoziqdan uzunligini aniqlashga yoki havo haroratini o'lchashga va ularning natijalarini yozib borishga o'rgatish uchun uzoq vaqt mashq qilishga to'g'ri keladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ko'p vaqt va urinishni talab qilmaydigan oddiy topshiriqlardan asta-sekin ancha murakkabroq vazifalarni bajarishga o'tadi. Vaqt o'tishi bilan amaliy ishlar tobora mustaqil bo'lishi kerak. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchining amaliy ishlarga rahbarlik qilish shakllari ham o'zgarib bormog'i lozim: agar birinchi darslarda har bir o'quvchiga bosqichlar bo'yicha butun yo'l-yo'riq berish kerak bo'lsa, yilning ikkinchi yarmida ish bo'yicha sinfdagi barcha o'quvchiga ko'rsatma berish kifoyadir. Amaliy ish o'tkazishda o'qituvchi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar asoslanadigan bilimlar saviyasini aniqlashi kerak.

Barcha tajriba va amaliy ishlar "Kundalik kuzatishlar daftari" ga qayd qilinadigan yozuvlar bilan birga olib borilishi kerak. Shuningdek, rasmlar chizish, plastilindan obyektlar yasash, tabiiy materiallarni modellashtirish ham tavsiya qilinadi. Bunda eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tasvirlanadigan jism yoki hodisalarga diqqat bilan qaraydi, ularda ilgari e'tibor berilmagan xususiyatlarni payqaydi. Amaliy ishlar vaqtida xulosalarni yozib borish yoki rasmlar ostiga yozuvlar yozish bolalarga ta'riflarni aniqlab olishga, tabiatshunoslik atamalarini esda saqlashga yordam beradi.

Amaliy ishlarni tajriba, kuzatishlar bilan bog'lab olib borish kerak. Chunonchi, qizdirganda va sovutganda suv haroratining

o'zgarishini kuzatish oldidan o'quvchilar suvning uch holatda bo'lishi, haroratning o'zgarishi bilan ular bir-biriga o'tishi to'g'risida bilim olishi kerak. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar termometr tuzilishini bilishi va undan foydalana olishi lozim. Ular 2-sinfda olgan bilimlaridan erkin foydalana olishi uchun o'qituvchi avval suhbat, keyin amaliy ish o'tkazadi, bu vaqtda kerakli tajribalarni takrorlaydi, termometrni qarab chiqishni talab qiladi. Ilgari o'tkazilgan tajribalarga, mavjud bilim, uquv hamda ko'nikmalarga murojaat qilish zarur, chunki bu o'quvchilarning aqliy faolligini oshiradi, yangi bilimni yaxshiroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

Sinfda amaliy mashg'ulotlar. Sinfda amaliy mashg'ulotlar tarqatma materiallar bilan olib boriladi, bu o'quvchilarga o'rganilayotgan narsani bir necha sezgi a'zolari bilan qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya'ni ular narsani ko'ribgina qolmasdan, uning ustida har xil tajribalar o'tkazadi, uning xususiyati (masalan, sanab ko'rish, bolg'acha bilan urib ko'rish orqali narsalarning mo'rtligini, egish bilan qayishqoqligini, egiluvchanligini va hokazo)ni sinaydi. Tarqatma material sifatida tabiatshunoslik darslarida jonli va jonsiz tabiat jismlari (toshlar, foydali hasharotlar, o'simliklar va ularning qismlari, mayda hayvon va boshqalar) dan foydalaniladi.

Amaliy ishlar quyidagi tartibda olib boriladi:

- ish maqsadini e'lon qilish;
- o'qituvchining yo'l-yo'riqlar berishi;
- topshiriqni tushuntirish;
- materiallarni tarqatish;
- kuzatish;
- o'tkazilgan ish natijalarini tushuntirish – suhbat;
- xulosalarni daftarga yozish;
- rasmlar chizish.

Amaliy ish vaqtida o'qituvchi topshiriq tushunarsiz tuyulganda yoki murakkab bo'lganda ayrim o'quvchilarga yordamlashadi. Lozim bo'lsa, ish mazmunini butun sinfga takroran tushuntirish kerak bo'ladi. Amaliy ishning asosiy qiyinchiligi kuzatilayotgan hodisalarni anglash, eng muhimlarini ajrata bilish, xulosalarni ifodalay olishdir.

Tirik tabiat burchagidagi amaliy mashg'ulotlar uzoq vaqt davom etadigan kuzatish va tajribalar bilan bog'liqdir. Tirik tabiat burchagida amaliy ish o'tkazishga bag'ishlangan darsda uning maqsadi va bajarish izchilligi tushuntirilishi kerak. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga savolnoma berish mumkin. Tabiat burchagidagi ishning natijalaridan tegishli mavzular o'rganilayotganda foydalaniladi.

O'simliklarni o'stirish bo'yicha maktaboldi maydonidagi amaliy ishlar sinfdagi darslarda olingan bilimlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ularda tabiatga va qishloq xo'jaligi mehnatiga qiziqish uyg'otadi.

Maktaboldi maydonidagi amaliy ishlar va ular bilan bog'liq bo'lgan hamda o'quvchilarning kuzatishlari bilan birga olib boriladigan suhbat va o'qituvchining tushuntirishlari sinf mashg'ulotlari soatlarida ochiq havodagi dars sifatida o'tkazilishi lozim. Dars nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi.

Darsning nazariy qismida o'qituvchi ishning ahamiyati va mohiyatini tushuntiradi, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnat qurollari va ish uslublari vositasida o'rganilishi kerak bo'lgan o'simliklar bilan tanishtiradi.

Darsning bu qismini rejalashtirishda tabiatshunoslik bo'yicha eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar oladigan va o'zlashtiradigan bilimlarni aniq belgilab olmoq zarur. O'qituvchi ishning maqsadi va ahamiyatini tushuntirib, bolalarga uni bajarishning to'g'ri usullarini ko'rsatadi va uni nima uchun boshqacha emas, shunday bajarish kerakligini aytadi. Keyin o'qituvchi bir-ikkita o'quvchiga ishni bajarishni taklif qiladi. Ular ishni to'g'ri bajara olgach, butun sinfga ishga kirishishga ruxsat beradi.

Darsning ikkinchi qismi bolalarning amaliy ishidir.

Amaliy ish vaqtida o'qituvchi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni kuzatib, qo'shimcha tushuntirishlar olib boradi, ish sifatini baholaydi, yaxshilarini alohida ta'kidlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf qilishga undaydi. Darsga yakunlovchi suhbatda yakun yasaladi: darsda bolalar qanday yangi ma'lumotlarni bilib olganligini, nima qila olishga o'rganganligini, ish vaqtida o'zlarini qanday tutganini aniqlaydi. Xotimada o'qituvchi ekilgan urug'larni yoki o'tqazilgan o'simliklarni qanday parvarish qilish kerakligi, bu ish qanday tashkil qilinishi haqida ma'lumot beradi.

Eksperimentlar, ko‘pincha, fiziologik jarayonlarni o‘rganishda o‘tkaziladi. Eksperimentlar uzoq va qisqa muddatli bo‘ladi. Tabiatshunoslik hamda botanika darslarida o‘tkaziladigan qisqa muddatli eksperiment yoki tajribaga urug‘ning tarkibi, tuproqning fizik xossalari, bargda kraxmal hosil bo‘lishi va shunga o‘xshashlarni o‘rganishdagi ma’lum ishlar misol bo‘la oladi.

Odatda, eksperimental ishlarni o‘quvchilar darsdan tashqari mashg‘ulot (individual va guruh) sifatida maktabning tirik tabiat burchagi yoki o‘quv tajriba maydonida bajaradi.

Amaliy ishlar kuzatuv va tajribalarni to‘ldiradi, tabiiy materialni o‘rganishda bolalarni birlashib ijodiy ravishda ishlashga o‘rgatadi.

Amaliy ishlar dars jarayonida, ekskursiyalarda olingan bilimlarni har tomonlama mustahkamlashga imkon beradi. Bundan tashqari, amaliy ishlar bolalarda mehnat malakalari va ko‘nikmalari hosil bo‘lishiga, mustaqil ishlashga yordam beradi.

Savollar

1. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar maktabining “Tabiatshunoslik” darslarida tajriba va amaliy darslar qanday ahamiyatga ega?

2. Tajriba deganda nimani tushunasiz?.

3. Tajriba tabiatshunoslikni o‘qitishning yetakchi uslubi ekanligi haqida nima deya olasiz?.

4. Oddiy tajribalarga nimalar kiradi?

5. Murakkab tajribalarga-chi ?

6. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodlari tizimidagi amaliy ishlar qanday ahamiyatga ega?

7. Amaliy uslublarning turlariga nimalar kiradi?

8. Amaliy ishlarga tayyorlanishning qanday bosqichlarini bilasiz?

9. Amaliy ishlarning asosiy turlari nimalardan iborat?

10. Sinfdagi amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati va ularni olib borish tartibi haqida qanday fikrdasiz?

10 bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARGA TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISHNING TA'LIMY SHAKLLARI

10.1. Dars – tabiatshunoslikni o'qitishning asosiy ta'limiy shakli sifatida

Dars o'qitish jarayonining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi, bu o'quv jarayonining shunday birligi-ki, unda ta'limning tuzilishi, tamoyil va metodlari mujassamlashgan bo'ladi.

Darsning ta'limiy vazifasi maxsus maktab dasturi bo'yicha eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni nazariy bilim va amaliy mahoratga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Darsning tarbiyaviy maqsadi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda shaxs sifatlarini tarbiyalash, qiziqishlarini rivojlantirishni, layoqat, mustaqillik va ijodni namoyish qilishni ko'rib chiqishni o'z oldiga qo'yadi. O'quvchilar tarbiyasi uchun kerak bo'lgan boy imkoniyatlar o'quv fanlarining o'zida mujassamlashmog'i lozim.

O'qituvchining vazifasi ushbu imkoniyatlarni qo'llashdan iborat. Masalan, tabiat darslarida «Tabiatga qishning kelishi» yoki «Tabiatga bahorning kirib kelishi» mavzularida (3-sinf) o'qituvchi o'quvchilarga o'simliklarni parvarish qilishni o'rgatadi. Shuningdek, hayvonlar, u yoki bu yil faslida inson mehnatiga bo'lgan o'quvchilar muhabbati, uni saqlash istagining paydo bo'lishi, o'z davlatining boyligini ko'paytirish hissi shakllanadi.

Geografik yoki tarixiy materialni o'zlashtirish o'quvchilarga Vatanimizning o'tmishi bilan tanishish imkoniyatini beradi. Darsning tarbiyaviy imkoniyatlari o'quv jarayonining tashkil etilishida bir-birini tushunish, bir-biriga yordam berish, nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar, ommaning ishiga javobgarlikni o'z ichiga oladi. Darsning tarbiyaviy maqsadi o'qituvchi tomonidan aniq darsning tashkillashtirilishi va o'quv materialining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, aniqlashtirilib olinadi. Darsning maqsadi va mazmuni har xil, ammo ularning barchasida umumiy maqsad o'quvchilarning kompleks tarbiyasi va ularga tushunarli

bo'lgan bilimlarni bayon qilish, birlashtirishdir. O'qituvchi darsni shunday tashkil qilishi kerakki, ular shu darsda o'rganiladiganlarning ilgari o'tilganlar bilan bog'lanishini tushunsin, materialni ongli o'zlashtirsin.

Dars o'tishda o'qituvchi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning faol ishlari uchun sharoit yaratishga, ularda jonli qiziqish uyg'otishga intilishi kerak. Bu faqat darsga tayyorlanishda qiziqarli, mamlakatimiz hayoti bilan bog'liq bo'lgan, o'quvchilarga yaqin bo'lgan materialdan foydalanilganda bo'lishi mumkin. Darsga tayyorlanganda, faqat yangi mavzu mazmunigina emas, balki o'quvchilarning yoshi, rivojlanishi va tayyorgarligi, ilgari o'rganilganlarni o'zlashtirish darajasi, olingan bilimlarning puxtaligi ham hisobga olinishi lozim.

Darsda ko'rgazmali qurol va tajribalarni namoyish qilish va hikoya, suhbat, amaliy ish metodlarining qo'llanishi mavzuni to'liq va ravshan yoritishga imkon beradi, o'quvchilarni kamroq charchatadi, ular faolligini oshiradi.

Maqsadi va mazmuni jihatidan har xil bo'lgan darslar turlicha sxemada tuzilishi mumkin.

Dars quyidagicha sxemada tuziladi:

1. Tashkiliy qism (salomlashish, davomat, ishga tayyorlanish).

2. Uy vazifasining bajarilishini tekshirish (qurol va tajribalardan foydalanib, o'quvchilarga ma'lum bo'lganlarni so'rash).

3. Yangi materialni o'rganish; yangi mavzu bo'yicha kirish suhbat; amaliy ish; o'qituvchining hikoyasi yoki o'quvchilarga ma'lum mavzu bo'yicha tuziladi. O'qituvchi har bir tabiatshunoslik darsiga tayyorlanishda dasturga va metodik qurollarga tayanib, shu darsda o'quvchilarda qaysi asosiy bilimlar, uquv hamda ko'nikmalar shakllantirilishini, qanday tarbiyaviy g'oyalar ular ongiga yetkazilishini, dars ularning idrokij qiziqishlarini rivojlantirishga qanday yordam ko'rsatishini sinchiklab o'ylab olishi kerak.

Tabiatshunoslik darslarida yosh avlodga estetik tarbiya berish uchun keng imkoniyatlar ochiladi. Tabiat insonni ruhan boyitadi, u

bilan muloqotda bo'lish kishilarda yuqori ma'naviy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Bolalarni tabiat go'zalligini ko'ra olish va qadrlashga o'rgatish zarur.

Didaktik talablar. Tabiatshunoslik darslarini o'tkazishning miqldigi vaqtdan oqilona foydalanish, dars mavzusi, maqsadi va vazifalarini to'g'ri qo'yish bilan ta'minlanadi.

Dars vazifalarini belgilagach, o'qituvchi uning muvaffaqiyatli strukturasi tanlashga kirishadi, ya'ni so'rash, tushuntirish, mustahkamlash, yangi va ilgari o'zlashtirilganlarni nazorat qilish, bilimlarni umumlashtirish va sistemalashtirishni qanday izchillikda o'tkazish kerakligini, so'rashning qaysi turidan (yakka so'rash va frontal so'rash) foydalanishni o'ylab chiqadi.

Yangi materialni o'rganish vaqtini to'g'ri belgilash katta ahamiyatga ega. Yaxshi dars shu bilan farq qiladiki, unda yangi materialni o'rganish o'qituvchi va o'quvchilarning diqqat markazida turadi. U kengaytirilgan so'rash yoki takrorlash bilan to'sib qolinmaydi. Yangi material mazmunida o'quvchilar e'tibori markazlashtirilishi zarur bo'lgan holatlar alohida ajralib turadi. Yangi materialni o'rgatayotganda o'qituvchi ilgari o'rganilganlarga, albatta, tayanadi, boshqa mavzular bilan eng muhimlarini ajratadi. Fikrimizga «Cho'llar» mavzusi misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu mavzuni o'rganayotganda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida cho'l iqlimining belgilarini: atmosfera yog'inlari miqdorining ozligini, yozning issiqligini, havo va tuproqning yillik o'zgarishining juda kattaligini sanab chiqadi.

Xarita va suratlar bilan ishlash o'quvchilarga cho'l yuzasining xilma-xilligi, daryolar va ko'llarning kamligi, tuproqning, asosan, qumli va loy ekanligi, o'simliklarning siyrak bo'lgan faktlarga tayanuvchi yoki yangi narsalarni qarab chiqish bilan, darsda o'rganilishi kutilgan hodisalar bilan bog'liq bo'lgan dars davomida dasturga yozish va chizish; darsda olingan bilimlarni mustahkamlash bo'yicha darslik bilan ishlash; o'qitishning texnika vositalaridan foydalanish.

4. Darsda o'rganilgan materialni tekshirish va mustahkamlash. Bunda yangi material bilan ilgari o'tilganlar o'rtasidagi bog'lanish o'rganiladi, yangi mavzuni tushunib olish uchun zarur bo'lgan bilimlar aniqlanadi.

5. Qiziqarli didaktik materiallardan foydalanish (tabiatshunoslikka doir ta'limiy o'yinlar, tabiat to'g'risidagi asarlardan olingan parchalar, topishmoq va h.k).

6. Uyga vazifa berish.

Tabiatshunoslik darslariga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagi vazifalardan kelib chiqadi:

– o'quvchilarni tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar to'g'risida, o'z o'lkasining tabiati to'g'risida, Vatanimiz tabiatining xilmaxilligi to'g'risida, Yerning shakli va relyefi to'g'risida, odam organizmi va uning salomatligini muhofaza qilish to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish;

– botanika, geografiya, yuqori sinflarda anatomiya bo'yicha o'quv materialini o'zlashtirib olishga tayyorlashda yordam beruvchi puxta uquv va ko'nikmalarni shakllantirish;

– o'qitishning tarbiyaviy samaradorligini oshirish;

– rivojlanishning har tomonlama mutanosib bo'lishiga erishish;

– tabiatshunoslik xarakteridagi kitob va jumallardan bilimlar ola bilish ko'nikmasini hosil qilish;

– tabiatshunoslikni o'rganishga qiziqishni shakllantirish;

– mehnatsevarlikka, maktabda va o'quv-tajriba uchastkasida mehnat qilish xohishini tarbiyalash.

Tarbiyaviy talablar. Tabiatshunoslik darslari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan tarbiyalashni ta'minlaydi.

Eng muhim ma'lumotlarni ajratish bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishga yordam beradi va uy vazifasini bajarish vaqtida o'quvchilarga og'ir bo'lishining oldini oladi. O'qituvchi uy ishi o'quvchilar vaqtining mo'ljallanganga qaraganidan ko'pini olmasligi to'g'risida g'amxo'rlik qilmog'i lozim.

Tabiatshunoslik darslarini o'tishda o'rganishni rag'batlantiruvchi metodlarga alohida e'tibor ajratmoq kerak; buning uchun qiziqarli masala va mashqlar, idrokiy o'yinlar, ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Biroq har bir dars ham qiziqarli bo'lavermaydi. Oldinda turgan qiyinchiliklarni hisobga olib o'quvchilarda iroda va astoydillikni hosil qilmoq kerak.

Agar dars oldindan o'ylangan va uning rejasi tuzilgan bo'lsa, tabiatshunoslik darsiga bo'lgan ta'riflashgan talablarni amalga

o'qitish oson bo'ladi. O'qituvchi reja tuzib, darsning asosiy maqsadini, uning strukturasi, mazmunini (o'quv materialini, metod va uslublarni, darsning har bir qismi uchun jihozlash), tashkil qilinish shakllarini belgilaydi.

Tabiatshunoslik darsining samaradorligi o'qitish metodlari to'g'ri tanlanganda va ular ko'rsatuv vositalari bilan uyg'unlashtirilganda sezilarli darajada ortadi. O'qitishning zamonaviy texnika vositalaridan mohirona foydalanish o'quv mehnati intensivligini va o'quv jarayoni texnik madaniyatini oshiradi. Lekin bu vositalardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun o'qituvchi metodik va texnik bilimlarini, uquv va ko'nikmalarini takomillashdirib borishi kerak.

Darsni muvaffaqiyatli o'tish uchun o'qituvchi rejadan tashqari uning mazmunini ifodalovchi konspektni ham tuzishi kerak, unda darsda beriladigan savollar ro'yxati berilgan bo'ladi, qiziqarli materialdan foydalanib, hosil qilingan konkret vaziyatlar ko'rsatiladi. Endi o'qituvchi darsda so'raydigan o'quvchining bilim-hislini ko'rsatish va so'rash turi hamda bajariladigan ishni mo'ljallashi kerak.

Psixologik talablar: Tabiatshunoslik darsining reja va konspektini tuzayotganda o'qituvchi har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini:

- tafakkurini;
- xotira;
- diqqat;
- irodasini, hissiy faolligini hisobga olishi kerak.

Ushitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning tabiatga bo'lgan munosabatiga ularning ruhiy holati ham ta'sir ko'rsatadi, bunday holat ekskursiyalar, kuzatishlar, amaliy ishlar, o'qituvchining hikoyalari vaqtida vujudga keladi. Shunga ko'ra, o'quvchilar shaxsiga ta'sir ko'rsatish, ularni bajarilgan ishlardan idrokiy xursandchilik va qanoatlanish beruvchi o'quv faoliyatiga jalb qilish uchun o'qituvchi talabchan, ammo xayrixoh va adolatli bo'lishi, bola shaxsini hurmat qilishi kerak.

Shuni hisobga olish lozimki, o'qituvchining ruhiy holati o'quvchilarga darhol ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining kayfiyati,

uning saranjomligi, e'tiborli bo'lishi juda katta ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, pedagogik odobga rioya qilish darsning pedagogik muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim talablardan biridir.

Gigiyenik talablar. Sinfda tegishli harorat, tartibga, yoritish me'yoriga va boshqa gigiyenik talablarga rioya qilish o'quvchilar salomatligining garovidir. Shuning uchun ham o'qituvchi ularga rioya qilinishini kuzatib borishi, bolalarning na jismoniy, na aqliy jihatdan charchab qolmasliklariga erishishi kerak.

Aqliy jihatdan charchashning oldini olish uchun o'quv ishidagi bir xillikdan, bayonning bir ohangda bo'lishidan ehtiyot bo'lish, nazariy materialni har xil sezgi organlarini jalb qilish imkoniyatini beruvchi amaliy topshiriqlar bilan almashtirib borish kerak.

Darsning ta'limiy vazifalari

Maktab dasturi bo'yicha o'quvchilarning nazariy bilim va amaliy ishlarni o'rganishini o'z ichiga oladi. Masalan, 4-sinfda o'qish dasturida «Bolalar gurungi» hikoyasi berilgan. Hikoyaning mazmuni bilan, matn bilan tanishtirish darsning ta'limiy vazifasidir.

Darsning tarbiyaviy maqsadi

O'quvchilarda shaxs sifatlarini tarbiyalash, qiziqishlarini rivojlantirishni, layoqat, mustaqillik va ijodni namoyish qilishni ko'rib chiqishni o'z oldiga qo'yadi. O'quvchilar tarbiyasi uchun kerak bo'lgan boy imkoniyatlar o'quv fanlarining o'zida mujassamlashishi lozim.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limida bitta emas, balki bir nechta didaktik masalani hal qiluvchi dars ancha samaralidir.

Ushbu dars strukturasi:

1. Darsni tashkil etish.
2. Uy vazifasini tekshirish va o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga o'rgatish.
3. Avval o'zlashtirilganlarni takrorlash.
4. Yangi bilimlarni bayon etish.

5. Yangi mavzuni mustahkamlash.
6. Darsning yakuni.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi

O'qituvchining darsga muvaffaqiyatli tayyorgarlik ko'rishida qator shartlar bilan aniqlanadi.

O'qituvchi o'z fanini aniq va to'liq bilishi shart. Kursning mazmuni va darsliklar tuzilishini bilishi zarur. Samarali natija beruvchi o'qitish metodlaridan, ilmiy metodik adabiyotlardan foydalanishi lozim.


O'qituvchi har bir o'quv choragiga taqvim reja tuzib chiqadi. Reja tarkibiga mavzu, berilgan mavzu bo'yicha darslarning didaktik maqsadi, asosiy tushunchalar, metodlar, jihozlanish, mustaqil va yozma ish namunalari, ularning o'tkazilish muddati, mavzuga oid ekskursiya kabilar kiritilgan bo'ladi.

Darsning tahlili

Darsni chuqur va har tomonlama to'liq bajarish muhim ahamiyatga ega. Aynan tahlil qilish natijasida o'quv jarayonini takomillashtirish ishlarini amalga oshirish mumkin. Darsning tahlili o'qituvchiga ilg'or ish tajribasini o'rganish va umumlashtirishga hamda o'zining pedagogik faoliyatida qo'llashga imkon beradi.

Darsning alohida bo'laklarini tahlil qilish davomida umumdidaktik tahlil o'tkazish mumkin. Uning taxminiy ko'rinishi quyidagicha:

1. Dars mavzusi.
2. Darsning vazifalari (ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion, rivojlantiruvchi).
3. Darsning tili, uning tuzilishi, dars komponentlarining tuzilishi.



Tabiatshunoslik darslarining tiplari

Tabiatshunoslik darsi bir necha didaktik maqsadga ega bo'lishi mumkin, shunga ko'ra, uning tuzilishi va darslarning tiplari ham har xil bo'ladi. Didaktik maqsadga qarab, darslar quyidagi tiplarga ajratiladi.

1. Birlashtirilgan dars.
2. Yangi material o'rganiladigan kurs.
3. Mustahkamlash darsi.
4. Ekskursiya (sayohat) darsi.

5. O'quv uchastkasidagi dars.
6. Maktab Geografiya maydonchasidagi dars.
7. Kino va teledarslar.
8. Takrorlovchi-umumlashtiruvchi dars.

«O'qituvchi, – degan edi V.A.Suxomlinskiy, – yaxshi darsga butun umr tayyorlanadi».

1. Birlashtirilgan dars tabiatshunoslik darslarining eng ko'p tarqalgan tipidir. Unda bir nechta didaktik vazifalar, o'tilganlarni takrorlash, uy vazifasini (ijodiy daftarlar va kuzatishlar kundaligidagi ishlarni) tekshirish, yangi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash kabilar hal qilinadi.

Bunda vazifalardan birortasi ham ustun kelmaydi, barchasi birgalikda hal qilinadi. Kombinatsiyalashtirilgan darsni o'tishda xilma-xil metod va uslublar: suhbat, o'qituvchi hikoyasi, tabiiy obyektlar va ko'rgazmali qurollar bilan ishlash, kino va diafilmlar ko'rish, daftarga yozish va rasmlar chizish qo'llaniladi. Kombinatsiyalashtirilgan tipdagi darsni o'tishda eng ko'p tarqalgan xato burcha ishlarning ko'rgazmali qurollardan foydalanmasdan va mavzudagi tabiatshunoslik faktlarini tushuntirmasdan matn (mashqni) o'qish va aytib berishdan iborat bo'lib qolishidir. Dars o'tishga shunday yondoshish ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Tabiatshunoslik o'qituvchisi tabiat to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash vositalaridan biri ekanligini bilishi kerak.

2. Yangi materialni o'rganish darsi. Darsning bu tipi alohida ko'rinishda uchramaydi. O'quv materialining o'ziga xosligi va o'quvchilarda diqqatning barqaror emasligini hisobga olib, yangi materialni o'rganish asosiy maqsad hisoblangan darslar o'tkazilishi mumkin.

Bu ishga darsda vaqtning ko'p qismi ajratiladi, darsning boshqa qismlari unga bo'ysunadi. Yangi materialni ilgari o'zlashtirilganlar sistemasiga kiritish uchun bolalarni yangi materialni qabul qilib olishga tayyorlovchi bo'lim va savollarni takrorlaydi. Bunda darsda o'rganiladigan material mustahkamlanib boradi.

Bu tipdagi dars strukturasi shunday bo'ladi: yangi bilimlarni ongli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan materialni takrorlash va

kuzatishlar kundaligi bilan ishlash: dars mavzusi va maqsadini bildirish; yangi materialni o'rganish; amaliy ish mavzusi bo'yicha suhbat; o'quvchilarning mustaqil ishlashi; o'quvchilarning o'rganilgan materialini tushunganini tekshirish; yakuniy xulosa chiqarish, uyga vazifa berish.

3. Mustahkamlash darsi. Bu tipdagi darsda o'quvchilarning har xil topshiriqlar va tabiatshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasini, shuningdek, tabiat jismlari hamda hodisalarining o'zaro bog'lanishini ochib beruvchi ishlar bajarishi markaziy o'rinni egallaydi.

Bu darslarning strukturasi quyidagicha bo'ladi: oldinda turgan ishlarning maqsadi: taklif qilingan topshiriqlarni bajarish uchun zarur bilim, uquv va ko'nikmalarni esga olish; o'quvchilarning topshirilgan ishlarni bajarishi. O'qituvchining bajarilgan ishlarni tekshirishi, uyga vazifa berishi.

Bilim, uquv va ko'nikmalarni kengaytirish va rivojlantirish, shuningdek, yangi materialni qabul qilib olishni osonlashtirish uchun bunday darslarda kelgusi mavzuni o'rganishga tayyorgarlik ishlari bajariladi.

Bu tipdagi darslarda ekskursiyalar yoki tabiiy obyektlar ustida uzoq kuzatishlar jarayonida o'zlashtirilgan bilimlarni qayta tiklash maqsadida ilgari o'quvchilar tayyorlagan albomlardan, surat, sxema, diafilmlardan foydalanish mumkin.

4. Ekskursiya darsi. Bu o'qitishning eng yuqori ko'rgazmalilikka va eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijodiy mustaqilligiga asoslangan maxsus shaklidir. Dasturning deyarli har bir mavzusi bo'yicha ekskursiyalar mo'ljallangan. Ammo tabiiy sharoit ular sonini ancha ko'paytirishga imkon beradi.

Ekskursiya o'quv – tarbiya ishlarining juda murakkab va qiyin shakllari hamda bilimlarni bayon qilishning xilma-xil metodlarini nazarda tutadi. Ekskursiya taqvim rejasi o'quv yilining boshida bir yil uchun choraklar bo'yicha mahalliy sharoitni hisobga olgan holda tuziladi. Har bir ekskursiya puxta tayyorgarlikni talab qiladi, va, odatda, quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: ekskursiyaning taqvim rejasini tuzish; konkret o'quv-tarbiya vazifalarini belgilash; obyekt tanlash; kengaytirilgan ish rejasini tuzish: ekskursiya yoki

o'z xodimlarini o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishga tayyorlash; ularni ekskursiyaning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish; o'quvchilarni oldindan tayyorlash; kuzatish imkoniyatlarini hisobga olib eng maqsadga muvofiq marshrutni tanlash, ekskursiya o'tkazish uchun yordamchilarni tayyorlash. Ekskursiya vaqtida o'quvchilar ekskursiya joyigacha yo'l-yo'lakay kuzatib boradi; butun ekskursiya davomida o'qituvchi tushuntiradi: ekskursiya joyida o'quvchilar odamlar va mashinalarning ishini yoki tabiat obyektlari va hodisalarini kuzatadi: ishchilar, muhandislar bilan suhbatlashadi, tabiiy material yig'adi va oldindan tayyorlab qo'yilgan papka, qutiga, bankalarga soladi, o'lchov birligini olib boradi kompas bo'yicha yo'nalishlarni aniqlaydi; rasm chizadi, xulosalar chiqaradi va umumlashtiradi; kuzatayotgan obyektga baholi qudrat, ijtimoiy foydali mehnat qiladi.

Ekskursiya vaqtida to'plangan material darsda, uyda yoki darsdan tashqari vaqtda maktabda ishlanadi. Ulardan gerbariy va kolleksiyalar tayyorlanadi, ular tarqatma material bo'lib xizmat qiladi yoki ko'rgazmali qurol sifatida foydalaniladi. Shu maqsadda, shuningdek, rasmlar, albomlar, har xil yasalgan narsalardan ham foydalaniladi.

Ekskursiyada to'plangan materialdan faqat tabiatshunoslik darslaridagina emas, balki matematika, ona tili, mehnat va rasm darslarida ham foydalanish kerak.

Ekskursiya o'quvchilarni tabiat hodisalari yoki tabiat va mehnat aloqalarini aks ettiruvchi faktlar bilan tanishtirish uchun zarur bo'lgan noyob bilim manbaidir. Ekskursiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning bilim faoliyatiga rahbarlik qiladi, bunda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalaniladi.

Ekskursiyada to'plangan materialdan faqat tabiatshunoslik darslaridagina emas, balki matematika, ona tili, mehnat va PAT, rasm darslarida ham foydalanish kerak. Chunonchi, 1-sinfda savodga o'qitishning alifbe davrida o'quvchilar bilan «Kuz» mavzusi bo'yicha ikkita ekskursiya o'tkaziladi, ekskursiyalar vaqtida o'quvchilar bog'da erta va kech kuz davrida o'simliklar hayotidagi o'zgarishlar bilan tanishadi.

Bolalar qushlarning uchib ketishini kuzatadi, mehnat, PAT darslari uchun tabiiy material yig'adi.

Ekskursiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi, bunda og'zaki ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanadi.

5. O'quv-tajriba uchastkasidagi dars. Darsning bu tipidan faqat nazariy bilimlarigina emas, balki konkret uquv va ko'nikmalarni egallashda ham o'quvchilarga yordam berish uchun foydalaniladi. O'quv-tajriba uchastkasidagi darslar tabiat obyektlarini tabiiy sharoitlarda o'rganishga, o'simliklarni parvarish qilishga, qishloq xo'jaligi ish qurollari bilan ishlashga o'rgatish imkoniyatini beradi.

Bu darslarning bosh didaktik maqsadi – mehnatsevarlikni tarbiyalash, mehnat uquvlarini singdirish, tabiatshunoslik bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishdir. Asosiy struktura elementlari tashkiliy qism, o'qituvchining yo'l-yo'riq berishi, o'quvchilarning mustaqil ishlashidir.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinflarning o'quvchilari o'quv-tajriba uchastkasida sabzavot va manzarali o'simliklar bilan ish olib boradi. Tajribalar va ular bilan bog'liq bo'lgan kuzatishlar, ekskursiyalar agrotexnik va texnik-texnologik ma'lumotlar (shuningdek, o'quv-tajriba) olishi kerak bo'lgan zarur uquv va ko'nikmalar dasturda ko'rsatilgan. Tajribalarni o'tkazish rejasi tabiatshunoslik darsligida aks ettirilmagan, shunga ko'ra, o'quv-tajriba uchastkasidagi darslarning eng muhim xususiyatlarini belgilab beramiz.

Bu tipdagi darslar, boshqa har qanday dars kabi, puxta o'ylangan reja asosida, aniq belgilangan mazmunda o'quvchilarning o'quv materialini qabul qilib olishini va o'zlashtirishini ta'minlovchi xilma-xil metod va uslublar qo'llanishi bilan olib boriladi, ammo ular har vaqt suhbat bilan boshlanadi, uning jarayonida o'qituvchi dars mazmuni va vazifasini tushuntiradi. Keyin amaliy ish o'tkazish uchun zarur bo'lgan material (urug'lar, ko'chatlar) o'rganiladi va shu darsda kerak bo'ladigan ilgari o'tilgan bilimlar takrorlanadi.

Uchastkadagi dars vaqtida suhbat sinfdagi o'sha metodik talablarga muvofiq olib boriladi. O'rganiladigan material tabiiy holda ko'rsatiladi. Suhbatdan keyin amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan yo'l-yo'riqlar beriladi. So'ngra o'quvchilar amaliy ishni bajarishga kirishadi.

Maktaboldi uchastkasidagi mashg'ulot rejasini keltiramiz. Darsning vazifalari; darsga tayyorlanish; darsni jihozlash; dars o'tishni tashkil etish metodikasi; yakuniy suhbat. Dars boshlanishdagidek tashkiliy ravishda tugallanishi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilardan barcha ish qurollarini to'plashni, ularni tozalab, ko'rsatilgan joyga qo'yishni so'raydi.

Darsning muvaffaqiyatli o'tishi va qat'iy intizomga erishish uchun o'qituvchi yana ish boshlanguncha har bir o'quvchiga u mehnat qiladigan uchastkani ko'rsatadi, shuningdek, kerakli ish qurollari va ekish materialini beradi.

6. Maktab geografiya maydonchasidagi dars. Joydagi amaliy ish, kuzatishlarning ko'p qismini maktaboldi uchastkasida jihozlangan geografiya maydonchasida o'tkazish mumkin. Bunday maydonchada, odatda, tushuntirilishi va o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan murakkab mavzular o'rganiladi. Geografiya maydonchasida ishni tashkil etish maktaboldi uchastkasidagidek bo'ladi. Geografiya maydonchasidagi darsga «Tabiatda suv» mavzusidagi dars misol bo'lishi mumkin. Buning uchun uchastkaga suv keltirish va tegishli suv oqimini hosil qilish kerak. Agar suv oqimi yo'lga har xil to'siqlar qo'yilsa, qirg'oqlarning yuvilishi, orollarning hosil bo'lishi, daryoning oqimi, irmog'i va quyilishi manzarasini vujudga keltirish mumkin. Geografiya maydonchasida o'quvchilar tepalikning tuzilishi yaxshi ko'ringani uchun yotiq va tik yonbag'irliklarni qarab chiqadi, keyin o'zlari qumdan tepalik modelini tayyorlaydi. Shuningdek, soyni uning yaxshi ko'rinadigan qismlari: boshlanishi, oqimi, quyilishi, o'ng va chap qirg'oqlari bilan modellashtirish mumkin. Bunda ular Quyoshning ufq ustidagi balandligini aniqlash uchun kun yarmidagi soyaning uzunligini o'lchashga, ufqning asosiy va oraliq tomonlarini erkin aniqlashga o'rganadi, tabiat hodisalarini kuzatadi va tushuntiradi. Geografiya maydonchasida 3-4-sinf o'quvchilari bilan «Mahalliy belgilarga qarab ufq tomonlarini aniqlash», «Kompleks bo'yicha aniqlash», «Quruqlik yuzasining shakllari», «Tog'lar» va shu kabi mavzularda darslar o'tish qiziqarli bo'ladi va katta foyda keltiradi, chunki ular amaliy faoliyat bilan bog'liq.

7. Kino va teledarslar. Hozirda kino va teledarslar maktab

ishlari amaliyotiga ko'proq kirib bormoqda. Tabiatshunoslik bo'yicha 3-4-sinflar uchun teleko'rsatuvlar tematikasi dastur mazmuniga va materialni o'rganishning taqvim muddatlariga muvofiq keladi, shuning uchun ulardan to'liq foydalanish mumkin. Teledarlar o'qituvchi uchun yaxshi madaddir, chunki ular aytib berilganda qiyin o'zlashtiriladigan keng materialni ko'rgazmali va harakatchan yetkazadi.

Tabiatshunoslik bo'yicha har qaysi teleko'rsatuv ilgarigi darslarda o'rganilgan umumlashtirilgan materialni taqdim qiladi. Shunga ko'ra, teleko'rsatuvgacha material bir nechta darslarda o'rganiladi, teleko'rsatuvlar yordamida esa umumlashtiriladi. Chunki har bir teleko'rsatuv 20 daqiqa davom etadi, undan darsni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin.

O'qitish jarayonida teleko'rsatuvlardan tashqari o'quv kinofilmlari, kinofragmentlar, diapozitivlardan foydalaniladi. Ularni namoyish qilish 5-10 daqiqa davom etadi, bu ularni kombinatsiyalashgan darslar tarkibiga kiritishga imkon beradi. Ayrim hollarda butun kinofilmi namoyish qilish mumkin. O'zbek tilida o'qitiladigan maktablarda namoyish qilish davomida kadrlarni o'qituvchilarning o'zi ona tilida sharhlab beradi, daktil, imo-ishora nutqidan keng foydalanadi. O'quv filmi darsning qaysi qismini egallamasin, uning oldidan o'qituvchining tushuntirishi bo'lishi lozim. Ko'rinishdan so'ng film va o'qituvchining umumlashtirishi o'tkaziladi.

Savollar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida «Tabiatshunoslik» darsining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtiring.
2. Darsga qo'yiladigan talablarni sanab bering.
3. «Tabiatshunoslik» darslarining turlari xususida so'z yuriting.
4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktab ta'limida «Tabiatshunoslik» darslari vazifalarini ayting.

10.2. Ekskursiya darsi, uning eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning tabiatshunoslik fanini o'rganishdagi o'rni

Ekskursiya sinfdan tashqari ishning eng keng tarqalgan shakli bo'lishdan tashqari, ko'rgazmalarga boy, axborot olishga qulay hamda bolalar tomonidan idrok etish faoliyati rivojida, ijtimoiy tajriba orttirishda muhim o'rinlardan birini egallaydi. Ekskursiya faqatgina bilim berish va atrof-olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirmay, balki insonning dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, hissiyotlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Har qanday ekskursiya, qoidaga ko'ra, namoyish qilish va hikoya qilish o'rtasidagi munosabatga tayanadi. Chunki uning asosida doimo og'zaki tushuntirish, analiz qilish bilan birga, ko'rgazmalarning namoyishi ham yotadi.

Mashhur pedagoglar J.J.Russo, I. Pestolitsi, K.D.Ushinskiy va boshqalarning ta'kidlashicha, ta'lim olishning boshlang'ich bosqichi bolalarning atrof-olam haqida taassurotlarga ega bo'lishidir. K.D.Ushinskiy hissiy, sezib idrok etishda aqliy faoliyatning asosi va boshlanishini ko'rgan.

Umumta'lim fanlaridan bilim egallashda, o'quvchilar kuzatishlari va shaxsiy tajribalari, amaliy faoliyatlari asosidagi tasavvur va bilimlar asos bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ekskursiya bolalarda aniq obrazlar shakllantirishi, atrof-olam haqida aniq-tiniq tasavvurlar shakllanishi va hissiy tajribaning boyishi asosida o'qitishda samarali hisoblanadi.

Ekskursion ishlar o'zining korreksion-kompensator yo'nalganligi bilan kar bolalarni o'qitishda muhim o'rin egallaydi.

Ekskursiya – kar bolalarga atrof-olamni tanishtirishning o'quv shakli sifatida. Ma'lumki, maktablarda o'rganilayotgan barcha fanlar uchun o'quv ishlarining asosiy shakli darsdir. Darslarda davlat dasturi va ma'lum darajada darslikda belgilangan o'quv materialini o'qitiladi.

«Atrofimizdagi olam» darslarida o'quvchilar dasturga muvofiq, o'qituvchi rahbarligida nazariy bilimlar, amaliy uquv va ko'nikmalar oladi.

O'qituvchi o'quvchilarning ishini shunday tashkil qilishi kerakki, ular shu darsda o'rganilayotganlar ilgari o'tilganlar bilan bog'lanishini tushunsin, materialni puxta tushunib o'zlashtirsin.

Ekskursiya – ta’limni tashkil etishning shunday turiki, kar bolalarning hayotiy bilimlarini shakllantrishga, ularning ruhiy jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ekskursiya nafaqat kar o’quvchilarga atrof-olam hodisalari xususidagi bilimlarni egallashga, balki ularning tarbiyaviy qirralarini ochishga, o’quvchilarning dunyoqarashini boyitishga ham xizmat qiladi.

Umumta’limiy fanlarni o’zlashtirishning ahamiyati shundan iboratki, o’quvchilar tomonidan o’zlashtirib olinayotgan bilim va tasavvurlar aniq kuzatilgan obyektlar hamda mustaqil amaliy faoliyatdir.

Ekskursiya olib borish jarayonida o’quvchilarda aniq obrazlar, atrof-olam haqida tushunchalar shakllantiriladi.

Ekskursiya ishlari korreksion-pedagogik yo’naltirilganligi bilan ham darslardan ajralib turadi, kar bolalar ta’limida yetakchi o’rinni egallaydi. Birinchidan, kar o’quvchilar maktab-internet sharoitida ta’lim oladi, kar bolalarning ijtimoiy muloqoti chegaralangan, ekskursiya darslarida o’quvchilarning nutqiy muloqotni olib borishga ehtiyoji birmuncha o’sadi.

Ikkinchidan, kar bolalarning tafakkuri, ruhiy jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etishga zamin hozirlaydi.

Ekskursiyalar darslar bilan chambarchas bog’lanadi. Ekskursiyada ko’rilgan obyektlar darslarda ko’p marta yodga olinadi, to’plangan narsalar esa namoyish qilinadi. Yakunlovchi ekskursiyalarda o’quvchilar avval olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi, topshiriqlar bo’yicha kuzatishlar o’tkazadi va materiallar yig’adi. Kar bolalar maktab ta’limida ekskursiyalar o’tkazish ta’limiy, tarbiyaviy hamda korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarni hal etadi.

– Kar bolalarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish hamda dunyoqarashini shakllantirish ekskursiyaning ta’limiy vazifasini tashkil etadi.

– O’quvchilarda shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish, ularning aqliy, axloqiy, jismoniy, ekologik tarbiyasini rivojlantirish ekskursiyalarning tarbiyaviy vazifasidir.

– Korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar sirasiga asosiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirish, ko’proq, o’rganilayotgan

obyektlar, hodisalarni kuzatish, o'quvchining amaliy ishlarda ishtirok etishini ta'minlash kiradi.

– Kar o'quvchilarning nutqini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirishni faollashtirish ko'zda tutiladi. Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni hal qilish kar o'quvchilarga har tomonlama kompleks yondashishni talab etadi.

Ekskursiya ishlarini tashkil etishda konsentrik yondashuvni amalga oshirish talab etiladi.

O'qitishning boshlang'ich davrida kar o'quvchilarga atrof-olan xususiyatlarini ekskursiya davomida o'qitishda oddiy bilimlar beriladi, ya'ni, masalan, tabiat, ma'lum obyektlar umumiy kuzatiladi; keyinchalik ma'lum, aniq maqsadga muvofiq kuzatish ishlari olib boriladi. Ekskursiya o'tkazishda yuqoridagi yondashuvning ahamiyati surdopedagog olimlar N.N.Podyakov, F.A.Soxinlarning ilmiy tadqiqot ishlarida namoyon bo'ladi.

Durslarning eksperimental xarakterdagi topshiriqlar bilan bog'lanishi aniq va ravshandir. Kichik maktab yoshidagi kar o'quvchilar uncha murakkab bo'lmagan tajribalarni amalga oshiradi, kuzatishlar o'tkazadi (Masalan, uyda daftariga sinfda ajratilgan gul qismlarini yoki hasharot bo'laklarini yelimlaydi, jadval to'ldiradi, rasm chizadi). Bu o'qitishning eng yuqori ko'ngazmalilikka va o'quvchilarning ijodiy mustaqilligiga asoslangan maxsus shaklidir.

Dasturning deyarli har bir mavzusi bo'yicha ekskursiyalar mo'ljallangan. Vatanimizning tabiiy sharoiti ular sonini ancha ko'paytirishga imkon beradi.

Ekskursiya o'quv-tarbiya ishlarining juda murakkab va qiyin shakli hamda bilimlarni bayon qilishning xilma-xil metodlarini nazarda tutuvchi eng samarali o'qitish shakllaridan biridir. Ekskursiyaning taqvim ish rejasini o'quv yilining boshida bir yil uchun choraklar bo'yicha mahalliy sharoit hisobga olingan holda tuziladi. Har bir ekskursiya puxta tayyorgarlikni talab qiladi va odatda quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- ekskursiyalarning taqvim rejasini tuzish;
- aniq o'quv-tarbiya vazifalarini belgilash;
- obyekt tanlash va u bilan taxminiy tanishish;

- kengaytirilgan ish rejasini tuzish;
- ekskursivodni yoki korxonada xodimlarini o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazishga tayyorlash, ularni ekskursiyaning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;
- o‘quvchilarni oldindan tayyorlash, ekskursiyaning umumiy vazifalarini qo‘yish, topshiriq va vazifalarni taqsimlash, ekskursiyadagi xulq-atvor qoidalari bilan tanishtirish, anjom-aslaha va jihozlarni tayyorlash;
- kuzatish imkoniyatlarini hisobga olib, eng maqsadga muvofiq yo‘nalishni tanlash;
- ekskursiya o‘tkazish uchun yordamchilarni tayyorlash.

Ekskursiyani o‘tkazish uchun o‘qituvchi puxta tayyorlanmog‘i, quyidagi vazifalarni bajarmog‘i lozim:

- ekskursiyaning maqsad va vazifalarini aniqlab olish;
- ekskursiya, mazmunini yoritish va kar o‘quvchilarga ularni yetkazishning usul va yo‘llarini aniqlashtirish;
- ekskursiyaga olib borish mo‘ljallangan joy, obyektlarni oldindan ko‘rib kelish;
- ekskursiyaning to‘liq matnini tayyorlash.

Demak, o‘qituvchi ekskursiyani tashkil etishda bosh rolni o‘ynar ekan. Ekskursiyaning tashkil etilishida o‘quvchilarning tayyorgarligi, ularning faoliyati ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilarning ekskursiyaga tayyorgarliklari:

- ekskursiyaga borish xususida ma‘lumotga ega bo‘lishi; ekskursiya rejasini bilan tanishmog‘i lozim;
- ekskursiya davomida amal qilishi lozim bo‘lgan ish qoidalarini bilishi;
- zarur bo‘lgan jihozlar bilan qurollangan bo‘lishi;
- o‘qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlarni bajara olishi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kar bolalarga tabiatshunoslik bilimlarini berish davomida ekskursiya darslarida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro faol faoliyatda bo‘lishi talab etiladi.

Umumiy va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi ekskursiya turlari ko‘proq ishlatilishini kuzatdik.

1. Yaqin atrof-olamni tanishtirishga qaratilgan ekskursiyalar.
2. Ona tabiatni o'rganishga qaratilgan ekskursiyalar.
3. Insonlarning mehnat faoliyatini o'rganishga qaratilgan ekskursiyalar.
4. Shahar (qishloq) tarixi va hayoti bilan tanishishga qaratilgan ekskursiyalar.

Kar bolalar maktab ta'limining tayyorlov va birinchi sinflarida o'quvchilarga yaqin atrof-olam xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi ekskursiyalar o'tkazish rejalashtiriladi.

Dastlab maktab-internat haqidagi bilimlar shakllantiriladi. Masalan, maktab-internat binosi, maktab-internat joylashgan ko'cha, maktab-internatga yaqin bo'lgan istirohat bog'i, maktab-paella ta'lim muassasasi, madaniy-maishiy muassasalar: o'yinchoqlar do'koni, kitob do'koni, modalar uyi, sartaroshxona, choyxona; qurilish obyektlariga borish tashkil etiladi.

Sentabr oyida o'qituvchi bolalar bilan maktab-internatga sayohatga chiqadi. Ta'limning birinchi kunidanoq sinf xonalari bilan tanishadi, ovqatlanish xonasi, yotoqxona, sport zali, o'yin xonasi haqida tushunchaga ega bo'ladi.

Keyingi kunda shifokor xonasi, o'qituvchilar xonasi, ma'naviyat-ma'rifat xonasi haqida tasavvurga ega bo'ladi. Ekskursiya davomida o'quvchilarga o'qituvchi yo'l-yo'lakay tushuntirib ketadi: kurtalar bilan qanday munosabatda bo'lish lozim (salomlashish odobi, xayrlashish), ovqatlanish jarayonida o'zini tutib bilish odobi xususida, yo'laklarda yurish-turish malakalari berib boriladi. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarga sinf xonasi, yotoqxona kunda dahliz xonalarida yurish odobi, ozodalikka e'tibor berilishi singari tushuntirish ishlarini ham olib boradi. 2-sinfdan boshlab maktab-internat yaqinida joylashgan bozorga, turli do'konlarga, dorixona, pochtaga, turli muzeylarga borish rejalashtiriladi. Demak, ekskursiya mavzulari oddiydan murakkabga qarab borishi, izchillik tamoyili asosida, kar o'quvchilarning yakka, o'ziga xos xususiyatlari to'liq e'tiborga olinishi bilan xarakterlanar ekan.

Ekskursiyalarni o'tkazish metodikasi. Kar bolalar maktab ta'limida ekskursiyalarni o'tkazish jarayonida ekskursiyalarning rejasi bilan bevosita bog'lanadi.

Ekskursiyalar uch bosqichdan tashkil topadi:

1. Tashkiliy.
2. Asosiy.
3. Yakuniy qismlardan.

Tashkiliy qismda o'quvchilarga kuzatiladigan obyekt haqida ma'lumot beriladi.

Asosiy qismda o'quvchilar ekskursiya joyigacha yo'l-yo'lakay kuzatishlar o'tkazib boradi. Butun ekskursiya davomida o'qituvchi materialni tushuntirib boradi; ekskursiya joyida o'quvchilar odamlar va mashinalarning ishini yoki tabiat obyektlari va hodisalarini kuzatadi; tabiiy materiallar yig'adi va oldindan tayyorlab qo'yilgan papka, quticha, bankalarga soladi; o'lchov yo'nalishlarini aniqlaydi; rasm chizadi; xulosalar chiqaradi va umumlashtiradi; ekskursiya davomida toplangan materiallar darsda, uyda yoki darsdan tashqari vaqtda maktabda ishlanadi. Ulardan gerbariy va kolleksiyalar tayyorlanadi, ular tarqatma material bo'lib xizmat qiladi va ko'rgazmali qurol sifatida foydalaniladi. Shu maqsadda rasmlar, albomlar, har xil yasalgan narsalardan ham foydalaniladi. Ekskursiya davomida to'plangan narsalardan nutq o'stirish, matematika, mehnat, rasm, predmet amaliy ta'lim darslarida foydalanish lozim. Chunonchi, 1-sinfda «Kuz» mavzusida ekskursiya tashkil etiladi. Ekskursiya vaqtida o'quvchilar bog' yoki yaqin istirohat bog'ida erta va kech kuz davrida o'simliklar hayotidagi o'zgarishlar bilan tanishadi. Predmet amaliy ta'lim darslari uchun materiallar yig'ib boradi. Qish va bahorda o'quvchilar o'simliklar hayotidagi yil fasllariga qarab farqlarni ko'rish uchun kelgusi ekskursiyalar o'sha obyektlarda o'tkaziladi.

2-sinfda «Tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar» mavzusi bilan bog'liq holda ekskursiyalar o'tkaziladi, ularda o'qituvchi bolalar bilimni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, tabiat to'g'risidagi tushunchalarni shakllantiradi.

Yakuniy qismda ekskursiya davomida olingan bilimlar rasm yoki yozuvlar tarzida mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilar o'qituvchi yordamida ekskursiyada ko'rganlarini esga oladi.

Ekskursiyaning deyarli barcha bosqichlarida o'rganilayotgan nutq materialini o'quvchilar eshitib, ko'rib idrok etadi. Birinchi va

uchinchi bosqichlarda eshitishni kuchaytirib beruvchi apparatlardan foydalanish berilgan nutqiy materialni o'zlashtirishga imkon yaratadi.

Ekskursiya davomida kar o'quvchilarning maqsad asosida mustaqil faoliyat yurita olish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Har bir ekskursiya davomida o'quvchilarga yangi tushunchalar berib boriladi. Yangi tushunchalar o'quvchilarga turli usul va yo'llarni qo'llagan holda beriladi, suhbat, yozma savollarga javoblar, rasmlarni ko'rib chiqish; diafilm tomosha qilish, qisqa yozuvlar, jadvalni to'ldirish va hokazolar bajariladi.

Kar bolalar maktablarida ekskursiyaning birinchi bosqichi tashkiliy qismiga katta e'tibor qaratiladi. Asosan, «evrika» tipidagi suhbat turidan foydalaniladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatlashar ekan, ularga muammoli vaziyatlarni qo'yadi. O'quvchilar mustaqil fikrlagan holda, savollarga javob beradi. Masalan, "Harakatlanishiga ko'ra transport turlarini jadvalga joylashtiring" topshirig'ini bajarishda transportning turlarini ajratib chiqadi (yerda harakatlanuvchi, yer tagida harakatlanuvchi, suvda harakatlanuvchi, havoda harakatlanuvchi). Suhbatga chorlash o'quvchilarga beriladigan savollarning tuzilganligi bilan xarakterlanadi.

Kichik maktab yoshidagi kar bolalarga ekskursiya davomida illyustratsiyali rasm hamda yozma ko'rsatkichlarni olish maqsadga muvofiqdir. Ekskursiyaning sxematik ko'rinishi orqali o'quvchilar «rasmi odamcha»ni marshrut bo'ylab harakatlantirgan holda, o'zlarining davflariga ham qayd etadi.

Ekskursiya vaqtida bilimni faqat o'quvchilargina emas, balki boshqa shaxslar ham bayon qiladi. Surdopedagog ekskursovodning hikoyasini o'quvchilarga og'zaki-daktil, imo-ishora nutqi orqali tushuntirib bera boradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus maktab ta'limida tabiiatshunoslik bo'yicha ekskursiya darslari

Ekskursiya tiplari



Ekskursiyani tashkilalashtirish

O'qituvchining ekskursiyaga tayyorgarligi

O'quvchilarning tayyorgarligi

Ekskursiyani o'tkazish metodikasi

Ekskursiyani tashkil etish

O'quvchilarning o'rganilayotgan obyektga chiqishi hamda mavzuga muvofiq nuq materialini o'rganish

Ekskursiya davomida yig'ilgan materiallarni to'plash, ekskursiyani yakunlash

Ekskursiya davomida o'quvchilarning faoliyati

Kuzatish

Rasmnar
chizish

Material yig'ish

Amaliy topshiriqlarni
 bajarish

Subbat

Ekskursiyalarning taxminiy mavzulari
(tayyorlov-to'rtinchi sinflar)

Tayyorlov sinfi	Birinchi sinf	Ikkinchi sinf	Uchinchi sinf	To'rtinchi sinf
Maktab bo'yicha ekskursiya. Maktab hududidagi hovliga. Maktab joylashgan ko'chaga. O'yinchoqlar do'konga; Mebellar do'koniga. Idishlar do'koniga. Shifokor xonasiga. Hayvonot bog'iga. Yo'l qoidalari bilan tanishish. Sabzavot-mevalar do'koniga. Bozorga. Tabiatga ekskursiya (chorakdagi 2-3 ekskursiya).	Bizning ko'cha. Yo'l qoidalari. Qurilishga. Kutubxonaga. Kitoblar do'koniga. Tikuv ustaxonasiga. Gullar do'koniga. Suratxonaga. Sartaroshxonaga. Novvoyxonaga. Tabiatga (chorakdagi 2-3 ekskursiya).	Shahar ko'chalari. Do'kon. Pochna. Bozor. Kiyim-kechak do'koni. Atelye. Shahar transporti. Xo'jalik mollari do'koni. Yo'l qoidalari. Jamoat transportida xulq-odob qoidalari. Ishlab chiqarishda (boshqaruvchilar xonasida, mehmonda). Tabiatga (chorakdagi 2-3 ekskursiya), sayohat.	Qurilishga. Do'konga. Yo'l qoidalari. Kosiblik ustaxonasiga. Oyoq kiyimlar do'koniga. Maishiy xizmat. Chilangarlik. Qandolat do'koni. Transport vositalari. Ko'rgazmaga. Shaharning tarixiy joylariga. Matolar do'koniga. Temir yo'l, undagi daryo va qurilishlar. O'yinchoqlar fabrikasiga. Tabiatga (chorakdagi 2-3 ekskursiya). Avtoustaxonaga.	O'lkashunoslik muzeyi. Aeroport, aerovokzal. Shaharning tarixiy joylari. Kutubxona. Kimyoviy tozalash korxonasi, kir yuvish xonasi. Tikuv fabrikasi. Oyoq kiyim fabrikasi. Avtobus parki. Non zavodi. Plastmassa mahsulotlari zavodi. Bosmaxona. Tarix muzeyi. Xalq xo'jaligi pavilyoni.

Savollar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda tabiatshunoslik fanidan ekskursiya darslarining ahamiyati qanday?
2. Ekskursiya darslariga tayyorgarlikning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
3. Ekskursiya vaqtida qanday tajribalarni o'tkazish mumkin?
4. Ekskursiya davomida o'quvchilarning faoliyati xususida so'zlang.
5. Ekskursiya o'tkazishda qanday metodlardan foydalaniladi?
6. Ekskursiya darsining rejasi qanday tuziladi?
7. Ekskursiya darslarining korreksion ahamiyati xususida nimalar deya olasiz?
8. Tabiatshunoslik kursidagi ekskursiya darsining PAT, nutq o'stirish, rasm darslari bilan bog'liqlik tomonini ko'rsating.

10.3. Tabiatshunoslik ta'limini tashkil etishning ko'p qirrali shakli – sinfdan tashqari ishlar xususida

Darslardan tashqari maktabda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan darsdan bo'sh vaqtlarda har xil mashg'ulotlar, ekskursiyalar, to'garak ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari ishlar, o'quvchilarning qiziqishlari bo'yicha tadbirlar va boshqa ishlar o'tkaziladi. Bu ishlar o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning bilishga qiziqishlarini uyg'otish va maktab dasturini kengaytirish hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan darsdan chetdagi ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va mustaqilligini rivojlantirish, bu vaqtni tashkil etish imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki o'quvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy dunyoqarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko'nikma-

larini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi.

Tabiatshunoslik bo'yicha yo'lga qo'yilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir. Uzoq muddatli tajribalar qo'yish, gerbariy va kolleksiyalar uchun materiallar yig'ish, model, maket va boshqa ko'rgazmali qurollar tayyorlash, jonli tabiat burchagi va o'quv-tajriba uchastkasidagi ishlar kabi, sinfdan tashqari ishlarning shakllari tabiatni o'rganishni hayot bilan bog'lash va o'quvchilarni politexnik tayyorgarlik uchun ahamiyatli bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bu mashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Bolalar e'tiborini tabiat, shuningdek, maktab jonli burchagi va o'quv-tajriba uchastkasidagi kuzatishlarga qaratmoq lozim:

- ko'cha va maktabni ko'kalamzorlashtirish;
- qushlarni muhofaza qilish;
- qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy foydali mehnatni tashkil etish.

Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi lozim. Mavzuni qabul qilib olish va namoyon qilishga yo'naltirilgan har boshlang'ich sinf o'quvchisining bilimi olish faoliyati bolalarda ijodiy va individual qiziqishning shakllanishini ko'zda tutadi. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning bilim olish faoliyati bolalarda so'z boyligini, so'zlash qobiliyatini, kuzatuvchanlikni, bilimga chanoqlikni rivojlantiradi. O'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyati o'z ichiga boshlang'ich sinf dasturi tomonidan belgilangan bilimlarning yanada kuchayishiga doir savollarni qamraydi, bolalarda tevarakatrofdagi hayotga qiziqishni yanada rivojlantiradi. Sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Ommaviy ishlar, tadbirlar.

2. *Cheklangan o'quvchilar doirasida olib boriladigan to'garak ishlari.*

3. *Ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar.*

Ommaviy mashg'ulotlar kinofilmlarni namoyish qilishni, tabiatga ekskursiyalar tashkil etishni, crtaliklar, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilishni, turli intellectual o'yinlar o'tkazishni nazarda tutadi.

Guruh mashg'ulotiga «Yosh tabiatshunoslar», «Yosh ekolog», «Yashil posbonlar», to'garaklari ishlari kiradi.

Individual mashg'ulotlar devoriy gazetalar, albomlar chiqarishni, jonli tabiat burchagi va maktaboldi o'quv-tajriba uchastkasidagi, tabiatdagi ishlarni; darsdan tashqari o'qish va axborot burchagi uchun tabiatshunoslik mazmunidagi materiallar tanlashni, tabiat to'g'risidagi «Yosh tabiatshunos» jurnaliga, bolalar ilmiy-ommabop kitoblariga sharh berishni o'z ichiga oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning barcha turlari bir-birini to'ldirishi va takomillashtirishi lozim. Individual topshiriq yoki o'qituvchining tavsiyasini bajarishda muayyan qiziqish uyg'onishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilardagi o'xshash, qiziq ishlarni aniqlab, ularni to'garaklarga birlashtiradi. Bunday birlashmalar sinfdan tashqari ommaviy tadbirlarning tashkiliy markazi bo'lib qolishi mumkin, ularning muvaffaqiyatli o'tishi uchun turli tayyorgarlik ishlari va ko'p sonli ishtirokchilar kerak.

Sinfdan tashqari ishlar tashkiliy qismi, mazmuni, o'tkazish metodlari jihatidan xilma-xil bo'lishi kerak. Uning mazmuni doimiy bo'lmaydi. U o'quvchilarning tarkibi, yoshi, qiziqishi va ehtiyojlariga bog'liq. Eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari foydalanishi mumkin bo'lgan ishlarning taxminiy ro'yxati quyidagicha:

– tabiatdagi kuzatishlar, tabiiy hodisalarning sabablarini aniqlash;

– o'lkashunoslik muzeyiga, qazilma boyliklar olinadigan joylarga, dala va fermalarga to'plangan materiallarni izohlash uchun ekskursiyalar uyushtirish;

– tabiiy material to'plash va rasmiylashtirish; kolleksiya, gerbariy, maket, model tuzish;

– maktabning atrof-tabiat xaritasi, unga yondosh joyning rejasini tuzish;

– ilmiy-ommabop tabiatshunoslik adabiyotini, «G'uncha» jurnalidagi maqolalarni jamoa bo'lib o'qish;

– jomali tabiat burchagi tashkil qilish, o'simlik va hayvonlarni kuzatish va ular ustida tajribalar o'tkazish, shuningdek, maktaboldi tehashtkasida tajriba va kuzatishlar olib borish;

– tabiatshunoslik mazmunidagi kinofilm, diafilmlarni ko'rish;

– ommaviy tadbirlar (bayram, ertaliklar)da qatnashish;

– zoopark hayvonlari bilan tanishtirish;

– tabiatni muhofaza qilish;

– o'simlik va hayvonlarning foydasi va ahamiyati to'g'risida subbutlar;

– tabiat muhofazasiga qaratilgan ijtimoiy-foydali ishlar, ko'kalg'mzorlarni muhofaza qilish, daraxt va butalar o'tqazish hamda ularni parvarish qilish, begona va madaniy o'simliklarning urug' mevalarini yig'ish, begona o'tlar, dala, poliz, bog', o'tmon zararkunandalariga qarshi kurashish, foydali hayvonlarni muhofaza qilish;

– tabiatshunoslik kabinetini, o'lkashunoslik burchagini jihozlash;

– o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilish;

– devoriy gazetalar chiqarish;

– yangiliklar burchagi hamda sinfdan tashqari o'qish mavzulari bo'yicha qo'shimcha o'qish uchun adabiyotlar yig'ish.

O'quvchilar faoliyatining muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, har bir mashg'ulot uchun materialni to'g'ri tanlashga, uni o'tkazishning rejasini va metodikasiga, shuningdek, mo'ljallangan tadbirlarda o'quvchilarning faol qatnashishiga bog'liqdir.

Individual ishlar. Tabiatni bilish va moyillik yoki, hech bo'lmaganda, qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilar bilan tabiatshunoslik bo'yicha individual ishlar olib boriladi. Bolalarda tabiatga qiziqish vujudga kelishida o'qituvchining shaxsi, uning tabiatga muhabbati va ehtiyotkorona munosabati o'quvchilarni qiziqitira olish uquvi katta rol o'ynaydi. Individual topshiriqlarni bajarish bolalarning bo'sh vaqtini foydali va qiziqarli ishlar bilan to'ldiradi.

Yakka topshiriqlarning mazmuni o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'quvchini nimaiki qiziqtirmasin (xona o'simliklarini parvarish qilish, hayvon va o'simliklar tasvirlangan rasm va otkritkalarini to'plash, kolleksiyalar yig'ish, tabiatda tajribalar o'tkazish), o'qituvchi tomonidan ma'qullanishi va quvvatlanishi lozim.

Individual ishlarning bajarilishini tekshirib borish kerak, ish oxirida esa uning natijalarini o'quvchilarga bayon etish zarur. Shuni esda tutish kerak-ki, individual ishlarning amaliy ahamiyati o'quvchilar uni amalga oshirish zarurligini tushunganidagina ta'minlanadi. Shunga ko'ra, qilingan ish to'grisida vaqti-vaqti bilan o'quvchilardan yozma, og'zaki-daktil, og'zaki hisobotlarni tinglab borish zarur.

Guruh mashg'ulotlari. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning guruh bo'lib o'tkaziladigan shakllaridan biri to'garak ishidir, u muayyan ishtirokchilar doirasini qamrab oladi va tabiatni chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi. To'garakka yozilish ixtiyoriydir, ammo unga kiruvchi o'z zimmasiga aniq reja bo'yicha ishlash va boshlangan ishni oxiriga yetkazish majburiyatini oladi. Reja o'quvchilar bajarishga kuchi yetadigan ishlarni qamrab olishi lozim. O'qituvchining asosiy vazifasi amaliy natija beruvchi faol ishlarni ta'minlashdir. Ishda tabiiy yoki tasviriy ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan og'zaki bayon qilish, amaliy o'quvchilarning uquv va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy foydali mehnati va boshqa metodlar qo'llanishi mumkin.

To'garakning muvaffaqiyatli ishlashida mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanish katta ahamiyatga ega. To'garakning ish rejasini tuzishda mo'ljallangan tematikani o'quvchilar bilan muhokama qilish, ularning taklif va istaklarini inobatga olish zarur.

To'garakning birinchi mashg'ulotida uning faollari kengashi saylab olinadi va to'garak nomi («Hamma narsani bilishni istayman», «Biz va tabiat», «Yosh tabiatshunoslar», «Tabiatni sevuvchilar») tasdiqlanadi. Eng yaxshi nom uchun tanlov e'lon qilinishi mumkin. Shuningdek, to'garakka qatnashuvchilarning xulq-atvori qoidalarini ishlab chiqish va tasdiqlash zarur.

Qoidalar:

- ishda faol qatnashish;
- barcha topshiriqlarni bajarish;
- har bir ishni nihoyasiga yetkazish;
- kuzatishlar va bajarilgan ishlar kundaligini yuritish;
- o‘rtoqlariga yordam berish;
- mashg‘ulotlarda muntazam qatnashish.

To‘garak ishiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. Davomatni to‘garak sardori belgilaydi. Mashg‘ulotlar ikki haftada bir marta, muayyan kun va soatda o‘tkaziladi. Birinchi mashg‘ulotda faqat tashkiliy masalalar bilan cheklanmaslik lozim. O‘quvchilarga qiziqarli, kichikroq kirish materiallari berish kerak, toki ular to‘garak ishiga qiziqsin va nima bilan shug‘ullanishi to‘g‘risida dastlabki tasavvurlar olsin.

Har bir yosh tabiatshunos yoki 3–4 kishidan iborat kichik guruh o‘qituvchi yordamida muayyan mavzuni tanlaydi. To‘garak rahbarining vazifasi har bir ishtirokchini qiziqarli va foydali mavzu bilan qiziqtirishdir. To‘garakda o‘tkaziladigan ish xilma-xil bo‘lishi, lekin unumiy holda jonajon tabiatni o‘rganishga yo‘naltirilishi lozim.

«Hamma narsani bilishni istayman» to‘garagining (1–4-sinflar) ishini quyidagi reja bo‘yicha tashkil qilish mumkin.

Kirish mashg‘uloti (yoriting).

Tabiatga ekskursiya uyushtirish.

«Jonajon o‘lkaning qushlari», «Yilning turli fasllarida o‘simliklar», «Yilning turli fasllarida hayvonlar» diafilmlarini ko‘rish.

«Oltin kuz» ertaligi.

«G‘uncha» jurnalidan qiziqarli hikoyani o‘qish.

«Qizil kitob» to‘g‘risida suhbat.

To‘garak ishlarini yakunlash.

«Gulxan» jurnalidan qiziqarli materiallar to‘plash.

«2x2», «Bilimdon», «Boychechak» jurnallaridagi tabiatga oid maqola, boshqotirmalarni to‘plash.

Mashg‘ulotlarda xilma-xil hikoya, suhbat, amaliy ishlar bajarish (kolleksiya va gerbariyalar yasash, tajribalarga tayyorlanish va ularni o‘tkazish).

Ommaviy mashg'ulotlar. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini klub ishlariga jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Klub majlislarida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan "Bu nima uchun yuz beradi?", "Qayerda buni ko'rish, bilish, o'qish mumkin?" kabi savollarga mustaqil javoblar olishga o'rganadi.

Har bir klub majlisining zarur elementlari o'quvchilarning savollari va javoblaridir, javoblar topilgan manbalarning, albatta, ko'rsatilishidir. Bu ish bilan barcha o'quvchilarni qiziqtirish uchun sinfdan «So'rang, javob beramiz», «Nimachining savollari» yozilgan quti qo'yiladi, unga savollar yozilgan varaqachalar solinadi.

Klubning navbatdagi majlisidan bir hafta oldin o'qituvchi savollarni mazmuniga qarab guruhlaydi, guruh a'zolariga savollarga javob topib kelish topshiriladi. Savollarga javob berishda ko'rgazmali metodlardan unumli foydalaniladi.

Klub majlisi o'tkazilayotgan sinfdan burchak yoki axborot taxtasini jihozlash kerak, ularda bo'lajak majlislar, ularning mavzusi, adabiyotni tavsiya qiluvchi ro'yxat to'g'risida bildirish joylashtiriladi. Bu yerda kitoblar, ko'rgazmali qurollar yasaladi, ko'rgazma ham o'tkaziladi.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limida qo'llaniladigan sinfdan tashqari ishlar xususida nimalarni bilasiz?
2. Sinfdan tashqari ishlarning ahamiyatini ko'rsating.
3. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy mazmuni qanday?
4. Sinfdan tashqari ishlarning qaysi turlarini bilasiz?
5. Sinfdan tashqari ishlar va darsning farqli va o'xshash xususiyatlarini aniqlang.
6. Yakka ishlarni olib borish metodikasi xususida gapiring.
7. Ommaviy tadbirlarni olib borish metodikasi qanday?
8. To'garaklar faoliyati xususidagi fikringiz qanday?

XI bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

11.1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan maktab ta'limi 1-2-sinflarda «Atrofimizdagi olam» darslarini o'qitish metodikasi

1-2-sinflarda eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar atrof-olam bilan tabiatni kuzatish orqali tanishadi. O'quvchilarda tabiat haqidagi aniq bilimlar va fikrlar elementar tushunchalarning umumlashuvi bilan shakllanadi.

Ta'limda asosiy o'rinni malaka tashkil etadi. O'quvchilarda malakalarni hosil qilishga tayyorlashda o'qituvchining kuzatilganlarni tahlil qilishga alohida ahamiyat berishi talab etiladi. Tajribani ko'rsatishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga bilim, ko'nikmalarni hosil qilish uchun savollar beradi. (Nima uchun bahorda qor yog'adi?), kuzatish uchun topshiriqlar beradi (Kuzatuv davomida qor isitilganda nima yuz beradi?) so'ngra, tajribani qanday o'tkazish kerakligi tushuntiriladi (Nimani olish kerak, nimani kuzatish kerak) va kuzatuvni tashkil qiladi. Oxirgi bosqichda o'quvchilar tajribadan nimani o'rganganligini gapirib beradi va shu tariqa oldindan berilgan savollarga javob qaytaradi.

1-2-sinflar bilan ishlash jarayonida, ayniqsa, tajriba mobaynida o'quvchilar faoliyatini tashkillashtirishda ma'lum tizimga rioya qilish muhim hisoblanib, savol va topshiriqlarni yozib berish va tizimlashtirish, o'quvchilardan tajribaning eng asosiy qismlarini gapirib berishini talab qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o'quvchilarning tajriba jarayonida o'zlashtirilgan bilimlarni esda saqlab qolishiga yordam beradi.

Tabiatni o'rganish, asosan, yil fasllarining tabiatda o'zgarib turishini kuzatishdan boshlanadi. Fasllarning tabiatda o'zgarishi mavzusining mazmuni: «Ona tabiat» umumiy mavzusida yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, yana bir qancha mavzular: «Kuzda tabiat», «Kirib kelayotgan qishning belgilari», «Qish va

kuz hayvonlar va o'simliklar hayotida», «Qish tabiati va insonlar faoliyati», «Bahor tabiati», «Bahorda daraxtlarning o'sishi va rivojlanishi», «Bahorda hayvonlar» kabilarda ham yoritilgan.

O'quvchilar umumiy tabiatni o'rganish bilan bir qatorda, jonli va jonsiz tabiatdagi o'zgarishlar va sodir bo'ladigan jarayonlar hamda alohida mavzular haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradi.

Alohida mavzularda insonlarning kundalik va xo'jalik faoliyatida foydalanishi uchun kerak bo'ladigan jonsiz tabiatning mahsuli: «Suv, qor, muz» mavzulari ko'rib chiqiladi. Bu mavzularni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda Yer haqida elementar tushunchalar va Yerni tashkil etadigan quruqlik, suv, Quyosh haqidagi bilimlar shakllanadi.

Jonli tabiatning elementlari «Gulli o'simliklar», «Xonaki gullar va ularni parvarish qilish» mavzularida ko'rib chiqiladi.

O'quvchilar o'simliklar qismlarining umumiy belgilari bilan tanishadi va ularning joylashishini ko'rsatadi (ildizidan tepaga qarab tanasi, tanasidan shoxlari, shoxlaridan barglari va gullari o'sadi), mevalarning tuzilishini ko'rib chiqadi. O'quvchida o'simliklarning asosiy xususiyatlari haqidagi tasavvurlar to'planib boradi. Natijada o'quvchilar o'simliklarning yashash sharoitlarini o'rganishga tayyorlanadi va o'simliklarni kuzatish tabiatdagi fasllar o'zgarishini kuzatish bilan chambarchas bog'liqligini va katta ahamiyatga egaligini his etadi.

1- va 2-sinfda tabiatni o'rganishga qaratilgan bilimlar, avvalo, aniq va konkret elementar tushunchalarning shakllanishiga yo'nalgan bo'lishi kerak. 1-2-sinflarda o'quvchilar insonning tashqi tuzilishini o'rganadi, sog'liqni himoya qilishda amal qilish zarur bo'lgan gigiyenik talablar bilan tanishadi. Bu bilimlar o'quvchining organizmidagi eshitishning buzilishini tasavvur qilishni sezilarli tarzda to'ldiradi va gigiyenik ko'nikma va malakalarni tarbiyalashga yordam beradi. 1-2-sinflarda ko'rgazmali tasavvurlar so'zlar bilan bog'liq, shuning uchun ular mashg'ulotlarda bemalol shug'ullanadi, ya'ni, tabiatni o'rganishda analiz, sintez malakalaridan yaxshi foydalanadi. Buning uchun bolalar faoliyatga undovchi so'zlarni va gaplarni o'zlashtirishi kerak bo'ladi (kuzat, solishtir, bajar, xulosa chiqar va hokazo).

Savollardan foydalanishda 2-sinf o'quvchilari 1-sinfga qaraganda mustaqil kuzatadi, tahlil qiladi va solishtira oladi. Masalan, o'quvchilarning tahlil qilishi va xulosa chiqarishiga misol keltirsak: «Men o'ylaymanki, bugun qattiq shamol bo'ladi, chunki daraxtning qalin shoxlari tebranmoqda», «Bodringda urug' bor. Pomidorda ham urug' bor. Demak, bodring va pomidor hosil hisoblanadi». Bolalar shu tarzda tahlil qilishni o'rganadi va xulosa chiqaradi.

1-2-sinflarda jonli va jonsiz tabiat haqidagi bog'lanishlar yuzasidan aniq tasavvurlar shakllanadi. Bu tasavvurlar natijalarni kuzatish va tahlil qilish natijasida aniqlashtiriladi va rivojlantiriladi. Bu esa, albatta, nutq ishtirokida amalga oshadi. Bolalarning nutqida, gaplarida, ya'ni, tahlil qilish, kuzatish davomida o'z munosabatlarini nutq orqali bildirayotganda bolalarning nutqi ustida qayta ishlanadi (lekin, chunki, shuning uchun bog'lovchilari ustida). 2-sinfda o'quvchilarning xulosa qilishida o'rganayotgan material va tabiat hodisalari haqida xulosa chiqarishiga emas, balki, tabiat va tabiat hodisalari, tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlarning bir-biriga bog'liqligi haqida dastlabki bilimlarning to'planganligiga alohida ahamiyat beriladi.

Metodik tavsiyalar

1-2-sinf o'quvchilari har kuni jonli va jonsiz tabiatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni kuzatadi. Berilgan kuzatuvlar 1-sinf kuzatuvlari shaklida amalga oshadi. Biroq 2-sinfda, 1-sinfdan farqli ravishda, kuzatuvlar murakkablashadi.

Agar 1-sinfda kuzatuvlar faqat umumiy xarakterga ega bo'lib, tabiatning asosiy komponentlari haqida dastlabki bilimlarni shakllantirishga yo'nalgan bo'lsa, 2-sinfda murakkablashadi. Dastlabki bilimlar chuqurlashtiriladi va aniqlashtiriladi. Shu maqsadda 2-sinfda haftalik kuzatishlar tematikasi yo'lga qo'yiladi.

Har bir hafta uchun tabiatning ikkita komponentini kuzatish ajratiladi. Ulardan birinchisi doimiy bo'lib, ob-havoni kuzatish hisoblanadi. Ikkinchisi har bir hafta uchun alohida, masalan, birinchi chorakka oid quyidagi haftalik mavzular: «Kuzgi osmon va Quyosh», «Kuzda o'simliklar», «Hovli va bog'larda mehnat», «Jonivorlarni qishga tayyorlash», «Xazonrezgining tugashi» va

boshqa mavzular belgilanishi mumkin. Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, oydan oyga mavzular takrorlanadi. O'quvchilar tabiatning bir xil obyektlarini har xil fasllarda kuzatib tabiatning o'zgarishi va rivojlanishini o'rganadi hamda farqlaydi. Shu bilan birga, o'quvchilar jonli tabiatdagi o'zgarishlar jonsiz tabiatdagi o'zgarishlarga bog'liq ekanini, doimo jonli va jonsiz tabiat bir-birini to'ldirishini anglab yetadi.

Kuzatuvni bunday tashkillashtirish va amalga oshirish bolalarning o'z diqqatlarini hafta davomida ikkita bir-biriga bog'liq bo'lgan komponentga qaratishlariga ob-havoga (doimiy haftalik komponent) va haftada berilgan obyektни o'rganishiga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, bu kuzatishni eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib borish maqsadga muvofiq bo'lib, ular nutqining rivojlanishiga imkoniyat beradi.

Tabiat jarayonlarida o'z ifodasini topgan kuzatuvlar davomida erishilgan faktlar xulosada o'z ifodasini topadi. Haftaning boshida qilingan xulosa (barglar sarg'ayib qoldi, qizargan va sarg'aygan barglar to'kilmoqda), keyingi xulosada esa yangi ma'lumotlar bilan boyitiladi va yanada keng hamda umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'ladi. Ya'ni xulosa (kuzda daraxtlarning barglari sarg'ayadi. Qizil va sariq barglar to'kiladi. Xazonrezgi sentabr oyida boshlanadi. O'tgan yil ham xazonrezgi bo'lgan edi).

Savol va topshiriqlar

1. Kar bolalar maktabida 1-sinf o'quvchilarini atrof-olam bilan tanishtirishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Zaif eshituvchi o'quvchilar maktabida 2-sinf o'quvchilarini atrof-olam bilan tanishtirishda qanday o'ziga xoslik kuzatiladi?
3. 1-2-sinflarda tabiatda kuzatishlar o'tkazish metodikasini yoritib bering.

11.2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan maktab ta'limi 3-4-sinflarida «Tabiatshunoslik» darslarini o'qitish metodikasi

3-4-sinflarga «Tabiatshunoslik» o'quv fani kiritilgan. Tabiatshunoslik fani (tabiat – atrof-muhit bilan tanishtiruvchi fan) «Nutq o'stirish» fanidan farqli ravishda, ta'lim uslubi va tarkibiga yuqoriroq talablar qo'yladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bilimi shakllanadigan bilimlarning yig'indisida aks etadi.

Tabiat hodisalari va buyumlarning chuqur ekologik aspektini o'rganishda yangi munosabatlarni kuchaytiradi. Bu ekologik munosabatda har bir (sinf) obyektini (hayvonlar, o'simliklarni) tabiatning bir bo'lagi deb biladi va ularning alohida yashash muhiti hamda moslashuvini ko'rib chiqadi.

O'quvchilar qayerda, qanday o'simliklar o'sishini, u yoki bu o'simliklar olamida qanday hayvonlar yashashini, hayvonlarning hayotida, ularning ko'rinishiga fasl o'zgarishlarining ta'sirini o'rganadi. O'qituvchi bolalarga tabiat hodisalari va voqealarning bog'liqligini, ularning yagona va butunligini, tabiat hodisalarining sabablarini bilib olishni o'rgatadi.

O'quvchilarning mustaqillikka, bilimlarni oshirishga, faktlarni jamlashga talablarini kuchaytiradi.

«Tabiatshunoslik» darslarida yuqori darajali tizimli yondashuvni amalga oshirish tabiatni o'rganishda ta'lim berish uslubiga ta'sir etadi.

Kuzatish bilan birga, o'quvchilarning bir-biri bilan munosabati va suhbatlariga alohida e'tibor beriladi.

Darslarni uslubiy tashkillashtirishda bolalarning nutqiy rivojlanishiga alohida ahamiyat beriladi.

3–4-sinflarda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi nisbatan yuqori darajaga yetadi. Shu bilan birga, bolalarning umumiy bilim darajalari hajmi, ularning nutq va fikrlashi belgilanadi.

Ayniqsa, o'quvchining to'g'ri nutq shaklini qo'llash masalasi turadi. Og'zaki nutq bilan birga, bolalarda eshitib ko'rishni qabul qilish uchun boshqa, yangi shakl, ya'ni yozma va daktil nutq shakllaridan keng foydalaniladi.

Ayniqsa, o'qituvchining o'quvchilarga munosabatida o'qituvchi nutqi katta ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga mo'ljallangan o'quv materiallarini tushuntirishda so'z, tasvir va tushuntirish elementlarini bir necha bor qaytarishiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, eshitish qobiliyati ham e'tiborga olinadi. Umuman olganda, materiallarni qaytarish bosqichi samara beradi, bundan tashqari, bolalarning o'quv jarayonidagi tashkiliy imkoniyatlaridan ham foydalaniladi (kitobni ochib kerakli sahifani topish, doskaga chiqish, daftarda sana va oylarni yozish, xulosalarni yozib qo'yish, rasm chizish va h.k.).

Voqeliklarning bir-biri bilan bog'liqligi «shuning uchun», «shu sababli», «uchun», «agarda», «gohi» kabi yordamchi so'zlarni ishlatishni talab qiladi. Nutqda bunday so'zlarning ishlatilishi tabiatdagi voqea va jarayonlarning o'zaro bog'liqligini aniqlashga yordam beradi. O'qituvchi hamda qatnashuvchilar tomonidan murakkab gaplarning ishlatilishi o'qituvchi rejasida o'z aksini topishi kerak.

Bolalarning nutqida ko'rgazmalardan va kuzatuv qo'llanmalaridan foydalanish masalasi alohida diqqatga sazovordir. O'quv tajribalari shuni ko'rsatadiki, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning diqqatini to'g'ri jalb etish, taqsimlash, ularning boshqa faol faoliyatlariga nutq bilan murojaatda bo'lish va bu faoliyatni boshqarish muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarga jismni ko'rsatish va nomini aytish foydalidir. Bu fanga oid atamalarni o'rganishni osonlashtiradi.

Materiallarni tushuntirishda, yaxshisi, monologik tarzda nutq o'rniga suhbat o'tkazishdan foydalangan ma'qul, chunki dialog orqali o'quvchi ko'rgazma materiallarni qabul qilish bilan o'qituvchi tushuntirayotgan so'zlarni taqqoslaydi.

Suhbat o'tkazilganda bolalar berilgan savollarni xotirasida yaxshi saqlaydi. Bundan tashqari, suhbat eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'z fikrini aytishiga imkon berib, ularning o'quv materialini yaxshi tushunishini osonlashtiradi.

Bundan tashqari, o'quvchilar bilan nutqiy materialni o'rganish masalasida ekrandan foydalanish diqqatni jalb qiladi. Bu yerda bir necha jihatlarni nazarda tutish kerak:

1) eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar film ma'nosini tahlil qilishga tayyorlangan bo'lishi kerak. Bu ish, taxminan, umumta'lim maktablariga o'xshab amalga oshiriladi;

2) filmni ko'rishga tayyorgarlikda so'zlashuv nutqini rivojlantirish ishini olib borish lozim, filmni ko'rish davrida va oxirida filmning fragmentlari (bo'limlari) bo'yicha ham tushuntirish ishlari olib boriladi.

Rangli rasmlar va tabiiy predmetlar asos qilib olingan, oldindan tayyorlangan suhbat ham yaxshi samara beradi. Suhbat davomida filmning asosiy ma'nosini tushuntirish uchun so'z va iboralar berib boriladi;

3) filmni ko'rish jarayonida uning to'liq mazmuni, har bir kadr bo'yicha suhbat o'tkazib boriladi.

Bu talablarning bajarilishi boshlang'ich tayyorgarlik ishlari-ning qanchalik puxta bo'lishi va film ko'rishga yaxshi tayyorlanishga bog'liqdir.

3-sinflarda tabiatshunoslik darslarida filmlardan foydalanish, asosan, o'tilgan materiallarni qaytarish va bilimlarni mustahkamlashga asoslangandir.

Tabiatshunoslik darsida darsliklar bilan ishlash asosiy o'rin tutadi. Asosan, o'quv darsliklaridan o'tilgan materiallarni qaytarish va bilimlarni mustahkamlashda foydalaniladi. Shu jumladan, maket bilan ishlash bolalarning ko'rilayotgan masalalarni kuzatishi va hayotiy tajribalariga bog'liqdir. U yoki bu sinfning bir necha obyektini o'rganishida shu obyektlar haqidagi bo'limlardan asosiy bilim sifatida foydalanish mumkin. O'quvchilarning turli usullar yordamida asosiy bilimlarni jamlashi va ularni chuqur tushunishi tabiatshunoslik darsining asosiy vazifasi hisoblanadi. Darslarda kuzatish va natijalarni jamlash usuli 3-sinfda o'tiladigan darslarning ham asosi bo'lib qoladi. Kuzatish hisobiga vazifalarning ko'payishi va shu kuzatuvlarni vaqtlararo solishtirish o'quvchilarda mustaqillikka bo'lgan talabni oshiradi. Bundan tashqari, 3-sinfda tabiiy shart-sharoitlarni, fasllararo shart-sharoitlarini kuzatish vazifasi beriladi, shuning uchun «O'tgan yilni kuzatish kundaligi» va yakuniy jadvalni saqlash zarurdir. Bu ishlarni tashkil qilish va bajarish haqidagi aniq metodik qo'llanma «Tabiatdagi fasllararo o'zgarish» bo'limida berilgan.

11.3. Tabiatni kuzatish, kuzatishlarni umumlashtirish

Bir necha yil davomida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tabiatdagi fasllararo o'zgarishlarni kuzatadi, tabiatshunoslik darslarida, avvalo, bizning Vatanimiz, so'ngra boshqa mamlakatlarda bo'ladigan iqlimiy shart-sharoitlar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Kuzatishlar davomida, taxminan, quyidagi savollar bo'linga jamlanadi:

a) ob-havo to'g'risida. «Bugun qanday havo? Kecha qanday ob-havo bo'lgan, ertalab, kunduzi, kechqurun-chi? O'tgan oyda qanday ob-havo bo'lgan? Aniqlashtiring.»;

b) o'simlik va hayvonlar haqida. «Yozda bog' qanday ko'rinishda bo'ladi? Tomorqa-chi, park, dalalar qanday bo'ladi? Kuzda hayvon, qushlar faoliyati qanday? Hayvonlar qanday ozuqa, yemish tayyorlaydi? Tipratikan qishga qanday tayyorgarlik ko'radi?» va h.k.;

v) jonsiz tabiatning ba'zi bo'limlari haqida. «Daryo, ko'l, dengizlarni kuzating. Kuzda, qishda daryolarda qanday o'zgarishlar yuz beradi? Yilning qaysi vaqtida osmonda Quyosh uzoq bo'ladi? Eng uzun kun qachon bo'ladi? Kuzda Quyoshning chiqish vaqti o'zgaradimi? Kuzda kunning uzunligi o'zgaradimi? Yozda Quyosh qanday isitadi va yoritadi?» kabi savollar;

g) odamlarning mehnati to'g'risida, o'simliklarni o'stirish va uy hayvonlarining parvarishi haqida. «Bahorda, yozda, kuzda, polizda, bog'larda qanday ishlar olib boriladi? Yozda sigir, qo'ylar nima bilan oziqlanadi? Ular uchun ozuqa qanday tayyorlanadi?» va h.k.

Bu ajratilgan savollar kuz fasli davomida yangi savollar bilan taqqoslash bo'yicha masalalar, yilning hamma vaqtida tabiiy shart-sharoitlarning o'zgarishi bo'yicha misollar bilan boyib boradi.

3–4-sinflarda o'quv davrining birinchi haftasida jonli va jonsiz tabiatni kuzatish bolalarning yoz haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytiradi. Bajarilayotgan ishlar bolalarning fasllardagi har xil o'zgarishlarni, o'z kuzatishlari natijalarini jamlashga qaratiladi.

O'quvchilar osmonda bulut bo'lgan kunlarni bulut yo'q, osmon kulrang, deydi, kulrang osmonning to'liq bulutli ekanligini

tushunmaydi. Qish kelishini Quyoshning isitishining kamayishi, haroratning pasayishi bilan emas, balki qorning yog'ishi bilan belgilaydi. (Qish keldi, chunki qor yog'di). Bulutli kunlarda bulutni Quyosh to'sishini bilmaydi va shunga o'xshagan xatolar tasavvurning yetishmasligi va sayozligidan dalolatdir. Bunga pedagogik xatolar sabab bo'ladi.

3-4-sinflarda tabiat obyektlarini haftalar bo'yicha o'rganish va kuzatish metodikasi 2-sinf metodikasidan qoladi. Lekin kuzatish ishlari murakkablashadi. Quyoshni kuzatayotganda bolalar diqqati Quyoshning kun bo'yi gorizont bo'yicha qanday balandlikda o'zgarishiga qaratiladi.

Quyosh kuzatilganda 2-sinfda kun yarmida Quyosh balandligi (soyaning uzunligi kabi grafik (jadval) bilan solishtiriladi.

O'quvchilarga Quyoshning chiqish tomoni, botish vaqti va tomoni haqidagi bilimlar, Quyoshning gorizont bo'yicha balandligi va ob-havo temperaturasining bir-biriga bog'liqligi to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar beriladi.

Bu tushunchalar bolalarning qish yaqinlashganda kunning tezda sovushi va yozda kunning isishi sabablarini tushunishiga yordam beradi. U yoki bu hodisaning sabablarini tushuntirish hodisalarni tushunishga, materialistik tasavvurni rivojlantirishga imkon beradi.

Umumlashtiruvchi darslarda kuzatuv natijasi bo'yicha har xil turdagi faoliyatni qo'shish tavsiya qilinadi. Tabiat hodisalarining xususiyatlari oqimini aniqlash va izohlarni (faktlarni) chiqarishga qaratilgan.

1. Haftalik mavzusi bo'lgan kuzatuvni xulosa qilish (og'zaki va yozma ravishda olib boriladi).

2. Oylar va mavsumlar bo'yicha bo'lgan kuzatuvni xulosa qilish (Kuzatuvlar kundaligi bilan ishlash).

3. Mavsumlar bo'yicha bo'lgan kuzatuvlarni xulosa qilayotganda oylar bo'yicha ishlab chiqarilgan kuzatuvlar ma'lumot sanog'i va mavsumdagi har bir oying tabiiy shartlarining yozma matnlari qo'llaniladi.

4. Har xil oylarning mavsumiy ma'lumotlarining tabiiy shartlarini sifatlovchi ma'lumotlarni solishtirish.

5. Har bir oyga tegishli tabiat hodisalarining tasviri bo'lgan rasmlarni ko'rib chiqish, yildagi oylarning o'zgarishiga tegishli bo'lgan rasmlarning davomiyligini topish.

6. Turli hodisalar tasviri bo'lgan rasmlarni va isboti bilan mavsum bo'yicha bo'lgan jonli va jonsiz tabiatning predmetlarini taqsimlash (qurollarni).

7. O'quvchilarning yil vaqtlarini og'zaki (yozma) aniqlashi (bilishi).

8. Yopiq rasmlardagi tasvirlarni yil vaqti (oylar) mazmuni bo'yicha o'quvchilarga savollar berish yo'li bilan tanishtirish.

9. O'quvchilar tabiatdagi kuzatishlar asosida kichik bayon yozadi. Masalan, quyidagi mavzular bo'yicha: «Barglarning to'kilihi», «Qishki Quyosh», «Hayvonlar qishga qanday tayyorgarlik ko'radi?», «Biz qanday qorbo'ron o'ynadik?», «Biz qishda sayrga chiqdik», «Bo'ron» va h.k.

10. Yil fasllarini aks ettiruvchi rasmlarni yig'ib, «Bizning diyorumizda» «Yil fasli va vaqtlarning ko'rinishi» mavzusida albom tayyorlash.

11. Tabiat mavsumi o'zgarishlari haqidagi xulosaviy matnlarni o'qish.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga 3-4-sinflarda tabiatshunoslikni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

2. 3-sinfda tabiatda kuzatishlar o'tkazish metodikasi qanday?

3. 4-sinfda tabiatshunoslikni o'rganish xususiyatlari haqida nima deya olasiz?

4. 3-4-sinflar «Tabiatshunoslik» dasturlari va darsliklarida qaysi mavzular kengroq yoritilgan?

11.4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktab ta'limi 5-6-sinflarda «Tabiatshunoslik» darslarini o'qitish metodikasi

Tabiat ta'limi umumta'lim maktablarida o'quvchilarni tevarakatrof bilan tanishtirish, olamning tuzilishi va tabiat hodisalari, jonli

va jonsiz tabiat, maktab atrofida, o'lkada yashayotgan odamlarning mehnat faoliyati, tabiatda turli yil fasllarida odamlar mehnati haqida ma'lumot berish; jonli va jonsiz tabiatni o'rganish yuzasidan o'quvchilar bilan doimo kuzatuvlar olib borib, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktab ta'limi 5-sinfda «Tabiatshunoslik» fani uchun o'quv rejaga muvofiq, jami 34 soat ajratilgan bo'lib, haftasiga 1 soat beriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga 5-sinfda «Tabiatshunoslik» bo'yicha 3–4-sinflarda egallangan bilimlarning yanada mukammallashtirilishi bilan bog'liq. Tabiatdagi biologik tenglik tushunchasini o'quvchilarga ochmasdan turib, tabiatdagi biron-bir tabiiy omilning yo'q bo'lishi boshqasining ham yo'q bo'lishiga olib kelishi haqida tushuncha beriladi (daraxtlarni kesish daryoning qurishiga, tuproqning buzilishiga, hayvonot dunyosi sonining kamayishiga olib keladi). ENB o'quvchilar 5-sinfda «Tabiatshunoslik» kursi davomida quyidagi bo'limlar bilan tanishib boradi:

1. O'lkamizdagi yil fasllarining o'ziga xosligi. Ushbu bo'limda o'quvchilar tabiatda yoz, kuz, qish, bahor fasllari, ulardagi o'zgarishlar, yil fasllari davomida kishilarning mehnat faoliyati bilan tanishtiriladi.

2. O'zbekiston xaritasi. ENB o'quvchilar mazkur bo'limda O'zbekiston tabiiy xaritasining asoslari bilan ilk bor tanishtiriladi. Respublika hududi yer yuzasining tabiiy xaritadagi ko'rinishi: tog'lar, cho'l zonolari, dashtliklar, o'lka o'rmonlari, yaqin atrofdagi suv havzalari, qo'riqxonalar xususida ma'lumotlar beriladi.

3. Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora. ENB o'quvchilar Yerning tuzilishi va o'lchami, Yer va Quyosh o'rtasidagi masofa, Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi haqida bilim, ko'nikmalarga ega bo'ladi.

4. Suv. Mazkur bo'limda o'quvchilar tabiatda suvning aylanma harakati xususida aniq ma'lumotlar oladi.

5. Havo. Ushbu bo'limda ENB o'quvchilar havoning xususiyatlari, havo harakati, havoning o'simlik va hayvonlar, insonlar hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

6. "Sog'lig'imizni saqlaylik" bo'limida o'quvchilar odam organizmining tuzilishi, asosiy organlarning ahamiyati haqida bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'ladi.

7. "Ekologiya asoslari" bo'limida ENB o'quvchilar ekologiya – tirik mavjudotning yashash muhiti bilan aloqasi haqidagi fan bo'yicha aniq ma'lumotlarni egallaydi.

5-sinfda «Tabiatshunoslik» kursining ENB o'quvchilar tomonidan to'liq, mukammal o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida o'qituvchi turli o'qitish usullaridan samarali foydalanmog'i lozim. Jumladan, darslarni uslubiy tashkillashtirishda bolalarning nutqini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashini kuchaytirishga alohida ahamiyat beriladi. O'qituvchi o'quv materialini tushuntirganda so'z, tasvir va tushuntirish elementlarini bir necha bor qaytarishiga to'g'ri keladi. Dars jarayonida o'qituvchining ko'rgazmali va amaliy usullarni o'z o'rnida, to'g'ri qo'llay olishi korreksion-pedagogik vazifani amalga oshirishni ta'minlaydi.

ENB o'quvchilar 6-sinf «Tabiatshunoslik» kursi davomida «Tabiat jismlari va moddalari», «Havo», «Tabiatda suv», «Foydali qazilmalar» kabi bo'limlar asosini o'rganadi, tabiiy geografiya, astronomiya, fizika, biologiya hamda boshqa tabiiy fanlar haqida boshlang'ich ma'lumot oladi.

O'quv materialining mazmunini ochib berishda xilma-xil o'qitish usullaridan foydalanish mumkin. U yoki bu metodni tashlashda o'qituvchi shuni nazarda tutishi lozimki, bular o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishi, bilish faoliyatini faollashtirishi va bir paytning o'zida ENB o'quvchilarning eshitish qobiliyatini, nutqini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Shunga ko'ra, 5-6-sinflar «Tabiatshunoslik» dasturiga muvofiq, amaliy ishlar, tajribalar o'tkazish soni ko'paytiriladi. O'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltirish kerak. Bunda tadqiqiy yondashuvchi, murakkab bo'lmagan analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, tabiat hodisalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash asosiy vazifa bo'lishi kerak. Bularning barchasi ENB o'quvchilarning xotirasi, tasavvuri, diqqatini faollashtirishga, nutqi va mantiqiy bilimlarni yaxshiroq egallashga, o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llay olishga ishonchini oshiradi. 6-sinfda «Tabiatshunoslik» fani biologik, geografik tushunchalarni, shuningdek, tabiatda bo'ladigan fizik, kimyoviy jarayonlar to'g'risidagi dastlabki tushunchalarning o'zlashtirilishini nazarda

tutadi. Shuningdek, insonda fikrlash qobiliyati tabiat bilan kurashda duch kelgan qiyinchiliklarni yengish usuli ta'lim jarayonida vujudga kelgan. Darhaqiqat, har birimiz doimo u yoki bu qiyin holatda bo'lamiz, bunda odatdagi faoliyat usulimiz muvaffaqiyatni ta'minlamasligi mumkin. Amaliy yoki nazariy maqsadlarga erishish uchun yangi yechimlarni topishga majbur qiladigan shunday holatlarni muammoli vaziyat deb ataymiz. ENB o'quvchilar bilan so'zlashuv «Tabiatshunoslik» darslarida nutqni, bog'langan nutqni rivojlantirishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan muammoli vaziyat o'quvchilar tomonidan muayyan savolga javob berishni talab qiluvchi vazifa sifatida qabul qilinadi.

6-sinfda ENB o'quvchilar ekologiya xususida kengroq ma'lumotga ega bo'lib, ularning ekologik tarbiyasi, tabiatga nisbatan javobgarlik hissini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ekologik tarbiyaning muvaffaqiyatlari faqat o'qituvchi-ning vazifalari va maqsadlarini tushunganidagina emas, balki ularni o'quv-tarbiyaviy jarayonga singdirish uchun sharoitlarni yaratishiga ham bog'liq. Insonlarning o'ylamasdan tabiatga ta'sir qilgan ishlaridan quyidagi misollarni keltirish mumkin: Yerning sho'rlanishi va tarkibining buzilishi, o'simliklar va hayvonlar yashash sharoitining yomonlashishi, turlarining kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi, suv havzalarining loyqalanishi va hokazolarga olib keluvchi noto'g'ri munosabatlar. «O'zbekiston tabiatini saqlaylik» mavzusini o'rganishda quyidagi savollarga e'tiborni qaratish lozim: "Sizning o'lkangizda tabiatni qo'riqlash bo'yicha qanday tadbirlar o'tkazilyapti? O'zbekiston «Qizil kitob»iga qanday o'simlik va hayvonlar kirgan? Respublikamizda foydali qazilmalar, daryolar, ko'llarni qo'riqlash uchun nimalar qilinyapti? Qanday kasbdagi insonlar tabiatni qo'riqlash bilan shug'ullanadi? Respublikamizda tuproq unumdorligini saqlash uchun nima qilinyapti? Suvni saqlash uchun-chi? Jarlik paydo bo'lishiga qarshi qanday kurash olib borilyapti?"

«O'lkamiz suv havzalari» mavzusini tushuntirayotganda o'qituvchi tomonidan suv bizning boyligimiz ekanligi tushuntiriladi. Yildan yilga suvga ehtiyoj ortmoqda, chunki yangi shaharlar, sanoat korxonalari, chorvachilik komplekslari qurilmoqda.

Suvga ortib borayotgan ehtiyojni qondirish qiyinlashib borayotganligi, uning yetishmasligi ham sezilayotganligi ENB o'quvchilarga mazkur mavzudagi filmlarni namoyish etish orqali singdirib boriladi. Tabiat obyektlariga nisbatan javobgarlik hissini tarbiyalashda ekologik mazmunda qiziqarli o'yinlar va pedagogik holatlar muhim ahamiyatga ega, chunki ular turli hayotiy holatlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

6-sinf o'quvchilarida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalashda sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar muhim ahamiyatga ega.

Savollar

1. ENB bolalar maktab ta'limida 6-sinfda «Tabiatshunoslik» kursining korreksion vazifalarini aniqlashtiring.

2. 6-sinfda «Tabiatshunoslik» kursining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

3. 5-sinfda «Tabiatshunoslik»ni o'qitishda qaysi metodlardan foydalaniladi?

4. 5-6-sinflar «Tabiatshunoslik» dasturi va darsligini tahlil qilib, muammoli vaziyatning rejalarini ishlab chiqing.

11.5. Eshitiashda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari

Inson va atrof-muhit doimiy ravishda aloqada bo'lib, u ko'rish, eshitish, teri, ta'm, hid bilish, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi.

Eshitish analizatori insonning barcha a'zolari ichida eng ahamiyatlilaridan sanalib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok qilishdan iboratdir. To'laqonli eshitish nutq shakllanishining omili sanaladi. Nutq orqali esa insonning so'z – mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo'ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bular so'z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo'ladi. Inson o'zi ko'rgan va ta'sirlangan buyum va hodisalarni so'z yordamida

nomlab, mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko'rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Har qanday buyum, hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o'rtnashib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, u tafakkur quroli, muloqot jarayonida fikrni ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta'sir ko'rsatish quroli bo'lib ham xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutqiy rivojlanish zamirida paydo bo'lishi sababli u inson tafakkurining rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Eshitish idrokining buzilishi oqibatida insonning nutqni egallay olmasligi, shu bois jamiyat a'zolaridan yakkalanib qolishi uning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Bular o'zaro bir-biriga tobe bo'lgan turli sabablarga bog'liq bo'lib, bu xususda L.S.Vigotskiy: «Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa (kollektiv)dan yakkalanib qolishga, jamoa (kollektiv)dan ajralib qolish esa, o'z navbatida, ijtimoiy tarbiya hamda nutqning rivojlanishini tormozlaydi», – deydi.

Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan pedagog va olimlardan J.Kardano, V.I.Fleri, J.Itar, Ya.T.Speshnevlar ular orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug'at boyligiga ega bo'lgan, ba'zan, hatto, sodda jumlar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa, bunday bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta'kidlab, eshitishi qisman buzilgan bolalarga, ular nutqining o'ziga xos rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lamiz. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va, ayniqsa, onasi alohida g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatishlari zarurligi hamda kar bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o'rin tutishini ta'kidlagan holda: «Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi», – deb yozadi. Olim, shuningdek, dastlabki so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab o'qituvchi va metodistlarning e'tiborini jalb qilganiga qaramay, bu muammoning yechimiga, ya'ni maxsus maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalish olishiga L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim tizimi masalalarini yoritib bergan qator asarlari turtki berdi. Olim maxsus maktablardagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan usul bolaning sermazmun hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lmagan sharoitda olib borilishiga e'tibor qaratib, nutqni ijtimoiy hayotda ishtirok etmagan holda egallash, qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslab, ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi omili ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, ushbu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim. Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi».

L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Birinchi planga, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim. Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim».

Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tallaffuzga o'rgatish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri yechimini topadi.

R.M.Boskis eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tallaffuzga o'rgatish samaradorligiga erishishdagi dastlabki qadam ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tushunishdan boshlanishi lozim, deb hisoblab, I.P.Pavlovning «Analizatorlar faoliyatining birligi», L.S.Vigotskiyning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibligi» psixologik ta'limotlariga tayanadi. Shuningdek, u eshitish va nutqning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishini keng o'rgangan holda bunday bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaruvchi qator holatlarga asoslangan pedagogik tasnifni ishlab chiqdi. Ushbu tasnifga ko'ra, birinchidan, yosh boladagi eshitish analizatori faoliyatining buzilishi katta yoshdagilarnikidan farqli namoyon bo'ladi. Ya'ni katta yoshdagi kishilarda eshitish muammosi paydo bo'lgunga qadar, ularning nutqi, mantiqiy tafakkuri va shaxsi shakllanib ulgursa, ilk yoshda orttirilgan eshitish muammosi bolaning me'yorda rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ikkinchidan, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning o'ziga xos rivojlanishlarini to'g'ri tushunish uchun, ushbu holatda nutqni mustaqil egallay olish imkoniyatini, ya'ni eshitish va nutqning o'zaro aloqadorligini inobatga olish katta ahamiyatga ega. Bir tomondan, eshitishning buzilishi nutqning me'yorda rivojlanishiga to'sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan eshitishning me'yorga yaqinroq faoliyati bolaning nutqiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Bolaning nutqiy darajasi qancha yuqori bo'lsa, eshitish qoldig'idan foydalanishi shuncha yuqori bo'ladi. Til, uning lug'at zaxirasi va grammatik tizimini inson qay darajada egallagan bo'lsa, uning o'z eshitishidan foydalanish layoqati ham shu darajada ko'p saqlangan bo'ladi. Nutqiy muloqot tajribasiga ega bo'lgan bolalar tanish bo'lgan so'z va jummalarni ma'nosiga ko'ra tushinishlari sababli, murojaat etilgan nutqni yaxshiroq idrok etish imkoniyatiga ega bo'lib, ular atrofdagilarda yaxshi eshituvchi sifatida taassurot qoldirishlari mumkin. O'z navbatida, bolaning eshitish qoldig'i qancha yaxshi saqlangan bo'lsa, unda atrofdagilar nutqiga taqlid qilishi asosida mustaqil ravishda nutqni egallab borish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi. Uchinchidan, bolaning eshitish qoldig'idan nutqni egallash uchun foydalanish imkoniyati uning

eshitish muammosini baholash mezonini hisoblanadi. Shunga ko'ra eshitishi to'liq yo'qolgan (kar) bolalar bilan eshitishi qisman buzilgan (zaif eshituvchi) bolalarni chegaralashda aynan eshitish va nutqiy rivojlanish omillari hisobga olinadi.

Karlik eshitishning turg'un yo'qolishi bo'lib, unda mustaqil holda nutqni egallash, hatto quloqqa yaqin bo'lgan masofadagi nutqni ravshan idrok etishning imkoniyati bo'lmaydi. Total (to'liq) karlik, xuddi total ko'zi ojizlik uchramagani kabi, juda kam uchraydigan hodisadir. Ko'pincha karlikda baland nutqiy bo'lmagan tovushlarni, quloq suprasiga yaqin masofadagi ba'zi nutqiy tovushlarni idrok etish darajasida bo'lgan eshitish qoldiqlari saqlanib qoladi. Audiometrik tekshiruv eshitishning 80 db. (detsibel – tovushni idrok etishni o'lchashda qo'llanuvchi o'lchov birligi)dan yuqori darajada yo'qolganini ko'rsatadi.

Zaif eshituvchilik eshitishning turg'un pasayishi bo'lib, unda ushbu eshitish qoldig'i asosida nutqiy zaxirani minimal holatda mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni quloq suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyati bo'ladi. Audiometr tekshiruvi eshitishning 80 db.dan kam bo'lmagan pasayishini ko'rsatadi.

Eshitish muammolari holatidagi nutqning rivojlanish darajasi quyidagi to'rt omilga tobedir:

1. eshitishning darajasi;
2. eshitish muammosining sodir bo'lish vaqti;
3. bolaning individual xususiyatlari;
4. eshitish muammosi sodir bo'lgandan so'ng bola uchun yaratilgan pedagogik sharoit.

Shundan kelib chiqqan holda har ikki guruhdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar, o'z navbatida, yana ikkitadan guruhga bo'linadi:

Karlar:

- 1) tug'ma yoki ilk yosh davrida eshitish qobiliyati yo'qolgan va nutqni egallay olmagan kar bolalar;
- 2) eshitish qobiliyati kech yo'qolib, nutqi saqlanib qolgan kar bolalar.

Zaif eshituvchilar:

1) nutqida qisman chetga chiqishi (nutqining grammatik tizimida me'yordan chetga chiqishlar: qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash yoki tushirib qoldirish, ba'zan talaffuz muammolari) bo'lgan zaif eshituvchi bolalar;

2) chuqur nutqiy muammolarga ega bo'lgan (lug'at zaxirasi o'ta chegaralangan, nutqi qisqa, noto'liq so'zlardan, grammatik tizimi so'z-gapdan, bo'g'in-so'zlar qatoridan iborat) zaif eshituvchi bolalar.

Olim bu boradagi izlanishlarini davom ettirar ekan, har qanday bolaning rivojlanishi muloqotda, faoliyatning turli shakl va ko'rinishlarida amalga oshishi omilini hisobga oladi. Tadqiqotlarning natijasi shuni ko'rsatdiki, kar va zaif eshituvchi bola bir-biridan keskin farq qiladi. Zaif eshituvchi boladagi inson uchun o'ta zarur bo'lgan analizator – eshitish faoliyatining to'liq emas, qisman buzilishi nutqning birmuncha shakllanishiga imkon beradi. Lekin bunday yo'l bilan nutqni egallashning o'ta chegaralanishi bola tomonidan tushuncha va tasavvurlar (nutqning keyingi idroki va tushunilishi)da o'zgachalikni yuzaga keltiradi. Zaif eshituvchi bolaning nutqi rivojlanmasdangina qolmay, balki buzilgandir ham. Masalan, lug'at zaxirasining kamligi bilan bir qatorda so'zlarning boshqa ma'noda qo'llanishi, grammatik tizimning rivojlana olmasligi bilan bir qatorda ular ma'nolarining noto'g'ri tushunilishi kuzatiladi. Bularning barchasi bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi: taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi psixik jarayonlar zaif eshituvchilarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Nutqiy muloqot bolaning shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Zaif eshituvchi bola nutqining o'ziga xos rivojlanishi oddiy sharoitlarda ilm asoslarini egallashiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli ham bu toifadagi bolalar anomaliyasi tuzilishida nutq birinchi o'ringa qo'yilib, maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayonida markaziy o'rinni nutqni reja asosida shakllantirish masalasi egallashi lozim.

Qator tadqiqotlar zaif eshituvchi bolalar talaffuzga o'rgatish xususiyatlari hamda bunday o'ziga xoslikka mos kelmaydigan mavjud o'qitish jarayonini taqqoslash natijasida tilni maxsus

o'qitish muammolarining ilmiy jihatdan hal etilishi: uni psixologik, lingvistik, psixolingvistik, umumdidaktik hamda metodik nuqtai nazardan ishlab chiqilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu tavsiya etilgan metodikalar asosida yangi tur – zaif eshituvchi bolalar maktablari uchun qator darsliklar va ularni olib borish imkonini beruvchi metodik tavsiyalar yaratildi.

Zamonaviy surdopedagogikaning nazariy asoschilari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishlarining muhim omili – tallaffuzga o'rgatish ishlarining samaradorligi bevosita tarbiyalanuvchining oila a'zolari, xususan, ota-onalarning farzandlari bilan muntazam ravishda shug'ullanishlariga bog'liqligini alohida qayd etadilar. Jumladan, S.A.Zikov til o'qitishdagi yuqori muvaffaqiyatlar faqatgina maxsus muassasalarda tashkil etilgan nutqiy muhit orqali emas, balki bevosita ota-onalar va atrofdagilarning ishtiroki orqali ta'minlanishini uqtirsa, R.M.Boskis: «Nutqqa o'rgatish ishlarini o'qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirishi lozim», – deb ta'kidlaydi.

Aynan yangi davr surdopedagogikasida oila va maxsus ta'limning bola tarbiyasi borasidagi mushtarakligi zarurati anglandi: ota-onalar surdopedagoglar tomonidan belgilangan yo'l va ko'rsatmalarsiz farzandlarining tarbiyasida va, xuddi shunday tarzda, surdopedagoglar ota-onalar ishtirokisiz o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Ilk yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari asoschilari tomonidan yaratilgan maqola hamda metodik tavsiyalar kar va zaif eshituvchi bolalar ota-onalariga o'z farzandlarining tarbiyasini qanday tashkil etishlari, nutqini rivojlantirish yo'llari kabi masalalarni yoritib berdi.

A.I.Dyachkov oila va ijtimoiy tarbiya maqsadlarining mushtarakligi, oilaning maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi bilan hamkorligi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasining majburiy sharti ekanligini ta'kidlasa, B.D. Korsunskaya kar bolani maktabgacha tarbiya muassasasiga tayyorlash va unga joylashtirilgandan so'ng ota-onalarga qo'yiladigan talablar, ta'lim-tarbiya borasida maslahatlar beradi.

Olim bola nutqining rivojlanishida faoliyatning turli ko‘rinishlari hamda harakatni shakllantirishning tutgan o‘rni beqiyosligini alohida ta’kidlab, ushbu boradagi faoliyat tizimini yoritib berishda asosiy e’tiborini nutq o‘stirish (rivojlantirish) masalalari: lug‘at zaxirasini kengaytirish, so‘zlar mazmuni ustida olib boriladigan ishlar; bolani aqliy va ahloqiy rivojlanishini ta’minlovchi omil – daktil nutqiga atrofdagilar bilan muloqot o‘rnatish quroli sifatida o‘rgatish, shuningdek, bolaning og‘zaki nutqini shakllantirish ishlariga qaratadi.

So‘nggi yillarda E.I.Leongard, Ye.G.Samsonova; N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya, A.Yu.Xoxlova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ilk hamda maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar oilaviy tarbiyasi nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish, boyitishga katta hissa qo‘shdi hamda bu yo‘nalishning qudratli imkoniyatlarga ega ekanligini yana bir bor isbotlab berdi. Ota-onalar ishtirokida umumrivojlantiruvchi hamda korreksion ishlarning ilk yoshdan boshlanishi natijasida bolalar umumiy rivojlanishlarida katta yutuqlarga erishiladi. Oila sharoitida nutqiy muhitning tashkil etilishi, bola nutqining rivojlanishi (talaffuz qilish malakalari, nutqning eshitish-ko‘rish idroki, lug‘at zaxirasining shakllanishi, so‘zlashuv nutqi asosidagi muloqotni o‘rnatish olishi)ga zamin bo‘lib xizmat qiluvchi nutqiy eshituvning rivojlanishiga imkoniyat tug‘diradigan to‘g‘ri tanlangan ovoz kuchaytirgich moslamalaridan foydalanish, eshitmaydigan bolani eshituvchi tengdoshlari jamoasiga olib kirish uning erta ijtimoiy uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Ushbu yo‘nalish orqali eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar omonaviy turdagi maktabgacha ta’lim muassasalariga yoki maktabgacha tarbiya muassasalari qoshida tashkil etilgan maxsus guruhlarda kamol topadilar. Bu bolalar, shuningdek, ma’lum vaqtlarda ushbu metodika asosida ish olib boruvchi surdopedagog mutaxassislar tomonidan tashkil etiluvchi yakka mashg‘ulotlarga ham qatnaydilar. Shuni ta’kidlash lozimki, bunday tashkil etilgan tarbiyada «asosiy yuk» ota-onaning zimmasiga yuklanadi hamda surdopedagog yo‘naltiruvchilik va yordam beruvchilik funksiyasini o‘taydi. Shubhasiz, bu metodika ota-ona yoki bola tarbiyasi bilan

shug'ullanuvchi boshqa oila a'zolariga mas'uliyatli vazifani yuklash bilan birga, ulardan pedagogik uquv, ko'p vaqt hamda kuch-quvvatni talab qilishi sababli hozirgi kunda barcha oilalar ham bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor emaslar.

Shu sababli biz S.A.Zikov va R.M.Boskis fikrlariga qaytib, maxsus ta'lim jarayonida ota-onalar emas, balki surdopedagoglar tomonidan amalga oshiriluvchi, ular tomonidan rejalashtiriluvchi ishlar eng muhim omil ekanligini asosiy g'oya sifatida qabul qilamiz hamda ota-onalarning bu jarayonda surdopedagog va tarbiyachi tomonidan amalga oshiriluvchi ishlarning davomchilari, ular yordamida tuzilgan reja asosida ish yurituvchi sanalishlarini ta'kidlaymiz.

Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarda yosh avlodning tarbiyasi, xususan, uning oilaviy tarbiyasiga munosib omil sifatida qaraladi. Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimov oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida yosh avlodning ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab: «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila... kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor», «...farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi», – degan fikrlarni bildiradi.

Istiqloлга qadar respublikamizning eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni original dastur va darsliklar asosida olib borilmay, Rossiya maxsus muassasalari yoki O'zbekistondagi umumta'lim, ba'zan esa, aqli zaif bolalar muassasalari uchun mo'ljallangan dastur va darsliklarni biroz o'zgartirib ishlash asosida tashkil etilardi. Maxsus tizim amaliyoti stixiyali ravishda tizimdagi ishning shu yo'nalish asosida olib borilishi orqali rivojlana bordi. Tabiiyki, bir tomondan til tizimining to'g'ri kelmasligi, ikkinchi tomondan me'yorda rivojlanayotgan bolalar, uchinchi tomondan aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar xususiyatlariga tayangan holda tuzilgan dastur hamda darsliklar asosida ishni tashkil qilish eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari oldiga

qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini bermas edi.

Respublikamizda surdopedagogikaning ilmiy asoslanishi o'tgan asrning 80-yillaridan boshlandi. Milliy surdopedagogikamizda olib borilgan qator tadqiqotlar mamlakatimizda mavjud eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus maktab-internatlar ta'lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlar, o'zbek tili xususiyatlariga mos holda takomillashtirish yo'l va vositalarini ilmiy jihatdan asoslab berishga yo'naltirildi.

Surdopedagogika sohasida ilk bor N.Sh.Bekmurodov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida hududimizga mos ravishda maxsus maktab-internatlar kun tartibi, o'quv jarayonini tashkil qilishda hisobga olinishi lozim bo'lgan talablar ishlab chiqilgan bo'lsa, X.M.Gaynutdinovning ilmiy izlanishlari natijasida ilk bor O'zbekiston sharoitida eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni kasbiy – mehnatga tayyorlash, keyingi mehnat faoliyatlarini jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar, bunday shaxslar ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarish yo'llari ochib berildi.

F.D.Alimxodjayevaning uzoq yillik amaliy tajribasi maxsus o'qitish jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning tabaqalangan metodikasini ishlab chiqish hisobiga zaif eshituvchi o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslab berishiga asos bo'ldi.

U.Yu.Fayziyevaning ilmiy-tadqiqot ishi zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o'rgatish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilk tadqiqot bo'lib, unda maktabga tayyorgarliksiz kelgan zaif eshituvchi bolalarning dastlabki nutqiy imkoniyatlari (so'z boyligi: faol va nafaol nutqi), eshitishining yo'qolish sabablari va vaqti o'rganildi, bunday bolalarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish metodikasi ilk bor nazariy jihatdan asoslab berildi. Ya'ni tadqiqotchi zaif eshituvchi o'quvchilarga savod o'rgatish davrida zarur sanalgan omil – harflarni o'tish ketma-ketligini ishlab chiqib, ushbu nazariy xulosalari asosida «Alifbe» darsligini yaratdi.

N. X. Dadaxo'jayeva ilk bor zaif eshituvchi o'quvchilarning ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallarni bajarishlaridagi xususiyatlar, ushbu jarayonda o'quvchilarning nutqi va fikrlashlariga oid tayyorgarlik holatini o'rganib, ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallar bajarishga o'rgatish bo'yicha ish usullari hamda metodlarni nazariy jihatdan asoslab berdi.

F.U.Qodirova ilmiy tadqiqotida eshitmaydigan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limi amaliyotidagi kamchiliklari tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning samarali usul va yo'llari aniqlandi hamda so'zlashuv nutqini shakllantirishning omil va bosqichlari belgilab berildi.

Demak, ko'rib chiqilgan tadqiqotlardan U.Yu.Fayziyeva hamda F.Qodirovalarning ishlarigina kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarida o'zbek tili o'qitish tizimini ilmiy asoslab berishga qaratilgan. Maktab yoshidagi bolalarni tadqiqot obyekti sifatida tanlab olgan har ikki olim ularning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishiga maktabgacha yosh davrida zamin yaratilishi lozim ekanligini qayd etadilar. U.Fayziyeva: «Erta ilk yoshidan korreksion ta'sir ko'rsatish orqali bu og'ir asoratlar kamaytirilishi yoki butunlay bartaraf etilishi mumkin... Ota-onalar imkon topgan holda uyda alohida sharoit yaratib, eshitmaydigan farzandlari bilan o'zlari shug'ullanishlari mumkin. Buning uchun ular surdopedagog mutaxassis bilan hamkorlikda ish olib borishlari lozim», – degan fikrlarni keltirsa, F.U.Qodirova kar o'quvchilarga o'z fikrini erkin ifodalashni o'rgatish ota-onalarning farzandlari ta'lim-tarbiyasi oldidagi mas'uliyati ekani va bu ta'lim jarayonida muhim omillardan hisoblanishini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda surdopedagogikaning yondosh tarmoqlari – oligofreno-pedagogika, logopediya sohasidagi L.R.Mo'minova, R.Shomaxmudova, M.Yu.Ayupova, X.M.Po'latova, D.A.Nurkeldiyeva, M.P.Xamidova, L.Sh.Nurmuxamedovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maxsus ta'lim muassasalarida olib boriluvchi ta'lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlarni hisobga olgan holda tashkil etish hamda takomillashtirishga qaratildi

L.R.Mo'minova nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kamchiliklarini korreksiyalash ishlarida oilaning tutgan o'rni muhimligini, R.Shomaxmudova aqliy rivojlantirishda muammolari bo'lgan bolalarni ikkinchi tilga o'rgatishda nutqning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning hisobga olinishi lozimligini, D.A.Nurkeldiyeva aqliy rivojlanishda muammolari bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash muammolarini hal etishda nutq o'stirish ustida olib boriluvchi ishlar muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. M.Yu.Ayupova, X.M.Po'latova va M.P.Xamidovalar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi muammolarni bartaraf etish va nutqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ish turlarini L.Sh.Nurmuxamedova ilk bor maxsus maktab-internatning ota-onalar bilan olib boruvchi ishlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdilar.

Shuningdek, respublikamizda so'nggi yillarda alohida e'tiborga muhtoj bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi muammolarining hal qilinishi aholi o'rtasida keng tashviqot ishlarining olib borilishi bilan bog'liqligi tobora chuqur anglanmoqda. Chunonchi, R.Shomaxmudova D.Nurkeldiyeva, D.Sultonovalar tomonidan yozilgan ilmiy-ommabop maqolalar bunday bolalar bilan oilada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ish tizimini yoritib berishga qaratildi

Adabiyotlar sharhi, maxsus pedagogika sohasidagi qator yutuqlarga qaramay, respublikamizda maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar talaffuz qilish malakalarini keng qamrovli o'rganishning muayyan rejasi ishlab chiqilmaganini, bu esa, o'z navbatida, bunday bolalarga erta korreksion yordam ko'rsatishning to'g'ri tashkil etilishiga jiddiy to'siq bo'layotganligini ko'rsatdi.

11.6. Tabiatshunoslik darslarida so'zlashuv nutqi materialini tanlash va o'quvchilar nutqiga kiritish

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalar nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga, imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. Daktilologiya yozma harakatga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar, harflar

emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir.

Daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

1. Chizuvchi harflar (z, b, d).
2. Harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t).
3. Shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrida kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ye.N. Marsinovskaya tadqiqotlari natijalariga ko'ra, bu nutq shaklining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash og'zaki nutqni bayon qilishga nisbatan 2,5 marta orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo'ladi, ba'zan daktillash og'zaki nutqni bayon etishda oldinga o'tib ketish hollari ham kuzatiladi. Daktilologiya og'zaki nutqni o'zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo'llaniladi. L.A.Novikova va Ye.N. Marsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra, daktilologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga quriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulyator apparatlarda emas, balki qo'l, barmoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin artikulyator apparatdagi nutqiy kinestiziyalar qo'l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo'lib, tadqiqot obyekti sifatida o'rganish talab etiladi. Ye.N. Marsinovskiya daktillash tempining og'zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta'sirini o'rgangan. Bu tajribalarda aniqlanishicha, kar bola daktillash texnikasini yaxshi o'rganganda daktilologiya og'zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik talaffuz to'g'riligi, nutqning tushunarliiligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Daktilologiyani yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush tarkibini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Lekin so'zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa, tovush tarkibini o'rganishda daktilologiya ta'sir ko'rsatadi. Daktilologiya va yozma nutqning o'zaro munosabati juda murakkabdir. S.A.Zikov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o'rgatishning boshlang'ich bosqichida nutqning akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolaning so'zni yozishdan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o'qishini ko'rish mumkin. Kar bola og'zaki nutqqa ega bo'lganligi uchun savodga o'rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So'ng bu jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi, ham daktillaydi. So'zlashuv nutqini egallash darajasiga ko'ra, daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham, bola singari, so'zni talaffuz etib, so'ng yozadi.

Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor maktablarning tayyorlov sinllarida maxsus maktabgacha muassasalarda tarbiyalanmagan, nutqi mavjud bo'lmagan bolalar o'qitiladi. Bu kategoriyadagi bolalarni o'qitishda juda katta qiyinchiliklarga duch kelinadi, chunki bunday bolalarda nutqni shakllantirishning qulay vaqtlari boy berilgan, nutqning yo'qligi esa bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'ladi.

Maktabga borish, yangi sharoit bilan tanishish, yangi do'stlar orttirish, ularning hammasi bolalarga o'zaro muloqotga kirishishni talab etadi. Tarbiyachi va o'qituvchining vazifasi ularning atrofdagilar bilan muloqot qilish chtiyojini qondirishdir. Buning uchun ularni og'zaki nutq bilan muloqot vositasi sifatida qurollantirish ko'zda tutiladi. Agar maktablarda so'zlashuv nutqiga yaxshi ahamiyat berilgan bo'lsa, butun pedagogik jamoa faoliyati nutqni muloqot vositasi sifatida o'qitishga qaratilgan bo'lsa, bunda bolalar kommunikatsiyaning bu turidan ko'proq foydalanadi. Jonli muloqotdan noto'g'ri foydalanish bolalarda imo-ishora bilan gapirish yo'lini tanlashga olib keladi. Maxsus o'qitish jarayonida kar bolalarda tovush bilan ishlash, nutq nafasi, ayrim tovushlar ustida ishlash, talaffuzni shakllantirish amalga oshiriladi. Og'zaki

nutqni talaffuz qilish va shakllantirish o'qituvchi hamda bolalardan katta mehnat talab qiladi. Eshituvchi o'quvchilar kabi, eshitish qobiliyatida nuqsoni bor o'quvchilar uchun ham og'zaki nutq muloqot uchun juda katta ahamiyatga ega.

Kar bolalarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar daktil nutqiga murojaat qilishga sabab bo'ladi. Daktil nutqi karlar o'rtasida muloqot (aloqa)larni amalga oshirish uchun yaratilgan. Daktil nutqi o'zlari uchun sukut saqlab yashash turmush tarzini qabul qilgan ispan monaxlari tomonidan ixtiro qilingan. Nutqning og'zaki nutqqa o'xshash bo'lgan bu ko'rinishidan faqat bevosita (yuzma-yuz) muloqotda bo'lganda foydalanish mumkin. Daktil nutqi yozma nutqqa ham o'xshash bo'lib, har bir harfga aniq bir daktilema to'g'ri keladi. Daktil nutqi yordamida bolalar o'z xohish-istaklari va iltimoslarini bildirishi va daktil nutqdan foydalanayotgan boshqa kishilarni tushunishi mumkin. Tayyorlov sinfining o'quvchilari maxsus tayyorgarliksiz ham daktil belgilarini tezda o'zlashtira oladi. Daktil nutqidan tilni egallashning boshlang'ich shakli sifatida foydalanish kar bolalarda og'zaki nutqni shakllantirish va atrofdagilar bilan nutq aloqalarini o'rnatish imkoniyatini beradi. Shuningdek, kar bolalarni tilga o'rgatishda daktil nutqining qo'llanishi asosiy maqsad emas, kar bolalarning og'zaki nutqini shakllantirish maqsadida foydalanadigan majburiy choradir.

Xususan, tayyorlov sinflarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qituvchining daktillashiga taqlid qilish asosida daktillamalarni o'rganadi. Og'zaki nutqqa o'rgatish jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil belgilari va daktillash texnikasini birga egallaydi. Materialni idrok etish va egallash jarayonini yengillashtirish uchun daktil belgilar ifodalangan so'zli ifoda jadvalidan foydalaniladi. So'zli ifoda jadvalini qo'llab o'quvchi, daktilema belgilarini qo'li vositasida amalga oshiradi. Daktil belgilari ifodalangan so'z o'quvchilar to'liq eslab qolmaguncha, yig'ma polotnoga osib qo'yiladi. O'qituvchi daktil shaklda berayotgan nutqiy materialni og'zaki bayon etadi. Bu o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talab hisoblanadi. Nutqiy materialni og'zaki daktil bayon etish tayyorlov sinfi yili oxirigacha

asosiy talabdir. O'qituvchi o'ng qo'li bilan daktillaydi, barmoqlar uning labining o'ng tarafida joylashgan holatda bo'ladi. Barcha daktil belgilar aniq ko'rsatilishi zarur. Ta'limning birinchi yilida daktillash bilan birga bayon etiluvchi og'zaki nutq sekin tempda va aniq bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining og'zaki daktil nutqi bolalar uchun yaxshi namuna bo'ladi va ularning daktil nutqni egallash jarayonini tezlashtiradi.

Bu bosqichda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning daktil nutqiga qat'iy talablar qo'yiladi. O'quvchilar har bir harf va so'zni aniq, to'g'ri daktillashi kerak. So'zlarni eslab qolish o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan maxsus mashqlar asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi bolalarda nutqqa ehtiyojni talab etuvchi o'yin, mehnat, o'quv faoliyat turlarini tashkillashtiradi. Masalan, sinfdagi umumiy faoliyat bolalar ismini bilishni talab etadi, o'quvchilarga topshiriq, vazifalar bayon etish jarayonida o'qituvchi ularning ismini aytadi. O'quvchi ismi og'zaki daktil nomlanadi va so'zli Roda jadvali ko'rsatiladi. O'quvchilardan o'rtog'ining ismini aytish so'raladi. Tabiiy sharoit o'quvchilarga yangi so'z ma'nosini tushunishga yordam beradi. Jamoa faoliyatida so'zlarni og'zaki daktil bayon etish uning ma'nosini eslab qolishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar so'zni, tovush tarkibini og'zaki bayon etish imkoniga ega bo'lgunlariga qadar uni og'zaki daktil bayon etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga so'z tarkibini daktil nutqini qo'llamasdan o'rgatish nutqiy muloqotning buzilishi va nutqiy rivojlanishning sekinlashishiga olib keladi. Lekin o'quvchilar tomonidan haddan ortiq daktil nutqini qo'llash og'zaki nutqning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, daktil nutqini boshlang'ich nutq shakli sifatida qo'llab, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirish ishini boshlab o'qituvchi butun faoliyatini og'zaki nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirishga qaratishi lozim.

Daktil nutqiga o'rgatish bilan birga bolalarni og'zaki va yozma nutqqa o'rgatish ham olib boriladi. Bolalarni og'zaki nutqqa o'rgatish, daktil shaklida egallangan so'zlarni ovoz chiqarib aytish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Talaffuzni o'zlashtira borish bilan birgalikda o'quvchilar tomonidan daktillangan so'zlarni gapirish

aniqligi ham ortib boradi. Og'zaki nutq xatolarini to'g'rilash talaffuz qilingan tovush namunalari ko'rsatish orqali amalga oshiriladi va unga mos ravishdagi daktillamani ko'rsatish bilan mustahkamlanadi. Daktil nutqini egallash o'qish va yozishga o'rgatishda yordam beradi. Daktil orqali so'zlashganda bolalar so'zini va o'qish so'zlarini analiz va sintez qiladi. Bu esa o'qish va yozish ko'nikmalarining asosini tashkil qiladi. Qo'l harakatlari yoki katakcha orqali daktillangan so'zni qabul qilganda kar bolalar daktil shriftini o'qishni o'rganadi. Asta-sekin daktil belgilarini o'rganadi, harflar yozish va o'qish malakasini egallab boradi. O'quvchilar o'z daktillariga suyangan holda, yozma so'z va iboralarni o'qishni boshlaydi, xatolarini to'g'rilaydi. Daktil nutqidan foydalanish savodga o'rgatish jarayonini yengillashtiradi va tezlashtiradi.

Shunday qilib, kar o'quvchilar nutqini shakllantirish jarayonida daktil nutqidan foydalanish so'zlashuv nutqini muloqot quroli sifatida tez va samarali shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutq o'rgatishning dastlabki bosqichi o'z ichiga tayyorlov sinfini qamrab olgan bo'lib, o'ziga xos vazifalari, uslubiy qo'llanmalari bordir.

Boshlang'ich sinfda kar bolalar muomala (muloqot) sifatida so'z nutqi bilan tanishadi, ularda atrofdagilar bilan aloqada bo'lish, o'z istak va ehtiyojlarini ifoda etish uchun nutqdan foydalanishning dastlabki ko'nikmalari yuzaga keladi. Kar bolalarni nutqqa bo'lgan ehtiyoj ruhida tarbiyalamasdan bu masalalarni yechimini topish mumkin emas.

Inson hayotida og'zaki nutqning ahamiyatini, kar bolalarning uni egallash imkoniyatini inobatga olgan holda, kar bolalar uchun maktablar o'z oldiga o'quvchilarni og'zaki nutqqa o'rgatish masalasini qo'yadi. Og'zaki nutq ta'lim jarayonining boshidanoq muomala vositasi sifatida shakllanadi, chunki bolalar atrofdagilar bilan munosabatga og'zaki nutq shaklida kirishadi. Muomalaga kirishish jarayonida ular tilning leksikasini, grammatikasini egallab boradi. Eshitishning buzilishi og'zaki nutqni qabul qilishga o'rgatish va talaffuz malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ishlarni o'tkazishni talab etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan

bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishning ikki yo'nalishi mavjud. Har ikki yo'nalish ham o'z vazifalariga ega, ular maqsadga erishishning metodik usullarini qamrab oladi. O'qitish mazmunining murakkabligi bola rivojlanishida og'zaki nutqning katta ahamiyatga egaligini tan olish bilan ushbu ish bo'limiga katta soatlar ajratilganligi izohlanadi. Tayyorlov sinfida ona tiliga haftada beriladigan 8 soatdan 4 soati og'zaki nutqni o'rgatishga ajratiladi. Og'zaki nutq ustida ishlash eshituv idrokini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish bo'yicha yakka mashg'ulotlarda davom ettiriladi. So'zlashuv nutqiga o'rgatish kar o'quvchilar uchun eng oddiy bo'lgan nutq shakli – daktildan boshlanadi. Biroq o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum qilayotgan barcha so'zlarni u albatta daktillash bilan birgalikda og'zaki aytishi shart. Shunday qilib, o'quvchilar o'qishning birinchi kunlaridanoq o'qituvchi nutqini ikki shaklda: daktil va og'zaki qabul qilishga o'rganadi. O'qitish jarayonida eshituv apparatlaridan foydalanish o'quvchilarga o'qituvchi nutqini ko'ruv-eshituv orqali qabul qilishga imkon beradi. Muloqotga kirishishni egallash jarayonida o'quvchilar so'z materiallarini qabul qilishning ko'p qismini ham daktil, ham og'zaki o'rganadi, chunki daktil nutqining barcha materiali eshituv-ko'ruv orqali og'zaki nutqni qabul qilishda ham shart hisoblanadi. Ammo og'zaki nutqni o'rgatishning ikkinchi yo'nalishi o'quvchilarda talaffuz malakalarini shakllantirishdir. Ish ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi o'quvchilarni doimiy ravishda o'qituvchi singari barcha daktil materialining og'zaki bayoniga undash bilan bog'liq. Bu talahlar o'quvchilarning nutq harakat apparatining faollashuviga asos bo'ladi, so'zlarning talaffuzini yaqin o'zlashtirishga zamin yaratadi. Talaffuzga o'rgatishning ikkinchi yo'nalishi asosiy talaffuz ustidagi sistematik ishni nazarda tutadi. Biroq bu holatda ham nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirishga yo'naltirish o'z kuchida qoladi. Shuningdek, nutqiy materialni tanlashga (muloqotda zarur bo'lgan so'zlar) va talaffuz malakalarini ishlash jarayoniga ham taalluqli holda o'tkaziladi.

Kar bolalar tomonidan og'zaki nutq shaklining egallanishi daktil nutqiga qaraganda qiyinroq o'zlashtiriladi. Karlar maktabida bolalarning muloqot quroli sifatida shakllantirish bu nutq turiga

o'rgatish ta'limning birinchi kunlaridan boshlanadi. Tayyorlov sinfida og'zaki nutqni shakllantirish tilga o'rgatishning umumiy tizimiga kiritiladi va daktil nutqining ilgarilovchi rivojlanish sharoitida amalga oshiriladi.

Og'zaki nutqni ko'ruv orqali idrok etish surdopedagogikada o'z sinonimlariga ega (labdan o'qish, yuzdan o'qish). Karlar tomonidan og'zaki nutq nutq a'zolari harakatlariga ko'ra qabul qilinadi. Og'zaki nutqni labdan o'qish orqali idrok etish jarayoni murakkab, chunki bunda karlar tez o'zgarib almashinuvchi artikulyatsion a'zo harakatlarini kuzatib borishi lozim. Ammo barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, karlar labdan o'qish malakalarini o'zlashtiradi, ularning ko'pchiligi esa nutqning artikulyatsiyasiga ko'ra qabul qilinadi. F.F.Rauning ta'kidlashicha, labdan o'qish asosida og'zaki nutqni qabul qilish, avvalo, kar bola xotirasida joylashgan nutq harakat obrazlarining aktuallashuvi hisobida amalga oshiriladi. Ular butun so'z va so'z birikmalariga mos kelishi, karlarning nutqiy va hayotiy tajribalari ma'lumotiga tayanadigan ongli kombinatsiya hisobiga moslashishi lozim. Kar bolalar artikulyatsion organlarning alohida harakatlariga mo'ljallanadi. Bu bog'liqlikda labdan o'qish sifati, ko'p jihatdan, karlar nutqiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqadi. So'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi yuqori bo'lgani sayin, labdan o'qish malakasi ham yaxshilanadi. Tilga o'rgatishning kommunikativ tizimi shakllanishi davrida kar bolalarda labdan o'qish malakasi daktil nutqiga tayanib shakllangan. S.A.Zikovning e'tirof etishicha, o'quvchilarda birinchi kunlardayoq analitik-sintetik faoliyatning predmeti bo'lgan daktil nutqiga tayanish og'zaki nutqning shakllanishiga asos bo'ladi. To'liqligicha qabul qilinadigan so'z obrazi daktillash asosida qismlarga ajratiladi. So'zlarni daktillashda bayon etilgan so'z artikulyatsion harakatlariga bog'liq bo'ladi. So'zlarni qabul qilishni (idrok) osonlashtiradi. Labdan o'qishga o'rgatish avval daktilda o'zlashtirilgan nutqiy materialda quriladi. Nutqiy materialni tushunish, labdan o'qish ko'nikmalarini egallashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Labdan o'qishga o'rgatish og'zaki nutqiy shakllantirishning muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil, bu nutqni mulohot

quroli sifatida shakllantirishning umumiylikida mujassam bo'lgan. Muloqotga kirishish, atrofdagilar nutqini qabul qilishning zarurligi, boshqalar bilan muloqotga kirishishni rivojlantirib borish og'zaki nutqni, ko'rish idrokini rivojlantirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq labdan o'qish jarayonida daktillashning katta yordamiga qaramay, uning qo'llanilishi o'qitish (ta'lim)ning ma'lum bosqichida chegaralangan. O'qituvchi tomonidan so'zning daktil va og'zaki berilgani asosida, so'zni qabul qilish mashqlaridan so'ng bolalar nutq materialini faqat yuzdan o'qishga o'tkazilgan. S.A. Zikovning ta'kidlashicha, bolaga nutqni avval bir vaqtda ikki shaklda (og'zaki va daktil), so'ng faqat og'zaki qabul qilishni o'rgatish ushbu tizimni yuzdan o'qishga o'rgatishning asosiy yo'li hisoblanadi.

Labdan o'qishga o'rgatishning asosiy yo'llarini amalga oshirish uslubiyati S.A.Zikov yoki F.F. Rauning ilmiy ishlarida keltirib o'tilgan. 70-yillarda o'tkazilgan kar bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish sohasidagi kuzatishlar, izlanishlar yuqorida tasvirlangan ish tizimiga o'zgartirish kiritdi. Ye.P. Kuzmicheva izlanishlari karlarning eshituv qoldig'ini rivojlantirishda va karlar nutqining shakllanishida, hatto chuqur zararlangan eshituvining ham muhim rolini isbotlab berdi. Uning fikricha, kar o'quvchilarda eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha ishning asosiy vazifasini ularning eshituv qoldig'ini maksimal rivojlantirish, ular tomonidan og'zaki nutqni qabul qilish uchun rivojlanayotgan bazaga ko'ra yangi eshituvning ko'ruv asosini yaratishni ko'zda tutadi. Rivojlanish butun o'quv-tarbiyaviy jarayonda ovoz kuchaytirgich apparatlarni keng qo'llash asosiga qurilgani uchun, ushbu ish labdan o'qishga o'rgatishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Labdan o'qish malakasining ishlatilishi kar bolalarning eshitish qoldig'ini keng qo'llash sharoitlarida nutqqa o'rgatish tizimida ham qo'llaniladi. Agar karlar tomonidan og'zaki nutqni qabul qilish, nafaqat ko'rishga (bolalar nafaqat daktillashdagi barmoqlar harakatini va og'zaki ifodalash artikulyatsion harakatlarni qabul qiladi), balki nisbatan zararlangan bo'lsa-da, eshitishga ham asoslanadi. Aynan shuning uchun ko'rish a'zosi orqali nutqiy qabul qilish eshitish bilan to'ldirilganda pedagogik

jarayonda jamoa va yakka eshituv apparatlaridan keng foydalanishda og'zaki nutqiy eshitish, ko'rish idroki faoliyati samarali bo'ladi. Kar o'quvchilarning eshitish qoldig'idan foydalanish va rivojlantirish tizimini ishlab chiqish (Ye.P. Kuzmicheva) tilga o'rgatish kommunikativ tizim sharoitlarida o'tkazilgan. Og'zaki nutqni shakllantirishning barcha tamoyillari nutqni shakllantirish yo'llarida amalda saqlanib qoladi, bundan tashqari eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha ishning barcha tizimi og'zaki nutqni shakllantirishga va tilni muloqot quroli sifatida shakllantirishga ta'sir etuvchi faktorlarni inobatga oladi.

Dastlabki nutq shakli daktil hisoblanadi, biroq o'qituvchi tomonidan nutqiy materialning daktil shaklida bayon etilishi, og'zaki so'zlash ovoz ko'chaytirgich apparatlaridan foydalanish bilan birga kechadi, ya'ni o'qituvchi og'zaki daktilda so'zli ifodani ko'rsatib, har bir so'zni mikrofondan talaffuz etadi. So'zni o'zlashtirib borish darajasiga ko'ra so'zli ifodalarni qo'llanilishi olib tashlanadi. O'qituvchi daktil nutqini istisno etadi va bolalar materialni eshitish, ko'rish asosida idrok etadi (O'qituvchi doim mikrofondan, bolalar esa quloqchinlardan foydalanadi). Daktil nutqida materialni ifodalashda foydalanilgan metodik usullar nutqning eshituv-ko'ruv idrokini o'rgatishda ham qo'llaniladi. Ulardan biri u yoki bu so'z, iboraning qo'llanilishini talab etadigan vaziyatlarni yaratish, masalan: predmet amaliy ta'lim darsida "Ol" fe'li ustida ish olib boriladi. Avval bolalarga (og'zaki daktilda) "Qog'ozni (qaychini...) ol" tarzidagi vazifalar beriladi. So'ng ushbu vazifalar boshqa o'quvchilarga daktilsiz beriladi. Ko'rsatmalar kombinatsiyalangan tarzda ham berilishi mumkin: ishlab chiqilayotgan so'z - og'zaki, qolganlarning bari (o'quvchilar tomonidan ham egallanmagani) - og'zaki daktilda beriladi. Agar bolalar materialni o'zlashtira olmasa, o'qituvchi tomonidan vazifa daktillab takrorlanadi. Boshqa usul: vaziyatlardan foydalanish, ular predmet-amaliy faoliyat sharoitida tabiiy kelib chiqishi kerak va nutqiy materialning qo'llanilishini talab etishi lozim. Masalan, o'quvchining qalami sinib qoldi, o'qituvchi eshituv-ko'ruv idrokiga mo'ljallangan vazifa beradi. O'xshash vaziyatlarni qo'shimcha yaratish, maxsus mashqlarning o'tkazilishi o'qituvchi

nutqini daktil qo'llanishsiz qabul qilish malakalarining yetarlicha tez rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, nutqiy eshitish-ko'rish idroki malakalarini rivojlantirish uchun didaktik o'yinlar ham keng qo'llaniladi. Nutqning eshituv-ko'ruv idrokini shakllantirish bo'yicha ishlar barcha qolgan darslarda, daktil nutqi darslarni kiritganda o'tkaziladi. Avval o'qituvchi bolalarga yangi materialni eshituv apparatlaridan foydalangan holda og'zaki daktilda taklif etadi, so'ng u daktilsiz amalga oshiriladi. Og'zaki, nutqiy eshituv-ko'ruv idroki tayyorlov sinfi kar bolalari uchun sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va ulardan katta diqqatni, e'tiborni talab etadi. Bu ishni tashkil etishda inobatga olinishi kerak. Nutqiy eshituv ko'rish orqali idrok etishga o'rgatish uchun maxsus vaqt ajratish (haftasiga ikki soat) maqsadga muvofiqdir. U og'zaki nutq darslaridan ajratiladi. Bu vaqt daktil nutqi darslari bo'yicha taqsimlangani ma'qul. Kombinatsiyalashgan darslarni o'tkazish, yarim dars daktil nutqiga o'rgatish, yarim dars - og'zaki nutqiy eshituv ko'ruv orqali idrok etishga o'rgatish yaxshi samara beradi. Bunday darslarning o'tkazilishi o'quvchilar ish qobiliyatini saqlash, ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. O'qituvchi uchun ushbu darslarni tashkil etish ham qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki mavzu, maqsad birligi saqlanadi. Darsning birinchi va ikkinchi qismi uchun material umumiy bo'lishi mumkin va farqlanishi faqatgina uning berish usuliga taalluqli bo'lishi mumkin. Avval og'zaki daktilda, so'ng o'qituvchining daktillashsiz o'quvchilarni og'zaki nutqiy eshituv - ko'ruv orqali idrok etish o'rgatishda, o'qituvchi so'zi yaxshi yoritilgan bo'lishi zarur. Noaniq artikulyatsiyaga yo'l qo'ymaslik kerak. Agar 2-3 marotaba qaytarilgandan so'ng o'quvchilar so'zni iborali idrok etmasa, o'qituvchi ularni mos daktillash bilan qaytaradi, so'ng yana bir marotabadan usiz qaytaradi. Nutqni ko'ruv-eshituv orqali idrok etishga o'rgatish yakka mashg'ulot soatlarida ham, ya'ni darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, tayyorlov sinflarida o'quvchilarni og'zaki nutqni eshituv-ko'ruv orqali idrok etishga o'rgatish butun o'quv - tarbiyaviy jarayon va maxsus ajratilgan vaqt mobaynida amalga oshiriladi. Butun nutqiy material dastlab o'qituvchi tomonidan

ovoz kuchaytirgich apparatlaridan foydalangan holda og'zaki daktilda, keyinchalik daktillashsiz beriladi.

Og'zaki nutqni mustaqil qo'llashga o'rgatish, yuqorida keltirilganidek, ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchi yo'l butun o'quv-tarbiyaviy jarayon davomida o'qituvchi nutqini eshitish va eshituv-ko'rish asosida idrok etish bilan amalga oshadi. Bu holatda talaffuz malakalarini shakllantirish maxsus o'qitish-larsiz informal tarzda amalga oshiriladi. Talaffuzga o'rgatish informal yo'li nutq harakat a'zolarini faollashtirishga xizmat qiladi, ba'zi talaffuz malakalarini egallashga zamin yaratadi. O'qituvchi bolalarni o'zining og'zaki nutqini eshituv-ko'rish asosida idrok etib unga taqlid qilishga undaydi, tasdiqlaydi, to'g'ri artikulyatsion harakatlarni qo'llaydi, noto'g'ri artikulyatsiyadan ogoh etadi. U o'z diqqatini nafaqat bolaning nutq tovushlari talaffuziga, balki ovoziga, nafasiga, nutqning bog'liqligiga qaratadi. Ushbu ishda katta yordamni ovoz kuchaytirgich apparatlari ko'rsatadi, ular o'quvchilarga o'qituvchi nutqini qabul qilish imkonini va individual mikrofonlarni qo'llash orqali o'zlarini eshitish imkonini beradi. O'qituvchi bilan birga yoki uning ortidan barcha materialni ko'rish eshitish orqali qabul qilib bolalarni gapirishga doimiy undash nafaqat ularning nutqiy apparatini faollashtiradi, balki ularda og'zaki nutqni qo'llashning doimiy malakasini ham tarbiyalaydi.

Biroq nutqning talaffuz tamoyilini shakllantirish uchun birgina informal yo'lning o'zi kifoya emas. Talaffuz malakalarini maxsus, rejali shakllantirish zarur. Ushbu ish og'zaki nutq darslarida, yakka mashg'ulotlarda, fonetik mashqlar davomida amalga oshiriladi va o'z ichiga tovushlarni, so'zlarni, iboralarni, normal ovoz va to'g'ri nutqiy nafasni ishlab chiqishni qamrab oladi. Talaffuzni shakllantirish nutqni ifodalashning aniqligini rivojlantirishda musiqiy-ritmik mashg'ulotlarga alohida ahamiyat beriladi.

Og'zaki nutq darslarining mazmuni nafaqat talaffuz ustidagi ishlarni, balki ushbu nutq shaklidan mulqotda foydalanishga o'rgatishni ham nazarda tutadi. O'qitish materiali og'zaki nutq dasturiga ko'ra ajratilgan hamda Rau va Slezina tomonidan ishlab

chiqilgan talaffuzni o'rgatishning konsentrik metodida ko'rsatilgan nutq tovushlarini ishlab chiqishning ma'lum izchilligini hisobga oladi.

Og'zaki nutq darslarida so'zning tovush tarkibi ustida ish olib boriladi. Shuning o'zida so'zning ma'nosi yoritiladi, bolalar uni talaffuz qilishni, muloqotda qo'llashni o'rganadi. So'zning talaffuzi ustidagi ish uning ma'nosi yoritib berilgandan so'nggina boshlanadi. Shu maqsadda og'zaki nutq darslarida daktil nutqiga o'rgatish metodik usullarda qo'llaniladi. Bu sharoitlarda kerakli so'z qo'llanilishi shart.

Aniq ahamiyatga ega so'zlarning ma'nosi turli ish turlarini qo'llash yo'li bilan ochiladi. Predmetning rasmini ko'rsatish, rasmni nomlash, so'zning grafik elementlariga ko'ra so'zni og'zaki shaklda ifoda etish (harf, bo'g'in, so'zlarni o'qish, harakatga ko'ra so'zni ifodalash). So'zni berish uslubiyati (metodikasi) quyidagicha.

O'qituvchi predmetni (rasmni) ko'rsatadi, uni og'zaki daktilda nomlaydi, o'quvchilarni birgalikda talaffuz etishga undaydi. Bolalar uni eshituv-ko'ruv orqali idrok etadi, og'zaki - daktilda ifodalaydi. So'ng har bir o'quvchiga so'zni mikrofon orqali talaffuz etish imkoni beriladi va o'qituvchi ishlab chiqilayotgan tovushning talaffuzini baholaydi. O'quvchilar so'zning tovush tarkibini o'zlashtirib olganidan so'ng ular so'zni daktillashsiz talaffuz etadi. Olingan talaffuz malakalari yakka mashg'ulotlarda mustahkamlanadi. Shuunday qilib, tovush talaffuzi ustidagi ishning boshlang'ich material uchun butun so'z xizmat qiladi. U avval butunligicha, so'ng qismlarga bo'lib talaffuz qilinadi. O'qituvchi bolalar diqqatini fonemalarni bo'g'inlarda va yakka talaffuz etishga qaratadi. Bunday analizdan so'ng so'zning sintez qismi ustida ish boshlanadi, ya'ni fonemalarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni so'zlarga bog'lash. Talaffuz ustida ishlashning bunday yo'li talaffuzga o'rgatishning analitiko-sintetik metodiga mos tushadi.

Og'zaki ekspressiv nutqqa o'rgatish qisqartirilgan fonemalar tizimida qabul qilingan tovushlarni qo'yish tartibiga ko'ra tanlangan materialda olib boriladi. Talaffuzga o'rgatishning

konsentrik metodi qisqartirilgan fonemalar tizimini qo'llashga asoslanadi. Talaffuzning barcha bo'limlari bo'yicha talablarning ortib borish izchilligini nazarda tutadi. Boshlang'ich o'qitish ikki konsentrdan iborat, ularning birinchisi tayyorlov sinfi bilan mos tushadi. Tayyorlov sinfida o'quvchilar asosiy 17 fonemaning aniq talaffuzini egallaydi: a, o, y, e, u, p, t, k, f, s, sh, x, v, m, n, l, p – va ikki jarangli tovushni: b, z. Ushbu tovushlardan tuzilgan so'zlarni bolalar aniq talaffuz etadi. Shu tovushlarning o'zi artikulyatsiya bo'yicha yaqinlarining o'rindoshi hisoblanadi, masalan, "s" tovushi "s'" - "z'" - "z'". Tovush ustidagi ish izchilligi dasturda keltirilgan, darslik betlarida o'z ifodasini topgan. Tayyorlov sinfining 4-choragiga kelib, kar o'quvchilar asosiy tovushlar talaffuzini egallaydi. Og'zaki nutq darslarining bu davrdagi materiali daktil nutqida egallangan ibora, so'zlar hisoblanadi. Bu esa 4-chorakka kelib darslarning nutqiy mazmuni ancha kengayishini anglatadi va bu bolalarga og'zaki nutqni muloqot quroli sifatida o'qitish ishlarining ancha jadal kechishiga imkon beradi. Bu davrda o'qituvchi talaffuzning ikki turlanishini ifodalovchi bolalar nutqini sinchkovlik bilan kuzatib borishi kerak. Birinchisi - 17 asosiy tovushni so'zlarda aniq talaffuz etish (og'zaki va daktil nutqi dasturidagi so'zlar), ikkinchisi - qisqartirilgan fonemalar tizimiga ko'ra, asosiylari bilan almashtiriladigan tovushlarni o'z ichiga oluvchi so'zlarni talaffuz etish. To'rtta chorakka qadar bolalar nutqida talaffuzning uchinchi turi ham mavjud bo'ladi. Hali egallanmagan asosiy fonemalar va tovushlar imkon darajasida talaffuz etiladi. Bu holatda kerakli tovush o'rnida o'quvchilar faqatgina artikulyatsiya elementini beradi yoki tovushni butkul tushurib qoldiradi, qisqartirilgan fonemalar tizimida keltirilmagan tovush bilan almashtiradi. Nutqning talaffuz tomoni ustidagi ish uslubiyatining kengaytirilgan tavsifi F.F.Rauning "Ustnaya rech gluxix" (M., 1973), o'quv qo'llanmasida berilgan. Talaffuzni shakllantirish va eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan yakka mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish masalalari T.R.Sokolovskayaning "Razvitiye sluxovogo vospriyatiya gluxix uchashixsya" (M., 1987) qo'llanmasida

yoritilgan. Bu masala bo'yicha o'quv-metodik adabiyotlarning mavjudligi uni kengaytirib ko'rmalikka imkon beradi.

Og'zaki nutq darslarida va yakka mashg'ulotlar soatlarida shakllangan talaffuz malakalari barcha o'quv-tarbiyaviy jarayon mobaynida takomillashib boradi. Shu maqsadda o'qituvchi bolalar bilan muloqotda og'zaki nutqiy material qo'llashga ishlatiladi. Hatto bolalar o'zlashtirilgan elementar so'zlar ham ("ana", "shu yerda") ular nutqiga kiritilishi lozim. Bundan tashqari og'zaki nutqning chegaralangan materialida shakllangan talaffuz malakalarini daktil nutqida egallangan so'z va iboralarga yoyish lozim. Karlarning og'zaki nutqini shakllantirish bo'yicha o'qituvchining maqsadga yo'naltirilgan sistematik ishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Shunday qilib, og'zaki nutqning talaffuz malakalarini shakllantirish o'zaro bog'langan ikki yo'l orqali amalga oshiriladi. Birinchisi – informl (maxsus o'qitishsiz) butun o'quv-tarbiyaviy jarayon mobaynida o'z o'rniga ega va barcha darslarning nutqiy materialida amalga oshiriladi. Ikkinchi yo'l fonetik tamoyilga ko'ra tanlangan materialda talaffuz malakalarini ravon ishlab chiqishni nazarda tutadi va yakka mashg'ulotlarga o'tkazish bilan og'zaki nutq darslarida amalga oshiriladi. Tovushlarni qo'yishda bolalarning barcha saqlangan analizatorlari mavjud eshituv qoldig'idan foydalaniladi.

Og'zaki nutq darsi faqat tayyorlov sinflarining o'quv rejasida mavjud. U birinchi sinflarda o'tkaziladigan nutq o'stirish darslaridan farq qiladi, farqlanishlar og'zaki nutqni shakllantirish vazifalaridan kelib chiqqan. Ushbu darslarda ish o'quvchilarda eshitadiganlarning asosiy muloqot quroli bo'lgan va kar o'quvchilarning egallashi ancha qiyin bo'lgan nutq shaklini shakllantirishdan boshlanadi. Og'zaki nutq darsining birinchi navbatdagi vazifasi kichik kar o'quvchilarda og'zaki nutq shaklini muloqot quroli sifatida shakllantirish hisoblanadi. Aynan shuning uchun dars mazmuni, uni tashkil etish, unda qo'llaniladigan mashqlar, vazifalar, masalalar, ish turlari ushbu masalani hal etishga yo'naltiriladi. Biroq og'zaki nutq darslari bolalar tomonidan so'zlarni, iboralarni, ularni muloqotda qo'llash

ko'nikmasidan tashqari, nutq tovushlari, talaffuzning turli tomonlari ustida maqsadga yo'naltirilgan ishni nazarda tutadi.

Shuningdek, nutq o'stirish darslarida talaffuzga o'rgatish ishlari o'tkaziladi (to'g'ri talaffuz mashqlari, uni korreksiyalash), ammo asosiy diqqat bunga emas, balki turli nutqiy malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Savollarga javoblar, hikoyalarni, rasmlarni turli tasvirlash, suhbat va boshqalar. Tayyorlov sinfi o'quvchilarining og'zaki nutq darslarida ish ko'p hollarda ovoz chiqarish, tovush qo'shishdan boshlanadi. Ilk tovushlar - a, o darhol so'zga kiritiladi. Ushbu tovushlar mavjud so'zni o'quvchilar ko'ruv-eshituv idrok etishga va og'zaki talaffuz etishga o'rganadi. Keyinchalik har bir yangi tovush bolalarga so'zlarda beriladi. Darsda so'z ma'nolari ochib chiqiladi (yuqorida keltirilgan ish turlarini qo'llab) va o'quvchilar uni talaffuz etishni o'rganadi. Shu maqsadda qayta ishlashni talab etuvchi tovushni ajratib olish bilan so'z analizi o'tkaziladi. O'quvchilar uni alohida talaffuz etishga, so'ng bo'g'inlarda, keyin yana butun so'z tarkibida talaffuz etishni mashq qiladi. Darsdagi keyingi barcha ishlar yangi so'zni anglab yetishga yo'naltiriladi (uning ma'nosi va talaffuzi uni nutqda qo'llash sharoitlariga ko'ra amalga oshiriladi). Og'zaki nutq darslarida og'zaki, yozma va daktil nutq shakllari qo'llaniladi, biroq daktil nutqi ushbu darslarda asosiy emas, balki yordamchi vosita hisoblanadi. U o'qituvchi tomonidan yangi so'zni ma'lum qilishda (agar u daktil nutqi darslarida ishlatilmagan bo'lsa). Shuningdek, o'quvchilar nutqiy materialni ko'ruv-eshituv orqali qabul qilishga qiynalganda qo'llaniladi. O'quvchilar daktil nutqini yangi so'zning tovush, harf tarkibini anglashda va uni talaffuz etishga qiyinchiliklarga duch kelganida qo'llaydi. Yozma nutq yangi so'zni ma'lum qilishda (odatda, tablichkadagi yozuvlarda) o'qishga asoslangan mashqlarda (so'zlarni, iboralarni o'qishda, so'zlardagi tushirib qoldirilgan harflarni to'ldirishda, so'z juftliklarini tanlashda va boshqalarda) qo'llaniladi. Biroq yozma nutqni qo'llashga ko'p kirishib ketmaslik kerak. S.A.Zikovning e'tirof etishicha, o'qish orqali talaffuzga o'rganuvchi bolalar artikulyatsion jihatdan juda kam tayyorlangan bo'ladi. Chunki ular so'zlaganda ko'z o'ngida yozilgan matn bo'lmaydi.

Ishning bunday usuli biz keltirgan tizimda, ayniqsa, maqsadga muvofiq emas. Bu jarayon keyinchalik nutq harakat analizatorini rivojlantirish bilan kechadigan qo'lning harakat analizatorini dastlabki qo'llash va rivojlantirish asosida namoyon bo'ladi. Og'zaki nutq darslarida qo'llaniladigan ish turlari orasidan so'zlarni o'qish emas, balki mustaqil ifoda etishga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda quyidagi ish turlari keng qo'llanilmoqda: predmetlarni, ularning modellarini, rasmlarni, ularni ko'rsatish bo'yicha harakatlarni namoyish etish, savollarga javoblar va boshqalar. Og'zaki nutq darslarida turli xil o'yinlar, og'zaki nutqiy muloqotda qo'llashni o'rgatish uchun sharoit yaratuvchi vaziyatlar qo'llaniladi. Daktil nutqiga o'rgatishda qo'llanilgan o'yinlar og'zaki nutq darslarida ham qo'llanilishi mumkin. Og'zaki nutq darslarida materialni qayta ishlashning umumiy sxemasi quyidagicha:

o'qituvchi so'zni ma'lum qilishi (mikrofonda, og'zaki daktilda, so'zli ifodani ko'rsatib);

o'quvchilar tomonidan so'zning ifodalanishi (og'zaki daktilda, og'zaki);

uning talaffuzini qayta ishlash (so'z, bug'in, tovush);

so'zlarni ifoda etishdagi mashqlar.

Daktil nutqining qo'llanilishi so'zning analizini, uning sintezini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun og'zaki nutq darslarida so'zni to'liq talaffuz etishga, alohida va so'z iboralarda qo'shib va ritmik talaffuzini ishlab chiqishga urg'u berish maqsadga muvofiqdir. Talaffuzga o'rgatish metodi analitik-sintetik, konsentrik deb nomlanishi mumkin. Ishning umumiy sxemasi og'zaki nutq darsining qurilishida o'z aksini topadi. Dars mavzusi dasturga ko'ra belgilanadi. Dars maqsadi uning vazifalariga ko'ra aniqlanadi. Yangi so'z bilan tanishtirish, tovushni so'zlarda talaffuz qilishni mashq qildirish va boshqalar. Darsni jihozlashda kerakli predmetlar kiritiladi: rasmlar, o'yinlar uchun jihozlar, so'zli ifodalar, "Talaffuz", "Nutq o'stirish", "Alifbe" darsliklari.

Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni

qo'llash bilan belgilanadi. Zero, hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonining asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashg'ulotlarni rag'batlantirish, qiziqarli tashkil etish bilan birga talabalarning fikrlashi doirasini, tafakkurini kengaytiradi, o'quv materialini chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi.

O
T

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
6. Grigoryans A.G. Tabiatshunoslikni o‘qitish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
7. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 2005.
8. Po‘latova X.M. Tabiatshunoslikni o‘qitish maxsus metodikasi. – Toshkent: Fan, 2006.
9. Sultonova D., Nurmuhamedova N. Tabiatshunoslikni o‘qitish maxsus metodikasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 2006.
10. Титова М.Ф. Изучение природы в 1-3 классах школ глухих. Москва: Просвещение, 1983.
11. Титова М.Ф. Изучение природы в коррекционных школах. Москва: Владос, 2003.
12. Haydarov Q., Nishonov S. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof tabiat bilan tanishtirish. Toshkent: Fan, 1992.
13. Клепанина З.А., Титова М.Ф. Природаведение. Учебник 3 класса. Москва: Владос, 2002.
14. Титова М.Ф. Природаведение. Учебник 3 класса. Москва: Владос, 2002.
15. Речицкая Е.Г. Развитие глухих школьников в процессе внеклассной работе. Москва: Просвещение, 1998.
16. Пикитин Б.П. Развивающие игры. Москва: Просвещение, 1981.
17. Sultonova D., Xamidova M. Tabiatshunoslik. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008.
18. Sultonova D., Xamidova M. Tabiatshunoslik. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

19. Sulstonova D., Mamarajabova Z. *Tabiatshunoslik. 5-sinf uchun darslik.* – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

20. Mamarajabova Z. *Ona tili o'qitish metodikasi.* Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008.

21. Sulstonova D., Xamidova M. *Tabiatshunoslik. 6-sinf uchun darslik.* – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

22. Fayziyeva U. Yu. *Surdapedagogika.* – Toshkent: Saop-standart, 2013.

23. Низамов А.К. *Взаимодействие школы, семьи и общественности в организации производительного труда старшеклассников (на материале сельских школ Узбекистана):* Дисс. ... канд.пед.наук. – Т.: 1990. – 184 с.

24. Nishonova S. *Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped. fan. dokt. ... diss.* - T.: 1998. - 289 b.

25. Nishonova S. *Komil inson tarbiyasi.* - T.: Istiqlol, 2003.- 224 b.

26. Нишоналиев У.Н. *Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы.* – Т.: Фан, -1990.- 85с.

27. Nurkeldiyeva D.A. *Aqli zaif bolalarning maktab metodlari asosida nutqiy tayyorgarligini aniqlash: Ped. fan. nomz. ... diss.* - T.: 2001. - 127 b.

28. Nurmuhamedova L.Sh. *Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari: Ped. fan. nomz. diss. ... avtoref.* - T.: 2005. - 26 b.

29. Пулатова П.М. *Коррекционно-педагогическая работа с газетным материалом в 5 классе вспомогательной школы на уроках внеклассного чтения: Автореф. дисс. ... канд.пед.наук.* – М.: 1993. - 18 с.

30. Po'latova P. *Maxsus pedagogika.* - T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi, 2005. - 223 b.

31. Рахмонова В.С. *Особенности обучения грамоте на родном языке учащихся узбекской вспомогательной школы: Автореф. дисс.... канд. пед. наук.* – М.: 1985. - 18 с.

32. Xamidova M.P. *Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar so'z boyligini oshirishning korreksion-pedagogik asoslari: Ped.fan.nomz. ... diss.* - T.: 2001. - 133 b.

33. Hakimova M.F., Raxmonova V.S. Maxsus maktab-internat (maktab) larda tarbiyaviy ishlarni uyushtirish va rejalashtirish. /Metodik tavsiyanoma. - T.: RTM. 1998.- 27 b.

34. Hakimova M.F. Maxsus maktablarda ta'lim-tarbiyaning pedagogik asoslari. /O'quv qo'llanma. - T.: Mehnat, 2000. -94 b.

35. Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. - Toshkent: TDPI. 1994. - 18 b.

36. Fayziyeva U.Yu. Nutq o'stirish. Oquv qo'llanma. - Toshkent: O'qituvchi, 2001. - 135 b.

37. Fayziyeva U. Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi. - Toshkent: Ilm ziyo, 2006. - 74 b.

38. Муминова Л.Р., Назарова Д. О готовности детей с проблемами слуха к школьному обучению. / Модернизация педагогического образования: проблемы и перспективы: Материалы международной научно-практической конференции. – Алматы. 2008. – С.10-12.

39. Munavvatov A.K. Oila pedagogikasi.- Toshkent: O'qituvchi, 1994.-112 b.

40. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: Istiqlol, 2006.- 299 b.

41. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. -Toshkent: Sano-Standart, 2004.- 147 b.

42. Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...- Toshkent:TDPU. 2006. - 20 b.

43. Nazarova D. Surdopedagog va ota-onalar hamkorligi // Boshlang'ich ta'lim. - Toshkent, 1999. - № 3. - B. 44-45.

44. Nazarova D. Maxsus pedagogika fanini o'qitishda ta'limning faol usullaridan foydalanish // A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI 70 yilligiga bag'ishlangan Axborotnomaning yubiley soni. - Toshkent, 2004. - B.90-92.

45. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent, 2007. - B. 60-63.

46. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni oilada maktab ta'limiga tayyorlash. Ota-onalar uchun metodik qo'llanma. - Toshkent: A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2007.- 36 b.

47. Nazarova D. Maxsus ta'lim tizimini takomillashtirishda Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarining tutgan o'rnini.// A.Avloniy tavalludining 130 yilligiga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2008. - B. 111-113.

48. Nazarova D. Farzandingiz eshitmasa...// Bola va zamon. - Toshkent, 2008 - № 2. - B.35-40.

49. Nazarova D. Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati. Mustaqil malaka oshiruvchi pedagoglar uchun metodik qo'llanma. - Toshkent: A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2009.- 30 b.

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. “Tabiatshunoslikni o‘qitish maxsus metodikasi” – pedagogik fan sifatida	6
1.1. “Tabiatshunoslikni o‘qitish maxsus metodikasi”ning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi	8
1.2. “Tabiatshunoslikni o‘qitish maxsus metodikasi”ning ilmiy asoslari	10
II bob. Tabiatshunoslikni o‘qitish maxsus metodikasining predmeti va vazifalari	11
III bob. O‘rta osiyoda tabiatshunoslik fanining rivojlanish tarixi	19
Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy	20
Imom at-Termiziy	21
Jayhoniy	21
Abu Nasr Farobiy	22
Abu Rayhon Beruniy	23
Abu Ali ibn Sino	25
Amir Temur	26
Ulug‘bek	28
Alisher Navoiy	28
Zahiriddin Muhammad Bobur	29
Abu Tohirxo‘ja	30
Sayid Muhammad Hasrat	31
IV bob. Aqli zaif o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda tabiatshunoslik fanining roli	34
4.1. Tabiatshunoslik metodikasida asosiy muammolar rivojlanishining qisqacha tarixi	34
4.2. Yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o‘qitishning ta’limiy ahamiyati	41
4.3. Tabiatshunoslikni o‘qitishning tarbiyaviy ahamiyati	42
V bob. Tarbiya elementlarining o‘zaro bog‘lanishi	45
5.1. Aqli zaif o‘quvchilarga ekologik ta’lim-tarbiya berishning korreksion ahamiyati	47

5.2. Yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'qitishning korreksion ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari	50
5.3. Yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'qitish	53
5.4. Yordamchi maktabda tabiatshunoslik kursining mazmuni, tamoyili va tizimi	54
VI bob. Tabiatshunoslikni o'qitish usullari va uslublari	58
6.1. Uslublar to'g'risida tushuncha va ularning tasnifi	58
6.2. Og'zaki metodlar	65
6.3. Ko'rgazmali metodlar	73
6.4. Tabiatshunoslikda o'quv ishlarini tashkil etish shakllari	88
6.5. Ta'lim -o'quv ishlarining tashkiliy shakllari	93
6.6. Sinf dan tashqari ishlar, sinf dan tashqari mashg'ulotlarning turlari	102
6.7. Aqli zaif o'quvchilar bilan darsdan tashqari ishlarni olib borish mazmuni	106
VII bob. Yordamchi maktabda tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligidagi ijtimoiy-foydali mehnat	111
7.1. Bo'lajak oligofrenopedagog o'qituvchilarga metodik tavsiyalar	116
7.2. Tabiatshunoslikni o'qitishning moddiy bazasi	117
7.3. Tabiatshunoslik xonasi	120
7.4. Tirik tabiat burchagi	120
7.5. O'quv-tajriba uchastkasi	121
VIII bob. Tabiatshunoslikni o'qitish maxsus metodikasining nazariy asoslari	124
8.1. Tabiatshunoslikning ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalari	124
8.2. "Tabiatshunoslik o'qitish maxsus metodikasi" fanining o'qitish tamoyillari	131
8.3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanining mazmuni	138
8.4. Tabiatshunoslik darslarida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish	144
Tabiatshunoslik darslarida so'zlashuv nutqi materialini tanlash va o'quvchilar nutqiga kiritish	152

8.5. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatshunoslik tushunchlarini shakllantirish	155
8.6. Tabiatshunoslikni o'qitishning moddiy bazasi	163
IX bob. Tabiatshunoslikni o'qitish metodlari	177
9.1. Tabiatshunoslikda o'qitish metodlarini qo'llashning o'ziga xosligi. Tabiatshunoslikni o'qitishning asosiy metodi sifatida – tajriba metodi, amaliy ishlar	177
X bob. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga tabiatshunoslikni o'qitishning ta'limiy shakllari	185
10.1. Dars – tabiatshunoslikni o'qitishning asosiy ta'limiy shakli sifatida	185
10.2. Ekskursiya darsi, uning eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning tabiatshunoslik fanini o'rganishdagi o'rni	199
10.3. Tabiatshunoslik ta'limini tashkil etishning ko'p qirrali shakli – sinfdan tashqari ishlar xususida	208
XI bob. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatshunoslikni o'qitishning metodik xususiyatlari	215
11.1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktab ta'limi 1–2-sinflarda «Atrofimizdagi olam» darslarini o'qitish metodikasi	215
11.2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktab ta'limi 3–4-sinflarida «Tabiatshunoslik» darslarini o'qitish metodikasi	219
11.3. Tabiatni kuzatish, kuzatishlarni umumlashtirish	222
11.4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktab ta'limi 5–6-sinflarda «Tabiatshunoslik» darslarini o'qitish metodikasi	224
11.5. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari	228
11.6. Tabiatshunoslik darslarida so'zlashuv nutqi materialini tanlash va o'quvchilar nutqiga kiritish	239
Foydalanilgan va tavsiya etilgan adabiyotlar	257

X.M. Pulatova, D.M. Sultanova, Z.N. Mamarajabova

TABIATSHUNOSLIKNI O‘QITISH MAXSUS METODIKASI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan 5111900 – Defektologiya yo‘nalishi ho‘yicha
darslik sifatida tavsiya etilgan*

«Sano-standart» – Toshkent, 2014

*Muharrir: A. Tilavov
Texnik muharrir: U. Saidov
Musahhih: S. Bozorova
Dizayner: U. Saidov*

Nash. lits. № AJ 245. 02.10.2013.

Terishga 04.08.2014-yilda berildi. Bosishga 30.10.2014-yilda ruxsat etildi.

Bichimi: 60x84^{1/16}. Ofset bosma. «Times» garniturasida. Shartli b.t. 14,25.

Nashr b.t. 16,5. Adadi 300 nusxa. Buyurtma №36.

Bahosi shartnoma asosida.

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MCHJ hoxmaxonasida basildi.

Toshkent shahri, Shiroq ko‘chasi, 100-uy.

Telefon: (371) 228-07-94, faks: (371) 228-07-95.